

MICS AND  
2023

LABOUR ECONOMICS AND  
HUMAN CAPITAL 2023

THE UNIVERSITY

TASHKENT STATE UNIVERSITY  
OF ECONOMICS



# MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

## ILMIY MAK TABI

# MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ilmiy elektron jurnali

## LABOUR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL

scientific electronic journal

**2023 yil, 2-son**

Volume 3, Issue 2, 2023



# МЕХНАТ ИКТИСОДИЙТИ ВА ИНСОН КАПИТАЛИ



**LABORECONOMICS.UZ**

**МЕХНАТ ИКТИСОДИЙТИ ВА ИНСОН КАПИТАЛИ**

**№ 2-2023**

**ЭКОНОМИКА ТРУДА И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ  
КАПИТАЛ**

**LABOR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL**

“Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy elektron jurnali O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 328/3-sonli qarori bilan ro’yxatga olingan.

**Muassis:** “Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy maktabi.

**Tahririyat manzili:**

100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko’chasi,  
49 uy

**Elektron manzil:** [ilmymaktab@gmail.com](mailto:ilmymaktab@gmail.com)

**Jurnal web-sayti:** [www.laboreconomics.uz](http://www.laboreconomics.uz)

**Bog’lanish uchun telefonlar:**

+998998818698

**Tahririyat Kengashi raisi:**  
**(Chairman of the Editorial Board)**

Abduraxmanov Qalandar Xodjayevich, O'zFA akademigi

**Tahririyat Kengashi a'zolari:**  
**(Members of the Editorial Board)**

Toshqulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof.  
 Yusupov Axmadbek Tadiyevich, i.f.d.. prof.  
 Sharipov Kongratboy Avezimbetovich, t.f.d., prof  
 Raifkov Kudratilla Mirsagatovich, i.f.d., prof  
 Xalmuradov Rustam Ibragimovich, i.f.d., prof  
 Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.  
 Nazarov Sharofiddin Xakimovich, i.f.d., prof.  
 Jumayev Nodir Xasiyatovich, i.f.d, prof.  
 Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof.  
 Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof.  
 Zokirova Nodira Kalandarovna, i.f.d.. prof.  
 Xudoibergaliyev Zayniddin Yavkachevich, i.f.d., prof.  
 Muxiddinov Erkin Madorbekovich, i.f.f.d., (PhD)  
 Xolmuxammedov Muhsinjon Murodullayevi, i.f.n., dots.  
 Amirov Lochinbek Fayzullayevich, i.f.f.d., (PhD), dots.  
 G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich, i.f.f.d., (PhD), dots.  
 Shakarov Zafar Gafarovich, i.f.f.d., (PhD)

**Jamoatchilik Kengashi a'zolari:**  
**(Community Council members)**

Bred Bodenxauzen (AQSh)  
 Jon Ankor (Buyuk Britaniya)  
 Odegov Yuriy Gennadevich (Rossiya Federasiyasi)  
 Xeynz Miller (AQSh)  
 Sung Dong Ki (Koreya Respublikasi)  
 Masato Xivatari (Yaponiya)  
 Gerxard Feldmayer (Germaniya)  
 Eko Shri Margianti (Indoneziya)  
 Ahmed Mohamed Aziz Ismoil (Misr)  
 Rohana Ngah (Malayziya)  
 Sharifah Zanniyerah (Malayziya)  
 Teguh Dartanto (Indoneziya)  
 Nur Azlinna (Saudiya Arabiston)  
 Muhammed Xoliq (Pokiston)  
 Alisher Dedaxonov (Toshkent)

**Mas'ul muxarrir (Editor-in-Chief):** G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich

**Veb-administrator (Web admin):** Musayev Xurshid Sharifjonovich



+99899 881-86-98



ilmiyaktab@gmail.com



Tashkent, Uzbekistan



[www.laboreconomics.uz](http://www.laboreconomics.uz)

**MUNDARIJA (CONTENTS)****MEHNAT BOZORI VA MEHNAT MUNOSABATLARI**

<b>Q.X.Abdurahmonov</b>	<i>Transformatsion iqtisodiyotda mehnat bozorini sun'iy intellekt vositasi asosida rivojlantirish.....</i>	5-19
<b>Z.G.Shakarov</b>	<i>Sun'iy intellektni inson kapitali va mehnat bozoriga ta'sirini ekonometrik baholash.....</i>	20-31
<b>S.B.G'oyipnazarov</b>	<i>Макроэкономические тенденции занятости населения Узбекистана.....</i>	32-49
<b>N.T.Shayusupova</b>	<i>Mehnat bozori va inklyuzivlik tushunchasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati.....</i>	50-64
<b>S.S.Amirdjanova</b>	<i>Обоснование перечня видов деятельности и профессий, востребованных в экологически ориентированной экономике.....</i>	65-73
<b>T.A.Mahmudov</b>	<i>Hududlar mehnat bozori ehtiyoji asosida kadrlar tayyorlash.....</i>	74-86
<b>N.A.Xodjayeva</b>		
<b>A.B.Xayitov</b>		
<b>D.X.Jumayeva</b>		

**INSON RESURSLARINI BOSHQARISH**

<b>G.Q.Abdurahmanova</b>	<i>Mahalliy davlat boshqaruvin organlarida inson resurslarini boshqarish.....</i>	87-102
<b>O.T.Astanakulov</b>	<i>O'zbekistonda mahalliy davlat hokimiyati organlariga kadrlarni jalb qilish va yollash tizimi.....</i>	103-117

**INSON KAPITALI**

<b>S.A.Bozorova</b>	<i>Kraufdanding platformasida ayollar inson kapitalini rivojlantirish yo'nalishlari.....</i>	118-131
<b>S.A.Gafurjanova</b>	<i>Развитие человеческого капитала как фактор снижения бедности.....</i>	132-140
<b>D.I.Iskandarova</b>	<i>Human capital development is the basis of society's development.....</i>	141-150

**INSON TARAQQIYOTI**

<b>Sh.U.Jo'rayeva</b>	<i>Yangi O'zbekistonda aholi turmush darajasining tahlili.....</i>	151-158
-----------------------	--	---------

**MIGRATSIIYA**

<b>B.A.Islamov</b>	<i>O'zbekistonda mehnat migratsiyasi jarayonlarini raqamlashtirishning yangi imkoniyatlari.....</i>	159-174
<b>S.S.Gaziyeva</b>		
<b>K.A.Gulmurodov</b>	<i>Tashqi mehnat migratsiyasiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili.....</i>	175-190

## TADBIRLIKNI RIVOJLANTIRISH

Z.M.Jabborova

Jizzax viloyatida kichik biznes va tadbirkorlik sohasida aholi ish bilan bandligini ta'minlash hamda investitsiyalar samaradorligini oshirish yo'llari..... 191-199

## MUNOSIB MEHNAT

S.P.Qurbanov

Xalqaro mehnat bozorida unumli bandlik va bandlik tarkibidagi qiyosiy xususiyatlar..... 200-212

F.A.Doniyorova

Iqtisodiy o'sish barqarorligini ta'minlashda aholini ish bilan bandlik darajasini oshirish..... 213-225

N.R.Saidov

Aholini ish bilan bandlik va ishsizlik holati tahlili..... 226-232



# МЕHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

<https://laboreconomics.uz/>



## TRANSFORMATSION IQTISODIYOTDA MEHNAT BOZORINI SUN'YIY INTELLEKT VOSITASI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

**Abdurahmonov Qalanadar Xo'jayevich**

O'zFA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
e-mail: [kabdurakhmanov@yandex.ru](mailto:kabdurakhmanov@yandex.ru)

**Shakarov Zafar Gafforovich**

Iqtisod fanlari falsafa doktori, PhD.  
e-mail: [zafarshakarov@mail.ru](mailto:zafarshakarov@mail.ru)

**DOI:** <https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2 iss1/a16>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada asosiy e'tibor sun'iy intellektning mehnat bozorida qanday ahamiyatga ega ekanligiga hamda uning ta'sir etish doirasiga qartiladi. Bunda mualif tomonidan sun'iy intellektning iqtisodiyotdagi bir necha tarmoqlar va kasblarga ta'sir qilish qobiliyati, ish o'rinalarini avtomatlashtirish hisobiga undagi vazifalarni takomillashtirish va kengaytirish hamda sun'iy intellektning ish haqi va mehnat unumдорligiga ijobiy yoki salbiy ta'siri kabi xususiyatlari bayon etiladi.

**Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, mehnat bozori, ish o'rinalarini avtomatlashtirish, kognitiv qobiliyat.

## РАЗВИТИЕ РЫНКА ТРУДА В ТРАНСФОРМАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКЕ НА ОСНОВЕ ИНСТРУМЕНТА ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

**Абдурахманов Каланадар Ходжаевич**

Академик АНУз, доктор экономических наук, профессор

e-mail: [kabdurakhmanov@yandex.ru](mailto:kabdurakhmanov@yandex.ru)

**PhD, Шакаров Зафар Гаффорович**

e-mail: [zafarshakarov@mail.ru](mailto:zafarshakarov@mail.ru)

**Аннотация.** В этой статье основное внимание уделяется важности искусственного интеллекта на рынке труда и его влиянию. Автор описывает такие особенности, как способность искусственного интеллекта влиять на несколько отраслей и профессий в экономике, улучшение и расширение задач за счет автоматизации рабочих мест, а также положительное или отрицательное влияние искусственного интеллекта на заработную плату и производительность труда.

**Ключевые слова:** искусственный интеллект, рынок труда, автоматизация труда, когнитивные способности.

**DEVELOPMENT OF THE LABOR MARKET IN THE TRANSFORMATION  
ECONOMY BASED ON THE TOOL OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE**

**Abdurakhmanov Kalanadar Khodjaevich**

Academician of the ASUz, Doctor of Economics, Professor

e-mail: [kabdurakhmanov@yandex.ru](mailto:kabdurakhmanov@yandex.ru)

PhD, Shakarov Zafar Gafforovich

**Abstract.** This article focuses on the importance of artificial intelligence in the labor market and its impact. The author describes the ability of artificial intelligence to affect several sectors and professions in the economy, the improvement and expansion of tasks due to automation of jobs, and the positive or negative impact of artificial intelligence on wages and labor productivity.

**Keywords:** artificial intelligence, labor market, job automation, cognitive ability.

**Kirish**

O'zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlar, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimining jadal raqamlı rivojlanishini ta'minlash, shu jumladan elektron davlat xizmatlarini ko'rsatish mexanizmlarini yanada takomillashtirish maqsadida "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, unda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning turli sohalarida axborot tizimlari, elektron xizmatlar va boshqa dasturiy mahsulotlar joriy etish, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, korxonalarda boshqaruv, ishlab chiqarish va logistika jarayonlarini avtomatlashtirish, raqamli ta'limni rivojlantirish, barcha tuman va shaharlarda raqamli texnologiyalar o'quv markazlarini tashkil etish vazifalari belgilangan[1].

Shuningdek elektron davlat xizmatlari ulushini 60 foizgacha yetkazish, raqamli iqtisodiyotning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini 2 baravarga ko'paytirish, aholiga davlat ijtimoiy xizmatlari va yordam taqdim etish tartib-taomillarini avtomatlashtirish rejalanigan. Shu jumladan, sun'iy intellekt va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanilgan holda "Aqli shahar", "Aqli maktab" dasturi, "Xavfsiz shahar", "Raqamli Toshkent" loyihalari amalga oshirilmoqda.

Biz turmush kechirishimiz, ishlashimiz, o'zaro muloqot qilishimizni tub jihatdan o'zgartirayotgan raqamli iqtisodiyot inqilobining ostonasidamiz. O'zgarishlar axborot-kommunikatsiya texnologiyalar (AKT) sohasi ichkarisida ro'y bermoqda, yangi, katta imkoniyatlar yaratayotgan raqamli texnologiyalar paydo bo'lishi natijasida ular tashqi dunyoga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda.

Ana shulardan biri sun'iy intellektdir. Bu faqat boshlanishi, sun'iy intellektni qamrab oladigan texnologiyalar o'zining inson qobiliyatini o'rtasidagi farqni kamaytirmoqda, tenglashtirmoqda, ayrim holatlarda esa turli sohalada undan o'zib keta boshladi. Kompyuter tizimlari tobora kengroq va aniqroq natijalarga erishib, insonning oddiy qobiliyatidan ancha kattaroq ko'lamlarni qamrab olmoqda. So'zni aniqlash tizimlari tilni telefon qo'ng'iroqlari orqali inson qobiliyatiga teng bo'lgan ravishda bilib oladi. sun'iy intellekt asosida

ta'lim, sog'liqni saqlash, moliya, energetika, transport, logistika va boshqa sohalarda 2030-yilgacha bo'lgan Barqaror rivojlanish kun tartibi vazifalarini hal etishni tezlashtirish imkoniyatini yaratmoqda.

Sun'iy intellekt texnologiyalarini sanoatga keng joriy qilish hamma joyda faqat sanoat ishlab chiqish jarayonlarinigina emas, shuningdek mehnat bozori holatini ham jiddiy o'zgartiradi. Ekspertlarning hisoblashicha 2022-yilda robotlashtirish natijasida 75 million ish joyi qisqartirilgan, ammo ayni paytda 133 millionta yangi ish joylari yaratilgan.

O'zbekistonda sun'iy intellektni joriy qilishda yetakchilik qilayotgan tarmoqlar - avtomobilsozlik, telekommunikatsiya transport va logistika, moliyaviy xizmatlar, iste'mol mollari, chakana savdo va sog'liqni saqlashda yuqori texnologiyalardan samarali foydalanishmoqda [2].

Sun'iy intellekt taraqqiy etib borarkan, biz duch kelayotgan vazifalardan biri uning imkoniyatlaridan keng va adolatli foydalanishni ta'minlash hisoblanadi [3].

Sun'iy intellekt sohasida keyingi tadqiqotlar ayrim mutaxassislarda avtomatlashtirish natijasida ish joylari qisqarishi ehtimoli yuzasidan shubhalar paydo qilganligi ma'lum. Shu nuqtai nazardan, ushbu maqola muallifi ilmiy xulosalar, aniq hisob-kitoblar orqali bunday tashvishlar behuda ekanligi, sun'iy intellekt nafaqat qo'l mehnatini kamaytirishi, balki inson imkoniyatlarini yanada kengaytirishi, yangi sohalarda qo'shimcha yuqori samarali ish joylari tashkil etishi, mehnat unumдорligi ortishiga doir asosli ma'lumotlarni keltirgan.

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Nº	Maqola nomi	Annotatsiya	Mamlakat	Asosiy topilmalar
1	Sun'iy intellekt ta'sirida mehnat bozoridagi tarkibiy o'zgarishlar: nazariy va empirik tahlil. Daryna Rozum, Grazhevska, V.Virchenko. Avtomatlashtirish, boshqarish va axborot texnologiyalari, 2020	Jahon iqtisodiy sharoitida mehnat bozorida sun'iy intellekt texnologiyalari.	-	<ul style="list-style-type: none"> <li>Nazariy va empirik tahlillar sun'iy intellekt texnologiyalarining sanoat sektoridagi bandlikka salbiy ta'sirini ko'rsatadi.</li> <li>Iqtisodiy faoliyatning barcha sohalarida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish mehnat bozorida tarkibiy o'zgarishlarni keltirib chiqarishi mumkin[4].</li> </ul>
2	Sun'iy intellektning mehnat bozoriga ta'siri. Marguyerita Leyn, Ann Sen-Martin. 2021-yil, 5-iqtibos	SI ish va malaka ehtiyojlarini o'zgartiradi.	-	<ul style="list-style-type: none"> <li>Sun'iy intellekt (SI) mehnat bozoriga, jumladan, bandlik va ish haqi, ish o'rinalarini o'zgartirish va ish muhitiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.           <ul style="list-style-type: none"> <li>Sun'iy intellekt ish o'rinalini almashtirish va yangi ish o'rinalarini yaratishga olib kelishi mumkin[5].</li> </ul> </li> </ul>
3	Sun'iy intellektning asosiy va ikkilamchi sanoatdagi ishchi kuchiga ta'siri S. Vang, V. Vang. Moliyaviy innovatsiyalar va iqtisodiy rivojlanish bo'yicha, 2022. 7-xalqaro konferensiya materiallari	Yangi asrdan boshlab SI hayotimizga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.	-	<ul style="list-style-type: none"> <li>Sun'iy intellekt asosiy va ikkilamchi sanoatdagi ishchi kuchiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.</li> <li>SI mehnat bozoriga ham afzalliklari, ham kamchiliklarini, jumladan, ish joyini almashtirish va cheklowlarni olib keldi.</li> <li>Har ikkisidan ham maksimal foyda olish uchun ishchilar sun'iy intellekt bilan uyg'unlikda yashashlari muhim[6].</li> </ul>

**“Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy elektron jurnali, 2023-yil № 2**

4	Sun'iy intellektning fazoviy modeli va uning Xitoyda mehnat bozoriga ta'siri, Lingyue Tian, D. Sui. Fizika jurnali: Konferensiya seriyasi, 2020	Xitoy provinsiyalarida mintaqaviy sun'iy intellektning mutanosib rivojlanishiga ko'maklashish sun'iy intellektning salbiy ta'sirini yumshatadi.	Xitoy	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Xitoy provinsiyalarida sun'iy intellektning rivojlanish darajasiga sezilarli darajada ijobiy fazoviy bog'liqlik mavjud.</li> <li>• Sun'iy intellektning rivojlanishi Xitoy mehnat bozorida bandlikning qutblanishiga olib keladi[7].</li> </ul>
5	Sun'iy intellekt: avtomatlashtirilgan bashoratning mehnat bozoriga noaniq ta'siri. Agraval, J. Gans, Avi Goldfarb. 2019 158-iqtibos	Sun'iy intellektdagи so'nggi yutuqlar birinchi navbatda mashinani o'rganish bilan bog'liq.	-	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Sun'iy intellekt, birinchi navbatda, bashorat qilish texnologiyasi bo'lgan mashinani o'rganishga asoslangan.</li> <li>• Bashorat qilishni avtomatlashtirish qarorlarni avtomatlashtirishga yoki odamlar tomonidan qaror qabul qilishni kuchaytirishga olib kelishi mumkin[8].</li> </ul>
6	Sun'iy intellektning mehnat bozoriga ta'siri Maykl Uebb, Ijtimoiy fanlar tadqiqot tarmog'i. 2019. 149-iqtibos	SI 90:10 ish haqi tengsizligini kamaytiradi.	-	<ul style="list-style-type: none"> <li>• SI yuqori malakali vazifalarga yonaltirilgan va ish haqi tengsizligini 90:10 kamaytirishi mumkin.</li> <li>• SI ish haqi oluvchilarning eng yuqori 1% qismiga ta'sir qilishi dargumon.</li> <li>• Sun'iy intellekt dasturiy ta'minot va sanoat robotlari kabi bandlik va ish haqiga o'xshash ta'sir ko'rsatadi [9].</li> </ul>
7	Sun'iy intellektning Xitoy mehnat bozoriga ta'siri. Guangsu Chjou, Gaosi Chu, Lixing Li, Lingsheng Meng. Xitoy iqtisodiy jurnali, 2020. 24-iqtibos	SI Xitoyda turli xil xususiyatlarga ega bo'lgan ishchi kuchiga ko'proq o'rribosar ta'sir ko'rsatadi.	Xitoy	<ul style="list-style-type: none"> <li>• SI ayollar, qarilik, past ma'lumot va kam daromadilarning mehnatiga ko'proq o'rribosar ta'sir ko'rsatadi.</li> <li>• SI Xitoyda 2049-yilga kelib 278 million ishchi o'rnini egallashi taxmin qilinmoqda, bu Xitoydagи joriy bandlikning 35,8 foizini tashkil qiladi[10].</li> </ul>
8	Sun'iy intellektning kasbiy ta'siri: mehnat, ko'nikmalar va qutblanish Ye. Felten, Manav Raj, Robert C. Seamans 2019 30 ta iqtiboslar	SI mehnat bozorining qutblanishini kuchaytirishi mumkin.	-	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Sun'iy intellekt ta'siriga uchragan kasblar ish haqining kichik, ammo ijobiy o'zgarishini boshdan kechiradi, lekin bandlik o'zgarmaydi.</li> <li>• Ish haqi bilan ijobiy bog'liqlik, birinchi navbatda, dasturiy ta'minot bo'yicha yuqori talablarga ega bo'lgan kasblar bilan bog'liq[11].</li> </ul>
9	Optik belgilarni tanib olish sun'iy intellektning mehnat bozoriga ta'siri Zsofia Riczu, Zsolt Krutilla. Xalqaro muhandislik, menejment va fanlar jurnali, 2021 yil	Sun'iy intellekt individual mehnat qonunchiligi munosabatlarini tubdan shubha ostiga qo'yishi mumkin.	-	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Axborot texnologiyalari tez o'zgarib bormoqda, bu foydalanuvchilarning raqamli moslashuvini va mehnat bozori yechimlarini talab qiladi.</li> <li>• Sun'iy intellekt tirik ishchi kuchini qisqartirishi va yangi xodimlarning malakasini oshirishi mumkin[12].</li> </ul>
10	Sun'iy intellektning mehnatga ta'siri M. Frank, Devid Avtor, Jeyms Bessen, Ye.Brynjolfsson, M.Sebrian, D. Deming, M.Feldman, Metyu Groh, Amerika Qo'shma Shtatlari Milliy Fanlar Akademiyasi materiallari 2019, 254 iqtiboslar	SI va avtomatlashtirish ba'zi ishchilarning mahsulдорligini oshirishi mumkin.	AQSh	<ul style="list-style-type: none"> <li>• SI va avtomatlashtirish mehnat bozorlarini sezilarli darajada buzish salohiyatiga ega.</li> <li>• SI va avtomatlashtirishning ish kelajagiga ta'sirini o'lchashda to'siqlar mavjud, jumladan ma'lumotlarning yetishmasligi va kognitiv texnologiyalarni tushunish[13].</li> </ul>

**“Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy elektron jurnali, 2023-yil № 2**

11	Sun'iy intellektning Rossiyadagi mehnat bozoriga ta'siri M.A. Ismoil журнал правовых и экономических исследований, 2019	Ushbu jarayonlar - bu yaxshi ma'lumotli va yuqori moslashuvchan odamlar uchun imkoniyatlarning keskin o'sishini izohlaydi.	Rossiya	<ul style="list-style-type: none"> <li>Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish kuchaymoqda, bu mehnat resurslarining bo'shatilishiga va texnologik ishsizlikning oshishiga olib keladi.</li> <li>Inson kapitaliga yuqori talablar tufayli uzlucksiz ta'lim va o'z-o'zini faollashtirishga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda[14].</li> </ul>
12	Sun'iy intellekt va iqtisodiy o'sish P. Aghion, Benjamin F.Jones, CI Jones 2017-yil, 256 Iqtibos	Sun'iy intellekt ilgari yerishib bo'lmaydigan deb hisoblangan ko'plab vazifalarni avtomatlashtirishga tayyor.	-	• SI avtomobilarni haydashdan tortib, tibbiy tavsiyalar berishgacha bo'lgan ko'plab vazifalarni avtomatlashtirish imkoniyatiga ega va iqtisodiy o'sishga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin[15].
13	Sun'iy intellektning Chexiyadagi mehnat bozoriga ta'sirini modellashtirish M. Fatun, M. Pazour Markaziy Yevropa davlat siyosati jurnali 2021 yil, 2 Iqtibos	SI 30 yillik ufqdag'i mavjud kasblarning aksariyatida imkoniyatlarning 50% dan ortig'ini almashtirishi mumkin.	Chexiya	<ul style="list-style-type: none"> <li>SI 5 yil ichida 11% kasbda talab qilinadigan imkoniyatlarning 50% dan ortig'ini almashtira oladi.</li> <li>Sun'iy intellekt 30 yil ichida mavjud kasblarning katta qismidagi imkoniyatlarning 50% dan ortig'ini almashtira oladi[16].</li> </ul>
14	Sun'iy intellekt, avtomatlashtirish va ish D. Acemoglu, P. Restrepo 2018 489 iqtiboslar	Avtomatlashtirish har bir ishchiga to'g'ri keladigan ishlab chiqarishni ish haqiga nisbatan ko'proq oshiradi va milliy daromaddagi mehnat ulushini kamaytiradi.	-	• Avtomatlashtirish va sun'iy intellekt mehnat va ish haqiga bo'lgan talabni kamaytirishi mumkin, ammo bu o'zgartirish effekti unumдорлик effekti, kapital to'planishi va avtomatlashtirishni chuqurlashtirish bilan bartaraf etiladi[17].
15	Sun'iy intellektning Xitoy mehnat qonunchiligiga ta'siri Yu-jia Chjan 2020, 1 Iqtibos	Sun'iy intellekt texnologiyasi kelajakdagi ijtimoiy sahnaga xizmat qilishi mumkin.	Xitoy	<ul style="list-style-type: none"> <li>Sun'iy intellektning bandlikka ta'siri avvalgi texnologik inqiloblar qonunlariga amal qiladi, bunda bandlikni almashtirish va ish o'rinalarini yaratish.</li> <li>Haddan tashqari murakkab mehnat qonunlari va yuqori mehnat xarajatlari mashinalarni almashtirishni tezlashtirishidir[18].</li> </ul>
16	Sun'iy intellektning innovatsiyalarga ta'siri I. Kokbern, R. Kenderson, Skott Stern, 2018. 227 Iqtibos		-	<ul style="list-style-type: none"> <li>Sun'iy intellekt innovatsion jarayonning tabiatini va ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etishni o'zgartirishi mumkin bo'lgan yangi umumiyy maqsadli "ixtiro qilish usuli" bo'lib xizmat qilish imkoniyatiga ega.</li> <li>2009-yildan beri amaliy yo'naltirilgan ta'lim tadqiqotlarining ahamiyatida o'zgarish "yuz berdi[19].</li> </ul>
17	Sun'iy intellektning korxonalariga ta'siri: tadqiqot, innovatsiyalar, bozorni qo'llashda biznes modellarining kelajakdagi siljishi. N.Soni, Ye. Sharma, Narotam Singx, A. Kapur. 2019, 33 Iqtibos	SI biznes muhitini shakllantiradi.	-	<ul style="list-style-type: none"> <li>SIning biznes jarayonlariga integratsiyasi, bu esa biznes modellarining o'zgarishiga olib keladi.</li> <li>SIning biznesga umumiyy ta'sirini o'rganish uchun uch o'lchovli tadqiqot modeli ishlab chiqilgan[20].</li> </ul>

**“Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy elektron jurnali, 2023-yil № 2**

18	Sun'iy intellektning iqtisodiyotga ta'siri haqida Vayn K. Solos, Joyel Leonard Ilmiy tushunchalar 2022. Tizimli ko'rib chiqish. 6 Iqtibos	Sun'iy intellektning jadal rivojlanishi jahon iqtisodiyotiga keskin ta'sir ko'rsatadi.	-	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Sun'iy intellekt global iqtisodiyotga keskin ta'sir ko'rsatadi, samaradorlik va iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi.</li> <li>• SI mehnat bandligiga ta'sir qiladi, bu esa ish joyini almashtirishga olib keladi.</li> <li>• SI daromadlar tengsizligini oshirishi mumkin, bu esa mumkin bo'lgan salbiy ta'sirlarni kamaytirish uchun davlat siyosatini talab qiladi[21].</li> </ul>
19	Sun'iy intellektning mahsuldarlik va mehnatga bo'lgan talabga ta'sirini miqdoriy aniqlash: AQSh aholini ro'yxatga olish mikrodata dalillari.  Din Alderuchchi, Li G.Branstetter, Ye. Xovi, Yendryu Runge, Mariya Riskina, Nik Zolas, 2019. 16 Iqtibos	SI bilan bog'liq innovatsiyalar inson kapitali o'sishi bilan ijobiy bog'liq.	AQSh	<ul style="list-style-type: none"> <li>• SI bilan bog'liq ixtiolaril ilgari o'ylanganidan ko'ra kengroqdir.</li> <li>• SI bilan bog'liq innovatsiyalar tezroq bandlik va daromad o'sishi bilan bog'liq.</li> <li>• SI bilan bog'liq innovatsiyalar har bir ishchiga to'g'ri keladigan ishlab chiqarish hajmini oshiradi va kompaniya ish haqi tengsizligini oshiradi[22].</li> </ul>
20	Avtomatlashtirish va sun'iy intellekt tufayli mehnat va inson resurslari muammolari va o'zgarishlarining turli istiqbollari  Jessica Bayon Peres, Andrés J. Arenas Falotico, 2019. 7 Iqtibos	Barcha axborot texnologiyalari yutuqlari va robototexnika innovatsiyalari tufayli turli sohalarda sezilarli o'zgarishlarga duchor bo'lgan ish o'rinnari soni kelgusi o'n yilliklarda ortadi.	-	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Texnologik o'zgarishlar va uning ishchi kuchiga ta'siri kelgusi yillarda korporativ madaniyat, qonunlar va ishchilarni o'zgartirishi mumkin bo'lgan domino effektini keltirib chiqarmoqda.</li> <li>• Sun'iy intellekt kompaniyalar uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda va butun dunyo bo'ylab shaharlar o'rtasida nizolarni keltirib chiqarishi mumkin[23].</li> </ul>
21	Robotlarga qarshi poyga va yirik pishloq kekinining xatosi: sun'iy intellektning bevosita va tasavvur qilingan ta'siri V. Naude Ijtimoiy fanlar tadqiqot tarmog'i 2019, 15 Iqtibos	SI global ta'sirlarni kengaytiradi.	-	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Sun'iy intellekt yaqin kelajakda katta ish o'rinnarini yoqotishga olib kelishi dargumon.</li> <li>• Sun'iy intellekt yangi ish o'rinnarini yaratishi mumkin va super-zakovat ixtirosidir[24].</li> </ul>
22	Sun'iy intellektning bandlikka ta'siri Yong-Chen Chen, Duo Xu 2018, 35 Iqtibos	Sun'iy intellekt kelgusi 20 yil ichida bandlikka ta'sir qiladi.	Xitoy	<ul style="list-style-type: none"> <li>• SI inqilobi ishsizlik darajasini oshirish imkoniyatiga ega.</li> <li>• Kelgusi 20 yil ichida Xitoyda jami bandlikning 76,76 foiziga sun'iy intellekt ta'sir qilishi taxmin qilinmoqda.</li> <li>• Yo'qotilganlar o'rnini bosadigan yangi ish o'rinnarini yaratish uchun texnologik taraqqiyotdir[25].</li> </ul>
23	Sun'iy intellektning iqtisodiy ta'siri M. Szcepanski 2019 5 Iqtibos	SI kengroq iqtisodiyotga zararli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan super firmalarning paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin.	-	<ul style="list-style-type: none"> <li>• SI super firmalar yaratilishiga olib kelishi, bu esa kengroq iqtisodiyotga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.</li> <li>• Sun'iy intellekt rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtaсидagi tafovutni kengaytirishi va ma'lum ko'nikmalarga ega bo'lgan ishchilarga bo'lgan ehtiyojni oshiradi[26].</li> </ul>

**“Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy elektron jurnali, 2023-yil № 2**

24	4-Sanoat inqilobiga sun'iy intellekt va raqamli iqtisodiyotning ta'siri: Doktor Mohammed Masum Iqbol, NM Zayed Amerika moliya va bank sharhi, 2021-yil, 2 Iqtibos	Sun'iy intellekt mehnat bozoriga ham ijobji, ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.	Bangladesh	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Sun'iy intellekt mehnat bozoriga ham ijobji, ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.           <ul style="list-style-type: none"> <li>• Bangladeshda raqamli iqtisodiyot sun'iy intellekt ne'matlari bilan paydo bo'layotgan muammodir.</li> <li>• Sun'iy intellektga oid raqamli iqtisodiyot va sanoat inqilobi o'rtaqidagi tafovutni boshqarish[27].</li> </ul> </li> </ul>
25	Jamiyatni axborotlashtirishning mehnat bozoriga ta'siri Oleksandr Yashchik, V. Shevchenko, V. Kiptenko, O. Razumova, I. Xilchevska, M. Yermolaiyeva Postmodern ochilishlar	Jamiyatni raqamlashtirish raqamli mehnat bozorini yaratishga yordam beradi.	-	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Jamiyatni axborotlashtirish mehnat sharoitlari, tabiatи va shakllarini o'zgartirib, harakatchanlikni oshirish va ish vaqtini optimallashtirishga olib keladi.</li> <li>• Texnologiyaning tarqalishi ishga qabul qilish va ish qidirish jarayonlari samaradorligini oshiradi[28].</li> </ul>
26	Sun'iy intellektning Bahrayn mehnat bozoridagi salohiyati Ahmad Ali, Sara Iso Zowayed, Dana Anvar Showaiter, M. Xder, Bazel Ali 2022 ASU Barqarorlik va aqlli tizimlar uchun rivojlanayotgan texnologiyalar bo'yicha xalqaro konferensiya, 2022	SI har bir sohada salohiyat SIni aniqlash uchun ishlatalishi mumkin	Bahrayn	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Bahrayn mintaqada tadbirkorlik va IT startaplarini rivojlantirish uchun ko'plab faol inkubatorlar va akseleratorlarni yaratdi.</li> <li>• So'nggi yillarda sun'iy intellektni rivojlantirish rivojlangan va Bahrayn mehnat bozorida SI salohiyatini baholash uchun model yaratilgan[29].</li> </ul>
27	Sun'iy intellektning rivojlanishi va mehnat siyosatiga javob Xiaodiye Pan, Hongsen Zhong IOP konferensiyasi: Materialshunoslik va muhandislik 2020	Zamonaviy sun'iy intellektning jadal rivojlanishi fantexnika sohasidan asta-sekin keng jamoatchilik hayotiga tarqalmoqda.	-	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Sun'iy intellektning rivojlanishi iqtisodiy jamiyat va mehnat munosabatlariiga katta ta'sir ko'rsatmoqda.</li> <li>• Mehnat siyosati bozor ehtiyojlariga moslashishi va sun'iy intellekt tufayli mehnat munosabatlariagi o'zgarishlarni oldindan ko'rishi kerak[30].</li> </ul>
28	SI va iqtisodiyot Jeysen Furman, Robert C. Seamans Innovatsion siyosat va iqtisodiyot 2018, 188 Iqtibos	Sun'iy intellekt va robototexnika samaradorlikni oshirish imkoniyatiga ega.	-	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Dalillar shuni ko'rsatadiki, SI iqtisodiyotga katta ta'sir ko'rsatmoqda, buni robototexnika jo'natmalarida, SI startaplarida va patentlar sonida ko'rish mumkin.</li> <li>• Sun'iy intellekt va robototexnika samaradorlikni oshirish salohiyatiga ega[31].</li> </ul>

Ushbu tadqiqotlar sun'iy intellekt va kasbning (jumladan, keyingi yillarda talab eng katta bo'lgan sun'iy intellekt sohalarida) ish haqi bilan muayyan darajada ijobji aloqadorligini, ammo ish bilan bandlikda past aloqadorlikni ko'rsatdi. Ijobiy munosabat asosan dasturiy mahsulotlar sohasida chuqr bilimni talab qiladigan va katta daromad oladigan kasblar bilan bog'liqdir.

So'nggi tadqiqotlarida sun'iy intellekt sohasida yutuqlar ishning barqarorligi bilan bog'liqligi (bu odam ishsiz bo'lib qolishi yoki yangi kasbda boshqa ishga o'tishidan dalolat beradi) va umuman ish haqi ortishiga olib kelishi ko'rsatilgan. Ular bu natijani sun'iy intellekt ko'p jihatdan inson

mehnatini to’ldirishi natijasi sifatida talqin etishadi. Ta’lim darajasi yuqori bo’lgan va tajribasi katta bo’lganlarda (buni yosh ko’rsatib turadi) samara yanada yuqoriroq bo’ladi. Bunda o’z mehnatlariga qo’shimcha sifatida va mehnat unumdarligini oshirishda sun’iy intellektga qaraganda bunga ko’proq qodirlar. Aksincha, mualliflar kompyuterlashtirishga qaratilgan choralar ish barqarorligi pastligi va uning ortishi bilan bog’liqligini aniqlashgan.

Tahlilchilarning sun’iy intellektni joriy etish to’g’risidagi tadqiqotlari u ham o’rnini bosishi, ham qo’shimcha samaralarni keltirishi mumkinligini tasdiqlaydi. Sun’iy intellekt sohasida yaratiladigan ish joylari agar sun’iy intellekt boshqa barcha tarmoqlarda ish joylarini avtomatlashtiradigan bo’lsa yo’qotilgan ish joylarini to’ldirish uchun yetarli bo’lmaydi deb hisoblaydilar. Ana shunday vaziyat sektorlar o’rtasida katta tengsizlikka olib keladi va bunday o’tish murakkab bo’ladi.

Ko’pchilik tadqiqotchilar sun’iy intellektning ta’sirini faqat uning ish joylarini yo’q qilish qobiliyati nuqtai nazaridan emas, balki uning saqlab qolinayotgan ish joylarining xususiyati va mazmunini jiddiy o’zgartirish imkoniyati nuqtai nazaridan anglash lozim degan fikrga qo’shiladilar. Sun’iy intellekt industriyasini rivojlantirish ish joylarini tashkil etishining katta bilvosita samarasiga ham olib kelishi mumkin. Unga muvofiq yuqori texnologiyalarga asoslangan kompaniyalarga har bir qo’shimcha ish joyi mahalliy hududlarda xuddi shu hamjamiyatlarda yuqori texnologiyalarda qo’shimcha besh ish joyi yaratilishini ko’rsatmoqda.

Yuqorida tahlil etilgan ilmiy manbalarga asoslangan holda ushbu tadqiqot bugun va yaqin istiqbolda mehnat bozoridagi o’zgarishlarni sun’iy intellekt ta’siri nuqtai nazaridan ko’rib chiqiladi. Bunda asosiy e’tibor sun’iy intellektning mehnat bozorining muhim unsurlari bo’lgan ish bilan bandlik imkoniyatlari, ish haqi va mehnat unumdarligini oshirish ta’siriga qaratiladi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Mazkur tadqiqotda bir qator onlayn ma’lumotlar bazalaridagi ilmiy manbalarda o’z aksini topgan sun’iy intellektni joriy etish sharoitlarida mehnat bozoridagi o’zgarishlarni baholash masalalariga taaluqli empirik va konseptual tadqiqotlar o’rganildi va ulardagi ilmiy yondashuvlar tizimlashtirildi. Shuningdek, tadqiqot ishida tizimli tahlil, mantiqiylik, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, monografik tahlil va guruhlash usullari qo’llanildi.

### **Tahlil va natijalar**

Sun’iy intellektning mehnat bozoriga ta’siri aftidan ish bilan bandlik va ish haqidagi o’zgarishlarga nisbatan ancha chuqurroq bo’lishi taxmini bor. Ana shu o’zgarishlarga asoslangan mexanizmlar har qanday kasb doirasidagi vazifalarini qayta tashkil qilgan holda ishimiz vositasini o’zgartirishi mumkin. Sun’iy intellektni joriy etish faqat odamlar bajara olishi mumkin bo’lgan kasblar va yangi vazifalar paydo bo’lishiga olib kelishi mumkin. Xodimlarga vazifalar o’zgarishiga moslashish uchun malakasini o’zgartirishi yoki oshirishi talab etilishi mumkin. Bu vazifalar o’zgarishi, yangilari paydo bo’lishiga moslashish,

shuningdek ishni yo‘qotishi yoki yangi ishga o‘tish masalalarini hal etish talab etilishi mumkin. Ayrim xodimlar bunga qodir yoki yaxshiroq tayyorlangan bo‘lishi mumkin. Bu esa mavjud notenglikni chuqurlashtirishi mumkin. Masalan, yuqori malakali kasbga ega xodimlar yangi axborotlarni o‘rganish uchun ko‘proq imkoniyatlarga ega bo‘lishlari, shuningdek avtomatlashtirish qiyin bo‘lgan ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari va butun umr davomida ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘lishlari mumkin. Sun’iy intellektning foydasini ishchilar emas kapital egalari olishsa ham tengsizlik paydo bo‘lishi mumkin.

Xalqaro konsalting kompaniyalarining tadqiqotlari xulosasiga ko‘ra, sun’iy intellekt global iqtisodiy ishlab chiqarishga ulkan hissa kiritish salohiyatiga egadir. Tahlilchilar qoida bo‘yicha, sun’iy intellektni ishlab chiqarish hajmini mehnat unumdorligini oshirish xodimlarni almashtirish hamda xodimlar va kapitalni qo‘sish orqali qodir bo‘lgan inqilobiy kuch sifatida ko‘rishadi.

Sun’iy intellektni joriy etish mehnat unumdorligi, ish bilan bandlik, yalpi ichki mahsulot kabi eng muhim iqtisodiy ko‘rsatkichlarga global darajada ta’sir ko‘rsatadi. Sun’iy intellekt texnologiyalari ish xususiyati va ish joylarini o‘zgartiradi. Mashinalar hozir odamlar tomonidan bajarilayotgan ishlarning katta qimmini o‘z zimmasiga oladi, hatto ular uddasidan chiqa olmayotgan vazifalarni hal etishga qodir bo‘ladi.

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining “Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali ilmiy maktabi”, shuningdek G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent filiali huzuridagi “Mehnat iqtisodiyoti” kafedrasи tomonidan sun’iy intellektning mehnat unumdorligi, ish bilan bandlik va ish haqiga ta’siri to‘g‘risidagi ma’lumotlar ham buni tasdiqlamoqda. Sun’iy intellekt mehnat unumdorligini oshirishi kutilmoqda, ana shu sohalarda erishilgan yutuqlarga asoslangan.

Ammo sun’iy intellekt mehnat unumdorligini keskin oshiradigan bo‘lsa ham xodimlarning ish bilan to‘liq bandligi yoki ish haqi masalalarida jiddiy muammolar paydo bo‘lishi mumkin. Bu masalalar sun’iy intellektning ish kuchiga talabni kamaytiradigan avtomatlashtirishga xizmat qilishi bilan bog‘liqdir. Shuningdek, sun’iy intellektni qo’llash mehnat unumdorligining ish bilan bandlik va ish haqi bilan bog‘likligini ham savol ostida qoldiradi.

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining “Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy maktabi, shuningdek G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent filiali huzuridagi “Mehnat iqtisodiyoti” kafedrasи tadqiqotchilari sun’iy intellekt mehnat unumdorligini sezilarli darajada oshirish mumkin deb hisoblaydilar. Mehnat unumdorligidagi o‘ziga xoslik sun’iy intellektni joriy etishda orqada qolish bilan tushuntiriladi.

Tahlillar iqtisodiyotda raqamli texnologiyalarni bir tekis joriy etilmasligi mehnat unumdorligi pasayishining muhim holati ekanligini tasdiqlaydi, raqamlashtirish bilan mehnat unumdorligi o‘rtasidagi farq samarali yoki samarasiz firmalar holati bilan bog‘liqdir. Chunki samarasizroq firmalar uchun raqamli texnologiyalarni joriy qilishga samarali yordam ko‘rsatadigan ko‘nikmalarga ega xodimlarni jalg etish murakkab bo‘lishi mumkin.

Mehnat unumdorligi o'zgarishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa omillar quyidagilarni qamrab oladi:

- yuqori texnologiyali mahsulotlar sifatini yaxshilashni aniqlash murakkabligi tufayli mehnat unumdorligi statistikasining noto'g'ri o'lchanishi;
- sun'iy intellektning asosan kichik firmalardagi ustunliklari. Bunday firmalar katta moliyaviy imkoniyatga ega bo'lgan holda boshqalarning yuksak texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini chegaralash orqali ustunlikka erishmoqdalar;
- avtomatlashtirish nihoyatda yuksak sur'atlarda joriy etilishi, ya'ni sun'iy intellektlarni joriy qilish hamda xodimlar ko'nikmalari va yangi texnologiyalar o'rtaсидagi nomuvofiqlik natijasida mehnat unumdorligi ortishining sustligi.

Sun'iy intellektning mehnat unumdorligini oshirish salohiyatini baholashdagi muammolardan biri shundan iboratki, xohlagan paytda bundan ikki yil keyin mehnat unumdorligi darajasini oldindan bashorat qilishning murakkabligi, ayniqsa bu rejalanayotgan mehnat unumdorligi mutlaqo yangi texnologiya kashf etilishiga yoki ularni joriy etishga bog'liq bo'lsa.

Sun'iy intellektni rivojlantirishda ayrim muammolar saqlanib qolmoqda. Inson ijodiyligi va ijtimoiy intellekt, mulohaza yurgizish va mavhumlikni bartaraf etishda sun'iy intellektga nisbatan ustun turadi. Hatto sun'iy intellekt muayyan vazifalarni avtomatlashtirishni yengillashtirganda ham faqat insonlar bajara olishi mumkin bo'lgan bshqa vazifalar saqlanib qoladi. Haqiqatdan ham ana shu holatlarda sun'iy intellekt xodimlar faoliyatiga qo'shimcha yordam ko'rsatishi va ular unumdorligini oshirishi mumkin. Ya'ni, sun'iy intellektning kuchli ta'siri bilan bog'liq kasblar xodimlari ular ishining bir qismi sun'iy intellekt tomonidan qo'shimcha qilinayotganligini va bajarilayotgan vazifalarda jiddiy o'zgarishlarni his etishlari mumkin.

Iqtisodchilar sun'iy intellekt ish kuchiga talab kamaygan, ish haqi ortmagan holatda mehnat unumdorligini qanday qilib oshirilishi mumkinligi nazariy asosni taklif qilishdi. Ana shu konsepsiya dagi chegaralashlardan biri uning avtomatlashtirish texnologiyasini ko'rib chiqishda sun'iy intellektning ham sanoat robotlari va avtomatlashgan jihozlar kabi boshqa texnologiyalariga o'xshash deb hisoblaydilar. Buni sun'iy intellekt imkoniyatlarini e'tiborga olmasdan isbotlash talab qilinadi.

Avtomatlashtirish texnologiyasining hal qiluvchi xususiyati shundan iboratki, u kapital tomonidan bajarilishi mumkin bo'lgan ishlab chiqarish jarayoni ichki vazifalarini kengaytiradi. Mehnat bilan bajariladigan ulushi esa ortadi. Bu korxonalarga ish kuchini arzon kapital bilan almashtirish imkonini beradi. Natijada ishlab chiqarish samaradorligi ortadi. Bunday almashtirish samarasini kapital avval ish kuchi tomonidan bajariladigan vazifalarni o'z zimmasiga olishdir. Bu esa qoida bo'yicha, milliy daromadda mehnat ulushining kamayishiga hamda mehnat unumdorligining ish haqiga bog'liq bo'lmasligiga olib ketadi. Natijada ishlab chiqarish unumdorligi ortgan holda ishchilar o'zlarining ish haqi ham ana shunday tezlik bilan ortmasligini ko'rsatadi. Shuning uchun sun'iy intellekt texnologik o'zgarish omilini

kuchaytiradigan, ya’ni mehnat unumdorligini yoki kapitalni oshiradigan kuch sifatida ko’riladi. Shunga qaramasdan, bunday holat ish bilan bandlik va ish haqiga bosimning kamayishiga olib keladi. Boshqa tenglashtiradigan kuchlar ham amal qilishi quyidagilardan iboratdir:

- ishlab chiqarish samarasи, bunda avtomatlashtirish tufayli xarajatlarning kamaytirilishi iste’mol talabini (avtomatlashtirish ro’y beradigan sektorlarda yoki boshqa sektorlada) kuchaytiradi, bu esa avtomatlashmagan vazifalarni bajarish uchun ish kuchiga talabni oshiradi;

- kapitalni oshirish samarasи, bunda avtomatlashtirish ishlab chiqarishning kapital hajmini oshirgan holda kapital to’planishini ta’minlaydi, bu ish kuchiga talabni ham oshiradi (bu sun’iy intellekt va avtomatlashtirish inson mehnatini to’ldiradigan vazifalarda);

- avtomatlashtirishning chuqurlashtirilishi, bunda texnologiyani takomillashtirish mavjud mashinalar samardorligini oshiradi (ya’ni ish kuchini qo’shimcha ko’chirmasdan) samaradorlikni kuchaytiradi hamda ish kuchiga talabni yanada oshiradi;

- yangi yuqori unumli mehnat sig’imi katta vazifalarni yaratish avtomatlashtirish ta’siriga qarshi turgan holda uzoq muddatli istiqbolda mehnat ulushini ko’paytiradi.

Ish beruvchilarning sun’iy intellektning kelajakda ish bilan bandlikni ko’paytirishi yoki kamaytirishiga nisbatan fikrlari bo'yicha so'rov natijalari turlichadir. Sun’iy intellekt joriy etayotgan kompaniyalar rahbarlari so’rovnomasidan olingan natijalar sun’iy intellekt tufayli uch yil davomida xodimlar soni kamaytirilishi kutilishini ko’rsatdi. Holbuki, avvalgi yilda sun’iy intellekt ish joyi ortishiga olib kelganligini ma'lum bo'lgandi. Ammo ko'pchilik uzoq muddatli istiqbolda ish bilan bandlik ortishiga qo'shildilar. Biznes so'rovi esa korxonalar sun’iy intellektning ish joylariga ta’siri ko’p jihatdan bir turdag'i ishning boshqasiga o’tishi bilan bog’liq bo’lishini nazarda tutishadi.

Bundan tashqari ko'pchilik oqibatlar kasblar va tarmoqlarga bog’liq ravishda farq qilishi fikriga qo’shiladilar. Tadqiqotlar ish joylarni yaratish aftidan sotuvlar va marketing bilan bog’liq bo’lishini aniqladi. Ish joylarining yo’qotilishi esa ishlab chiqarishda ba’zi idora kasblarida ro’y berishi mumkin. Tadqiqotlar sun’iy intellekt qishloq xo’jaligi, kommunal va transport sohasida mahsulotlarning mehnat xarajatlarini kamaytirishini yoki oddiy vazifalar avtomatlashtirilishini ko’rsatdi.

Sun’iy intellekni ishlab chiqish va joriy etish uchun turli mutaxassisliklar ham talab etiladi. Matematika statistika yoki dasturlash sohalarida doktor darajasiga qo’shimcha ravishda sun’iy intellekt sohasidagi mutaxassislardan tarmoq muhandislik va tijorat bilimlariga ega bo’lish kutilmoqda. Bu esa sun’iy intellektning kadrlar zahirasini yanada chegaralaydi. So’nggi ma'lumotlarga ko’ra, sun’iy intellekt sohasida iste’dodli mutaxassislarga talab ikki baravarga ortadi. Bunda sun’iy intellekt bo'yicha har bir ekspert lavozimiga qo’shimcha ikki mansab vazifasi ochilgan. Bu malaka yetishmasligidan dalolat beradi. Shunga qaramasdan bularga talab ortmoqda. Chunki universitetlar va

kompaniyalar tobora ko‘proq zarur o‘qitishni amalga oshirmoqdalar, sun’iy intellekt bilan shug‘ullanayotgan firmalar esa bepul ta’lim imkoniyatlarini taqdim etmoqdalar. Sun’iy intellektga o‘tishda paydo bo‘ladigan barcha ish joylari ham sun’iy intellekt bilan bog‘liq malakani talab qilmaydi. Sun’iy intellekt uddasidan chiqa olmaydigan inson malakalari ham mavjud, bu esa sun’iy intellektning ba’zi qo‘srimchalariga inson yordami talab qilinishini anglatadi.

Amalga oshirilgan tadqiqotlar kreativlik, murakkab fikrlash, ijtimoiy va ehtirosli intellekt ko‘pgina kasblarda katta ahamiyat kasb etayotganligidan dalolat beradi [32].

### **1-jadval**

#### **Sun’iy intellektga oid ko‘nikmalar toifasi**

Kognitiv	Ijtimoiy	Texnik
<b>Savodxonlik va matematik ko‘nikmalar shuningdek, yuqori darajadagi kognitiv ko‘nikmalar (masalan, mantiqiy vakreativ fikrlash)</b>	Ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalar va shaxsiy xislatlar	Qo‘l mehnati ko‘nikmalari va usullarni bilish, materiallar, mexanizmlar va vositalar bilan ishlash qobiliyati
<b>Muammolarni hal qila olish qobiliyati ,muammoni hal qilish uchun zarur bo‘lgan bilim</b>	Yangi tajriba olishga tayyorlik, halollik, ekstraversiya, takt va ehtiros, barqarorlik	O‘rta maktabni tugallagandan keyingi kasbiy tayyorgarlik yoki o‘qish jaryonida, yoxud mehnat faoliyati jarayonida olingan texnik ko‘nikmalar
<b>Verbal savodxonlik, hisoblay olish qobiliyati, muammolarni hal qilish, xotira va fikrlash tezligi</b>	O‘zi-o‘zini tartibga solish, murosalarga tayyorlik, aqlning yo‘nalishi, qaror qabul qilish va shaxslararo muloqot ko‘nikmalari	Muayyan kasb bo‘yicha ishlash uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar (masalan, muhandis, iqtisodchi yoki AT bo‘yicha mutaxassis

Bu malakalar xodimlarga sun’iy intellekt kabi yangi texnologiyalardan foydalanish imkoniyatini beradi. Ular shuningdek sun’iy intellektdan inson va mashininaning hamkorligi birgalikda yuqoriqoq natijalarga erishishni hisobga olgan holda ana shu malakalarini sun’iy intellektdan foydalanishlari mumkin.

#### **Xulosa va takliflar**

Ko‘pchilik tadqiqotchilar sun’iy intellektning ta’sirini faqat uning ish joylarini yo‘q qilish qobiliyati nuqtai nazaridan emas, balki uning saqlab qolinayotgan ish joylarining xususiyati va mazmunini jiddiy o‘zgartirish imkoniyati nuqtai nazaridan anglash lozim degan fikrga qo‘shiladilar. Sun’iy intellektni joriy etish xodimlarni muayyan vazifalardan ozod qilishga olib kelishi mumkin. Butun ishni to‘la istisno etish o‘rniga ish vazifalarini qayta tashkil etish (ayrim vazifalarni qo‘shtigan va boshqalarini bekor qilgan holda) ishdagi vazifalar qayta o‘zgartirilishi mumkin. Bunda piroavrd natijada sun’iy intellekt xodim ishini to‘ldiradi. Tahlilchilarning sun’iy intellektni joriy etish

to‘g’risidagi tadqiqotlari u ham o‘rnini bosadigan, ham qo‘sishimcha samaralarni keltirishi mumkinligini tasdiqlaydi.

Sun’iy intellekt haqiqatan ham past darajadagi ishchi kuchining o‘rnini bosadi, lekin korxonalar yuqori malakali iste’dodlarga bo‘lgan talabni oshiradi. Kelajakda xodimlarni ishsizlik bilan tahdid qiladigan faqat robotlar emas. Eng muhim shundaki, xodimlar asosiy raqobatdosh ustunliklarning yo‘qligi sababli yo‘q bo‘lish xavfiga duch kelishadi. Shu sababli, ishchi kuchi sifatini oshirish bandlik muammosini hal qilishning asosiy yutuq yo‘nalishi hisoblanadi. Ortiqcha ishchi kuchi o‘z bilim va malakasini oshirishi, raqobatbardoshligi va moslashuvchanligini oshirishi, zamon taraqqiyotiga moslashishi kerak bo‘ladi.

### **Foydalanimgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g’risida” gi farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
2. American Economic Association & Committee on Economic Statistics (ed.) (2020), Measuring Technology Adoption in Enterprise-Level Surveys: The Annual Business Survey; Bessen, J. et al. (2018), “The Business of AI Startups”, Law and Economics Research Paper, Boston University School of Law, [https://scholarship.law.bu.edu/faculty\\_scholarship/537](https://scholarship.law.bu.edu/faculty_scholarship/537); McKinsey (2019), Survey: AI adoption proves its worth, but few scale impact, <https://www.mckinsey.com/featured-insights/artificial-intelligence/global-ai-survey-ai-proves-itsworth-but-few-scale-impact>
3. Абдурахманов К.Х. Искусственный интеллект – основа устойчивого развития экономике. – Москва: ФГБОУ ВО “РЕУ им. Г.В.Плеханова”, 2023, - 356 с.
4. D. Rozum, N. Grazhevska, and V. Virchenko, “Structural {Change} in {Labor} {Market} {Influenced} by {Artificial} {Intelligence}: Theoretical and {Empirical} {Analysis},” in 2020 10th {International} {Conference} on {Advanced} {Computer} {Information} {Technologies} ({ACIT}), 2020. doi: 10.1109/acit49673.2020.9208838.
5. O. Yashchyk, V. Shevchenko, V. Kiptenko, O. Razumova, I. Khilchevska, and M. Yermolaieva, “The {Impact} of {Informatization} of {Society} on the {Labor} {Market},” Postmod. Openings, vol. 12, no. 3Sup1, pp. 155–167, 2021, doi: 10.18662/po/12.3sup1/357.
6. S. Wang and W. Wang, “The {Impact} of {Artificial} {Intelligence} on the {Labor} {Force} in the {Primary} and {Secondary} {Industries},” in Proceedings of the 2022 7th {International} {Conference} on {Financial} {Innovation} and {Economic} {Development} ({ICFIED} 2022), 2022. doi: 10.2991/aebmr.k.220307.140.
7. L. Tian and D. Sui, “Spatial pattern of artificial intelligence and its influence on labor market in {China},” J. Phys. Conf. Ser., vol. 1629, no. 1, p. 12070, 2020, doi: 10.1088/1742-6596/1629/1/012070.

8. A. Agrawal, J. S. Gans, and A. Goldfarb, "Artificial {Intelligence}: The {Ambiguous} {Labor} {Market} {Impact} of {Automating} {Prediction},” SSRN Electron. J., 2019, doi: 10.2139/ssrn.3341456.
9. M. Webb, "The {Impact} of {Artificial} {Intelligence} on the {Labor} {Market},” SSRN Electron. J., 2019, doi: 10.2139/ssrn.3482150.
10. G. Zhou, G. Chu, L. Li, and L. Meng, "The effect of artificial intelligence on {China}\textquoteright{}s labor market,” China Econ. J., vol. 13, no. 1, pp. 24–41, 2019, doi: 10.1080/17538963.2019.1681201.
11. E. W. Felten, M. Raj, and R. Seamans, "The {Variable} {Impact} of {Artificial} {Intelligence} on {Labor}: The {Role} of {Complementary} {Skills} and {Technologies},” SSRN Electron. J., 2019, doi: 10.2139/ssrn.3368605.
12. Z. Riczu and Z. Krutilla, "The impact of optical character recognition artificial intelligence on the labour market,” Int. J. Eng. Manag. Sci., vol. 6, no. 4, 2021, doi: 10.21791/ijems.2021.4.2.
13. M. R. Frank et al., "Toward understanding the impact of artificial intelligence on labor,” Proc. Natl. Acad. Sci., vol. 116, no. 14, pp. 6531–6539, 2019, doi: 10.1073/pnas.1900949116.
14. "Influence of {Artificial} {Intelligence} on {Labor} {Market} in {Russia},” \u, no. 4, pp. 7–12, 2019, doi: 10.26163/gief.2019.18.73.001.
15. P. Aghion, B. Jones, and C. Jones, "Artificial {Intelligence} and {Economic} {Growth},” 2017. doi: 10.3386/w23928.
16. M. Fatun and M. Pazour, "Modelling the impact of {Artificial} {Intelligence} on the labour market in {Czechia},” Cent. Eur. J. Public Policy, vol. 15, no. 2, pp. 31–42, 2021, doi: 10.2478/cejpp-2021-0006.
17. D. Acemoglu and P. Restrepo, "Artificial {Intelligence}, {Automation} and {Work},” SSRN Electron. J., 2018, doi: 10.2139/ssrn.3098384.
18. Yu-jia Zhang, "The {Impact} of {Artificial} {Intelligence} on {China}\textquoteright{}s {Labor} {Legislation}.”
19. I.Cockburn, R.Henderson, and S.Stern, "The {Impact} of {Artificial} {Intelligence} on {Innovation},” 2018. doi: 10.3386/w24449.
20. N.Soni, E.Sharma, Narotam Singh, and A. Kapoor, "Impact of {Artificial} {Intelligence} on {Businesses}: from {Research}, {Innovation}, {Market} {Deployment} to {Future} {Shifts} in {Business} {Models}.”
21. W.K.Solos and J. Leonard, "On the {Impact} of {Artificial} {Intelligence} on {Economy},” Sci. Insights, vol. 41, no. 1, pp. 551–560, 2022, doi: 10.15354/si.22.re066.
22. Dean Alderucci, Lee G. Branstetter, E. Hovy, Andrew Runge, Maria Ryskina, and Nick Zolas, "Quantifying the {Impact} of {AI} on {Productivity} and {Labor} {Demand}: Evidence from {U}. {S}. {Census} {Microdata1}.”
23. J. Bayón Pérez and A. J. Arenas Falótico, "Various perspectives of labor and human resources challenges and changes due to automation and artificial intelligence,” Acad. Int. Sci. J., vol. 20, pp. 106–118, 2019, doi: 10.7336/academicus.2019.20.08.

24. W. Naudé, “The {Race} {Against} the {Robots} and the {Fallacy} of the {Giant} {Cheesecake}: Immediate and {Imagined} {Impacts} of {Artificial} {Intelligence},” SSRN Electron. J., 2019, doi: 10.2139/ssrn.3390207.
25. Y. Chen and D. Xu, “ ({The}) {Impact} of the ‘{Artificial} {Intelligence} {Revolution}’ on {Employment}: Review and {Prediction}),” SSRN Electron. J., 2018, doi: 10.2139/ssrn.3116753.
26. M. Szczepański, “Economic impacts of artificial intelligence.”
27. “Impact {of} {artificial} {intelligence} {and} {digital} {economy} {on} {industrial} {revolution} 4: evidence {from} {bangladesh},” Am. Financ. & Bank. Rev., pp. 42–55, 2021, doi: 10.46281/amfbr.v6i1.1489.
28. A. foud Ali, S. I. Zowayed, D. A. Showaiter, M. A. Khder, and B. J. A. Ali, “Artificial intelligence’s potential on {Bahrain}’s labour market,” in 2022 {ASU} {International} {Conference} in {Emerging} {Technologies} for {Sustainability} and {Intelligent} {Systems} ({ICETESIS}), 2022. doi: 10.1109/icetsis55481.2022.9888902.
29. X. Pan and H. Zhong, “The development of artificial intelligence and the response of labor policy,” IOP Conf. Ser. Mater. Sci. Eng., vol. 806, no. 1, p. 12004, 2020, doi: 10.1088/1757-899x/806/1/012004.
30. J. Furman and R. Seamans, “AI and the {Economy},” Innov. Policy Econ., vol. 19, pp. 161–191, 2019, doi: 10.1086/699936.
31. Ernst, E., R. Merola and D. Samaan (2018), The economics of artificial intelligence: Implications for the future of work, International Labour Organization, <http://www.ilo.org/publns>.
32. Acemoglu, D. and P. Restrepo (2019), “Automation and New Tasks: How Technology Displaces and Reinstates Labor”, Journal of Economic Perspectives, Vol. 33/2, pp. 3-30, <http://dx.doi.org/10.1257/jep.33.2.3>.



# МЕХНАТ ИКТИСОДИЙТИ ВА ИНСОН КАПИТАЛИ

<https://laboreconomics.uz/>



## SUN'iy INTELLEKTNI INSON KAPITALI VA MEHNAT BOZORIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH

**G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich**  
i.f.f.d.(PhD), dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
“Inson resurslarini boshqarish” kafedrasи mudiri,  
e-mail: [s.goyipnazarov@tsue.uz](mailto:s.goyipnazarov@tsue.uz)  
ORCID:ID:0000-0002-8818-5251

DOI: [https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2\\_iss1/a2](https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a2)

**Annotasiya.** Ushbu maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining mamlakat inson kapitalini rivojlanishi hamda mehnat bozoridagi o'zgarishlarga ta'siri empirik va ekonometrik jihatdan tahlil etilgan. Tadqiqot sotsiologik tadqiqot usuli asosida bajarilgan bo'lib, so'rovnama Laykert shkalasi (Likert scale) asosida tuzib chiqildi. Laykert shkalasi (Likert scale) asosida tuzib chiqilgan so'rovnama variantlarining validligi va ishonchliligi uning ichki turg'unligini baholash orqali asoslangan. Anketaning ichki turg'unligini va ichki moslik ishonchliligini baholash uchun "IBM SPSS Statistics 22.0" dasturi yordamida «alfa Kronbax» (Cronbach's alpha) koeffisienti qo'llanilgan. Tadqiqot natijasida sun'iy intellektning mehnat bozoriga ta'siri natijasida inson kapitalining raqamli rivojlanish holatiga ijobjiy ta'sir etishi bo'yicha gipotezani tekshirish natijasi ular o'rtasida kuchli bog'liqlik mavjudligini ko'rsatmoqda. Sun'iy intellektning ta'lif tizimiga ta'siri ham mamlakatda inson kapitalini raqamli rivojlanishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etishi mumkinligi ma'lum bo'ldi. Shuningdek, sog'liqni saqlash tizimi sun'iy intellekt ta'siri ostida inson kapitalini raqamli rivojlantirishga ijobjiy ta'sir qilishi ma'lum bo'ldi.

**Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, inson kapitalini raqamli rivojlantirish, mehnat bozori transformasiysi

## ЭКОНОМЕТРИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ И РЫНОК ТРУДА

**Гойипназаров Санжар Баходирович**  
PhD., доцент, ТГЭУ,  
Начальник отдела «Управление человеческими ресурсами»,  
e-mail: [s.goyipnazarov@tsue.uz](mailto:s.goyipnazarov@tsue.uz)

**Аннотация.** В данной статье эмпирически и эконометрически анализируется влияние технологий искусственного интеллекта на развитие человеческого капитала страны и изменения на рынке труда. Исследование проведено на основе социологического метода исследования, а анкета подготовлена на основе шкалы

Лайкерта. Валидность и достоверность вариантов опроса по шкале Лайкера основывается на оценке ее внутренней согласованности. Коэффициент «альфа Кронбаха» использовался для оценки внутренней устойчивости и достоверности внутренней согласованности опросника с помощью программы «IBM SPSS Statistics 22.0». В результате исследования результат проверки гипотезы о положительном влиянии человеческого капитала на состояние цифрового развития в результате воздействия искусственного интеллекта на рынок труда показывает, что между ними существует тесная связь. Получается, что влияние искусственного интеллекта на систему образования может напрямую влиять и на цифровое развитие человеческого капитала в стране. Также стало известно, что система здравоохранения под влиянием искусственного интеллекта положительно влияет на цифровое развитие человеческого капитала.

**Ключевые слова:** искусственный интеллект, цифровое развитие человеческого капитала, трансформация рынка труда.

---

## **ECONOMETRIC ASSESSMENT OF IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE ON HUMAN CAPITAL AND LABOR MARKET**

**Goyipnazarov Sanjar Bakhodirovich**

Ph.D., Associate Professor, Tashkent State University of Economics  
Head of the "Department of Human Resources Management",  
e-mail: [s.goyipnazarov@tsue.uz](mailto:s.goyipnazarov@tsue.uz)

**Abstract.** In this article, the impact of artificial intelligence technologies on the development of the country's human capital and changes in the labor market is analyzed empirically and econometrically. The research was carried out on the basis of the sociological research method, and the questionnaire was prepared on the basis of the Likert scale. The validity and reliability of the survey options based on the Likert scale is based on the evaluation of its internal consistency. "Cronbach's alpha" coefficient was used to evaluate the internal consistency and reliability of internal consistency of the questionnaire using the IBM SPSS Statistics 22.0 program. As a result of the study, the result of testing the hypothesis that human capital has a positive effect on the state of digital development as a result of the impact of artificial intelligence on the labor market shows that there is a strong relationship between them. It has become clear that the impact of artificial intelligence on the education system can also directly affect the digital development of human capital in the country. It also became known that the healthcare system under the influence of artificial intelligence will have a positive effect on the digital development of human capital.

**Keywords:** artificial intelligence, digital development of human capital, labor market transformation

### **Kirish**

Bugungi "Sanoat 4.0" davrida sun'iy intellekt mehnat jarayonlarini tubdan o'zgartirib yuborishi mumkin. Yana bir xavotir shundan iboratki, agar inson kapitali yangi o'zgarishlarga munosib darajada rivojlantirilmasa, sun'iy intellekt mehnat bozoriga salbiy ta'sir qilishi ham mumikn. Olimlarning fikricha, sun'iy intellekt "hozirgi va yaqin istiqbol davridagi eng muhim umumiyl maqsadli texnologiyasi" bo'lish imkoniyatiga ega. Biroq, sun'iy

intellektdagi yutuqlar ommaviy avtomatlashtirish va ish o'rinalining yo'qolishiga olib kelishi mumkinligidan xavotir ham bor.

Sun'iy intellekt inson mehnatini to'ldiradimi yoki o'rnini bosadimi degan savol siyosatga ta'sir qiladigan muhim masaladir. Misol uchun, agar sun'iy intellekt inson mehnatining o'rnini bosadigan bo'lsa, hukumatlar zarar ko'rgan shaxslarni qayta tayyorlash yoki raqamli ko'nikmalarga o'qitish dasturlarini qayta ko'rib chiqishlari mumkin. Boshqa tomonidan, agar sun'iy intellekt inson mehnatini to'ldirsa va o'sishni rag'batlantirsa, siyosatchilar buning o'rniga sun'iy intellektga investisiyalarni rag'batlantirish siyosatini qo'llab-quvvatlashlari mumkin.

Sun'iy intellektni joriy etish inson kapitalida bo'shliqlarni keltirib chiqaradi, bu ularni turli imkoniyatlardan mahrum qilishi va samaradorlikka ta'sir qilishi mumkin. Sun'iy intellekt, shuningdek, hukumatlar, tashkilotlar va oliv o'quv yurtlari inson kapitalining dolzarbliyi va raqobatbardoshligini ta'minlash uchun yangi ko'nikmalarni rivojlantirish va kadrlar malakasini oshirish bo'yicha milliy darajadagi yo'l xaritasini ishlab chiqishi zaruratinini keltirib chiqaradi.

Olib borilgan ko'plab ilmiy va amaliy tadqiqotlarda asosan ikkita qarash mavjud bo'lib, ba'zilari sun'iy intellektni mehnat o'rnini bosuvchi deb baholasa, boshqalari esa sun'iy intellektni inson mehnatini to'ldiruvchi sifatida tavsiflaydi. Biroq, sun'iy intellektning mehnat bozoriga ta'siri haqida juda kam tizimli dalillar mavjud. Dalillar yo'qligining sabablaridan biri shundaki, sun'iy intellektning jadal rivojlanishi yangi paydo bo'lgan hodisa va shunga mos ravishda uning ta'sirini baholash uchun tegishli vosita va uslublar hali ishlab chiqilmagan. Ushbu bo'shliqni to'ldirish uchun biz tadqiotimizda sun'iy intellektning mehnat bozori va undagi kasblarga ta'sirini baholashning yangi yondashuvini ishlab chiqishni va uni sun'iy intellektning kasbiy ta'siri deb nomlashni o'rini deb hisoblaymiz. Shuningdek, ushbu baholash yondoshuvidan sun'iy intellektning inson kapitalini raqamli rivojlanishiga ta'sirini ham o'rganishni maqsad qilamiz.

Ana shu muammolarni o'rganish uchun biz tomonimizdan “Ijtimoiy fikr jamoatchilik markazi” bilan hamkorlikda so'rovnoma tadqiqoti amalga oshirildi. Ushbu tadqiqotning asosiya maqsadi O'zbekistonda sun'iy intellektning mehnat bozori va undagi o'zgarishlar hamda inson kapitalini rivojlantirishga ta'sirini yanada aniqroq o'rganish imkonini beradi. Asosiya maqsadga erishish uchun quyidagi uchta maqsadlar tanqidiy ko'rib chiqiladi:

- sun'iy intellektni qabul qilishda inson kapitaliga tegishli ta'sirni tahlil qilish;
- hozirgi yangi rivojlanayotgan sun'iy intellekt texnologiyalarining mehnat bozori va undagi kasblar o'zgarishiga ta'sirlarini tahlil qilish;
- yaqin istiqbolda qaysi soha va tarmoqlarda sun'iy intellekt texnologiyalar ko'proq joriy etilishi mumkinligi tahlil qilinadi.

Onlayn anketa orqali o'tkazilgan ushbu so'rovnomada 160 nafar respondentlar ishtirok etib, ular anketa savollariga o'z munosabatlarini

bildirdi. Anketa savollariga respondentlar bergen javoblar tahlil qilinib, ularning o'rtacha statistik qiymati va standart og'ish darajasi hisoblab chiqildi hamda natijalar jadval va grafiklarda aks ettirilgan.

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Sohada tadqiqot olib borgan yetuk olimlardan biri Maykl Ueb sun'iy intellektning ish bilan bandlik va ish haqining o'sishi o'rtasidagi bog'liqlikni mehnat bozoridagi turli kasblarning o'ziga xos xususiyatlariga qarab tahlil qilish lozim deb hisoblaydi. Ya'ni, birinchi navbatda sun'iy intellektning ish bilan bandlik va ish haqi o'rtasidagi munosabatlar past, o'rta va yuqori daromadli kasblarda qanday farq qilishi mumkin va bu natija sun'iy intellekt ta'sirida mehnat bozorining qutblanishiga ta'sir qilishi mumkin deb hisoblaydi[1]. Yana bir iqtisodchi olim sun'iy intellekt ko'proq bilvosita kanallar orqali ham mehnat bozoriga ta'sir qilishi mumkinligini ta'kidlaydi. Masalan, ishchi kuchiga bo'lgan talabga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan yangi mahsulotlarning yaratilishiga va mehnat taklifiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan ta'loring yanada samaraliroq bo'lishiga olib kelishi mumkin[2].

Sohada tadqiqot olib borgan Daniel Shif va uning jamoasi sun'iy intellektning inson kapitalini raqamli rivojlanishiga olib keluvchi ta'lim tizimiga ta'sirini ikki jihatdan ko'rib chiqish mumkin deb hisoblashadi. Ya'ni, sun'iy intellektning ta'lim tizimiga ta'siri hamda ta'lim tizimining sun'iy intellekt rivojlanishiga ta'siri sifatida. SIning ta'lim tizimiga ta'sirini baholayotganda ta'lim tizimidagi sun'iy intellekt asoslangan o'qitish va o'rgantish vositalari hamda ta'lim tizimini boshqarishda qo'llaniladigan sun'iy intellekt vositalari nuqtai nazardan o'rganish mumkin. Shuningdek, ta'lim tizimining sun'iy intellekt rivojlanishiga ta'sirini aholini sun'iy intellekt bo'yicha savodxonlik darajasi, sun'iy intellekt uchun zarur ko'nikmalarni rivojlantirish hamda sun'iy intellekt sohasidagi mutaxasislarni tayyorlash yo'nalishlarini chuqur o'rganish mumkin deb hisoblashadi[3]. Shuningdek, iqtisodchi olim Loeks, sun'iy intellekt o'qituvchilar va talabalarning ta'lim jarayonidagi yukini kamaytiradigan va talabalar uchun samarali o'rganish tajribasini taklif qiluvchi samarali o'rganish vositasi bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi. Ta'lim resurslarini raqamlashtirish, o'yinlashtirish va shaxsiylashtirilgan o'rganish tajribasi kabi joriy ta'lim islohotlari bilan birgalikda ta'limda sun'iy intellekt ilovalarini rivojlantirish uchun ko'plab imkoniyatlar mavjud. Buning natijasida ta'lim oluvchilarda zamonaviy ko'nikmalarni tez va qulay o'zlashtirish imkon ortadi deb hisoblaydi[4].

Sun'iy intellekt tibbiy yordam ko'rsatish tizimi samaradorligini o'zgartirish imkoniyatiga ega. Evropa Ittifoqi SST (European Union's EIT Health)ning hisoboti natijalari, sun'iy intellektning bemorlar tajribasi va sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilashga qanday yordam berishi mumkinligini o'rgandi. O'rganish natijasida sun'iy intellekt texnologiyalarining sog'liqni saqlash tizimiga joriy etilishi tibbiy yordam ko'rsatish samaradorligini oshirishi va sog'liqni saqlash muassasalari

tomonidan bemorlarga ko'proq va sifatliroq yordam ko'rsatish imkonini berishi mumkinligi ma'lum bo'ldi. Shuningdek, sun'iy intellekt tibbiyot shifokorlarining tajribasini yaxshilashga yordam beradi, ularga to'g'ridan-to'g'ri bemorlarni parvarish qilishda ko'proq vaqt sarflash va charchashni kamaytirish imkonini berishi mumkin. sun'iy intellekt aholiga onlayn salomatlik xizmatlarini yetkazib berish uchun ham katta imkoniyatlarni yaratadi. Ushbu imkoniyatlarning muhim tarkibiy qismi bemorlarning sog'lig'ini saqlashda turli xil avtomatlashtirilgan, qulay kengaytiriladigan usullar, masalan, matnli xabarlar va bemorlar portallari orqali ko'p sonli bemorlarni sun'iy intellekt bilan bog'lanishni o'z ichiga oladi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqotni tashkil etish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: tashkiliy (tayyorgarlik); so'rovnomani tashkil etish jarayoni; olingan natijalarga qayta ishlov berish bosqichi; natijalar asosida xulosalar tayyorlash va faoliyatni takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot so'rovnama Laykert shkalasi (Likert scale) asosida tuzib chiqildi. Bu uslubga ko'ra 5 ta parametrlar (o'lchovlar) asosida tuzilgan 5 ta savollarga javoblar quyidagi tartibda shakllantiriladi: "5" - qat'iy qo'shilaman, "4" - qo'shilaman, "3" - ishonchim komil emas, "2" - qo'shilmayman, "1" - umuman qo'shilmayman.

Laykert shkalasi (Likert scale) asosida tuzib chiqilgan so'rovnama variantlarining validligi va ishonchliligi uning ichki turg'unligini baholash orqali asoslangan. Anketaning ichki turg'unligini va ichki moslik ishonchlilagini baholash uchun "IBM SPSS Statistics 22.0" dasturi yordamida «alfa Kronbax» (Cronbach's alpha) koeffisienti qo'llanilgan.

$$\alpha = \frac{N * \bar{c}}{\bar{v} + (N - 1) * \bar{c}} \quad (1)$$

Bu yerda:  $\alpha$  = Kronbaxning alfa koeffisienti;  $N$  = o'rganilgan respondent korxonalar soni;  $\bar{c}$  = olingan natijalarning o'rtacha bog'liqligi;  $\bar{v}$  = o'rtacha farq.

Kronbaxning alfa koeffisienti 0 bilan 1 oralig'ida bo'lib, uning qiymati agar  $\alpha \geq 0,9$  bo'lsa, u holda har bir so'rovdan olingan natijalarning ichki turg'unligi "a'lo", agar  $\alpha \geq 0,8$  bo'lsa, "yaxshi", agar  $\alpha \geq 0,7$  bo'lsa, "maqbul", agar  $\alpha \geq 0,6$  bo'lsa, "shubhali" va nihoyat agar  $\alpha \geq 0,5$  bo'lsa, "maqbul emas"ligini ko'rsatadi. Tadqiqotda bu koeffisient 0,82 ga teng ekanligi ma'lum bo'ldi. Bu esa tadqiqotning statistik ishonchliligi ijobiyligini anglatadi. Shuningdek, "SPSS" vositasida ma'lumotlar regressiya testi va gipoteza testi kabi tahlillar ham amalga oshirildi.

Har qanday tadqiqot so'rovnomasida ishtirok etgan respondentlarning tasnifini demografik ko'rsatkichlar sifatida aniqlash mumkin [5], ular ishtirokchilar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga asoslangan statistik ma'lumotlarni namoyish qilish qobiliyatiga ega, chunki bu umumlashtirish uchun juda muhimdir. Quyidagi demografik jadval ushbu tadqiqotda qatnashgan ishtirokchilarning demografik ko'rsatkichlarini namoyon qiladi (1-jadval).

**1-jadval**

**Respondentlarning demografik ma'lumotlari**


Respondentlarning demografik ko'rsatkichlari		Chastotasi	Foizi
Jinsi	Erkak	111	70.3
	Ayol	46	29.7
Yosh guruhi	18-25	30	25.7
	26-35	51	30.8
	36-45	52	31.1
	46-55	13	6.8
	56≤	11	5.6
	Dvlat boshqaruvi	12	7.5
Faoliyat sohasi	Qurilish	4	2.5
	Moliya va sug'urta	20	12.5
	AKT	28	17.5
	Ishlab chiqarish	23	14.3
	Ta'lim	55	36.3
	Savdo v tijorat	15	9.4

So'rovnoma ishtirok etgan erkak ishtirokchilarning javob darajasi 70,3% va ayollarniki esa 29,7% iborat bo'ldi. Ishtirokchilarning aksariyati 36 yoshdan 45 yoshgacha (52%), ish tajribasi 15 yildan ortiq (47,5%) bo'lib, bu yetuklik darajasi bilan chambarchas bog'liq bo'lishi mumkin. Yana shuni alohida ta'kidlash mumkinki, ayrim ishtirokchilar sun'iy intellekt va uning inson kapitali o'sishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatishi va mehnat bozori hamda undagi kasbiy o'zgarishlarga ta'siri bo'yicha fundamental bilimga ega emaslar.

So'rovnoma anketasidagi savollar uchta bo'limga ajratilgan holda shakllantirilgan bo'lib, har bir bo'lim sun'iy intellekt ta'sir etishi mumkin bo'lgan unsurlarni ifoda etadi. Ya'ni, birinchi unsur mehnat bozori va undagi kasbiy o'zgarishlarni nazarda tutsa, ikkinchi va uchinchi unsurlar inson kapitali tarkibiga kiruvchi ta'lim va sog'lkni saqlash tizimlari bilan bog'liq o'zgaruvchilardan iborat. Har bir mustaqil o'zgaruvchi inson kapitalini muhim unsurlarini ifoda etib, sun'iy intellekt ta'sirida ular inson kapitalini raqamli rivojlanishiga qanday ta'sir etishi mumkinligini baholashni nazarda tutadi. Ushbu tadqiqotdagi tobe o'zgaruvchi esa - bu inson kapitalining raqamli rivojlanish holati sifatida qabul qilinadi. Tadqiqot uchun tanlangan mustaqil o'zgaruvchilarning har biri uchun alohida tadqiqot gipotezalari tuzib chiqildi va bu gipotezalar sun'iy intellektning inson kapitalini raqamli rivojlanishiga qanday ta'sir etishi mumkinligini aniqlashda tadqiq etish maqsadlarini ifoda etadi (1-rasm).

Birinchi gipoteza sifatida biz sun'iy intellekt mehnat bozori va undagi kasbiy o'zgarishlarga ta'siri inson kapitalini raqamli rivojlanishiga ijobjiy ta'sir qilishi mumkin deb belgilab oldik.

Ikkinchi gipotezada sun'iy intellekt ta'lim tzimga ta'sir etish natijasi inson kapitalini raqamli rivojlanishi bilan ijobjiy bog'liqlikka ega bo'lishi mumkin deb baholadik.



### 1-rasm. Tadqiqot gipotezasi

Va nihoyat, uchinchi gipotezamiz sag'liqni saqlash tizimi sun'iy intellekt ta'siri ostida inson kapitalini raqamli rivojlanishiga ijobjiy ta'sir qilishi mumkin deb hisobladik.

### Tahlil va natijalar

Shunday qilib, quyidagi 2-jadvalda sun'iy intellektni inson kapitali va mehnat bozoriga ta'sirini ekonometrik baholashning tavsiflovchi statistikasi tasvirlangan. Unga ko'ra, o'zgaruvchilarning o'rtacha qiymati 4 qiymatga yaqin va undan yuqori qiymatlarga ega bo'lib "yaxshi" va "yuqori" natjalarni aks ettirgan.

**2-jadval**  
**So'rovnoma dagi har bir tuzilmaning tavsifiy statistikasi**

O'zgaruvchilar	N	Minimum	Maksimum	O'rtacha qiymat		Standart og'ish
	Statistika	Statistika	Statistika	Statistika	O'rtacha qiymatning standart xatosi	Statistika
Sun'iy intellekt	157	1	5	4,11	,073	,910
Mehnat bozori	157	1	5	3,99	,095	,885
Ta'lim tizimi	157	1	5	4,22	,078	,976
Sog'liqni saqlash tizimi	157	1	5	4,17	,088	,705

Mazkur jadvalda o'rtacha qiymatning standart xatosi va o'zgaruvchilarning standart og'ish qiymatlari ham tasvirlangan. O'rtacha qiymatning standart xatosi o'rtacha tanlamaning aniqligini o'lchab, bu uning taxmin qilish uchun mo'ljallanganligini anglatadi. Unga ko'ra, mustaqil o'zgaruvchi (sun'iy intellekt) va tobe o'zgaruvchilarning (mehnat bozori, ta'lim tizimi, sog'liqni saqlash tizimi,) eng kichik o'rtacha qiymatlari standart xatolari sun'iy intellekt (,073) va ta'lim tizimi (,078) o'zgaruvchilarida bo'lib, bu mazkur o'zgaruvchilar o'rtacha qiymatlarining boshqa o'zgaruvchilarga qaraganda ko'proq aniqlikda o'lchanganligini bildiradi. Shuningdek, mazkur tavsiflovchi statistika standart og'ish qiymatlarini ham tasvirlangan bo'lib, bunda standart og'ish ma'lumotlar nuqtalaridan o'rtachagacha bo'lgan o'zgaruvchanlikni baholaydi. Jadval natijalariga ko'ra, sun'iy intellekt (,910) va ta'lim tizimi (,976) o'zgaruvchilari standart og'ish qiymatlari boshqa o'zgaruvchilarga qaraganda kichik bo'lib, bu mazkur o'zgaruvchilar ma'lumotlari o'rtacha qiymat atrofida ko'proq yoki zinch to'planganligini anglatadi. Umuman olganda, ko'pchilik respondentlar bildirgan fikrlari o'rtasida kuchli bog'liqlik mavjudligini krish mumkin.

So'rovnoma tarkibi va undagi o'zgaruvchilarning meyoriyligi ham tekshirib chiqildi.

**3-jadval**  
**So'rovnoma anketasi tarkibi va undagi o'zgaruvchilarning me'yoriyligi statistika**

Anketa bo'limlari	Skewness	Kurtosis
Sun'iy intellektning mehnat bozoriga ta'siri	0.891	2.077
Sun'iy intellektning ta'lim tizimiga ta'siri	0.887	2.579
Sun'iy intellektning sog'liqni saqlash tizimiga ta'siri	0.897	2.062

Anketaning har bir bo'limi va undagi o'zgaruvchilar normalligi "Skewness" (assimiterik jihat) va "Kurtosis" (ma'lumotlar joylashuvining normal taqsimotiga nisbatan yuqori yoki past bo'lishi) orqali aniqlandi, ular ±

3.0 oralig’ida bo’lib, tadqiqot uchun qabul qilinishi mumkin bo’lgan diapazonda joylashgan.

Olingan ma'lumotlarni regressiya tahlilida ishlab chiqilgan modelning mosliq holati baholashga ham yordam beradi. R, R-kvadrati va sozlangan R-kvadrati moslik modeli yordamida baholanadi. Bu o’zgaruvchilar va tanlangan model o’rtasidagi korrelyatsiya kuchini aniqlashga yordam beradi.

4-jadvalda sun'iy intellektni inson kapitali va mehnat bozoriga ta'sirini ekonometrik baholashning korrelyatsiya matritsasi tasvirlangan bo’lib, korrelatsiya koeffisienti o’zgaruvchilar o’rtasidagi chiziqli bog’liqlik darajasini ifodalovchi statistik ko’rsatkich hisoblanadi. O’zgaruvchilarning o’lchov birligi interval o’lchov birligida bo’lganligi sababli Pirson (Pearson) korrelyatsiyasidan foydalanildi.

#### 4-jadval

#### **Sun'iy intellektni inson kapitali va mehnat bozoriga ta'sirini ekonometrik baholashning korrelyatsiya matritsasi**

		Sun'iy intellekt	Sog'lijni Saqlash tizimi	Ta'lim tizimi	Mehnat bozori
Sun'iy intellekt	Pirson korrelyatsiya koeffisienti	1	,740**	,789**	,732**
	p-qiyimat		<,001	<,001	<,001
Sog'lijni saqlash tizimi	Pirson korrelyatsiya koeffisienti	,740**	1	,625**	,368**
	p-qiyimat	<,001		<,001	<,001
Ta'lim tizimi	Pirson korrelyatsiya koeffisienti	,789**	,625**	1	,461**
	p-qiyimat	<,001	<,001		<,001
Mehnat bozori	Pirson korrelyatsiya koeffisienti	,732**	,368**	,461**	1
	p-qiyimat	<,001	<,001	<,001	

Tahlil natijalariga ko’ra, “Sun'iy intellekt” va “Sog'lijni saqlash tizimi” o’zgaruvchilari o’rtasida yuqori va ijobjiy bog’lanish ( $r=0.740$  p-qiyimat  $<.001$ ), “Sun'iy intellekt” va “Ta'lim\_tizimi” o’zgaruvchilari o’rtasida yuqori va ijobjiy bog’lanish ( $r=0.789$  p-qiyimat  $<.001$ ), “Sun'iy\_intellekt” va “Mehnat bozori” o’zgaruvchilari o’rtasida yuqori va ijobjiy bog’lanish ( $r=0.762$  p-qiyimat  $<.001$ ) aniqlandi.

Tadqiqot jarayonida sun'iy intellekt va sog'lijni saqlash tizimi o’zgaruvchilarining chiziqli regressiya tahlili amalga oshirildi. Bunda, R – ,740 bo’lib o’zgaruvchilar o’rtasida kuchli va ijobjiy bog’liqlik borligini,  $R^2$  – ,548 bo’lib sun'iy intellektni sog'lijni saqlash tizimiga 54,8 % ta’sir etishini, tartibga solingan R – ,545 bo’lib chiziqli regressiya modelini o’rta ishonchlilagini anglatadi (5-jadval).

Sun'iy intellekt va ta'lif tizimi o'zgaruvchilarining chiziqli regressiya tahlili natijalariga ko'ra, R = ,789 bo'lib, bu o'zgaruvchilar o'rtasida kuchli va ijobjiy bog'liqlik borligini anglatadi.  $R^2 = ,622$  bo'lib, bu sun'iy intellektni ta'lif tizimiga 62,2 % ta'sir etishini, tartibga solingan R = ,620 bo'lib chiziqli regressiya modelini o'rta ishonchlilagini anglatadi.

### 5-jadval

**Natijalarning regressiya tahlili**

O'zgaruvchilar	R	R-kvadrat	Sozlangan R-kvadrat	Kutilgan standart xato	R kvadratni o'zgarishi
Sog'liqni saqlash tizimi	,740 <sup>a</sup>	,548	,545	,745	,548
Mehnat bozori	,732 <sup>a</sup>	,536	,533	,810	,536
Ta'lif tizimi	,789 <sup>a</sup>	,622	,620	,602	,622

Sun'iy intellekt va mehnat bozori o'zgaruvchilarining chiziqli regressiya tahlili natijalariga ko'ra, R = ,732 bo'lib, bu o'zgaruvchilar o'rtasida kuchli va ijobjiy bog'liqlik borligini,  $R^2 = ,536$  bo'lib, bu sun'iy intellektni mehnat bozoriga 53,6 % ta'sir etishini, tartibga solingan R = ,533 bo'lib chiziqli regressiya modelini o'rta ishonchlilagini anglatadi

Respondentlarga yuborilgan so'rovnoma savollaridan yig'ilgan ma'lumotlar ishonchlilagini tekshirish maqsadida ishonchlilik testi ham amalga oshirildi. Ishonchlilik testi sifatida Kronbax Alpha tanlab olindi. Test natijasiga ko'ra Kronbax  $\alpha = 0,827$  bo'lib, bu testning ishonchlilik koeffisienti yuqori ekanligini anglatadi.

Sun'iy intellektni mehnat bozoriga ta'siri natijalariga ko'ra, 70 nafardan ziyod respondentlar sun'iy intellektni mehnat bozoriga ta'sirini yuqori va 40 nafardan ziyod respondentlar sun'iy intellektni mehnat bozoriga ta'sirini yaxshi baholashgan. Umumiy baholash natijasi 3,99 bo'lib, sun'iy intellektni mehnat bozoriga ta'siri ijobjiy va yaxshilagini anglatadi.

### 6-jadval

**Gipoteza tekshiruvi va tahlili**

	Nostandard koeffisient		Beta	t	Sig.
	B	Std. Error			
Sun'iy intellekt	1.608	.415		3.873	.000
Mehnat bozori	.355	.082	.364	4.314	.000
Ta'lif tizimi	.092	.074	.100	1.240	.217
Sog'liqni saqlash tizimi	.082	.102	0.74	.804	.422

Sun'iy intellektni ta'lif tizimiga ta'siri natijalari tasvirlangan bo'lib, mazkur natijalarda 80 nafarga yaqin respondentlar sun'iy intellektni ta'lif

tizimiga ta'sirini yuqori baholashgan. Umumiy baholash natijasi 4,22 bo'lib, sun'iy intellektni ta'lim tizimiga ta'siri ijobjiy va yuqoriligini anglatadi.

Respondentlar tomonidan 5 ballik tizimda baholanilgan sun'iy intellektni sog'liqni saqlash tizimiga ta'siri natijalariga ko'ra, 80 nafardan ziyod respondentlar sun'iy intellektni sog'liqni saqlash tizimiga ta'sirini yuqori baholashgan. Umumiy baholash natijasi 4,17 bo'lib, sun'iy intellektni sog'liqni saqlash tizimiga ta'siri ijobjiy va yuqoriligini anglatadi.

Sun'iy intellektning mehnat bozoriga ta'siri natijasida inson kapitalining raqamli rivojlanish holatiga ijobjiy ta'sir etishi bo'yicha gipotezani tekshirish natijasi ular o'rtasida kuchli bog'liqlik mavjudligini ko'rsatmoqda. Sun'iy intellektning ta'lim tizimiga ta'siri ham mamlakatda inson kapitalini raqamli rivojlanishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etishi mumkinligi ma'lum bo'ldi. Shuningdek, sog'liqni saqlash tizimi sun'iy intellekt ta'siri ostida inson kapitalini raqamli rivojlantirishga ijobjiy ta'sir qilishi ma'lum bo'ldi.

### **Xulosa va takliflar**

Sohada tadqiqot olib borgan olimlar Temzes va Sheyfelarning ta'kidlashicha, sun'iy intellektning joriy qilinishi ko'p jihatdan inson kapitali samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin[6]. Olingan natijalarga asoslanib aytish mumkinki, sun'iy intellekt inson kapitaliga nisbatan o'zining afzalliklari va kamchiliklariga ega.

Inson kapitali ko'nikmalari va kognitiv qobiliyatlar o'tish jarayonida qo'llab-quvvatlanadigan muhim omil sifatida tilga olinadi va agar bu e'tibordan chetda qolsa, bu ish o'rinnari yo'qotilish xavfiga tahdid solishi mumkin. Shuningdek, sun'iy intellektning inson kapitali va mehnat bozoridagi o'zgarishlarga haqiqiy ta'sirini bashorat qilish qiyin, chunki texnologiya hali ham rivojlanmoqda va ish joylariga potensial ta'siri hali ham noaniq bo'lib qolmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Michael Webb. The Impact of Artificial Intelligence on the Labor Market. [https://web.stanford.edu/mww/webb\\_jmp.pdf](https://web.stanford.edu/mww/webb_jmp.pdf).
2. Acemoglu, Daron and David H Autor. 2011. "Skills, Tasks and Technologies: Implications for Employment and Earnings." In *Handbook of Labor Economics*. Vol. 4, Part B, , ed. David Card and Orley Ashenfelter, 1043–1171. Elsevier.
3. Daniel Schiff. Education for AI, not AI for Education: The Role of Education and Ethics in National AI Policy Strategies. International Journal of Artificial Intelligence in Education volume 32, pages 527–563 (2022).
4. J. Loeckx, "Blurring boundaries in education: context and impact of MOOCs," *The International Review of Research in Open and Distributed Learning*, vol. 17, no. 3, pp. 92–121, 2016.
5. Roth, P.L. and BeVier, C.A., 1998. Response rates in HRM. OB survey research.
6. Thames, L. & Schaefer, D., 2016. Software-Defined Cloud

Manufacturing for Industry 4.0. In: Procedia CIRP, 52. pp.: ISSN 2212-8271,  
pp. 12 - 17.



# МЕХНАТ ИКТИСОДИЙТИ ВА ИНСОН КАПИТАЛИ

<https://laboreconomics.uz/>



## МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИЕ ТЕНДЕНЦИИ ЗАНЯТОСТИ НАСЕЛЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА

Шаюсупова Наргиза Тургуновна

Доцент кафедры, Ташкентского Государственного  
экономического университета

Амирджанова Ситора Суннат кизи

Базовый докторант Ташкентского Государственного  
экономического университета

e-mail: [nargiza\\_69@mail.ru](mailto:nargiza_69@mail.ru)

DOI: [https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2\\_iss1/a3](https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a3)

**Аннотация.** Данная статья посвящена вопросам повышения занятости населения в Узбекистане в свете современного экономического развития республики. В статье приведена систематизация теоретико-методологических подходов к определению категории «занятость», рассмотрена ее взаимосвязь с макроэкономическим ростом и демографическим фактором, а также проведен ретроспективный анализ развития рынка труда и занятости в республике. Определены основные направления дальнейшего развития занятости в соответствии со Стратегией развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы, и с приоритетным акцентом на молодежную политику.

**Ключевые слова:** занятость, рынок труда, макроэкономическое развитие, трудовые ресурсы, достойный труд, молодежная политика.

## О'zbekistonda aholi bandligining makroiqtisodiy tendensiyalari

Shayusupova Nargiza Turg'unovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Kafedra dotsenti

Amirjanova Sitora Sunnat qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

e-mail: [nargiza\\_69@mail.ru](mailto:nargiza_69@mail.ru)

**Annotatsiya.** Ushbu maqola respublikaning zamonaviy iqtisodiy rivojlanishi nuqtai nazaridan O'zbekistonda aholi bandligini oshirish masalalariga bag'ishlangan. Maqolada "bandlik" toifasini aniqlashning nazariy va uslubiy yondashuvlari tizimlashtirilgan, uning makroiqtisodiy o'sish va demografik omil bilan bog'liqligi ko'rib chiqilgan, shuningdek, respublikada mehnat bozori va aholi bandligi rivojlanishining retrospektiv tahlili o'tkazilgan. Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarda rivojlantirish strategiyasiga muvofiq

aholi bandligini yanada rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari belgilanib, unda yoshlar siyosatiga ustuvor ahamiyat qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** bandlik, mehnat bozori, makroiqtisodiy rivojlanish, mehnat resurslari, munosib mehnat, yoshlar siyosati

## **MACROECONOMIC TRENDS IN EMPLOYMENT IN UZBEKISTAN**

**Shayusupova Nargiza Turgunovna**

Associate Professor of the Department, TSUE

**Amirjanova Sitora Sunnat kizi**

Basic doctoral student, TSUE

e-mail: [nargiza\\_69@mail.ru](mailto:nargiza_69@mail.ru)

**Abstract.** This article is devoted to the issues of increasing employment in Uzbekistan in the context of modern economic development of the republic. The article systematizes the theoretical and methodological approaches to the category of "employment" and discusses its relationship with macroeconomic growth and demographic factors. In addition, a retrospective analysis of the development of the labor market and employment has been conducted in this article. In accordance with the development strategy of new Uzbekistan for 2022-2026, the main directions of further development of employment have been identified by giving priority to youth policy.

**Keywords:** employment, labor market, macroeconomic development, labor resources, decent work, youth policy.

### **Введение**

В последние годы проблема регулирования рынка труда стоит перед органами государственного управления, где характерны высокий уровень безработицы среди молодежи особенно в областях республики, низкая трудовая мобильность экономически активного населения, структурный дисбаланс спроса и предложения, несоответствие качества трудовых ресурсов потребностям экономики и др. Таким образом, актуальность темы исследования обусловлена потребностью современной экономической науки в понимании глубинных изменений, происходящих в сфере занятости населения в условиях устойчивого роста экономики нового Узбекистана.

Занятость является одним из видимых явлений социально-экономической действительности. Данное утверждение обусловлено тем, что занятость лежит в основе процесса удовлетворения потребности человека в труде, как одной из базовых потребностей. Кроме того, занятость населения – это важная социально-экономическая категория, связанная с реализацией права человека «свободно распоряжаться своими способностями к труду, выбирать род деятельности и профессию» [1]. Занятость выступает источником дохода для человека, формирует материальную базу для удовлетворения его разнообразных материальных и духовных потребностей.

Национальный рынок труда в своем развитии прошел через несколько различных этапов, где границы между ними определялись радикальными сдвигами преобладавшем макроэкономическом контексте в Узбекистане. С 2017 года ситуация на рынке труда и обеспечении занятости изменилась. Президент страны Ш.М.Мирзиёев еще в Стратегии развития Республики Узбекистан на 2017-2021 годы [2] утвердил конкретные приоритеты и направления их реализации, в числе которых и обеспечение занятости населения. Сегодня решение этих и других направлений обеспечения занятости и других связанных с этим аспектом обозначено Президентом страны в Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы [3].

Изменение направлений динамики экономического роста является базой, влияющей на изменение занятости населения, которая является одним из основных макроэкономических показателей. Она сопоставима по значимости с такими социально-экономическими индикаторами, как ВВП, уровень цен, реальные денежные доходы и др. С ростом занятости увеличивается производство ВВП, создаются реальные предпосылки к расширенному воспроизводству и социальной жизни.

### **Обзор литературных источников**

На сегодня различными авторами, изучающими занятость населения, рассматриваются различные подходы к исследованию данной проблематики, где в числе наиболее распространенных выявлены следующие: Е.Я.Варшавская и Е.Г.Жулина рассматривали с позиции социально-экономического подхода[4]; А.В.Котляр и Л.В.Санкова с позиции экономико-социологического подхода[5]; Г.Баядурян, О.С.Белокрылова, Н.Г.Вишневская с позиции институционально-социологического подхода[6]; А.Я.Кибанов с позиции общественных, экономических и производственных отношений [7]; А.И.Рофе с позиции экономической активности населения [8]. Такое многообразие подходов к исследованию занятости свидетельствует о сложности и многогранности этого явления, где современная социально-экономическая среда характеризуется высокой степенью изменчивости и сложности.

Однако, несмотря на такую многогранность подходов к исследованию, анализ значительного количества авторских публикаций показал, что единой концепции к определению категории занятости, а тем более в контексте с макроэкономическими особенностями и устойчивым экономическим ростом не существует. Поэтому, произведем систематизацию имеющихся на сегодняшний день теоретических подходов к ее изучению, где будут использованы, как национальные особенности дефиниции «занятость», так и его определение, установленное из научных трудов современных зарубежных ученых дальнего и ближнего зарубежья.

В работах д.э.н., профессора, академика Академии наук К.Х.Абдурахманова исследуются проблемы рынка труда, занятости, обеспечения достойного труда и определяются перспективные направления проведения научных исследований в этих сферах. В учебнике «Экономика труда. Теория и практика» [9] д.э.н., проф., академик Абдурахманов К.Х. привел факторы, от которых зависит мобильность рабочих ресурсов, в числе которых динамика стратегического развития экономики и ее особенности; инновационное развитие науки и техники; изменения в экономической стабильности; инвестиции в экономику; изменение инфляции; повышение потребностей работника; изменения условий труда. Кроме того, по его мнению, «в рыночной экономике стратегической целью становится содействие полной занятости. Ближайшая тактическая цель – сбалансировать спрос и предложение на рабочие места».

### **Методологические аспекты**

Занятость является показателем, характеризующим качество и уровень жизни в стране. С экономической точки зрения занятость - это общественные отношения по поводу участия в общественно полезном труде на определенном рабочем месте, непосредственное соединение трудовых ресурсов со средствами производства, рабочей силы с рабочим местом.

Обеспечению эффективной занятости населения принадлежит важная роль в реализации социальной политики. Наиболее достойным способом самоутверждения человека является его право на труд, на выбор профессии, рода занятий и работы в соответствии со способностями, образованием, профессиональной подготовкой и с учетом общественных потребностей.

В данная статья в определенной степени служит реализации задач, поставленных в Указах и Постановлениях Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», от 28 февраля 2023 года № УП-27 «О Государственной программе по реализации стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы[2] , «О мерах по сокращению доли неформальной занятости и формированию баланса трудовых ресурсов на основе современных подходов», от 21 сентября 2022 года № ПП-376 , а также в других нормативно-правовых актах, связанных с этой сферой.

### **Анализ и результаты**

В последние годы проблема регулирования рынка труда стоит перед органами государственного управления в Узбекистане, где характерны значительный уровень безработицы среди молодежи и женщин, особенно в областях республики, низкая трудовая мобильность экономически активного населения, структурный дисбаланс спроса и предложения, несоответствие качества трудовых

ресурсов потребностям экономики и др. Таким образом, актуальность темы исследования обусловлена потребностью современной экономической науки в понимании глубинных изменений, происходящих в сфере занятости населения в условиях устойчивого роста экономики нового Узбекистана.

Занятость является одним из видимых явлений социально-экономической действительности для любого государства, что обусловлено, во-первых, ее способностью находиться в основе процесса удовлетворения потребности человека в труде, как одной из базовых потребностей. Во-вторых, занятость является одной из наиболее важных социально-экономических категорий, которая непосредственно связана с осуществлением права человека «свободно распоряжаться своими способностями к труду, выбирать род деятельности и профессию»<sup>1</sup>. Кроме того, занятость выступает источником дохода человека, обеспечивая его жизненные интересы и формирует материальную базу для удовлетворения «разнообразных материальных и духовных потребностей».

Макроэкономические особенности развития страны и соответствующая такому развитию политика, как показывают исследования, могут оказывать значительное влияние на обеспечение занятости. Такое взаимодействие является относительно менее изученной областью исследований, особенно в контексте развивающихся стран. Имеют место определенные сомнения о традиционных рамках макроэкономической политики, где его основная роль заключается в обеспечении стабильности, которая, как ожидается, обеспечит устойчивый экономический рост и занятость сегодня занятость в Узбекистане характеризует различные формы участия трудоспособного населения в общественной деятельности с получением соответствующих доходов. Доля постоянного населения в трудоспособном возрасте по отношению к общей численности населения в 2021 году составила 57,9%, а уровень экономической активности населения возрос за последние пять лет с 73,5% до 74,1%.

Обеспечение занятости молодежи, как важной части экономически активной части населения и наличие проблем в этом зависят от ряда факторов. В числе таковых можно выделить слабый уровень согласования действий системы органов государственного управления, образовательных учреждений и работодателей. Поэтому, современная работа с молодежью требует новых подходов и должна отвечать тем вызовам, которые сейчас стоят перед обществом. В настоящее время в Узбекистане есть много форм поддержки инициатив молодежи, где

---

<sup>1</sup> Конституция Республики Узбекистан. Принята 8 декабря 1992 года на одиннадцатой сессии Верховного Совета Республики Узбекистан двенадцатого созыва (с изменениями). [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

одной из основных задач является вовлечение молодых людей в проекты, которые помогут им реализовать себя.



**Рис. 1. Предположения макроэкономической основы роста экономики с точки зрения их влияния на занятость населения**

Источник: составлена авторами.

Особенности правового регулирования занятости обусловлены характером трудовой связи работника с работодателем и местом осуществления трудовой деятельности. В ТК РУз установлены нормы правового регулирования видов работы для занятого населения (табл. 1.4).

Экономический рост, который сопровождается генерированием рабочих мест, является общей и необходимой предпосылкой достижения рациональной занятости и снижения уровня безработицы. Предметом анализа экономического развития с точки зрения занятости выступает оценка того, в какой степени экономический рост удовлетворяет потребность в увеличении численности рабочих мест и повышении производительности труда (дохода), которую необходимо выполнять в отраслевом разрезе для более значимого исследования. Между тем, возможность к занятости относится к способности людей адекватно выполнять работу на рабочих местах, в текущем и будущем времени, внутри и вне текущей организации. От характеристики рынка труда и людей, их способностей, навыков и знаний может зависеть возможность сохранить или найти работу. Для того чтобы не потерять

свои навыки и сохранить занятость экономически активному человеку важно постоянно развивать и обновлять профессиональный уровень. Поэтому в стране требуется проводить политику, направленную на повышение качества рабочей силы. Особый акцент сделать на формирование высококвалифицированных кадров.

**Таблица 1.**  
**Правовое регулирование форм занятости в Узбекистане**

<b>Вид занятости</b>	<b>Понятие и нормы статей регулирования</b>
По совместительству	Работой является выполнение помимо своей основной работы работником другой регулярной оплачиваемой работы на условиях отдельного трудового договора в свободное от основной работы время. Такая работа может выполняться работником по месту его основной работы (внутреннее совместительство) или у другого работодателя (внешнее совместительство). ТК РУз - Ст. 432-442.
Надомный труд	Осуществляемая физическим лицом (надомником) работа по производству товаров или оказанию услуг по заказам работодателя в соответствии с заключаемым трудовым договором по месту своего жительства или в других помещениях, принадлежащих надомнику либо членам его семьи, или арендуемых им. ТК - Ст. 443 - 451.
Дистанционная работа	Выполнение определенной трудовым договором трудовой функции вне места нахождения работодателя, обособленного подразделения организации (включая расположенные в другой местности), вне стационарного рабочего места, территории или объекта, прямо или косвенно находящихся под контролем работодателя, при условии использования для выполнения данной трудовой функции и для осуществления взаимодействия между работодателем и работником по вопросам, связанным с ее выполнением, информационно-телекоммуникационных сетей, в том числе всемирной информационной сети Интернет. ТК РУз - Ст. 452 – 464.
Вахтовый метод работы	Особая форма осуществления трудового процесса вне места постоянного проживания работников, когда не может быть обеспечено ежедневное их возвращение к месту постоянного проживания. Этот вид работы применяется при значительном удалении места работы от места постоянного проживания работников или места нахождения работодателя в целях сокращения сроков строительства, ремонта или реконструкции объектов производственного, социального и иного назначения, обеспечения эксплуатации производственных объектов в необжитых, отдаленных районах либо в районах с особыми природными условиями, а также для осуществления иной производственной деятельности. ТК РУз – Ст. 465 – 472.

Источник: составлена по статьям, включенными в Трудовой Кодекс РУз.

В Узбекистане в последние годы наблюдается стабильный экономический рост, характеризующийся увеличением в 2017-2022 годах физического объема ВВП в 2,8 раза. В 2022 г. по сравнению с 2021 г. этот показатель возрос на 5,7% составил 888,3 трлн. сум, где наибольший вклад внесла отрасль промышленности, обеспечившая увеличение показателя на 5,2% (табл. 1). Также темп роста экономики за 2022 год обеспечен за счет полученных объемов строительных работ на 106,6%, оказанные рыночных услуг на 115,9% и отрасли сельского,

лесного и рыбного хозяйства на 103,6%. Между тем, уровень инфляции в республике в прошлом году (2021г.) показал снижение по сравнению с 2021 г. на 2,3 п.п.

3-rasmdan shuni ko'rish mumkinki, ko'p omilli ekonometrik modelga kiritiladigan barcha omillar normal taqsimot qonuniga bo'ysunar ekan. Y,  $X_3$  va  $X_5$  omillarning asimmetriya koeffitsientlari musbat qiymatga ega bo'lganligi sababli, ularning grafiklaridagi “o'ng do'mi” “chap do'mi” dan uzunroq bo'lib, taqsimot funksiyasi grafigi chap tomonga siljiganini ko'rish mumkin.  $X_1$ ,  $X_2$  va  $X_4$  omillarning asimmetriya koeffitsientlari manfiy qiymatga ega bo'lganligi uchun ularning grafiklaridagi “chap do'mi” “o'ng do'mi” dan uzunroq bo'lib, taqsimot funksiyasi grafigi chap tomonga siljiganini ko'rish mumkin.

Ushbu surilishlar asosan o'rganilayotgan davrda O’zbekiston inklyuziv mehnat bozorida omillar dinamikasidagi o'zgarishlarni ko'rsatadi. Ayrim yillarda ba'zi omillar keskin ortishga ega bo'lgan bo'lsa, ayrimlarida o'zgarishlar sezilarli darajada bo'lmasan. Umuman olgandan o'rganilayotgan barcha omillar normal taqsimot qonuniga bo'ysunar ekan.



**3-rasm. Omillarning normal taqsimot funksiyalari grafiklari<sup>8</sup>**

Bundan tashqari,  $X_1$ ,  $X_2$  va  $X_3$  omillarning eksess ko'rsatkichi qiymati 3,0 dan katta (mos ravishda 3.17, 3.09 va 3.46). Bu esa ushbu ko'rsatkich funksiya grafigining normal taqsimot funksiyasi grafigidan ko'ra "uchqirroq" ekanligini ko'rsatmoqda (2.2-jadval).

O'zbekiston Respublikasi inklyuziv mehnat bozori ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha tuziladigan ko'p omilli ekonometrik modelga omillarni tanlash uchun omillar o'rtasida korrelyatsion tahlil o'tkazish lozim. Buning uchun omillar o'rtasida xususiy va juft korrelyatsiya koeffitsientlari hisoblanadi. Biz yuqorida keltirilgan O'zbekiston Respublikasi inklyuziv mehnat bozori ko'rsatkichlari bo'yicha bir qator korrelyatsion va regression tahlil hisob-kitoblar o'tkazdik. Olingan natijalar bo'yicha bir qator testlar o'tkazdik. O'tkazilgan testlarga javob bermaydigan omillarni ko'p omilli ekonometrik modelga kiritmaslikka asos bo'ldi. Natjalarga asoslanib, O'zbekiston Respublikasi inklyuziv mehnat bozori ko'rsatkichlari bo'yicha ko'p omilli ekonometrik model tuzishda quyidagi 2.2-jadvalda keltirilayotgan natijaviy omil ( $\ln Y$ ) va unga ta'sir etuvchi 5 ta omillarni qoldirdik (Natijaviy omil – jami ishlovchi nogironligi bor shaxslar (NBSH), nafar ( $\ln Y$ ), respublika bo'yicha NBSHlar, jami, nafar ( $\ln X_1$ ), NBSHlar uchun band qilingan ish o'rinnlari soni, nafar ( $\ln X_2$ ), kasbga o'qitilgan NBSHlar, nafar ( $\ln X_3$ ), NBSHlar uchun ish o'rni band qilingan korxonalar soni, ( $\ln X_4$ ), jami ishlashi mumkin bo'lgan NBSHlar soni, nafar ( $\ln X_5$ )). Natijada ko'p omilli ekonometrik modelda

<sup>8</sup>Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining ma'lumotlari va yillik hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

qatnashadigan omillar o’rtasida xususiy va juft korrelyasiya koeffitsientlari matritsasi quyidagi 2-jadvalda keltirilgan.

**2-jadval.**

**Omillar o’rtasida xususiy va juft korrelyasiya koeffitsientlari  
matritsasi<sup>9</sup>**

Covariance Analysis: Ordinary

Date: 02/05/23 Time: 22:38

Sample: 2017Q1 2022Q4

Included observations: 24

Correlation

t-Statistic

Probabilty	lnY	lnX <sub>1</sub>	lnX <sub>2</sub>	lnX <sub>3</sub>	lnX <sub>4</sub>	lnX <sub>5</sub>
lnY	1.000000					
lnX <sub>1</sub>	0.643965	1.000000				
	2.718177	-----				
	0.0098	-----				
lnX <sub>2</sub>	-0.438867	-0.138346	1.000000			
	-2.290872	-0.655199	-----			
	0.0319	0.5191	-----			
lnX <sub>3</sub>	0.905391	0.336666	-0.393382	1.000000		
	10.00206	1.676999	-2.006932	-----		
	0.0000	0.1077	0.0572	-----		
lnX <sub>4</sub>	0.774263	0.360471	0.236986	0.286911	1.000000	
	8.526732	1.812623	1.144155	1.404791	-----	
	0.0192	0.0836	0.2649	0.1740	-----	
lnX <sub>5</sub>	0.955110	0.331089	-0.441034	0.370827	0.423199	1.000000
	15.12177	1.645766	-2.304908	1.908860	2.190838	-----
	0.0000	0.1140	0.0310	0.1460	0.0393	-----

Ushbu 2-jadvaldan ko‘rish mumkinki, xususiy korrelyatsiya koeffitsientlari - bu natijaviy omil ( $\ln Y$ ) va unga ta’sir etuvchi omillar o’rtasidagi bog’lanishlar zichligini ko‘rsatadi. Demak, xususiy korrelyatsiya koeffitsientlari natijaviy omil – “O‘zbekiston Respublikasi inklyuziv mehnat bozori ko‘rsatkichlari ( $\ln Y$ ) va ta’sir etuvchi omillar ( $\ln X_i$ ) o’rtasida turli xil bog’lanishlar mavjudligini ko‘rsatmoqda.

**Xulosa va takliflar**

Demak, O‘zbekiston Respublikasi inklyuziv mehnat bozorida jami ishlovchi NBSHlar soni ( $\ln Y$ ) va respublika bo‘yicha NBSHlar soni ( $\ln X_1$ ) o’rtasida bog’lanish zichligi 0,6439 ga teng. Bu esa jami ishlovchi NBSHlar soni va respublika bo‘yicha NBSHlar soni o’rtasida o’rtacha bog’lanish mavjudligini ko‘rsatadi. Shuningdek, jami ishlovchi NBSHlar soni ( $\ln Y$ ) bilan NBSHlar uchun band qilingan ish o’rinlari soni ( $\ln X_2$ ) o’rtasida sust teskari aloqa

<sup>9</sup>Kambag’allikni qisqartirish va bandlik vazirligining ma’lumotlari va yillik hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

mavjud ekan, ya'ni ular o'rtasidagi xususiy korrelyatsiya koeffitsientining qiymati -0,4389 teng ekan. Bundan tashqari jami ishlovchi NBSHlar soni ( $\ln Y$ ) va kasbga o'qitilgan NBSHlar soni ( $\ln X_3$ ) o'rtasida zich aloqa mavjud ekan. Buning sababi mazkur ikki omil o'rtasidagi xususiy korrelyatsiya koeffitsienti 0,9054 teng ekan. Shuningdek, jami ishlovchi NBSHlar soni ( $\ln Y$ ) va NBSHlar uchun ish o'rni band qilingan korxonalar soni ( $\ln X_4$ ) o'rtasida kuchli bog'lanish mavjud ekan. Ushbu omillar o'rtasidagi xususiy korrelyatsiya koeffitsienti 0,7743 ga teng. Hamda, jami ishlovchi NBSHlar soni ( $\ln Y$ ) va jami ishlashi mumkin bo'lgan NBSHlar soni ( $\ln X_5$ ) o'rtasida zich bog'lanish mavjud. Chunki, ular o'rtasida xususiy korrelyatsiya koeffitsienti 0,9551 ga teng.

Hisoblangan ko'p omilli ekonometrik model shuni ko'rsatadiki, respublika bo'yicha NBSHlar ( $\ln X_1$ ) o'rtacha bir foizga ortsa, jami ishlovchi NBSHlar ( $\ln Y$ ) o'rtacha 0,056 foizga kamayar ekan. NBSHlar uchun band qilingan ish o'rnlari soni ( $\ln X_2$ ) o'rtacha bir foizga ortsa, jami ishlovchi NBSHlar ( $\ln Y$ ) o'rtacha 0,1047 foizga ortar ekan. Respublikada kasbga o'qitilgan NBSHlar ( $\ln X_3$ ) ning o'rtacha bir foizga ortishi, jami ishlovchi NBSHlarni ( $\ln Y$ ) o'rtacha 0,0846 foizga ortishiga olib kelar ekan. NBSHlar uchun ish o'rni band qilingan korxonalar soni ( $\ln X_4$ ) ning o'rtacha bir foizga ortishi, jami ishlovchi NBSHlarni ( $\ln Y$ ) o'rtacha 0,5165 foizga ortishiga olib kelar ekan. Respublikada jami ishlashi mumkin bo'lgan NBSHlar soni ( $\ln X_5$ ) ning o'rtacha bir foizga ortishi, jami ishlovchi NBSHlarni ( $\ln Y$ ) o'rtacha 1,2813 foizga ortishiga olib kelar ekan.

O'zbekiston Respublikasi inklyuziv mehnat bozori ko'rsatkichlari bo'yicha tuzilgan ko'p omilli ekonometrik model (2) sifatini tekshirish uchun determinatsiya koeffitsientini tekshiramiz. Determinatsiya koeffitsienti natijaviy omil necha foizga modelga kiritilgan omillardan tashkil topishini ko'rsatadi. Hisoblangan determinatsiya koeffitsienti ( $R^2$  - R-squared (2.3-jadval)) 0,9543 ga teng. Bu esa jami ishlovchi NBSHlarning ( $\ln Y$ ) 95,43 foizi (2) ko'p omilli ekonometrik modelga kiritilgan omillardan tashkil topishini ko'rsatmoqda. Qolgan 4,57 foizi (100,0-95,43) esa hisobga olinmagan omillar ta'siri ekanligini ko'rsatmoqda.

Respublikada jami ishlovchi NBSHlar bo'yicha tuzilgan (2) ko'p omilli ekonometrik modeldagi omillarning standart xatoliklarining ham kichik qiymatlarni qabul qilganligi ham modelning statistik ahamiyati yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Inklyuziv mehnat bozorida nogironligi bo'lgan shaxslar ishtirok etishi va ularning munosib ish bilan banligi bo'yicha hali ko'p ish qilinishi kerak. Shu sababli, aniq maqsadli auditoriya uchun mo'ljallangan chora-tadbirlar majmuasiga ehtiyoj bor. Shuni ta'kidlash kerakki, nogironligi bo'lgan shaxslarning bandligi individual omillar, qo'llab-quvvatlash apparati, ish hayoti va munosabatlar va ob'ektlarning jismoniy dizayni kabi umumiyligi ijtimoiy sharoitlarning o'zaro ta'sirini o'z ichiga oladi. Ko'pgina nogironligi bo'lgan shaxslar turli davlat xizmatlarini, yordam dasturlarini, arzon va moslashuvchan transport xizmatlarini ko'rsatishda kompleks yondashuvni

talab qiladi. Bu ularning mehnat hayotiga qo'shilishi va to'liq ishtirok etishining muhim shartidir.

Biroq, ishtirok etishning o'zi inklyuziv va barqaror o'sishni ta'minlash uchun etarli emas. Agar ish beruvchilartomonidan talab qilinadigan soxaga xos, yuqori darajadagiko'nikmalarga ishchilar ega bo'lmasa, ishchilarning soni ko'pligi ham o'z ahamiyatini yo'qotadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, nogironligi bo'lgan shaxslarga moslashgan inklyuziv mehnat bozori shakllanishida uslubiy yondashuv, samaradorlikka sezilarli ta'sir qiluvchi omillar aniqlangan holda ko'p omilli ekonometrik modellar statistik ahamiyatli bo'lib, respublikamizda inklyuziv mehnat bozordagi qonuniyatlarni aniqlashga va kelgusida vujudga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarni oldini olishga imkon beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasining 2020 yilning 15 oktyabrdagi O'RQ-641-sonli "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonuni. Elektron manba: <https://lex.uz>
2. AbdurahmonovQ.X.,(2009). Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. Darslik. "МЕХНАТ", 105-б.
3. Арбуз А.В., (2018). «Новые подходы к трудоустройству лиц с ограниченными возможностями здоровья». Журнал. Региональная экономика. С. – 28.
4. Боровинкова И.В., (2015). Создание инклюзивного рынка труда в Норвегии. Текст научной статьи по специальности «Экономика и бизнес».. – Р 3. <https://cyberleninka.ru/article>.
5. Волгина Н.А., Одегова Ю.Г., (2008). Экономика труда (социально-трудовые отношения). // Под ред. Н.А.Волгина, Ю. Г. Одегова. -М.: Экзамен.
6. Дронишинец Н. ва Филатова И. (2005). "Современные тенденции в трудоустройстве лиц с ограниченными возможностями в Японии" ГСНТИ. С. – 178.
7. Котляр А.О., (1998). О понятии рынка труда. // Вопросы экономики, №1. С.34.
8. Макарьев И.С., (2015). Краткий словарь системы понятий инклюзивного образования. Терминологический словарь. СПб: Охтинский колледж. - 25 с.
9. Никифорова А.А., (1991). Рынок труда: занятость и безработица. М.: Международные отношения. С. 84 с.;
10. Noteboom J., (2013). "Making labor markets inclusive". CEO Randstad Holding N.V. OECD Yearbook. <https://www.oecd.org/employment/making-labour-markets-inclusive.htm>.
11. Тринадцатко А.А., (2021). «Состояние занятости инвалидов в России в предпандемический и пандемический периоды // Социодинамика. № 3. С. – 47. [www.economyjournal.uz](http://www.economyjournal.uz)

12. Эренберг Р.Д., Смит Р.С., (1996) Современная экономика труда: Теория и государственная политика. - М.: МГУ.
13. O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining ma'lumotlari (2023).



# МЕННАТ ИКТИСОДИЙТИ ВА ИНСОН КАПИТАЛИ

<https://laboreconomics.uz/>



## ОБОСНОВАНИЕ ПЕРЕЧНЯ ВИДОВ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ПРОФЕССИЙ, ВОСТРЕБОВАННЫХ В ЭКОЛОГИЧЕСКИ ОРИЕНТИРОВАННОЙ ЭКОНОМИКЕ

**Ходжаева Нодирахон Абдурашидовна**

Филиал ФГБОУ ВО «Российский экономический университет  
имени Г.В.Плеханова» в Ташкенте, PhD., доцент

DOI: [https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2\\_iss1/a5](https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a5)

**Аннотация:** В статье рассмотрено современное состояние социально-трудовых отношений, данна попытка анализа механизма совершенствования трудовой деятельности в системе экологии.

**Ключевые слова:** мониторинг, механизм, структура управления, социально-трудовые отношения, трудовая деятельность, окружающая среда.

## IQTISODIYOTDA TALAB YUQORI BO'LGAN ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISHGA YO'NALTIRILGAN FAOLIYAT VA KASBLAR RO'YXATINING ASOSLANISHI

**Xojaeva Nodiraxon Abdurashidovna**

"G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti"  
Toshkent shahridagi filiali, PhD., dotsent

**Annotatsiya.** Maqolada ijtimoiy mehnat va mehnat munosabatlarning hozirgi holati ko'rib chiqiladi, shuningdek, ekologiya tizimida mehnat faoliyatini takomillashtirish mexanizmi tahlili amalga oshirilgan.

**Kalit so'zlar:** monitoring, mexanizm, boshqaruв tuzilmasi, ijtimoiy va mehnat munosabatlari, mehnat faoliyati, atrof-muhit.

## RATIONALE FOR THE LIST OF ACTIVITIES AND PROFESSIONS IN DEMAND IN THE ENVIRONMENTALLY ORIENTED ECONOMY

**Khojaeva Nodirahon Abdurashidovna**

"Russian University of Economics  
named after G.V. Plekhanov" in Tashkent, PhD, Associate Professor

**Abstract:** The article considers the current state of social and labor relations, an attempt is made to analyze the mechanism for improving labor activity in the system of ecology.

**Key words:** monitoring, mechanism, management structure, social and labor relations, labor activity, environment

## **Введение**

Сохранение «загрязняющей» экономики с ее традиционной зависимостью от низкоэффективных невозобновляемых источников энергии, нерациональным использованием материальных ресурсов, высокой степенью климатических рисков и продолжение инвестирования в нестабильные секторы экономики будет воспроизводить имеющиеся диспропорции и уязвимости, которые сделают постоянными те глобальные кризисы, с которыми сталкивается человечество в современных условиях. По оценкам Global Construction Perspectives и Oxford Economics к 2030 году объем строительства во всем мире вырастет на 85% до 15,5 трлн. долл.1, при этом на три страны (Китай, США и Индия) придется 57% всего мирового роста строительной отрасли.

## **Анализ литературных источников**


Если рассматривать строительную индустрию в экономически развитых странах, там, где уровень заработных плат выше, возможности трудоустройства шире, а доля молодого населения медленно сокращается (феномен демографического старения населения), привлекать молодежь в строительную индустрию становится все труднее. Ответом на этот вызов времени может стать широкое внедрение автоматизации труда, технологическое перевооружение отрасли. В странах же с другой экономической и демографической ситуацией (низкий или невысокий уровень оплаты труда, высокий уровень безработицы, значительная доля молодого населения) трудовые ресурсы для строительной отрасли останутся в достатке. В таких условиях автоматизация труда не имеет смысла ни с экономической, ни с социальной точки зрения. Здесь на первый план выступает проблема качества подготовки кадров на всех уровнях: управленцы, инженерно-технические кадры, рабочие

## **Методология исследования**

В статье методами исследования выступают научная абстракция, эмпирическая, описательная статистика, группировка, сравнительный и динамический анализ.

## **Анализ результатов исследования**

На основе проведенных исследований, автор классифицировал социально -трудовые отношения по ряду отраслей в условиях “зеленой” экономики, которые представлены на рис 1.



**Рис.1.Классификация профессий в строительной отрасли<sup>1</sup>**

Энергетический комплекс. В Республике Узбекистан уже солнце и ветер генерируют порядка 2,5% электрической энергии. В ближайшие 10 лет она возрастет до 10%. В Узбекистане будет развиваться группа профессий связанная с проектированием, производством компонентов для ВИЭ, а также их строительством, обслуживанием и управлением. В ближайшие годы все больше специалистов в этой сфере будут востребованы энергетической отрасли которые представлены на рис 2.

Управление транспортными средствами и логистическими цепочками в ближайшем будущем будет полностью оцифровано. Дистанционная координация потребует развитых цифровых навыков. Работник отрасли будет больше ИТ-специалистом, чем классическим водителем, логистом или ремонтником.

Геймифицированные процессы, виртуальное удаленное управление различными видами транспорта, работа с цифровыми двойниками и взаимодействие с искусственным интеллектом превратят транспортный сектор в инновационную наукоемкую сферу, требующую высокой степени профессиональной подготовки, основанной на широком спектре компетенций. Как следствие, работники, занятые в данной отрасли будут одними из наиболее востребованных и высокооплачиваемых специалистов, которые представлены на рис 3.


<sup>1</sup> Разработано автором в ходе исследования



**Рис.2. Классификация профессий в энергетической отрасли<sup>2</sup>**

Эффективность и конкурентоспособность отраслей промышленности характеризуется наличием возможностей гибкого использования прорывных технологий Четвертой промышленной революции. Активизация внедрения технологий виртуальной реальности (VR/AR) позволит сократить сроки проектирования и тестирования изделий. Благодаря использованию искусственного интеллекта, производственные процессы будут все больше и больше автоматизироваться, сократится влияние человеческого фактора на принятие решений.

<sup>2</sup> Разработано автором




**Рис.3. Классификация профессий в транспортном секторе<sup>3</sup>**

Цифровое проектирование и моделирование позволит в короткие сроки создавать конкурентоспособную продукцию, полностью отвечающую требованиям рынка. Базой цифрового проектирования будет служить разработка цифровых двойников изделия и производственных процессов. Специфика профессий отраслей промышленности представлена на рис 4.

Фермы будут активно применять природоохранные мероприятия для уменьшения негативного воздействия сельскохозяйственной деятельности на агрокосистемы (паши, сенокосы, пастбища).

<sup>3</sup> Разработано автором



**Рис.4. Классификация профессий в промышленном секторе<sup>4</sup>**

С высокой вероятностью будут использоваться экологически чистые технологии повышения плодородности почвы. Растениеводческая продукция будет биобезопасной и экологически чистой за счет применения биогумуса, сокращения списка разрешенных к использованию минеральных удобрений, использования биотехнологий для карантина и защиты растений. Органическое земледелие в Республике Узбекистан, будет продолжать активно развиваться, несмотря на объективные трудности. Органические отходы животноводческого, птицеводческого и растениеводческого производства будут полностью перерабатываться, на выходе будут получаться экологически чистые удобрения и биогаз. Предприятия в переработке сельскохозяйственной продукции становятся безотходными, в производстве будет активно использоваться вторичная сырьевая база. Продукция будет упаковываться в эко-тару. Специфика профессий отраслей экологии и сельского хозяйства представлена на рис 5.

<sup>4</sup> Разработано автором в ходе исследования



**Рис.5. Классификация профессий в экологическом (органическом)сельском хозяйстве<sup>5</sup>**

Экотуризм активно развивается под влиянием масштабного использования Big Data, расширения сфер внедрения искусственного интеллекта, которые преображают ландшафт отрасли и открывают новые возможности. Продвижение туристского продукта уже в ближайшем будущем будет осуществляться через онлайн-тревел-платформы, объединяющих ведущих игроков рынка. Для привлечения и обслуживания туристов широко будут использоваться технологии дополненной и виртуальной реальности. Для быстрого ориентирования туристов в местах пребывания, а также для построения индивидуального маршрута путешествия - создаваться мобильные приложения турнавигаторов. С целью повышения сервиса обслуживания и безопасности постояльцев, отельный бизнес будет внедрять концепцию «умной» гостиницы, повсеместно внедряя интеллектуальные устройства, в связи с этим предъявляются новые требования по вопросам социально-трудовых отношений в современных условиях, которые представлены на рис 6.

<sup>5</sup> Разработано автором



**Рис. 6 Классификация профессий в экотуризме**

В настоящее время отчетливо проявляются признаки сдерживания темпов экономического роста вследствие истощения природных ресурсов и его воздействия на окружающую среду (например, нехватка сырья, повышение цен на сырьевые ресурсы). Поэтому, основной задачей для обеспечения устойчивого долгосрочного роста является максимальное сокращение зависимости экономического роста от потребления материалов и энергоресурсов.

#### **Выводы и предложения**

Эффективным способом решения задачи снижения этой зависимости и повышения ресурсоэффективности экономики может стать переход к «зеленой» экономике:

1) Зеленая экономика будет способствовать повышению эффективности использования ресурсов в производстве. В настоящее время на сектор производства приходится 35% мирового потребления электроэнергии, свыше 20% мировых выбросов углерода и добыча более чем четверти первичных ресурсов.

2) «Озеленение» сельского хозяйства и переработки обеспечит повышение эффективности использования ресурсов в этих секторах и станет важным фактором обеспечения мировой продовольственной безопасности сегодня и в будущем. Фермы будут активно применять

природоохранные мероприятия для уменьшения негативного воздействия сельскохозяйственной деятельности на агроэкосистемы.

### **Список использованной литературы**

1. Ходжаева Н.А. (2021). Критерии оценки работы на экологически ориентированном рынке труда Республики Узбекистан. Американский журнал социальных и гуманитарных исследований , 2 (10), 62-67.
2. Jolliffe, Ian T.; Cadima, Jorge (2016-04-13). "Principal component analysis: a review and recent developments". Philosophical Transactions of the Royal Society A: Mathematical, Physical and Engineering Sciences. 374 (2065): 20150202. doi:10.1098/rsta.2015.0202. PMC 4792409. PMID 26953178
3. Khodjaeva N.A., & Jumanova A.B. (2022). Management And Its Components In Tourism Industry Of Uzbekistan. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 2(1), 51-56.
4. Dzhumanova A.B., Kushakova M.N., & Khodzhaeva, N. A. (2019). Formation of accounting management information in the control system of enterprises of JSC «Uzbekistan Railways. International Journal of Advanced Science and Technology, 28(14), 32-36.
5. Нуримбетов Р.И., & Ходжаева Н.А. (2022, December). СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПОКАЗАТЕЛИ ОПРЕДЕЛЯЮЩИЕ КРИТЕРИИ ОЦЕНКИ "ЗЕЛЕННЫХ" РАБОЧИХ МЕСТ. In E Conference Zone (pp. 125-127).
6. Нуримбетов Р., & Ходжаева Н. (2022). Перспективы и предпосылки развития зеленой экономики в Республике Узбекистан. *Общество и инновации*, 3(4), 5-10.
7. Ходжаева, Н.А. (2021). Критерии оценки работы на экологически ориентированном рынке труда Республики Узбекистан. Американский журнал социальных и гуманитарных исследований , 2 (10), 62-67.
8. Bahkramovna I.A. (2022). Poverty prevention policy in uzbekistan. Academicia Globe: Inderscience Research, 3(04), 274-280.
9. Irmatova, A. (2020). Ўзбекистонда аёлларнинг илмий-тадқиқот соҳасида иш билан бандлиги. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, (6), 35-43.
10. Мехнат бозорининг ривожланиши шароитида интеллектуал капиталга сарфланадиган инвестицияларни баҳолаш. АБ Ирматова - Иқтисодиёт ва таълим, 2016
11. Рахманбаева, Р. (2022). ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ. Иқтисодиёт ва инновацион технологиилар, 10(6), 265-270.
12. Рахманбаева, Р. (2022). ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ. Иқтисодиёт ва инновацион технологиилар, 10(6), 265-270.
13. Нематов А.И., & Рахманбаева Р. А. (2021). ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ ПРЕДПРИЯТИЙ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА В УЗБЕКИСТАНЕ. Science and Education, 2(2), 164-167.



# МЕХНАТ ИКТИСОДИЙТИ ВА ИНСОН КАПИТАЛИ

<https://laboreconomics.uz/>



## HUDUDLAR MEHNAT BOZORI EHTIYOJI ASOSIDA KADRLAR TAYYORLASH

**Xayitov Abdumannon Buxarovich**  
TDIU, "Inson resurslarini boshqarish"  
kafedrasi dotsenti

**Jumaeva Dilafruz Xamroyevna**  
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti  
tayanch doktoronti

DOI: [https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2\\_iss1/a6](https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a6)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada hududlar mehnat bozori ehtiyoji asosida kadrlar tayyorlashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, mehnat bozori ehtiyoji asosida kadrlar tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslari, hududlar mehnat bozori ehtiyoji asosida kadrlar tayyorlash bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalari asoslab berilgan, shu bilan birga Buxoro viloyatida mehnat bozori ehtiyoji asosida kadrlar tayyorlash tizimining tahlili, Buxoro viloyatida mehnat bozori holati va uning tahlili hamda mehnat bozori segmentidagi mutanosiblik holatiga ta'sir etuvchi omillar tahlili amalga oshirilgan, tahlillar natijasida aniqlangan kamchiliklar bo'yicha tarmoq va sohalar kasbiy malaka turlari ehtiyoji asosida mehnat resurslari raqobatbardoshligini ta'minlash imkoniyatlari, hududlar mehnat bozori ehtiyoji asosida kadrlar tayyorlashning istiqbolli yo'nalishlari hamda hududlar mehnat bozori ehtiyoji asosida kadrlar tayyorlash tarkibini takomillashtirish yo'llari ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Mehnat bozori ehtiyoji, kasb-hunarga yo'naltirilish, ta'lim muassasalari, hududiy mehnat bozori, zamonaviy kasb-hunar ko'nikmalari, rasmiy ta'lim, ko'nikmalar, mehnat samaradorligi, ish haqi, malaka, iqtisodiy nofaol aholi, ishsizlar, mehnat migratsiyasi, monomarkazlar.

## ПОДГОТОВКА КАДРОВ С УЧЕТОМ ПОТРЕБНОСТЕЙ РЕГИОНАЛЬНОГО РЫНКА ТРУДА

**Хайтов Абдуманон Бухарович**  
ТГЭУ, доцент кафедры "Управление человеческими ресурсами"  
**Джумаева Дилафруз Хамроевна**  
Бухарский инженерно-технологический институт  
базовый докторант

**Аннотация.** В данной статье показаны социально-экономическая значимость, научно-теоретические основы и передовой зарубежный опыт подготовки кадров исходя из потребностей рынка труда. Также выполнен анализ системы подготовки кадров исходя из потребностей рынка труда Бухарской области. Проанализированы

состояние рынка труда и факторы, влияющие на сбалансированность сегмента рынка труда Бухарской области. На основе недостатков, выявленных в результате анализов, показаны способы обеспечения конкурентоспособности трудовых ресурсов, выявлены перспективные направления подготовки кадров, а также пути совершенствования подготовки кадров исходя из потребностей регионального рынка.

**Ключевые слова:** Потребности рынка труда, профессиональная ориентация, образовательные учреждения, региональный рынок труда, современные профессиональные навыки, формальное образование, навыки, эффективность труда, заработка плата, квалификация, экономически неактивное население, безработные, трудовая миграция, моноцентры.

---

## **STAFF TRAINING BASED ON THE NEEDS OF THE REGIONAL LABOR MARKET**

**Haitov Abdumannon Bukharovich**

TSUE, associate professor

of the department "Human resources management"

**Jumaeva Dilafruz Khamroevna**

Bukhara Institute of Engineering and Technology, basic doctorate

**Abstract.** This article shows the socio-economic significance, scientific and theoretical foundations and advanced foreign experience in training personnel based on the needs of the labor market. An analysis of the personnel training system was also carried out based on the needs of the labor market of the Bukhara region. The state of the labor market and factors affecting the balance of the labor market segment of the Bukhara region are analyzed. Based on the shortcomings identified as a result of the analyzes, ways to ensure the competitiveness of labor resources are shown, promising areas for training, as well as ways to improve training based on the needs of the regional market.

**Keywords:** Labor market needs, professional orientation, educational institutions, regional labor market, modern professional skills, formal education, skills, labor efficiency, wages, qualifications, economically inactive population, unemployed, labor migration, monocenters.

### **Kirish**

Ilg'or xorijiy tajribalar va ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, o'quvchi va yoshlarning kelgusida bo'lajak kasb-hunarlar yo'naltirilishi, mustaqil va sevimli kasb-hunar bo'yicha ta'lim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish har bir hududning imkoniyatlari va salohiyati, qolaversa, mavjud hududiy mehnat bozori proqnoz tahlillari natijalariga asoslangan holda ishlab chiqilgan dasturlar samardorligi va natijadorligiga bog'liq.

Jahon aholisining o'sish sur'atlari pasayib, o'rtacha umr ko'rish davomiyligi ortib bormoqda. 2050-yilga kelib, rivojlangan mamlakatlarda 60 yoshdan katta fuqarolar ulushi 33%, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa 20%ni tashkil etishi kutilmoqda<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> United Nations, World Population Prospects: The 2008 revision (New York, Department of Economic and Social Affairs, 2008).

Yaqin kelajakda jahon mehnat bozorida talab yuqori bo’lishi kutilgan kasb-hunar turlari va istiqbollari bo'yicha tadqiqot natijalariga asoslangan yo'nalishlar bo'yicha xalqaro tashkilotlar hisobotlarida ko'plab muammolar ko'tarilmoxda. Chunki, ta'lim muassasalarida erishilgan malaka va ko'nikmalar, ta'lim muassasalari va ish beruvchilarning birgalikda potensial ishga da'vogar bitiruvchilarning mehnat bozoridagi imkoniyatlari bo'yicha asosiy signal hisoblanadi.

Bu signal asosida bitiruvchilarning kelgusidagi hayoti davomida olgan haqiqiy ko'nikmalari va bilimlari, xulq-atvori va fazilatlari hamda qobiliyatlarini baholash mumkin. Mehnat bozori uchun bitiruvchilarni baholashdan ham muhimroq bo'lgan masalalar ko'p bo'lib, ehtiyoj asosida kadrlarni tayyorlash – eng asosiysidir.

Yevropa mamlakatlari bo'yicha 2007-yilda olib borilgan tadqiqot natijalari ta'sirchan natijalarni bergen: ta'lim mashg'ulotlar o'tkazilishi 1,0 foizga ortishi unumdoorlikning 3,0 foizga oshishiga olib kelgan va ta'lim bilan bog'liq bo'lgan umumiyligi unumdoorlikning o'sishi ulushi taxminan 16,0 foizni tashkil etgan edi<sup>2</sup>.

Yuqoridagi tendensiyalar ta'lim, malaka va qayta tayyorlash uchun quyidagi asosiy ta'sirga ega bo'lishi kutilmoqda:

Birinchidan, kelgusida iqtisodiy o'sish bugungi kunga qaraganda ko'proq mehnat unumdoorligiga bog'liq bo'lishi, bu ish kuchi ishtiroki ko'rsatkichlari, ayniqsa ayollar va keksa ishchilar o'rtasida o'sish bilan to'ldirilishi, keksa yoshdagi, lekin iqtisodiy faol shaxslar orasida umrbod ta'lim olish muammosi mos ravishda kuchayishi mumkin.

Ikkinchidan, hududiy mehnat bozoriga kirayotgan aholi tarkibida yoshlar kogortasining ortib borayotgani ta'lim va o'qitish salohiyatini hamda barqaror ish o'rinalarini yaratish ko'rsatkichlarini shubha ostiga qo'yishda davom etishi, joylarda malakasi past bo'lgan yoshlarni ish bilan bandligiga ko'maklashishda qiyinchiliklar paydo bo'lishi mumkin.

Uchinchidan, mehnat migrantlarining milliy va xalqaro darajadagi oqimi o'sib borishda davom etishi, sifatli ta'limdan adolatli foydalanishda, xususan, ayrim retsipient mamlakatlardagi malakaviy bo'shliqlar donor mamlakatlarda tomonidan to'ldirishidagi talablar va mutanosibliklar bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Inson resurslarini rivojlantirish va o'qitishning ushbu maqsadlari yillar davomida sezilarli darajada o'zgarmagan bo'lsa-da, kontekst - liberal, bozorga asoslangan iqtisodlarga o'tish, malaka oshirishga moyillik, texnologik o'zgarishlar, ishni tashkil etishning yangi usullari, ishsizlik, qashshoqlik va ijtimoiy chetlanishning ortib borayotgani - yaqinda tubdan o'zgardi<sup>3</sup>.

<sup>2</sup> CEDEFOP (European Centre for the Development of Vocational Training). 2007. Building a European VET area, Agora conference (Thessaloniki).


<sup>3</sup> ILO. International Labour Conference. 88th Session, 30 May - 15 June 2000. Report V. Training for employment: Social inclusion, productivity and youth employment. Human resources training and development: Vocational guidance and vocational training. Fifth item on the agenda. International Labour Office Geneva, 2000. <https://www.ilo.org/public/english/standards/relm/ilc88/rep-v.htm#Training%20and%20employability>

Ta'lim – iqtisodiy o'sishning muhim omili sifatida belgilangan. Yuqori darajadagi ta'lim darajasi yuqori malakali va samarali ishchi kuchiga olib keladi, mahsulot va xizmatlarning yuqori standartini yanada samarali ishlab chiqaradi, bu esa o'z navbatida tezroq iqtisodiy o'sish va turmush darajasini oshirish uchun asos yaratadi<sup>4</sup>.

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan yangi islohotlar pirovardida farovon kelajak uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga tayyor shijoatlari yoshlarni ta'lim va tarbiya berish bilan birga mehnat va zamonaviy kasb-hunar ko'nikmalarini hududiy ehtiyojlar asosida shakllantirishga asoslangan kadrlar tayyorlash jarayoni ko'lамини yanada kengaytirish zarurati yuzaga kelmoqda. Bunda nafaqat milliy ehtiyojlar, balki xalqaro talablarga ham alohida e'tibor qaratilishida jahon iqtisodiyoti ham manfaatdor hisoblanadi.

Hududlar mehnat bozori ehtiyoji asosida kadrlar tayyorlashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati kundan-kunga ortib bormoqda. Bunga sabab nafaqat ayrim sohalardagi kadrlar taqchilligi, balki mehnat bozori jamiyatdagi o'zgarishlar ortidan o'zgarib borayotganligi bilan ham izohlash mumkin. Xususan, ba'zi iqtisodiyot sohalarida ko'plab kasblar yo'qolib, ayrim kasblar mazmunan va mohiyatan o'zgarishlarga duch kelmoqda, shuningdek, yangidan-yangi innovatsion kasblar paydo bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 23-sон Qaroriga asosan tasdiqlangan O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining 4-bobida “Umumta'lim maktablari o'quvchilarida 7-sinfdan boshlab kasblarga qiziqishini aniqlash tizimini yo'lga qo'yish, maktab o'quvchilarini kasbga tayyorlash infratuzilmasini yaratish, 8-9-sinf o'quvchilarini istiqbolli kasblar bilan tanishtirib, buning uchun zarur bo'ladigan bilim va ko'nikmalar shakllantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish”<sup>5</sup> kabi yo'nalishlar belgilandi.



**1-rasm. Mehnat bozorida malakaning muhimligi<sup>6</sup>**

<sup>4</sup> A Skilled Workforce for Strong, Sustainable and Balanced Growth: A G20 Training Strategy. International Labour Office – Geneva, 2010. 48p. P8.

<sup>5</sup> O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish Konsepsiysi. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 23-sон Qaroriga 1-ilova


<sup>6</sup> Understanding the potential impact of skills recognition systems on labour markets: research report / Jiří Braňka; International Labour Office, Skills and Employability Branch. - Geneva: ILO, 2016.

Mamlakatda har bir hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashdan ko'zlangan assosiy maqsad, ushbu hududda aholi daromadlarini va turmush darajasini oshirish hamda mavjud kambag'allikni qisqartirish hisoblanadi. Bunday maqsadlarga avvalambor hududlar aholisining samarali, munosib va daromadli ish bilan bandligini ta'minlash orqali erishiladi.

Yuqoridagi 1-rasmda olingan malaka va ko'nikmalar rasmiy iqtisodiyotda munosib mehnatni ta'minlash imkoniyatlarini kengaytirishga aloqador ekanligini ko'rish mumkin. Ma'lumki, rasmiy ta'limdan tashqari olingan ko'nikmalarni rasman tan olish tizimlari tarmoq, milliy, mintaqaviy va global miqyosda paydo bo'la boshladi, bu tizimlar shaxslarga, ish beruvchilarga va umuman iqtisodiyotga foyda keltirishi kafolatlangan bo'lishi lozim. Rasmiy tan olingan har qanday malaka sertifikati uchun vaqt va mablag' sarflaniladi.

Xalqaro tadqiqotlarda mehnat bozoridagi malakalarning nomuvofiqligi ta'lim yoki o'qitish tizimlarida ishlab chiqilgan ko'nikmalar tavsifining mehnat bozori talablariga mos kelmasligi bilan izohланади.

Mehnat bozorida bitiruvchi yoshlar inson resurslari tarkibidagi umumiyligini aholining eng katta ulushini tashkil qilganligi sababli, malaka va ko'nikmalar nomuvofiqligi bo'yicha muammolarga juda tez va oson duch kelishadi. Bu esa ularning ilk bor ishga joylashuvida o'z ta'sirini ko'rsatadi.



## **2-rasm.Kasbiy malaka, bilim va ko'nikmalar muvofiqligini tan olish**

Xalqaro tashkilotlar jahon mamlakatlarida har bir mehnatga layoqatlidagi yoshdagi mehnatga layoqatlari va mehnat qilishni istaydigan inson uchun ish o'rni yaratish tamoyillarini ilgari surmoqda. Mamlakatlar globallashuv va raqamlashuv asrining mavhum ko'nikmalarini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berilayotganligi va milliy mehnat bozori sub'ektlarining barcha ehtiyojlarini qondirish uchun subsidiyalar va mikrokreditlarni rivojlantirishga ko'proq ahamiyat berilishi bundan dalolat beradi. Ushbu tavsiyalar yechimning bir qismi bo'la olmaydi va aksincha, muammolarni yanada kengaytirishi va chigallashtirishi mumkin. Buni tushunish uchun bizga hududiy mehnat bozorini chuqur tahlil qilish va yaqin kelajak uchun istiqbolli imkoniyatlarni shakllantirish maqsadga muvofiq. Hududiy mehnat bozorini tahlil qilishda esa

ikki tushuncha muhim o’rin tutadi: mehnat bozori talabi va amaldagi ta’lim tizimi.

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Mashhur nazariyotchilar R.Erenberg va R.Smit ta'biri bilan aytganda, “mehnat bozori faqat mehnatni xarid qiladigan va sotadiganlardan iboratdir”<sup>7</sup>.

MDH davlatlari olimlaridan N.A.Volgin, Yu.G.Odegov va boshqa iqtisodchi olimlar mehnat bozori sohasiga faqat mehnatni ayriboshlashni emas, shuningdek mehnat salohiyatini hosil qilish, shuningdek mehnatdan foydalanish jabhalarini kiritish lozimligini ko’rsatishadilar<sup>8</sup>.

O’zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori Q.Abdurahmonov mehnat bozoriga ta’rif berar ekan, “mehnat bozori – ish kuchi takror hosil qilinishining barcha bosqichlarida: uning shakllanishi, ayriboshlanishi, taqsimlanishi (ishchi kuchining ijtimoiy, kasbiy va xududiy taqsimlanishi) va mehnat sohasida foydalanilishi bosqichlarida xodim bilan ish beruvchi o’rtasida kechadigan ijtimoiy munosabatlar tizimi”<sup>9</sup> ekanligini alohida e’tirof etgan.

Mashhur iqtisodchi olim J.M.Keyns o’z asarida davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solish, xususan, ish bilan bandlik tizimining bir qismi sifatida mehnat bozorini tartibga solish, to’liq bandlikka erishish davlat tomonidan tartibga solishning asosiy vazifalaridan biri ekanligi hamda ish bilan bandlik, milliy daromad hamda jamg’arish o’rtasidagi bog’liqlik masalalarining fundamental tadqiqotiga alohida e’tibor qaratgan<sup>10</sup>.

Akademik Q.Abdurahmonov va iqtisodchi olim N.Zokirovalar “mehnat bozori, uni tartibga solish mexanizmlari, ishchi kuchiga bo’lgan talab va taklif mutanosibligi, ishchi kuchi (mehnat) bahosi darajasi muammolari tadqiq qilinar ekan, bu masalalarga asosan ish beruvchilar va yollanma xodimlar o’zaro munosabatlari nuqtai nazaridan yondoshilishini kuzatish mumkin”ligini<sup>11</sup> ta’kidlashadi.

Mehnat bozori va ish bilan bandlik nazariyasi uning vazifalarida konkretlashadi. Bu – mehnat bozori va ish bilan bandlik rivojlanishi qonuniyatları va tendensiyalarining tahlili asosida mazkur sohalarning tub muammolarini aniqlash va ularni hal etish yo’llari va usullari yuzasidan ilmiy asoslangan tavsiyalar tayyorlash, mehnat bozori samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan modellar ishlab chiqish, mehnat resurslari prognozlari

<sup>7</sup> Эренберг Р.Д., Смит Р.С. Современная экономика труда: Теория и государственная политика. - М.: МГУ, 1996.

<sup>8</sup> Экономика труда (социально-трудовые отношения). // Под ред. Н.А.Волгина, Ю. Г. Одегова. -М.: Экзамен, 2008.

<sup>9</sup> Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot. Darslik. – Т.: O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti davlat korxonasi, 2019. 592 b.

<sup>10</sup> Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. - М.: «Гелиос», 1999. -С. 112.

<sup>11</sup> Abdurahmonov Q.X., Zokirova N.Q. Mehnat bozori nazariyasiga yangicha yondashuvlar // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali № 1, sentyabr, 2011-yil

asosida mamlakat va mintaqani iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish istiqbol rejalariga aniqliklar kiritish bo'yicha xulosalar tayyorlashdan iboratdir.

Hududiy mehnat bozori bu milliy mehnat bozorining bir qismi hisoblanib, unga ko'plab ta'riflar keltirilgan. Ma'lumki, hududning mamlakatning boshqa ma'muriy-hududiy tuzilmalari bilan o'zaro munosabatlariga yetarlicha baho bermaslik amalda uning iqtisodiy tizimining izolyatsiyasiga, iqtisodiy aloqalar hajmining qisqarishiga olib keladi, hududiy mehnat bozorining yakkalanishini kuchaytiradi, bu esa birgalikda shahar xo'jaligi faoliyatining samaradorligi va ish haqining pasayishiga olib keladi<sup>12</sup>.

Hududiy mehnat bozori faoliyatining o'ziga xosligi shundaki, u mamlakat milliy mehnat bozoridagi talabga muvofiq holda ham namoyon bo'ladi. Ayniqsa, xalqaro mehnat migratsiyasi fonidagi taqchillik yoki keskinlikni birinchilardan bo'lib "qabul qiladigan" bozor hisoblanadi.

Rossiyalik olim G.Rudenko hududiy mehnat bozorlariga tavsif berar ekan, u "hududiy mehnat bozorlari mamlakat milliy mehnat bozorining hududiy quyi tizimlari bo'lib, bu ularning iqtisodiy mexanizmdagi alohida o'rnini belgilaydi"<sup>13</sup>gan xususiyatlari haqida aytib o'tgan.

Hududiy mehnat bozorini boshqarish uning ikki tomonlama xususiyatini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak: bir tomonidan, milliy (ba'zan hududiy) mehnat bozorida nisbiy mustaqillik va izolyatsiya, ikkinchi tomonidan, uning shakllanishi va faoliyatining mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining umumiyligi tendensiyalari bo'yicha dinamikaga bog'liqlik.

Hududiy mehnat bozorida ishchi kuchiga talab ish beruvchilarning barqaror faoliyati uchun zarur malakali xodimlarning muayyan sonini yollashga bo'lgan ehtiyojlari bilan ifodalash mumkin. Ushbu ko'rsatkich hududiy iqtisodiyotda yangi va amaldagi ish o'rnlari sonining o'zgarishiga olib keluvchi ko'plab tendensiyalar va jarayonlarni o'zida aks ettiradi.

MDH olimlaridan V.Adamchuk va S.Utinova ishchi kuchiga bo'lgan talabni bo'sh turgan yoki o'rindoshlik asosida band qilingan ish o'rnlarining umumiyligi soni sifatida yoki band bo'lgan xodimlar va jalb qilinishi talab etiladigan xodimlarning umumiyligi soni sifatida baholashni taklif etishgan<sup>14</sup>.

Iqtisodchi olim F.Prokopovning fikriga ko'ra, mehnat bozorida talab faqat bo'sh turgan ish o'rnlarini o'z ichiga oladi<sup>15</sup>. Aslida, ish o'rni ishchi kuchiga bo'lgan talab o'zgarishining tayanch birligi hisoblanib, bo'sh turmagan ish o'rnlari uchun ham ehtiyoj mavjudligini inkor qilmaslik lozim.

Ma'lumki, band qilingan ish o'rnlarida xodimlar faoliyat ko'rsatayotganligi tufayli ish beruvchilarda ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyoj qondirilgan deyish mumkin.

<sup>12</sup> Руденко, Г.Г. Внутренний и внешний рынки труда: механизм сбалансированного развития [Текст]: дисс. ... док. экон. наук / Г.Г. Руденко. – М., 1999. - 331 с. С.116.

<sup>13</sup> Руденко, Г.Г. Внутренний и внешний рынки труда: механизм сбалансированного развития [Текст]: дисс. ... док. экон. наук / Г.Г. Руденко. – М., 1999. - 331 с.; С.94.

<sup>14</sup> Адамчук В.В. Экономика труда: Учебник - М.: ЗЛО «Финстатинформ», 1999. - С.79; Утинова С. С. Изоморфный рынок труда в России Ин-т экономики. - М.: Наука, 2003. – С.56.

<sup>15</sup> Прокопов Ф.Т. Безработица и эффективность государственной политики на рынке труда в переходной экономике России. - М.: Экономический факультет МГУ; ТЕИС, 1999. – С.25.

Shuningdek, milliy darajasida ham, hududiy darajada ham, bo’sh bo‘lmaq ish o‘rinlari xodimlarni jalb etishni talab qilmasligi mumkin.

Fikrimizcha, kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj faqat ular uchun talablarga mos keladigan xodimlarni jalb qilish zarurati bo‘lgan bo‘sh ish o‘rinlariga nisbatan mavjud bo‘lishi bozor talablarini buzadi. Zamonaliviy tendensiyalar bo‘sh bo‘lmaq ish o‘rinlari uchun raqobatbardosh kadrlar uchun ehtiyoj sezdirmoqda.

Iqtisodchi olim U.Alijonov talabga shunday ta’rif bergan: “Talab deyilganda band qilingan va bo‘sh turgan ish o‘rinlarini tushunadigan bo‘lsak, u holda mintaqaning kadrlarga bo‘lgan ehtiyoji talabning mintaqasi hududida mavjud bo‘lgan bo‘sh ish o‘rinlarining umumiy soni sifatida tavsiflanishi mumkin bo‘lgan tarkibiy qismi hisoblanadi. Tadqiqotda o‘rta malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyoji aynan mintaqadagi bo‘sh ish o‘rinlarining sonida o‘z ifodasini topadigan qoniqtirilmagan talab sifatida tushuniladi”<sup>16</sup>.

Hududiy mehnat bozori ehtiyojlari nafaqat kadrlar soni, balki ulardagi bilim, malaka va ko‘nikmalarning sifat ko‘rsatkichlari bilan ham baholanadi.

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori Q.Abdurahmonov mehnat bozori talabi bo‘yicha juda keng qamrovli tadqiqotlar olib borgan bo‘lib, u nafaqat mehnat resurslarini sonini, balki ularning sifat darajalari haqida ham o‘z qarashlarini bildirgan, holda mehnat resurslari sifatining taklifini quyidagicha ifodalaydi: “Mehnat resurslari sifatining taklifi – insonning ta’lim va malaka darajasi, fiziologik, jismoniy, ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, ishlab chiqarish sharoitlariga moslasha olishi, kasbga yo‘naltirilganligi va mobilligi kabi shaxsiy xislatlarining jamlanmasidir”<sup>17</sup>.

Mehnat resurslari sifati mehnat bozori ehtiyojlarida gavdalanadi. Buning uchun kasbiy tayyorgarlik va yo‘naltirilishda motivlar juda muhim sanaladi. Iqtisodchi Z.Xudayberdiev hududiy mehnat bozori uchun mehnat resurslari motivatsiyasi modelini taklif qilar ekan, u “hududiy mehnat bozoridagi mehnat resurslari motivatsiyasi modelining vazifasi – integratsiyalashgan ijtimoiy-iqtisodiy tizimning samarali amal qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat hisoblanadi. Bu sharoitlar klaster shaklidagi mehnat resurslarini boshqarish tuzilmasini shakllantirish doirasida amalga oshirilishini, mehnat bozoridagi integratsiyalashgan uch darajali tizimning birinchi darajasi motivatsiya shakliga, ya’ni tizim asosi bo‘lgan bozor sharoitlarida taklif etilayotgan mehnatga moslashishga, ikkinchi darajasi – motivatsiyaning yo‘nalganligiga (kasbiy tayyorgarlikka), uchinchi darajasi – motivatsiyaning kuchiga (ijtimoiy yordam va qo’llab-quvvatlashga) kuchli ta’sir ko‘rsatishi”<sup>18</sup>ni ta’kidlaydi.

<sup>16</sup> Alijonov U.M. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy electron jurnali. № 2, mart-aprel, 2018. 1-14-betlar. Manba: [www.iqtisodiyot.uz](http://www.iqtisodiyot.uz)

<sup>17</sup> Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot. Darslik. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti davlat korxonasi, 2019. 592 b.

<sup>18</sup> Xudayberdiyev Z.R. Mehnat bozorida innovatsion yondashuvlar. “Iqtisod va moliya” jurnali, 2019, 2(122)-son, 36-43-betlar

Iqtisodchi Z.Xudayberdiev uch darajadagi motivatsiya modeliga javoban, akademik Q.X.Abdurahmonovning mehnat resurslari sifat ko'rsatkichlari bo'yicha nuqtai nazarini keltirib o'tish joiz. Unda "mehnat resurslari sifatining barcha ko'rsatkichlari yaxshilanishi ularning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini kuchaytiradi, mehnat unumdorligini oshirish va sifatini yaxshilashga xizmat qiladi, milliy mehnat bozorida mehnat resurslarining taklifi ularga talabdan yuqori bo'lganda tashqi mobillikka rag'batlantiradi"<sup>19</sup>, deyilgan.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Maqolada empirik, tasviriy statistika, guruhlashtirish, qiyosiy va dinamik tahlil tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

### **Tahlil va tadqiqot natijalari**

Xorijiy tadqiqotchilar nafaqat mehnat resurslarini balki ish beruvchilarni ham turli motivlar bilan o'z raqobatbardoshliklarini oshirib borish uchun ko'plab tavsiyaviy xarakterdagи takliflar bildirishgan.

So'nggi yillarda mehnat bozoriga taklif sifati undagi talab sifat ko'rsatkichlaridan ustunlikni rag'batlantirmoqda. Xususan, "rivojlanayotgan iqtisodiyot endi nafaqat taklif markazlari, balki talab markazlari sifatida ham xizmat qiladi va yangi texnologiyalarning paydo bo'lishi mintaqaviy qiymat zanjirlarini yanada kengroq amalga oshirishga imkon beradi"<sup>20</sup>.

Ma'lumki, hozirgacha ish o'rinnarini yo'qotishning eng katta qo'rquvi texnologik o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lgan. O'tgan davr mobaynidagi muhim innovatsiyalar, masalan elektr energiyasi ixtirosi, konveer yig'ish liniyasi, uyali aloqa vositalari, internet tarmog'i va hokazolar tufayli ish o'rinnarining yo'qolishi qisqa muddatli ekanligi o'z tasdig'ini topgan bo'lsa-da, uzoq muddatda yanada samarali va foydali ish o'rinnarini yaratish uchun imkoniyat yaratdi<sup>21</sup>. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, o'tmishdagi saboqlar har doim ham keljakka tegishli bo'lmasligi mumkin.

Har doim ham texnologik o'zgarishlar ish o'rinnari yo'qotilishiga sabab bo'lolmaydi. Bunga quyidagi sabablarni keltirish mumkin:

Birinchidan, yangi texnologiyalarni o'zlashtirish ko'pincha iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy to'siqlar tufayli sekin jarayondir, shuning uchun haqiqiy avtomatlashtirish kutilganidan ancha sekinoq sur'atda amalga oshiriladi.

Ikkinchidan, yangi texnologiyalar joriy qilingan taqdirda ham ishchilar vazifalarni almashadirish orqali avtomatlashtirish muammosiga moslasha oladilar, bu esa texnologik ishsizlikning oldini oladi.

<sup>19</sup> Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot. Darslik. – T.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti davlat korxonasi, 2019. 592 b.

<sup>20</sup> De Backer , K. et al. (2016), "Reshoring: Myth or reality?" OECD Science, Technology and Industry Policy Papers, No. 27, OECD Publishing, Paris. <http://dx.doi.org/10.1787/5jm56frbm38s-en>

<sup>21</sup> Mokyr, J., C. Vickers and N.L. Ziebarth (2015), "The history of technological anxiety and the future of economic growth: Is this time different?", *Journal of Economic Perspectives*, Vol. 29/3, pp. 31-50.

Uchinchidan, texnologik o‘zgarishlar nafaqat ish o‘rinlarini yo‘q qiladi, balki ish unumdoorligiga va yangi texnologiyalarga bo‘lgan talabga ta’siri orqali yangilarini ham yaratadi<sup>22</sup>.

Aholini ishsizlikdan himoyalash, tadbirkorlikni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirish mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning eng dolzarb yo‘nalishi hisoblanadi. Ayniqsa, mamlakatimizda kambag‘allik ta’siridagi fuqarolarni kambag‘allikdan chiqarishning eng oqilona yo‘li bu – ularni daromadli ish bilan bandligiga ko‘maklashishdir.

Shu o‘rinda 2012-2021-yillarda hududlar bo‘yicha aholi bandligi darajasi tahlillari shuni ko‘rsatadiki, 2021-yilda aholi bandligi darajasi (band aholi sonining mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soniga nisbati) o‘rtacha 67,0 foizni tashkil etib, 2020-yilga nisbatan 1,0% punktga ortgan.

### 1-jadval

#### O‘zbekiston Respublikasi aholi bandligi darajasi, foizda<sup>23</sup>

Hududlar	2012 y	2013 y	2014 y	2015 y	2016 y	2017 y	2018 y	2019 y	2020 y	2021 y
<b>O‘zbekiston Respublikasi</b>	<b>66,6</b>	<b>67,1</b>	<b>67,7</b>	<b>68,2</b>	<b>68,7</b>	<b>69,2</b>	<b>67,4</b>	<b>68,1</b>	<b>66,0</b>	<b>67,0</b>
<b>Qoraqalpog‘iston Respublikasi</b>	57,4	57,7	57,9	58,1	58,1	58,3	62,9	62,9	62,0	61,1
<b>Andijon</b>	69,0	69,9	70,8	71,5	72,3	73,0	69,6	70,1	66,5	68,2
<b>Buxoro</b>	<b>74,1</b>	<b>74,4</b>	<b>74,0</b>	<b>73,4</b>	<b>72,9</b>	<b>72,5</b>	<b>70,7</b>	<b>69,3</b>	<b>68,3</b>	<b>67,2</b>
<b>Jizzax</b>	56,0	56,5	57,3	58,1	59,1	60,0	61,6	67,1	66,2	67,5
<b>Qashqadaryo</b>	61,2	61,8	62,5	63,3	64,3	65,4	64,8	63,9	60,9	62,2
<b>Navoiy</b>	74,7	74,1	73,6	73,2	72,8	72,4	69,2	69,5	66,8	68,3
<b>Namangan</b>	57,2	58,1	59,3	60,5	61,9	63,4	63,8	66,4	65,0	65,5
<b>Samarqand</b>	64,7	65,4	66,5	67,6	68,7	69,7	66,3	65,3	63,2	63,7
<b>Surxondaryo</b>	62,3	62,7	63,4	64,3	65,4	66,6	65,2	67,0	63,9	64,5
<b>Sirdaryo</b>	72,2	72,5	72,9	72,2	71,7	71,1	70,5	68,9	64,8	64,5
<b>Toshkent</b>	72,9	74,0	75,1	75,3	75,4	75,2	71,4	71,4	68,2	72,4
<b>Farg‘ona</b>	68,0	68,3	68,8	69,1	69,6	69,9	66,0	67,5	65,1	66,2
<b>Xorazm</b>	63,9	64,3	65,0	65,6	66,3	66,9	64,6	66,1	63,7	64,0
<b>Toshkent.sh.</b>	80,7	80,7	80,9	81,1	81,0	80,8	77,5	80,1	81,7	81,3


Aholi bandlik darajasi 2021-yilda Andijon (66,5%dan 68,2 %ga), Jizzax (66,2%dan 67,5%ga), Qashqadaryo (60,9%dan 62,2%ga), Navoiy (66,8%dan 68,3%ga), Namangan (65,0%dan 65,5%ga), Samarqand (63,2%dan 63,7%ga), Surxondaryo (63,9%dan 64,5%ga), Toshkent (68,2%dan 72,4%ga), Farg‘ona (65,1%dan 66,2%ga) va Xorazm (63,7%dan 64,0%ga) viloyatlarida ortgan bo‘lsa, Qoraqalpog‘iston Respublikasi (62,0% dan 61,1%ga), Buxoro (68,3%

<sup>22</sup> Future of work and skills / Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD), Paper presented at the 2nd Meeting of the G20 Employment Working Group, 15-17 February 2017, Hamburg, Germany, 2017. 24p.

<sup>23</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

dan 67,2%ga), Sirdaryo (64,8%dan 64,5%ga) va Toshkent shahrida (81,7%dan 81,3%ga) bu ko'rsatkich pasayganligini ko'rish mumkin (2.2-jadval).

2018 va 2019-yillarda hudud aholisi bandlik darajasi mos ravishda 1.8 foiz punkt va 1.4 foiz punktlarga tushganligini, o'z navbatida ishsizlik darajasi 2018 yilda 8,7% ni , 2019-yilda esa 8,9% ni tashkil etgan (3-rasm).



**3-rasm. Buxoro viloyati aholi bandligi darajasi, foizda<sup>24</sup>**

2021-yilda Buxoro viloyati aholi bandlik darajasi (67,2%) respublika darajasi (67,0%) dan yuqori bo'lsada, boshqa viloyatlar bilan taqqoslaganda, Andijon (68,2%), Jizzax (67,5%), Navoiy (68,3%), Toshkent (72,4%) va Toshkent shahri (81,3%)dan keyingi o'ringa tushgan. Vaholanki, 2012 yilda Buxoro viloyati aholi bandligi darajasi (74,1%) faqat Toshkent shahridan (80,7%) dan keyingi o'rinda, respublikasi ko'rsatkichi (66,6%) dan 7,5% punktga ortiq ko'rsatkichga ega bo'lgan.

### Xulosa va takliflar

Amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot asosida tayyorlangan ilmiy maqolada biz tomonimizdan quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Hududlar mehnat bozori ehtiyoji asosida kadrlar tayyorlashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati kundan-kunga ortib bormoqda. Bunga sabab nafaqat ayrim sohalardagi kadrlar taqchilligi, balki mehnat bozori jamiyatdagi o'zgarishlar ortidan o'zgarib borayotganligi bilan ham izohlash mumkin. Xususan, ba'zi iqtisodiyot sohalarida ko'plab kasblar yo'qolib, ayrim kasblar mazmunan va mohiyatan o'zgarishlarga duch kelmoqda, shuningdek, yangidan-yangi innovatsion kasblar paydo bo'lmoqda.

2. Mamlakatda har bir hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashdan ko'zlangan asosiy maqsad, ushbu hududda aholi daromadlarini va turmush darajasini oshirish hamda mavjud kambag'allikni qisqartirish hisoblanadi. Bunday maqsadlarga avvalambor hududlar aholisining samarali, munosib va daromadli ish bilan bandligini ta'minlash orqali erishiladi.

<sup>24</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

3. Hududiy mehnat bozori faoliyatini isloq qilish, aholi ish bilan bandligiga ko‘maklashish chora-tadbirlari hududning tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi darajasi va sharoitlari, demografik jihatlar, mehnat resurslari va iqtisodiy salohiyatini hisobga olgan holda ishlab chiqilar ekan, bunda hudud iqtisodiyotidagi turli tarmoq va sohalar uchun zarur kasb va hunar egalariga bo‘lgan ehtiyojlarni miqdor va sifat ko‘rsatkichlari asosida tahlil qilish pirovard maqsad bo‘lib qolmoqda.

4. Kadrlarning ma'lumotli bo‘lishi juda muhim, biroq ularning mehnat resursi sifatida samaradorligi mehnat bozori ehtiyojlariga qanchalik mos kelishi undan ham muhim sanaladi. Mehnat bozori talablaridan kelib chiqib tayyorlanayotgan kadrlar malakasidagi nomuvofiqlik nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy muammolar uchun ham zamin bo‘lib xizmat qiladi. Xalqaro tadqiqotlarda mehnat bozoridagi malakalarning nomuvofiqligi ta’lim yoki o‘qitish tizimlarida ishlab chiqilgan ko‘nikmalar tavsifining mehnat bozori talablariga mos kelmasligi bilan izohlanadi. Buni esa kasbiy malakalar, bilim va ko‘nikmalarni muvofiqligini tan olish mexanizmi asosida baholash mumkinligini asoslandi.

5. Hozirgi kunda aholi ish bilan bandligi va ishsizlik masalalariga qanchalik e’tibor qaratilmasin, mavjud muammolar o‘z ahamiyatini yo‘qotganicha yo‘q. Bunga bugungi real iqtisodiyot soha va tarmoqlarida rivojlanish intensivligi, kelajakda barchasi raqamlı transformatsiyalashuvi natijasida ish bilan bandlik va ishsizlik muammolari yanada dolzarb bo‘lib borishda davom etadi. Shuning uchun ham, kadrlarni nafaqat milliy, balki xalqaro mehnat bozori ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda tayyorlash maqsadga muvofiq.

Amalga oshirilgan tadqiqot asosida yozilgan ilmiy maqolada hududlar mehnat bozori ehtiyoji asosida kadrlar tayyorlash tarkibini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi takliflar shakllantirildi:

1. Xalqaro tajribalar asosida mehnat bozori ehtiyojlari asosida kadrlar tayyorlash tarkibini takomillashtirishga xizmat qiladigan ko‘nikmalarni aniqlash va baholash tizimini ishlab chiqish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

2. Ta’lim muasasalarida malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash, ilg‘or tajriba va zamonaviy texnologiyalar asosida ularning malakasini oshirib borish lozim.

3. Bilim, malaka va ko‘nikmalarning samarali almashinuvi hamda uzatilishini ta’minlaydigan milliy axborot va maslahat xizmatlari tarmog‘ini rivojlantirish kerak.

4. Mehnat bozorida qishloq xo‘jaligi va sohalari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan va kadrlar tayyorlayotgan barcha turdag‘i davlat ilmiy-tadqiqot va oliy ta’lim muassasalarining o‘zaro hamkorligini ta’minalash zarur.

5. Hududlar mehnat bozori ehtiyoji asosida mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ishlarini samarali tashkil etish maqsadga muvofiq.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. United Nations, World Population Prospects: The 2008 revision (New York, Department of Economic and Social Affairs, 2008).
2. CEDEFOP (European Centre for the Development of Vocational Training). 2007. Building a European VET area, Agora conference (Thessaloniki). ILO. International Labour Conference. 88th Session, 30 May - 15 June 2000.
3. Report V. Training for employment: Social inclusion, productivity and youth employment. Human resources training and development: Vocational guidance and vocational training. Fifth item on the agenda. International Labour Office Geneva, 2000.  
[https://www.ilo.org/public/english/standards/realm/ilc/ilc88/report\\_v.htm#Training%20and%20employability](https://www.ilo.org/public/english/standards/realm/ilc/ilc88/report_v.htm#Training%20and%20employability)
4. A Skilled Workforce for Strong, Sustainable and Balanced Growth: A G20 Training Strategy. International Labour Office – Geneva, 2010. 48p. P8.
5. O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 – yilgacha rivojlantirish Konsepsiysi. Vazirlar mahkamasining 2021 – yil 18 – yanvardagi 23 – son qaroriga 1 - ilova
6. Understanding the potential impact of skills recognition systems on labour markets: research report / Jiří Braňka; International Labour Office, Skills and Employability Branch. - Geneva: ILO, 2016. P26.
7. Никулина Ю.Н. Профессиональная ориентация молодежи в системе кадрового обеспечения экономики региона // Экономика, предпринимательство и право. – 2020. – Том 10. – № 4. – С. 1263-1280. – doi: 10.18334/epp.10.4.100895.
8. A.Usmonov. O'quvchilarni kasb-hunarga maqsadli yo'naltirish istiqbolda mehnat bozoridagi muammolarni bartaraf etishning muhim omili. 2021y. MANBA: <https://jspi.uz>
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-avgustdagagi "O'zbekiston Respublikasida uzlusiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lif tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 466-son qarori (1-ilovasi, 3-xatboshi). URL:<https://lex.uz/uz/docs/4945840>



# МЕХНАТ ИКТИСОДИЙОТИ ВА ИСОН КАПИТАЛИ

<https://laboreconomics.uz/>



## МАХАЛЛИЙ ДАВЛАТ БОСHQARUV ОРГАНЛАРИДА ИСОН RESURSLARINI BOSHQARISH

**Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna**  
TDIU, Ilmiy ishlar va innovasiyalar bo'yicha prorektor  
e-mail: [g.abdurakhmanova@tsue.uz](mailto:g.abdurakhmanova@tsue.uz)

DOI: [https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2\\_iss1/a1](https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a1)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada muallif tomonidan inson resurslarini boshqarishning qamrovi va ko'lami hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari muvafaqqiyati uchun inson resurslarini boshqarish qanday ahamiyatga ega ekanligini muhokama qilinadi. Maqolada mahalliy davlat boshqaruv organlarida samarali inson resurslarini boshqarish tizimni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan vazifa va ko'nikmalardan iborat inson resurslarini boshqarish elementlariga alohida e'tibor qaratilgan. Tadqiqotda mahalliy davlat xokimiyati organlarida inson resurslarini boshqarishning muhim funksiyalari hamda unda yuzaga keladigan ba'zi masalalarning nazariy va amaliy jihatlariga alohida urg'u berilgan. Shuningdek, ushbu tadqiqotda bugungi kunda inson resurslarini boshqarish amaliyotida bir qator funksiyalar va amaliyotlarning ahamiyatini aniqlash uchun mahalliy hukumat darajasidagi inson resurslarini boshqarish bo'yicha mutaxassislarning fikrlari ham so'rovnomasida o'rjanilgan.

**Kalit so'zlar:** mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat xizmatchilari, inson resurslarini boshqarish, qattiq ko'nikmalar (hard skills), yumshoq ko'nikmalar (soft skills), IRB funksiyalari.

## УПРАВЛЕНИЕ КАДРОВЫМИ РЕСУРСАМИ В ОРГАНАХ МЕСТНОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО САМОУПРАВЛЕНИЯ

**Абдурахманова Гулнора Каландаровна**  
ТГЭУ, проректор по научной работе и инновациям  
e-mail: [g.abdurakhmanova@tsue.uz](mailto:g.abdurakhmanova@tsue.uz)

**Аннотация.** В этой статье автор обсуждает объем и актуальность управления человеческими ресурсами и то, как управление человеческими ресурсами важно для успеха местных органов власти. В статье основное внимание уделяется элементам управления человеческими ресурсами, состоящим из задач и навыков, необходимых для разработки эффективной системы управления человеческими ресурсами в органах местного самоуправления. В исследовании подчеркнуты важные функции управления человеческими ресурсами в органах местного самоуправления и теоретические и практические аспекты некоторых проблем, которые в нем возникают. В этом исследовании также изучались мнения специалистов по

управлению человеческими ресурсами на уровне местных органов власти, чтобы определить важность ряда функций и методов в практике управления человеческими ресурсами сегодня.

**Ключевые слова:** органы местного самоуправления, государственные служащие, управление человеческими ресурсами, hard skills, soft skills, функции УЧР.

## **HUMAN RESOURCE MANAGEMENT IN LOCAL STATE GOVERNMENT BODIES**

**Abdurahmanova Gulnora Kalandarovna**

TSUE, vice-rector for scientific affairs and innovations

e-mail: [g.abdurakhmanova@tsue.uz](mailto:g.abdurakhmanova@tsue.uz)

**Abstract.** In this article, the author discusses the scope and relevance of human resource management and how human resource management is important to the success of local government agencies. The article focuses on the elements of human resource management consisting of tasks and skills necessary for the development of an effective human resource management system in local government bodies. In the study, the important functions of human resources management in local government bodies and theoretical and practical aspects of some of the problems that arise in it are emphasized. This study also surveyed the opinions of human resource management professionals at the local government level to determine the importance of a number of functions and practices in human resource management practices today.

**Keywords:** local government bodies, civil servants, human resource management, hard skills, soft skills, HRM functions.

### **Kirish**

So'ngi yillarda O'zbekstonda kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar hamda boshqaruv jarayonida jahon standartlariga javob beradigan, zamonaviy kadrlarni tanlash, tayyorlash, meritokratiya tamoyillarini (ijtimoiy kelib chiqishi va moliyaviy ahvoldidan qat'iy nazar eng munosib, yuqori intelektual salohiyatlari shaxslarni ishga qabul qilish, tayinlash hamda xizmat pog'onalari bo'yicha ko'tarish) qo'llashga katta e'tibor qaratilmoqda. Bunday tanlovlarning asosiy maqsadi yuqori malakali, bilimli, halol va sadoqatli kadrlarni davlat fuqarolik xizmatiga ishga qabul qilish orqali boshqaruv sohasida katta muvaffaqiyatlarga erishish, natijadorlik va ish samaradorligini ta'minlashdan iboratdir.

O'zbekistonda islohotlarning hozirgi bosqichida davlat xizmatidagi kadrlar siyosatini avvalgidek oddiy "xodimlarni boshqarish"ning ayrim elementlarini emas, balki "inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish"ga yo'naltirilgan yangi sifat bosqichiga ko'tarish vazifasi turibdi. Inson resurslarini boshqarishni "tashkilotning strategik maqsadlariga erishish uchun uning inson resurslariga bo'lgan ehtiyojini tahlil qilish va boshqarish jarayoni" deb ta'riflash mumkin.

Bunda kadrlar boshqaruvini rivojlantirishga nisbatan xodimlarning tashkiliy va shaxsiy bilimlari, qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam

berishning umumiy konsepsiyasi sifatida qaraladi. Xodimlarning nafaqat qattiq ko'nikmalarini (hard skills), balki yumshoq ko'nikmalarini (soft skills) ham rivojlantirishga e'tibor qaratiladi jumladan, xodimlarning mansab pog'onasida o'sishi, samaradorlikni baholash va boshqarish, kouching, mentorlik, xodimlarni o'qitish va boshqa shu kabi yondashuvlar kiradi.

Yana shuni ta'kidlash kerakki, inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish bu xodimlarning ishtirokida qabul qilingan qarorlarga asoslanuvchi strategik funksiyadir.

Ayniqsa, davlat sektorida inson resurslari bilan ishslash amaliyoti davlat xizmatchilarining tanlovi va tajribasiga ta'sir qiladi va bu o'z navbatida davlat siyosatiga ham o'z ta'sirni o'tkazadi. Shundan kelib chiqib, mahalliy davlat boshqaruv tizimida inson resurslarini boshqarishning strategik va operatsion rollari chuqur anglash hamda bunday tuzilmalarda inson resurslarini samarali boshqarish siyosati va amaliyoti vaqt o'tishi bilan o'zgarib turuvchi ijtimoiy qadriyatlar va muhit sharoitlarida qanday aks etishini tushunishga yordam beruvchi yo'riqnomalarini yaratish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shuningdek, mahalliy ijro hokimiyyati organlarida a'anaviy kadrlarni boshqarish funksiyalarini zamonaviy inson resurslarini boshqarish funksiyalariga mos holda shakllantirish bo'yicha maqbul bo'lgan yechimlarini topish masalasining muhimligi va shu bilan birga murakkabligi ham ushbu tadqiqotni olib borishda alohida dolzarblikni baxsh etmoqda.

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

O'zbekistonda inson resurslarini tadqiq etishda dastlabki ilmiy-usulbiy ishlarni amlaga oshirgan iqtisodchi olim G.Abduraxmanovning fikricha, davlat sektorida inson resurslari bilan ishslash amaliyoti davlat xizmatchilarining tanlovi va tajribasiga ta'sir qiladi va bu o'z navbatida davlat siyosatiga ham o'z ta'sirni o'tkazadi deb hisoblaydi. Shundan kelib chiqib, mahalliy davlat boshqaruv tizimida inson resurslarini boshqarishning strategik va operasion rollari chuqur anglash hamda bunday tuzilmalarda inson resurslarini samarali boshqarish siyosati va amaliyoti vaqt o'tishi bilan o'zgarib turuvchi ijtimoiy qadriyatlar va muhit sharoitlarida qanday aks etishini tushunish muhim o'rinni tutuishi ta'kidlab o'tgan[1].

Yana bir iqtisodchi olim Ye.A.Zagoruyka mahalliy davlat boshqaruv organlarida inson resurslarini boshqarishning natijaviyligi bunday tuzilmalardagi IRB tuzilmasining optimalligiga hamda undagi o'qitish va rivojlantirish tizimining mukammalligiga bog'liq deb hisoblaydi [2].

Sohada tadqiqot olib borgan iqtisodchi olim Gnekova inson resurslarini boshqarish mahalliy davlat boshqaruv tizimida ham kadrlar siyosatining asosiy maqsadlaridan biri sifatida kadrlar faoliyatining turli bosqichlarida, kadrlar zaxirasini shakllantirishdan boshlab samarali xodimlarni rag'batlantirish uchun lavozimlar kasbiy ko'tarilish va ishdan bo'shatishgacha bo'lgan ko'p qirrali tadbirlar majmuasini (tashkiliy, iqtisodiy, ta'lim, ijtimoiy va psixologik) o'z ichiga olishi kerakligini ta'kidlaydi [3].

Bu sohada tadqiqot olib borilgan yana bir olim Izrail Yiganing tadqiqoti shuni ko'rsatadiki, mahalliy davlat boshqaruv organlarining boshqaruv samaradorligiga samarali rekrutment jarayoni ijobjiy ta'sirga ega ekanligi aniqlangan [4].

Yuqorida keltirilgan ilmiy va nazariy mulhazalardan kelib chiqib, ushbu tadqiqotda O'zbekiston sharoitida mahalliy davlat boshqaruv organlarining inson resurslarini boshqarish bo'yicha amaliyotlarini ilmiy jihatdan tadqiq etish hamda bu tizimni rivojlantirish uchun taklif va tavsiyalar ishlab chiqish ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi sifatida belgilab olingan.

### **Tahlil va natijalar**

Mahalliy davlat xokimiyyati organlarida inson resurslarii boshqarishning mohiyati va uning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashdan oldin, mahalliy davlat boshqaruvi borasidagi bir qator atamlarning mazmuni va ularning faoliyat yo'nalishlari haqida tasavvur hosil qilish lozim deb hisoblaymiz.

Mahalliy boshqarish deganda, mahalliy hududiy birlikdagi markaziy hokimiyyat yoki yuqori hududiy darajadagi ma'muriyat tomonidan amalga oshiriladigan boshqarish faoliyati tushuniladi. Odatta, mahalliy boshqarish yuqori hokimiyyat tomonidan tayinlanadigan ma'muriy organlar tomonidan amalga oshiriladi. Shunday qilib, mahalliy boshqaruv – markaziy hokimiyyat tomonidan tayinlanadigan organdir. O'zini o'zi boshqarish – saylanadigan, Mahalliy boshqaruv esa tayinlanadigan organ bo'lib, bu ular o'rtaqidagi asosiy farqdir.


Dunyoning turli mamlakatlarida mavjud bo'lgan atamalar bir-biridan anchagina farqlanadi. Aslida bir xil organlar ma'muriyat, boshqaruv organi, o'zini o'zi boshqarish organi deb atalishi mumkin. Ammo biz nazariyada qo'llanadigan prinsiplarga asosan ularni farqlaymiz hamda faqat saylanuvchi organlarnigina o'zini o'zi boshqarish organlari deb ataymiz.

Mahalliy davlat hokimiyyati organlari – joylardagi davlat boshqaruv idoralari bo'lib, ular mahalliy ahamiyatga molik barcha masalalarni o'z vakolatlari doirasida o'zлari hal etadilar, umumdavlat man-faatlarini shu hududda yashab turgan fuqarolarning manfaatlari bilan uyg'unlashtiradilar, yagona davlat hokimiyyati organlarining tarkibiy bo'g'ini sifatida yuqori davlat organlari qarorlarining amalga oshirilishini ta'minlaydilar.

Har bir davlatning diniy va demografik o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda dunyoda turli hil mahalliy boshqaruv tizimlari shakllangan. G'arb mamlakatlarida anglosakson va fransuz (kontinental) modellar tarqalgan.

*Anglosakson modeli* - (Angliya, AQSh, Kanada, Avstraliya va boshqa bir qator mamlakatlar) munisipal vakolatlarning aniq qonuniy belgilanishi tasniflanadi. Ushbu vakolatlar doirasida mahalliy boshqaruv organlari mustaqil ravishda faoliyat olib borishib, joylarda davlat vakillari mavjud bo'lmaydi. Lekin ayrim muhim masalalar mavjudki, ular yuzasidan mahalliy boshqaruv organlari davlat bilan kelishgan holda amalga oshiradilar va bu masalalar davlat tomonidan boshqarishga sabab bo'ladi.

*Kontinental model* - mahalliy boshqaruv organlari ustidan davlat tomonidan qat'iy ma'muriy nazorat tizimi bilan tasniflanadi. Joylardagi davlat xizmatchilari prefektlar va komissarlar mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari qarorlarini qabul qilish, nazorat etish rad etish mansabdor shaxslarni lavozimga tayinlash va ozod etish huquqiga egadir.



### **1-rasm. Mahalliy boshqaruv tizimlari**

*Roman-german (aralash) modeli* - Germaniya, Avstriya, Yaponiya, ba'zi postsosialistik va rivojlanayotgan mamlakatlarda har ikkala modellarni uyg'unligini ko'rishimiz mumkin. Unda mahalliy o'z o'zini boshqarish avtonomdir, lekin davlat tomonidan kuchli ta'sir sezilarli darajada hamda mahalliy o'z o'zini boshqarish organlari zimmasiga nafaqat o'z xududi vazifalarini balki davlat vakolatiga doir masalalarni ham hal etish yuklatilgan.

*Sovetlar modeli* - Xitoyda, Koreya Xalq Demokratik Respublikasida, Vietnam va Kubada mavjud. Bunday model mahalliy boshqaruv joylardagi davlat xukumati organlari zimmasida hamda quyi organlarning yuqori turuvchi organlarga qat'iy bo'ysunishlarini nazarda tutadi.

G'arb davlatlarida anglosakson va fransuz (kontinental) modellar keng tarqalgan. Anglosakson modelda munisipal vakolatlarning aniq qonuniy belgilanishi bilan tasniflanadi. Fransuz (kontinental) ushbu modelda munisipalaro hamkorlik tizimi bilan tasniflanadi.

Xalqaro darajada mahalliy hokimiyatning tashkiliy tuzilmalari turli hil bo'lib, yuqorida ko'rib chiqilgan modellardan har biri fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirok etish huquqini amalga oshirish muhim manba sifatida qarash mumkin. Bugungi kunda bu modellar samarali hisoblanadi. Lekin, ular davlatning ma'lum bir ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, aholi mentaliteti va madaniy tizimlar doirasida amal qiladi. Shuning uchun ularni boshqa bir davlatga to'liq to'g'ri kelishi va tadbiq etilishi mumkinligi ehtimolligi kamdir.

Aksariyat mamlakatlarda aholiga davlat xizmatini taqdim etishda davlat boshqaruvining ikki bo'g'ini alohida ajratib ko'rsatiladi. Ular markaziy davlat

boshqaruv organlari hamda mahalliy davlat boshqaruv organlari hisoblanadi. Markaziy davlat boshqaruv organlari vazirliklar va ularning hududiy bo‘linmalari faoliyatini nazorat qilsa, mahalliy davlat boshqaruv organlari esa mahalliy darajada xududiy boshqaruvni ta’minlaydi.

Mahalliy hokimiyat, mahalliy davlat boshqaruv organi, mahalliy boshqaruv instituti va mahalliy boshqaruv tizimi atamalari demokratik davlatning mahalliy darajadagi boshqaruvni bildirish uchun bir-birining o‘rnida ishlataladi. Boshqaruv - bu vakolatli shaxslar tomonidan qabul qilingan usullar, vositalar va munosabatlardan hisoblanadi. Mahalliy boshqaruv - bu fuqarolarning mahalliy darajada o‘z manfaatlari va ehtiyojlarini ifoda etishi, hudud aholisi o‘rtasida turli ziddiyat va kelishmovchiliklarga vositachilik qilishi va o‘z huquq va majburiyatlarini amalga oshirishi mumkin bo‘lgan institutlar, mexanizmlar va jarayonlar majmuidir.

Mahalliy davlat boshqaruv organlarida inson resurslarini boshqarish esa ishga yollash, o‘qitish va rivojlantirish, faoliyatni baholash hamda kar'erani rivojlantirish funksiyalari orqali mahalliy hokimiyatning xohish-istiklariga erishish uchun inson salohiyati va vakolatlarini boshqarish bilan bog‘liqdir. Mahalliy hokimiyat organlarining qobiliyatli, malakali va salohiyatli kadrlari xududlarning turli ijtimoiy-iqtisodiy loyihamalarini ishlab chiqish va amalga oshirishga katta hissa qo‘sadi. Mahalliy darajadagi inson resurslarini boshqarish tizimlari mamlakatdan mamlakatga farq qiladi, chunki ulardagagi vaziyat, aholi, madaniyat va eng muhimmi tizim va amaliyotlar turlicha bo‘lganligidadir.

So‘nggi yigirma yil mobaynida davlat sektorida an'anaviy kadrlar boshqaruvi tizimidan zamonaviy inson resurslarini boshqarish tizimiga o‘tish borasida sezilarli o‘zgarishlar ro‘y berdi. Natijada ko‘plab mamlakatlar davlat xizmati sifatini yaxshilash uchun davlat sektorida inson resurslari tamoyillari va strategiyalaridan amalda foydalana boshladilar.

Inson resurslari - insoning manfaatlarini hisobga olgan holda, takror ishlab chiqarish, rivojlantirish, imkoniyat yaratish orqali har qanday jamiyatning asosiy boyligini va taraqqiyotini aks etiruvchi tushunchadir. «Inson resurslari» atamasi «inson resurslarini boshqarish» (Human resources management) konsepsiyasiga muvofiq foydalaniildi [5].

**Inson resurslarini boshqarish** – makro (mamlakat), mezo(xududiy), mikro(korxona), nano(individual) darajada inson resurslarini mehnat munosabatlari, salohiyati, samarali rivojlanishi uchun sharoitlar yaratish bo‘yicha o‘zaro bog‘liq tashkili-yqtisodiy va ijtimoiy chora-tadbirlar tizimidir.


Bugungi kunda inson resurslarini boshqarishni alohida tizim sifatida tadqiq etish uning barcha tarkibiy elementlarini ishlashini yaxshi tushunishga yordam beradi.

Inson resurslarini boshqarish tizimli yondashuv shundan iboratki, uni o‘zaro aloqada bo‘lgan elementlar kompleksi sifatida ko‘rib chiqish lozim. Boshqacha kilib aytganda, tizimli yondashuv boshqaruv subyektiga to‘laqonli qarashni nazarda tutadi, ya’ni uning mohiyati shundaki, boshqaruv tizimi va

uning alohida qismlari faoliyat va rivojlanish maqsadlari, resurslar, struktura, jarayonlar va boshqa tizimlar bilan o’zaro aloqalar asosida tavsiflanadigan to’laqonli, mustaqil hodisa sifatida ko’rib chiqiladi. Shunday qilib, har qanday tizim maqsadga, resurslarga ega va qo’yilgan maqsadga erishish uchun tashkil qilingan bo’lishi lozim.

Inson resurslarini boshqarish funksiyalari inson resurslarini boshqarish sohasidagi faoliyat yo’nalishlari va vazifalari bilan chambarchas bog’liq. Inson resurslarini boshqarish asosiy funksiyalari qatoriga quyidagilar kiradi:

- inson resurslarini rejalashtirish va inson resurslari marketingi, bu rejalashtirishning har xil turlarini, jumladan, personalga umumiyligini va qo’shimcha ehtiyojni rejalashtirish, mehnat unumdoorligi o’sishini rejalashtirish, o’qitish va personal xarajatlarini, shuningdek, tashkilot kadrlar salohiyatini o’rganishni o’z ichiga oladi;
- inson resurslarini yollashni tashkil qilish, bu personalni jalb qilishni tashkil qilish, tanlab olishdan tortib korxonaga bo’lg’usi xodimlarni qabul qilishgacha bo’lgan faoliyat yo’nalishlari yig’indisini ko’zda tutadi (hujjatlar bilan rasmiylashtirish);
- xodimlarni moslashtirish, bu xodim va tashkilotni o’zgargan faoliyat shartlariga moslashtirishni ko’zda tutadi;
- faoliyatni baholash (mehnat faoliyati natijalari va joriy faoliyatni zamонавиу uslublar asosida baholash-“KPI”, “360°” tizimi);
- inson resurslari faoliyatini motivasiya qilish va rag’batlantirish, bu xodimlarning motivatsiya profilini tadqiq etishni, eng ma’qul keladigan motivatsiya nazariyalarini tanlash va ularni ish haqi tashkil qilish, kompensatsiya siyosati ishlab chiqish, xodimlarni mukofotlash qoidalarini ishlab chiqishda amaliy qo’llashni ko’zda tutadi;
- inson resurslarini o’qitish va rivojlantirish, bu o’qitish, karyera o’sishi, kadrlar zaxirasini shakllantirish bilan bog’liq an’anaviy yo’nalishlardan tashqari, shuningdek, tashkiliy rivojlanishni ham o’z ichiga oladi.



**2-rasm. Inson resurslarini boshqarishning muhim funksiyalari [6]**

Davlat sektoridagi inson resurslarini boshqarish esa inson kapitalini rivojlantirish orqali davlat xizmatidagi o’zgarishlarga katta ta’sir ko’rsatishni maqsad qiladi. Inson resurslarini boshqarish davlat boshqaruvi tashkilotlari faoliyati uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Buning sababi, davlat xizmati tashkilotlari xodimlarni yollashi, o’qitishi va rivojlantirishi, munosib kompensasiya tizimini joriy etishi, bandlik shartlarini belgilashi hamda mukammal kadrlar siyosatini ishlab chiqishi lozim bo’ladi.

Inson resurslarini boshqarish amaliyoti kompaniyadan kompaniyaga yoki sanoatdan sanoatga farq qilgani kabi, davlat va xususiy sektorning inson resurslarini boshqarish tizimi o’rtasida ham farqlar mavjud. Ular o’rtasidagi ba’zi farqlar davlat boshqaruvi tizimi mamlakat byudjeti hisobidan moliyalashtirilganligi sababli yuzaga keladi. Unda tartib va qoidalar hamda tizimni amalga oshirish bosqichlari xususiy sektornikiga solishtirganda bir muncha murakkab va ko’p qirrali hisoblanadi. Xususan, davlat xizmatida mehnat munosabatlarining ko’p jihatlarini qat’iy o’rnatilgan xuquqiy xujjatlar asosida tartibga solinadi. Bundan tashqari, davlat sektoridagi mehnat munosabatlarini maxsus tartibga soluvchi agentliklar boshqaradi.

Inson resurslarini boshqarish borasidagi siyosat turli darajalarda ko’rib chiqilishi mumkin. Xususan, quyidagilar ajratib ko’rsatiladi: davlat IRB siyosati, davlat boshqaruv organlarining IRB siyosati, munisipal yoki mahalliy darajajda IRB siyosati, tashkilot (korxona) IRB siyosati.

Davlat darajasida IRB siyosati deganda keng ma’noda murakkab ijtimoiy ko’rinish tushunilib, u mamlakat mehnat salohiyatini shakllantirish, rivojlantirish va oqilona foydalanish bo’yicha ijtimoiy boshqaruv subyekti faoliyatining strategik yo’nalishlarini qamrab oladi.

Tor ma’noda davlat sektorida IRB siyosati inson resurslari bilan bog’liq jarayonlarni tartibga solish bo’yicha davlat strukturalari faoliyatini belgilab beradigan, rasmiy hujjatlarda ko’rsatib qo’yilgan, kadrlar bilan ishlashning siyosiy yo’nalishi, strategiya sifatida namoyon bo’ladi [7].

Davlat darajasida IRB siyosati quyidagicha bo’lishi lozim:

- ilmiy asoslangan, bunyodkor, o’tish davrida davlatning kadrlarga bo’lgan ehtiyojini hisobga oladigan, lekin shu bilan bir paytda, strategik vazifalarni bajarish ketma-ketligi va bosqichma-bosqichligini belgilab beradigan. Davlat kadrlar siyosati mamlakatni tiklash va barqaror rivojlantirish, professional tayyorlangan, tashabbuskor va novatorlik g’oyalariga ega odamlarni davlat xizmatiga jalb qilishgan bo’lishi lozim;

- kompleksli – inson resurslari bilan ishlash maqsadlari, tamoyillari va usullari birligiga asoslangan, kadrlar bilan bog’liq masalalarning turli (iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va b.) jihatlarini hisobga oladigan;

- mamlakat uchun yagona, lekin shu bilan bir paytda ko’p pog’onali (makro, mezo, mikro), butun kadrlar korpusini qamrab oladigan;

- istiqbolli, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni hisobga oladigan;


- maqsadli, kadrlar muammolarini hal qilish mexanizmi bo’yicha

demokratik;

- ma'naviy-axloqiy – davlat xizmatchilarida halolik, fuqarolik mas'uliyatini tarbiya qiladigan;
- huquqiy – qonun doirasida amalga oshiriladigan.

Davlat darajasida IRB siyosatining e'tibor markazida jamiyatni yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, shuningdek, mamlakatning mehnat resurslaridan samarali foydalanish yotishi lozim.

Davlat sektorida kadrlarni boshqarishga yangicha yondoshuv sifatida kiritilayotgan o'zgartirishlardan asosiy maqsad davlat xarajatlarini qisqartirish, davlat tomonidan taqdim etiladigan xizmatlari samaradorligi, ko'lami va sifatini oshirishdan iborat bo'ladi.



### **3-rasm. Mahalliy davlat boshqaruv organlari uchun IRB tizimining modellari**

Mahalliy davlat boshqaruv organlari uchun inson resursslari boshqarish tizimining modellari.

Xalqaro tajribada mamlakatlarning mahalliy darajada inson resursslari boshqarish uchun asosan uchta model amaliyoti mavjud. Ular: I. Inson resursslari boshqarishning alohida tizimi, II. Inson resrurlarini boshqarishning integratsiyalashgan tizimi. III. Inson resursslari boshqarishning uyg'unlashgan tizimi.

#### *Inson resrurslarini boshqarishning alohida tizimi:*

Bu tizimga ko'ra, xodimlar mahalliy davlat hokimiysi organlari tomonidan ishga qabul qilinadi, lavozimlarga tayinlanadi va ishdan bo'shatiladi. Bu tizimdagi davlat xizmatchilari markaziy hukumat xizmatiga o'tkazilmaydi. Hatto, bu tizimda davlat xizmatchilarining bir mahalliy hokimiyat organidan boshqasiga gorizontal o'tish imkoniyati cheklangan. Ushbu turdag'i tizim odatda Buyuk Britaniya, AQSh, Finlyandiya, Yaponiya va boshqa rivojlangan mamlakatlarda mavjud.

#### *Ijobiy xususiyatlar:*

mahalliy davlat hokimiysi organlarining mustaqilligini mustahkamlashga yordam beradi.

#### *Salbiy xususiyatlar:*

rivojlanayotgan mamlakatlardan mahalliy hukumati tomonidan bu tizimni rivojlangan mamlakatlardan kontekstida o'zgartirishlarsiz to'liq qabul qilinishi ba'zi bir salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin;

xodimlarning harakatchanligini cheklaydi va ularning martaba yo'llarini cheklaydi, umidsizlikni keltirib chiqaradi.

iqtidorli xodimlarni jalg etish va ushlab turishni qiyinlashtiradi, chunki mahalliy hukumat yaxshi xizmat ko'rsatish shartlari va sharoitlarini ta'minlay olmaydi, chunki ularning moliyaviy ahvoli yaxshi emas;

kadrlar tizimining ishga qabul qilish, lavozimga ko'tarilish, o'qitish va h.k. kabi muhim sohalarida siyosiy homiylik, qarindosh-urug'chilik, favoritizm muhitini yaratish ko'lamenti kengaytiradi.

*Inson resrurlarini boshqarishning integratsiyalashgan tizimi:*

Ushbu tizimda markaziy hukumat va mahalliy hokimiyat xodimlari bir xil milliy davlat xizmatining qismlarini tashkil qiladi. Bu tizimda mahalliy davlat boshqaruva organlari xodimlarining lavozim va martaba jihatidan gorizontal va vertikal ravishda harakatlanish imkoniyati mavjud. Bu tizim markaziy hokimiyat va mahalliy davlat hokimiyati organlari uchun uchun inson resrurslarini boshqarishning turli xil tizimini nazarda tutmaydi.

Ham markaziy, ham mahalliy hokimiyat organlari uchun xizmat qiluvchilar bir xil xizmat diroasiga tegishli bo'lib, xizmat ko'rsatish shartlari va sharoitlari bir-biriga o'xshashdir. Ushbu turdag'i tizim Pokiston, Tayvan va shu kabi boshqa mamlakatlarda qo'llaniladi.

*Ijobiy xususiyatlar:*

xodimlarning harakatchanlik imkoniyatlarini maksimal darajada oshirish va ularning martaba yo'llarini eng yuqori darajaga olib chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi;

xodimlarga nisbatan yaxshiroq xizmat ko'rsatish shartlari va sharoitlarini ta'minlaydi, bu esa mahalliy hukumatga iqtidorli kadrlar xizmatini saqlab qolish imkonini beradi.

*Salbiy xususiyatlar:*

xodimlar va ularning rahbarlari o'rtasida kelishmovchilikni yuzaga keltirishi mumkinligi;

mahalliy siyosiy amaldorlarni o'z xodimlariga ishni bajarish uchun to'laqonli buyruq bera olmaslik holatini keltirib chiqaradi, bu esa mahalliy hukumat haqidagi jamoatchilik obro'sining pasayishiga olib kelishi mumkin.

*Inson resrurslarini boshqarishning uyg'unlashgan tizimi:*

Ushbu tizimda mahalliy boshqaruvning barcha yoki ayrim toifalari milliy davlat xizmatidan ajralib turadigan butun mamlakat uchun yagona xizmatni tashkil qiladi. Xodimlarni lavozimlarga tayinlash, boshqa lavozimga o'tkazish va ishdan bo'shatish odatda milliy darajadagi agentlik tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu turdag'i kadrlar tizimi Yamayka, Shri-Lanka va boshqa ba'zi rivojlanayotgan mamlakatlarda amalda.

Jumladan, O'zbekistondagi mahalliy davlat boshqaruva organlarining kadrlarni boshqarish siyosati ham ushbu tizimga taaluqli desak xato bo'lmaydi. Sababi, bugungi kunda mahalliy davlat boshqaruva organlariga kadrlarni jalg etish, saralash va yollash ishlari milliy darajadagi Davlat xizmatini rivojlantirish Agentligi ko'magida amalga oshriladi.

*Ijobiy xususiyatlar:*

mahalliy hokimiyat organlari xodimlarining harakatchanligi uchun

imkoniyat yaratadi, chunki ular butun mamlakat bo‘ylab gorizontal ravishda ko‘chish imkoniyatiga ega bo‘ladi;


lavozim va martabaga ko‘tarilish istiqbollarini kengaytiradi;  
mamlakatning turli hududlarida ish tajribasini orttirish imkoniyatini beradi.

*Salbiy xususiyatlar:*

mahalliy hokimiyat avtonomiyasiga ma'lum darajada tajovuz qiladi;  
ikki mansabdor shaxslar o‘rtasida kelishmovchilik yuzaga kelgan taqdirda, xodimlarni mahalliy hokimiyat organlariga qarshi chiqishga undash xavfini yuzaga kelishi mumkinligi.

O‘zbekiston Respublikasi mahalliy davlat boshqaruvin organlarida kadrlar siyosatini yurituvchi boshqaruvin bo‘g‘ini “Tashkiliy-nazorat guruhi” deb yuritiladi. Tashkiliy nazorat guruhi tarkibi uch shtatdan iborat bo‘lib, unda guruh rahbari, bir nafar yetakchi mutaxassis hamda bir nafar birinchi toifali mutaxassis lavozimlari mavjud. Tashkiliy tuzilma ierarxiyasiga ko‘ra tashkiliy nazorat guruhi to‘g‘ridan-to‘g‘ri tuman xokimiga bo‘yisinadi. (4-rasm)

Ushbu tashkiliy tuzilmani zamonaviy inson resurslarini boshqarish tamoyillariga muvofiq ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, tuman hokimliklarining tashkiliy nazorat guruhlari tarkibi samarali kadrlar siyosatini olib borish uchun mos kelmaydi. Chunki, bu tuzilma inson resurslarini boshqarish tizimining barcha funksiyalarini amalga oshirishga imkon bermaydi. Masalan, rivojlangan mamlakatlarning davlat sektorida inson resurslarini boshqarish departamentlari istiqbolli kadrlar zaxirasi, ish o‘rinlar tahlili, joriy va istiqboldagi bo‘sh ish o‘rinlarga kadrlarni rejalashtirish, bo‘sh lavozimlarga e‘lonlar tayyorlash, rekruterlar bilan munosabatlarni yo‘lga qo‘yish, bo‘sh lavozimlarga nomzodlarni jalb etish, saralash, yollash, moslashtirish, o‘qitish, malakasini oshirish, karyerasini rejalashtirish va faoliyatni baholash, rag‘batlantirish va imtiyozlar bilan ishslash, korporativ madaniyatni targ‘ib qilish, ijtimoiy munosabatlarni yaxshilash va h.k. lar bilan bog‘lik bir necha o‘nlab masalalar bilan ishslashga to‘g‘ri keladi. Bunday xilma xil vazifalar va ketma-ket jarayonlardan iborat faoliyatni samarali amalga oshirish tashkilotda mukammal va optimal kadrlarni boshqarish strukturasini ishlab chiqishni va joriy etishni talab etadi.



#### **4-rasm. Mahalliy davlat boshqaruv organlarining kadrlar bilan ishlash bo'limi (Tashkiliy-nazorat guruhi)ning tashkiliy tuzilmasi**

Ayniqsa, bunaday tuzulmalarda istiqbolli kadrlar zaxirasi va ularni jalg etish, yollash hamda faoliyatni baholash funksiyalari yuqori turuvchi organ davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan amalga oshiriladi. Bu esa, mahalliy davlat boshqaruv organlarining kadrlarni jalg qilish, saralash va yollash borasida mustaqil harakatlarini cheklab qo'yishi mumkin. Bu vaziyatda, mahalliy davlat boshqaruv organlarining tashkiliy nazorat guruhlariga joriy va istiqboldagi bo'sh lavozim uchun kamida uch nafargacha nomzodlarni saralab berish bo'yicha davlat xizmatini rivojlantirish agentligiga taklif kiritish vakolatini berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shuningdek, mahalliy davlat boshqaruv organlarida inson resurslarini boshqarish tizimini to'laqonli ishlashini ta'minlashda ayrim kasblar va ularga qo'yiladigan lavozim majburiyatlarini qayta ko'rib chiqishga to'g'ri keladi. Sababi amaldagi milliy kasblar klassifikatorida zamonaviy inson resurslarini boshqarish tizimi uchun xos bo'lgan kasblar ro'yxati kiritilmagan. Masalan, inson resurslari analitigi (HR-analytic), xodimlarni o'qitish va rivojlantirish bo'yicha menejer (Employee training and development manager), inson resurslari bo'yicha maslahatchi (HR-consultant), hedhanter (Head hunter) kasblarni misol qilib keltirish mumkin. Bu esa, mahalliy davlat boshqaruv organlarida bunday kasblar bo'yicha yangi lavozimlarni joriy qilishga to'sqinlik qiladi. Birgina HR analitik lavozimini joriy etish orqali tashkilotda inson resurslari metrikalari asosida faoliyat samaradorligini doimiy tahlil qilib borishga yordam beradi. Xodimlarni o'qitish va rivojlantirish bo'yicha menejer (Employee training and development manager) lavozimi esa davlat tashkilotidagi xodimlarni maklakalarini doimiy tekshirib, tahlil qilib boradi va ehtiyojdan kelib chiqib, xodimlarni o'qitish va rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqadi. Inson resurslari bo'yicha maslahatchi (HR-consultant) lavozimi xodimlari soni kam bo'lgan davlat idoralari uchun muhim hisoblanadi.

O'zbekistonda mahalliy davlat boshqaruv organlarida inson resurslarini boshqarish hamda kadrlar siyosati borasidagi amaliy muammolar,

qiyinchiliklar hamda erishilgan natijalarni o'rganish maqsadida viloyatlar kesimida tanlanma hududlar so'rovnama asosida o'rganildi. Tadqiqot xududi sifatida Qoraqalpog'iston Respublikasining Nukus tumani, Surxondaryo viloyatining Sho'rchi tumani, Jizzax viloyatining Baxmal tumani, Sirdaryo viloyatining Xovos tumani, Toshkent viloyatining Nurafshon tumani, Namangan viloyatining Kosonsoy tumanlari tanlab olindi. So'rovnama asosan mahalliy davlat organlari rahbar kadrlari va mutaxassislari hamda hokimlik tashkiliy nazorat guruhi rahbarlari o'rtasida amalga oshirildi.

So'rovnomadagi dastlabki savol sifatida hokim o'rinnbosarlari va bo'lim boshliqlaridan tuman hokimligida kadrlar bo'yicha mutaxassislar yoki kadrlar bo'limining mavqeい va ta'sir doirasi qay darajada deb so'ralganda, respondentlarning deyarli barchasi kadr bo'yicha mutaxassilar yoki kadrlar bo'limi hokimlik uchun muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlab o'tishdi.

Shuningdek, so'rovnomada respondentlardan siz faoliyat yuritayotgan tashkilotda kadrlar siyosati yoki inson resurslarini boshqarish bilan bog'liq qanday qiyinchiliklarga duch kelasiz degan savolga javoblar shakllantirilib, quyidagi jadvalda aks ettrildi.

#### **1-jadval**

#### **Mahalliy davlat boshqaruв organlarida kadrlar siyosati borasidagi duch kelinayotgan qiyinchilik va muammoalar**

Respondentlar tomonidan so'rovnama jarayonida ta'kidlangan qiyinchiliklar	Respondentlarning javoblari ko'lami
Resurslarning cheklanganligi va kadrlar bilan bog'liq masalalar:	
Ish haqi darajasining pastligi	35%
Vazifalarni bajarish uchun vaqt va kadrlar yetishmasligi	33%
Malakali kadrlarni jalg qilish va ularni saqlab qolish:	
Malakali kadrlarni topish	26%
Kadrlar qo'nimsizligi	24%
Kadrlarni o'qitish va malakasini oshirish	21%
Qo'shimcha qiyinchiliklar:	
Rahbarlarning malaka darajasi:	12%
Huquqiy to'siqlar	10%

Eslatma: Javoblarning foiz ko'rsatkichlari jamlanmasi 100% dan ortib ketgan, sababi so'rovnomada ishtirok etgan respondentlarning har biri bittadan ortiq qiyinchilikni aytishgan.

So'rovroma natijasini tahlil qilinganda, aksariyat respondentlar mahalliy davlat boshqaruв organlarida ish hajmining ko'pligi va bu ishlarni bajarish uchun kadrlarning shtat tarkibi yetarli emasligi hamda ish haqi miqdorining bajariladigan ish hajmiga nisbatan kam ekanligi asosiy muammo sifatida keltirib o'tishgan. Shuni inobatga olgan holda mahalliy ijro hokimiyati organlarida faoliyat ko'rsatayotgan davlat xizmatchilariga davlat kafolatlarini yanada rivojlantirish orqali ular faoliyatlarini samaradorligini oshirish zarur.

Shuningdek, tuman hokimligi xodimlariga ba'zan jamoatchilik ishlari yuklatilishi va ba'zi bir tushunmovchiliklar oqibatida o'z vazifasidan tashqari

boshqa vazifalarni ham amalga oshirishlariga to‘g‘ri kelib qoladi. Buni hisobga olgan holda tuman hokimligi vazifalar taqsimoti to‘g‘risidagi qarorini qayta ko‘rib chiqib, unda har bir xodim uchun vazifalarni aniq va batafsil belgilab berish lozim.

Keyingi muammo esa, malakali kadrlarni jalb qilish va ularni saqlab qolish bilan bog‘liq. To‘g‘ri, bugungi kunda mahalliy davlat boshqaruva organlarida kadrlarni ishga jalb qilish va yollash ishlari Davlat xizmatini rivojlantrish Agentligi ko‘magida amalga oshiriladi. Lekin, agentlik tizimi orqali ishga jalb etilgan kadrlarning hammasi ham ish joyida uzoq vaqt ishlab qolishga bardosh berolmasligini ayrim respondentlar muammo sifatida keltirib o‘tishgan. Xususan, Nurafshon tumanida davlat xizmatini rivojlantirish agentligining vacancy.argos.uz platformasidagi test sinovlaridan muvafaqqiyatli o‘tib, tumanga mutaxassi sifatida yuborilgan xodim bir xafta o‘tmasdan ishslashdan bosh tortgani bo‘yicha hokim o‘rnbosari ma'lumot berdi. Buning asosiy sababi yangi xodim hokimlik tizimdagi ish jarayoniga og‘irligiga moslasha olmaganligi deb baholanmoqda.

Xuddi shu sabablar tufayli, respublikamizning mahalliy davlat hokimiyati organlarida kadrlar qo‘nimsizligi darajasi ortib ketgan bo‘lib, aynan ish xaqi va ish vaqt bilan bog‘liq muammolar tufayli malakali xodimlar ushbu tizimda ishslashni xohlamaydi. Shuning uchun hozirgi kunda mahalliy davlat hokimiyati organlarida, asosan, yetarli malakaga ega bo‘lmagan, oliy-o‘quv yurtini yangi tamomlagan xodimlar ishlarmoqda. Aynan hududning oliy organi bo‘lmish ushub organlarda lavozimlarini alohida xususiyatlarga ega bo‘lgan, ya’ni yetarli ma'lumotga, bilimga, ish stajiga, tajribaga, ishchanlik qobiliyatiga, yangilikka intiluvchanlikka, insoniy fazilatlarga ega bo‘lgan kadrlar egallashlari lozim.

O‘rganish jarayonida tumanlarning kadrlarni boshqarish bo‘limi rahbarlari asosan qanaday vazifa va funksiyalarga ko‘proq vaqt hamda e’tibor berishlarini ham tahlil qilib chiqildi va tadqiqot natijasida olingan ma'lumotlar quyidagi jadvalda aks ettirildi.

Jadval ma'lumotlaridan shuni ko‘rish mumkinki, tuman hokimligi kadrlar bo‘limi rahbarlari asosiy vaqtlarini turli axborot hamda hujjatlashtirishga sarf etadilar. Shuningdek, hokimning lavozim majburiyatiga mos yoki mos kelmaydigan turli topshirqlari hamda ish haqi bilan bog‘liq masalalar ham ularning vaqtini ko‘p oladi. Undan tashqari davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan so‘ralgan ma'lumotlar bilan ham ko‘proq ishslashga to‘g‘ri keladi. Eng salbiy jihat, xodimlarni o‘qitish va malakasini oshirish maslalariga deyarli e’tibor berilmaydi. Sababi, respondentlar bunday ishlar asosan markaziy hukumat tomonidan nazorat qilinishi, hamda kimni, qachon, qayerda malaka oshirilishini yuqori turuvchi organlar hal etadi degan fikrni aytishdi.

**2-jadval**

**Hokimlik kadrlar boshqaruv bo'limi rahbarlari tomonidan  
bajariladigan ishlarning muhimliligi**

t/r	Vazifalar va ularning muhimlik tartibi	O'rtacha qiymat statistik (mean)
1	Axborot va xujjatlar bilan ishlash	4.12
2	Xokimning topshiriqlrini bajarish	3.87
3	Ish haqi bilan bog'liq ishlar	3.77
4	Agentlik talablarini bajarish	3.56
5	Hududlarga chiqish	3.20
6	Rekruting bilan bog'liq ishlar	3.01
7	Faoliyatni baholash bilan bog'liq vazifalar	2.78
8	Xodimlarni o'qitish ishlarini tashkil etish	2.50
9	Nizolarni boshqarish	2.24

Eslatma, bu yerda o'rtacha statistik qiymat (mean) so'rovnoma da berilgan savollarga respondentlar tomonidan berilgan javoblarini ekonometrik dasturga solinganda o'zgaruvchilar soni oralig'idagi javoblar ko'lami darajasini belgilaydi.

Olib borilgan o'rganishlar shuni ko'rsatadi, O'zbekistonda mahalliy hokimiyat organlari tizimida inson resurslarini boshqarish muammolariga hamda inson resurslarini rivojlantirish shuningdek, xodimlarning qo'shimcha ta'limga, kasbiy va martaba o'sishiga bo'lgan ehtiyojni rag'batlanirish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Xulosa va takliflar**

Shunday qilib, mahalliy davlat boshqaruv organlarida inson resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirishga oid quyidagi takliflarni keltirib o'tamiz:

- mahalliy davlat xokimiyati to'g'risidagi qonunnni yangi tahririni ishlab chiqish va qabul qilish;

- mahalliy davlat boshqaruv organlari uchun inson resurslarini boshqarishning maxsus yo'riqnomasini ishlab chiqish. Masalan, Yevropa ittifoqi mamlakatlarda jumladan, Fransiya, Avstriya va Germaniya davlatlarida markaziy davlat organi hamda mahalliy va munisipal boshqaruv organlari uchun inson resurslarini boshqarish bo'yicha maxsus qo'llanmalar (Handbook of Human Resource Management in Public Governance) ishlab chiqilgan;

- mahalliy davlat hokimiyati organlarida kadrlar shtati tarkibini bajaradigan ish hajmiga monand qilib oshirish;

- xodimlarni o'qitish va malakasini oshirish tizimini markazlashgan tarzda amalga oshirilishi samara bermaydi. Bunday tuzilmalarda ehtiyojdan kelib chiqib xodimlarni o'qitish va malakasini oshirishni mustaqil ravishda amalga oshirishga yo'l berish maqsadga muvofiq bo'ladi;

- mahalliy davlat boshqaruv organlarida inson resurslarini boshqarish tizmini to'laqonli joriy etishda ayrim kasb va lavozimlar turi bugungi kun

talabiga javob bermaydi. Milliy kasb malaka klassifikatori hamda standartlariga inson resurslarini boshqarish bo'yicha yangi va istiqbolli kasblarni kiritish tavsiya etiladi.

- mahalliy davlat boshqaruvi organlari inson resurslari bo'linmalarining asosiy faoliyat yo'nalishlari, vazifalari va vakolatlarini aniq belgilash.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. G.Abdurahmanova. Inson resurslarini boshqarish. Darslik. “Fan” nashriyoti. 2021 yil. 691 b.
2. Загоруйко Е.А. Improving human resource management structures in local government. Международный научный журнал «Инновационная наука» №9/2016 ISSN 2410-6070.
3. Gnevko V.A. Staffing problems of local government: training of municipal officials. Spb., 2010. 199 p.
4. Israel Yiga, Augustine Wandiba. Recruitment and Selection Process and Local Government Performance in Kiboga District, Uganda. KIU Journal of Social Sciences Copyright©2016.
5. G.Abdurahmanova. Inson resurslarini boshqarish. Darslik. “Fan” nashriyoti. 2021 yil. 691 b.



# МЕХНАТ ИКТИСОДИЙОТИ ВА ИНСОН КАПИТАЛИ

<https://laboreconomics.uz/>



## О'zbekistonda mahalliy davlat hokimiyati organlariga kadrlarni jalb qilish va yollash tizimi

**Astanakulov Olim Tashtemirovich**  
O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi  
“Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi”  
kafedrasi mudiri i.f.d., prof.

DOI: [https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2\\_iss1/a17](https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a17)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mahalliy boshqaruv organlariga kadrlarni jalb qilish va yollash tizimi nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etilgan bo'lib, unda bu tuzilmalarda rekrutment jarayoni qanday amalgaga oshirilishi, tanlash jarayonida qaysi jihatlarga e'tibor qaratilishi lozimligi mahalliy va xorijiy olimlarning fikr-mulohazalarini tahlil qilish asosida o'rganilgan. Shuningdek, tadqiqotda O'zbekiston sharoitida mahalliy davlat boshqaruv organlariga kadrlarni jalb qilish va yollashning amaliy holati tadqiq etilib, bu tizimni yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** mahalliy davlat boshqaruv organlari, ishga qabul qilish va yollash tizimi, inson resurslarini boshqarish.

## СИСТЕМА ПРИВЛЕЧЕНИЯ И ПОДБОРА КАДРОВ ДЛЯ МЕСТНЫХ ОРГАНОВ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ВЛАСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ

**Астанакулов Олим Таштемирович**  
Международная исламская академия Узбекистана  
Заведующий кафедрой «Исламская экономика и финансы,  
паломнический туризм», проф.

**Аннотация.** В статье исследуется система привлечения и подбора кадров в органы местного самоуправления с теоретической и практической точки зрения на основе анализа мнений отечественных и зарубежных ученых изучены процессы рекрутмента в этих структурах, выявлены основные аспекты процесса отбора кадров. Также в исследовании было изучено положение по привлечению и найму кадров в местные органы государственного управления в условиях Узбекистана и выработаны предложения по дальнейшему совершенствованию данной системы.

**Ключевые слова:** органы местного самоуправления, система найма и приема на работу, управление человеческими ресурсами.

## SYSTEM OF ATTRACTION AND SELECTION OF STAFF FOR LOCAL AUTHORITIES IN UZBEKISTAN

**Astanakulov Olim Tashtemirovich**  
International Islamic Academy of Uzbekistan  
Head of the "Islamic economy and finance,  
pilgrimage tourism" department, prof.

**Abstract.** The article examines the system of attracting and selecting personnel to local governments from a theoretical and practical point of view, based on the analysis of the opinions of domestic and foreign scientists, the recruitment processes in these structures are studied, and the main aspects of the personnel selection process are identified. Also in the study, the situation on attracting and hiring personnel to local government bodies in the conditions of Uzbekistan was studied and proposals were developed for further improvement of this system.

**Keywords:** local governments, recruitment and hiring system, human resource management.

### Kirish

Bugungi jadal globallashayotgan zamonda kadrlarning noto'g'ri tanlanishi korxonalar (firmalar) uchun ko'p yo'qotishlarga sabab bo'ladi. Korxona (firma) rahbari yoki bevosita kadrlar (personal) bilan ishlovchi mutaxassisning kadrlarni tanlashda e'tiborga olishi muhim bo'lgan jihat – insonning avval nima qilganini emas, balki endi nima qila olishi mumkinligini bila olishdir.

Munosib nomzodni tanlash samaradorlikni, daromadni va xodimlarning sadoqatini oshirishga yordam beradi. Noto'g'ri tanlov xodimlar qo'nimsizligining o'sishiga, jamoada nizolarning paydo bo'lishiga, xodimlarning motivatsiyasiga, bo'lim yoki tashkilotning ish samaradorligining yomonlashishiga, shuningdek, malakasiz mutaxassislar sonining ko'payishiga olib keladi, bu esa kompaniyaning bozordagi obro'siga, mahsulot yoki xizmatlarning sifatiga salbiy ta'sir qiladi. Bu holat davlat boshqaruvi tizimiga ham taaluqli masala hisoblanadi. Ayniqsa, bugungi kunda mahalliy davlat boshqaruvi organlariga malakali kadrlarni jalb qilishdagi muammolar jahonning ko'plab mamlakatlarida kuzatilayotgan holatdir. Sababi, bunday davlat tuzilmalarida ish sharoitlari, ish haqi, ish hajmining ko'pligi kabi omillar munosib kadrlarni jalb qilishda asosiy omillardan bo'lib qolmoqda.

Bu sohada olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mahalliy davlat boshqaruvi organlarining boshqaruvi samaradorligiga samarali rekrutment jarayoni ijobjiy ta'sirga ega ekanligi aniqlangan [1].

Texnologiyalar rivojlanishining o'sib borayotgan sur'atlari kadrlar sifatiga yangi talablarni qo'ymoqda. Mehnat bozoridagi raqobatbardoshlik va kadrlarni tanlash mezonlarini doimiy ravishda takomillashib borishi – kadrlar bilan ishslash xizmati xodimlari uchun noqulay vaziyatni yuzaga keltiradi. Shu munosabat bilan xodimlarni jalb etish va tanlash mahalliy davlat boshqaruvi

organlari uchun bir qator qiyinchiliklarni o‘z ichiga olgan ustuvor tadbirlar majmui hisoblanadi. Mahalliy davlat boshqaruvining samarali faoliyati yuqori sifatli mutaxassislarni tanlash yo‘li orqali to‘liq amalga oshiriladi.

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Unumdorlikni munosib mehnat muhiti orqali oshirish mumkin. Bu, shuningdek, bu ishga olish va tanlash jarayonining samarali tizimi mahsuli bo‘lishi mumkinligini soha tadqiqotchisi Teylor va uning jamoasi tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari tasdiqlab bergan [2]. Ishga qabul qilish va tanlashning samarali jarayoni tashkilot muayyan ish yoki rol uchun to‘g’ri nomzodni yollashini ta’minlaydi. Biroq, tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, inson resurslari bo‘yicha amaliyotchilar o‘z tashkilotining ishga qabul qilish va tanlash jarayonlariga tegishli tarzda rioya qilmaydilar.

Mahalliy davlat xizmatchilari ishga qabul qilishda tanloving mukammal uslublaridan foydalanish muhim rol o‘ynashi bo‘yicha iqtisodchi olim Chernoskutovning tadqiqotlari ham ahamiyatli hisoblanadi [3].

Soha tadqiqotchisi Sikander tomonidan kuzatilganidek, ko‘plab mahalliy o‘zini o‘zi boshqaruvchi davlat organlari maqsad va strategiyalariga erishish uchun xarajatlarni kamaytirish chorasi sifatida tajribasiz ishchi kuchini jalg qiladilar. Bunday sharoitda esa IRB uchun qo‘srimcha o‘qitish va qayta tayyorlash xarajatlarini oshishi hisobiga samaradorlikni pasayish ehtimoli yuqori bo‘ladi [4].

Tadqiqot shuni ko‘rsatdi-ki, mahalliy hokimiyat organlarida ishga qabul qilish jarayoniga qo‘yiladigan talablarning aksariyati malaka, tajriba va boshqa narsalarga asoslanadi. Har qanday tashkilotni boshqarishning juda murakkab, ammo muhim jihat bo‘lib, xodimlarni yollash, ishga tushirishni rejalashtirish va lavozimni munosib ravishda egallahsga o‘rgatish tavsiya etiladi [5].

Biroq, Illepte Jonsonning tadqiqoti mahalliy hukumatda ishga yollanishning ba’zi asosiy cheklovlariga oydinlik kiritadi. Cheklovlar quyidagilardir:

1. Mahalliy hokimiyat imidji;
2. Jozibador bo‘lmagan ish muhiti;
3. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining ichki siyosati;
4. Budget ta’mnoti;
5. Markaziy hukumatning aralashuvi [6].

Umuman olganda mahalliy davlat boshqauvi organlarida faoliyat samaradorligi undagi kadrlar siyosati va inson resurslarini boshqarish tizimining mukammal tashkil etilganligi bilan bog‘liqdir. Iqtisodchi olim Zelensovaning tadqiqot ishida davlat va munitsipal sektorda inson resurslarini boshqarish kadrlarni boshqarishning asosiy tushunchalarini o‘rganish, zamonaviy sharoitda davlat va munitsipal xodimlar faoliyati boshqarish bo‘yicha faoliyatning asosiy yo‘nalishlarini belgilash, motivatsion boshqaruvning asosi sifatida tashkilot maqsadlarini xodimning shaxsiy maqsadlari bilan birlashtirish, davlat va munitsipal boshqaruv organlarida

kadrlarni boshqarish tizimini yaratish, samarali davlat kadrlar siyosatini shakllantirish va amalga oshirish, kadrlarni jalb qilish, tanlash va ishga joylashtirishning zamonaviy texnologiyalarini qo'llash, shuningdek, uning faoliyati natijalarini baholash, davlat fuqarolik va munitsipal xizmat xodimlarining kadrlar salohiyatidan samarali foydalanish va yanada rivojlantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni nazarda tutuvchi faoliyat sohasi ekanligi alohida ta'kidlab o'tilgan [7].

Sohada tadqiqot olib borgan olim A.S.Nikitinaning fikricha mahalliy davlat boshqaruv organlarida inson resurslarini boshqarish - bu bo'lajak davlat va munitsipal xodimlarning vakolatlarini shakllantirish, ularga davlat va munitsipal boshqaruv tizimida inson resurslarini boshqarishning samarali texnologiyalarini tanlash va ulardan foydalanish nazarda tutishi ta'kidlagan[8].

Shu sababli, mahalliy hokimiyat organlariga ishga qabul qilish ish talablariga to'g'ri kelmaydigan odamlarning ko'p vaqt va mablag'larini behuda sarflashni bartaraf etadi. Demak, yaxshi ishga qabul qilish jarayonining yo'qligi mahalliy hokimiyat organlarining yaxshi ishlamasligining asosiy sababi bo'lib, bu mahalliy hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir qilishi mumkin.

### **Tahlil va natijalar**

Bugungi kunda ko'pgina mamlakatlarda davlat xizmatiga kirish uchun odatda, qariyb bir xil talablar qo'yiladi. Ya'ni bunga ko'ra shaxs tegishli mamlakatning fuqarosi bo'lishi, o'n sakkiz yoshga to'lgan bo'lishi, davlat tilini yaxshi bilishi, tegishli kasb ma'lumotiga ega bo'lishi va davlat xizmati to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan boshqa talablarga javob beradigan bo'lishi shart.

Shaxslarning davlat xizmatiga qabul qilinishida konstitutsiyaviy prinsipga amal qilinadi, ya'ni, barcha fuqarolar uchun, ularning qobiliyati va kasbiy tayyorgarligiga muvofiq, davlat xizmatiga kirish uchun teng imkoniyatlar yaratib beriladi. O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining 6-moddasiga muvofiq: "barcha fuqarolar mehnat huquqlariga ega bo'lish va ulardan foydalanishda teng imkoniyatlarga egadirlar", - deb mustahkamlangan.

Davlat xizmatiga kadrlarni tanlash jarayoni taqdim etilayotgan malakaviy talablar, mezonlar va huquqiy me'yorlarga muvofiq amalga oshiriladi. Davlat xizmatiga qabul qilish jarayonida har qanday kamsitilishlarga yo'l qo'yilmaydi.

Davlat xizmatiga kirishda, shuningdek uni o'tash mobaynida shaxsning irqi, millati, tili, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy va mansab holati, yashash joyi, dinga munosabati, e'tiqodi, jamoat birlashmalariga va konstitutsiya va boshqa qonunlarda belgilangan tartibda tuzilgan boshqa kasaba uyushmalariga a'zoligidan qat'i nazar to'g'ridan-to'g'ri yoki boshqa yo'llar bilan xizmatchilarga cheklashlar yoki imtiyozlar belgilanishi mumkin emas. Bu qoida 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon

deklaratsiyasi”da ilk bor e’tirof etilgan bo’lib, uning 21-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq har bir inson o’z mamlakatida davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa egadir. Ushbu qoida 1966-yil 16-dekabrda BMTning Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to’g’risida”gi xalqaro Paktda huquqiy mustahkamlanib, uning 25-moddasi uchinchi qismida yanada rivojlantirilgan. Ushbu hujjatda har bir fuqaro hech qanday kamsitishsiz va asoslanmagan cheklashlarsiz o’z mamlakatida umumiyl shart-sharoitlarda davlat xizmatiga kirishda teng huquq va imkoniyatlarga ega bo’lishi kerakligi ko’rsatilgan va ushbu qoida bugunga kelib ko’plab mamlakatlarning konstitutsiyalarida mustahkamlangan.

O’zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 78-moddasiga muvofiq, davlat xizmatiga qabul qilishni g’ayriqonuniy ravishda rad etishga yo’l qo’yilmaydi. Quyidagilar davlat xizmatiga qabul qilishni g’ayriqonuniy ravishda rad etish deb hisoblanadi:

- jinsi, irqi, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy holati, dinga bo’lgan munosabati, e’tiqodi, shuningdek xodimlarning ishchanlik qobiliyatlariga va ular mehnatining natijalariga aloqador bo’lmagan boshqa jihatlariga qarab mehnatga oid munosabatlar sohasida har qanday cheklashlar va imtiyozlar belgilash (6-modda);
  - ish beruvchi tomonidan taklif qilingan shaxslarni ishga qabul qilmaslik;
  - ish beruvchi qonunga muvofiq mehnat shartnomasi tuzishi shart bo’lgan shaxslarni (belgilangan kvota hisobidan ishga yuborilgan shaxslarni; homilador ayollar va uch yoshgacha bolasi bor ayollarni – ularning homiladorligi yoki yosh bolasi borligini vaj qilib) ishga qabul qilmaslik;
  - qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollar.

Ishga qabul qilish rad etilgan taqdirda, xodimning talabi bilan ish beruvchi ishga qabul qilishni rad etishning sababini asoslab uch kun muddat ichida yozma javob berishi shart, bu javob ishga qabul qilish huquqiga ega bo’lgan mansabdor shaxs tomonidan imzolangan bo’lishi lozim. Asoslantirilgan javob berish haqidagi talablarni qondirishni rad etish xodimning ishga qabul qilish g’ayriqonuniy ravishda rad etilganligi ustidan shikoyat qilishiga to’siq bo’lmaydi.

Davlat xizmatini o’tashning asosiy belgisi – bu **davlat lavozimini egallashdir**. Davlat lavozimini egallash fuqaroning mansab huquqlari, o’z majburiyatları, burchi va vazifalari, cheklovlar hamda huquqiy javobgarlikning subyektiga aylanganidan dalolat beradi.

Davlat fuqarolik xizmatchisi quyidagi majburiyatlarga ega:

- O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari va boshqa qonun hujjatlariga rioya qilish;
  - o’z xizmat vazifalarini vijdonan bajarish, davlat organi tomonidan o’rnatilgan xizmat intizomi qoidalari, xizmatga oid ma’lumotlar bilan ishslash tartibi va mehnatga oid boshqa ichki tartib-qoidalarga rioya qilish;
  - davlat fuqarolik xizmatini o’tash bilan bog’liq qonunchilikda belgilangan cheklovlargaga rioya qilish;

- davlat xizmatchisining odob-axloq qoidalariga rioya qilish, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik, xolis va beg’araz bo‘lish;
- O‘zbekiston Respublikasida yashaydigan millat va elatlarning tillari va urf-odatlariga hurmat ko‘rsatish, turli etnik, ijtimoiy guruhlar va konfessiyalarining madaniy va boshqa xususiyatlarini hisobga olish, o‘z vakolatlarini amalga oshirishda hamda xizmatdan tashqari munosabatlarda ijtimoiy barqarorlikka, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikka hissa qo‘shish;
- davlat xizmatining nufuzini tushirishga olib keladigan yoki davlat fuqarolik xizmatchisining o‘z xizmat vazifasini vijdongan bajarishiga shubha tug‘diradigan xatti-harakatlardan, shu jumladan o‘z xizmat vazifasini bajarishda har qanday kamsitish, noxolislik yoki kimgadir nisbatan alohida munosabatda bo‘lishdan tiyilish, o‘z xizmat faoliyatiga tashqi ta’sirlarning oldini olish;
- o‘z vakolatidan shaxsiy va boshqa qonunga xilof maqsadlarda foydalanishga hamda davlat organi, ularning mansabdor shaxslari va fuqarolarning faoliyatiga noqonuniy ta’sir o‘tkazishga yo‘l qo‘ymaslik;
- rahbarlar, yuqori turuvchi organ mansabdor shaxslarining qonun hujjatlariga zid bo‘lmagan topshiriqlarini bajarish;
- davlat sirlarini yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa ma’lumotlarni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya qilish, shuningdek, xizmat vazifalarini bajarish paytida olingan ma’lumotlarni, shu jumladan davlat fuqarolik xizmatini tugatgandan so‘ng ham oshkor etmaslik;
- har yili o‘zining daromadi va mol-mulki to‘g‘risida deklaratsiya topshirish;
- davlat mulkining butun saqlanishini ta’minlash, o‘ziga ishonib topshirilgan davlat mulkidan faqat xizmat maqsadlarida foydalanish;
- doimiy ravishda kasbiy kompetensiyasini oshirib borish.

Davlat fuqarolik xizmatchilarining zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

*Kadrlarni jalg etish va saralash muddatini belgilash.*

Davlat fuqarolik lavozomini egallash uchun ochiq mustaqil tanlovnii o‘tkazish meritokratiya, ochiqlik, muqobililik va mustaqillik tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

Davlat fuqarolik lavozomini egallash uchun ochiq mustaqil tanlovnii o‘tkazishda nomzodlarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar ularga teng imkoniyatlar kafolatlanadi.

Davlat fuqarolik lavozomini egallash uchun ochiq mustaqil tanlov asosida davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilinadigan shaxslar vakolatli organ bilan kelishmasdan turib lavozimdan ozod qilinishi mumkin emas, qonun hujjatlarida belgilangan holatlar bundan mustasno.

Davlat fuqarolik xizmatiga kirish uchun ochiq mustaqil tanlovnini o’tkazish tartibi O’zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi.

*Bo’sh ish o’rniga tanlangan shaxslarning kadr boshqaruvi.*

Bo’sh vakant ish o’rniga shaxslar davlat organi va tashkilotlarning lavozimlar to’g’risidagi ma’lumotlarini avtomatik tarzda “Yagona milliy mehnat tizimi” idoralararo dasturiy-apparat kompleksi orqali saytga joylashtirilishi orqali ishga joylashadilar. Vakant lavozimlar to’g’risidagi ma’lumotlar saytga joylashtirilgan sana mazkur lavozimni egallash bo‘yicha tanlov e’lon qilingan kun deb hisoblanadi. Vakant lavozimlar va tanlov o’tkazilishi to’g’risidagi ma’lumotlar davlat organi va tashkilotining rasmiy veb-saytida, ijtimoiy tarmoqlarda, shuningdek, messenjerlar va davriy nashrlarda joylashtirilishi mumkin.

Tanlovda ishtirok etish bo‘yicha nomzodlarning arizalarini qabul qilish muddati tanlov e’lon qilingan kundan boshlab 10 kalendar kunni tashkil qiladi. Tanlovda ishtirok etish bo‘yicha arizalar kelib tushmagan taqdirda, arizalarni qabul qilish muddati avtomatik tarzda 15 kalendar kunga uzaytiriladi. Tanlovda ishtirok etish bo‘yicha arizalarni qabul qilish nomzodlar tomonidan faqat saytdagi elektron so’rovnomani to’ldirish orqali amalga oshiriladi. Bunda, nomzodga bir vaqtning o’zida bitta davlat organi va tashkilotining uchtadan ortiq bo’lmagan vakant lavozimini egallash uchun tanlovda ishtirok etish huquqi beriladi.

Bo’sh ish o’rniga tanlov orqali tanlangan shaxslar O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi rozilgisiz hamda Agentlikni xabardorligisiz ishdan bo’shatilishiga yo’l qo’ymaydi.

*Xodimlarni shakllantirishga asosiy yondashuvlar.*

Davlat xizmatini o’tash – davlat xizmatining muhim tarkibiy qismi bo’lib, mazkur davrda davlat apparati xodimlarining huquqiy, ijtimoiy va lavozim mavqeい shakllanadi.

Davlat xizmatini o’tash uzoq davom etuvchi jarayon bo’lib, davlat-xizmat munosabatlari vujudga kelishi bilan boshlanadi, ya’ni xizmatchini davlat ahamiyatiga molik lavozimga tayinlash vaqtidan boshlanadi va bir qator jarayonlarni o’z ichiga oladi: sinov muddati, attestatsiya, muntazam ravishda malaka oshirish va qayta tayyorlash, rag’batlantirish va javobgarlik, iste’fo yoxud nafaqaga chiqish.

Davlat xizmatini o’tash – xizmat o’tashning asosiy mazmuni, bosqichlari, tartib va jarayonlarini belgilab beruvchi huquqiy, tashkiliy va ijtimoiy chora-tadbirlar tizimi hisoblanadi. Davlat-xizmat vakolatlarini amalga oshirish jarayonida, davlat va davlat xizmatchilari o’rtasida vujudga keladigan munosabatlar majmui mujassam etilgan.

Xizmatni o’tash bir butun jarayon bo’lib, bu jarayon quyidagi bosqichlardan iborat bo’ladi:

- davlat xizmatiga qabul qilish;
- davlat xizmatchilarini attestatsiyadan o’tkazish va ularning malakasini oshirish;

- malaka darajalari va maxsus unvonlar berish;
- davlat xizmatchisini boshqa lavozimga o’tkazish;
- davlat xizmatchisini rag’batlantirish;
- davlat xizmatchisining javobgarligi;
- davlat xizmatining tugatilishi.

**Bu bosqichlarni shartli ravishda ikki guruhga bo’lish mumkin:**

majburiy bosqichlar – xizmatga qabul qilish, attestatsiyadan o’tkazish, malaka darajalari va maxsus unvonlarni berish, xizmatni tugatish;

fakultativ bosqichlar – boshqa lavozimga o’tkazish, rag’batlantirish, javobgarlikka tortish.

Majburiy bosqichlar shunday bosqichlar-ki, davlat xizmatiga qabul qilingan xodim bu bosqichlarni albatta o’taydi. Bu bosqichlar har qanday xodim uchun majburiy hisoblanadi.

Fakultativ bosqichlarni o’tash esa xodimning o’z ish faoliyatiga bog’liq. Masalan, xodim yaxshi ishlasa rag’batlantirilishi mumkin, huquqbazarlik sodir etsa javobgarlikka tortiladi.

Bugungi kunda ko’pgina mamlakatlarda davlat boshqaruvida kadrlarni ishga yollash uchun odatda, qariyb bir xil talablar qo’yiladi. Ya’ni bunga ko’ra shaxs tegishli mamlakatning fuqarosi bo’lishi, o’n sakkiz yoshga to’lgan bo’lishi, davlat tilini yaxshi bilishi, tegishli kasb ma’lumotiga ega bo’lishi va davlat xizmati to’g’risidagi qonunchilikda belgilangan boshqa talablarga javob beradigan bo’lishi shart.

Davlat xizmatiga kadrlarni yollash jarayoni taqdim etilayotgan malakaviy talablar, mezonlar va huquqiy me’yorlarga muvofiq amalga oshiriladi. Davlat xizmatiga qabul qilish jarayonida har qanday kamsitilishlarga yo’l qo’yilmaydi. Davlatning shtatda turuvchi xizmatchilari doimiy lavozimlarga ega. Ularning mavqeい barqarordir. Ular ma’muriyat tomonidan bo’ladigan o’zboshimchaliklardan kafolatlangan hamda qonunning alohida himoyasi ostida turadilar. Xususiy sektordan farqli o’laroq davlat xizmatida ishga yollash va ish sharoitlari to’g’risida jamoaviy hamda xususiy shartnomalar tizimi amal qilmaydi. Davlat xizmatchilari maqomining aksariyat savollari qonunlar bilan tasdiqlanadigan ustavlar (statuslar) bilan hal qilinadi.

Misol uchun Fransiyadagi davlat xizmatini tashkil etishda yollash tizimi (“ochiq davlat xizmati”) va martaba tizimi (“yopiq davlat xizmati”) qo’shib olib boriladi. Shunga muvofiq holda davlat xizmatchilari ikki katta guruhga bo’linadi:

- hisoblanmaydigan, davlat muassasalarida yollanish bo’yicha ishlovchi xizmatchilar. Soatbay ishlovchi va shartnomaga bo’yicha ishlovchilar, stajyorlar shu guruhga mansubdir;
- davlat xizmati tizimida doimiy ishlovchi hamda uning asosini tashkil etuvchi xizmatchi amaldorlar.

Davlat xizmatida Yaponiya uchun xususiyatlari bo’lgan “umrbod yollanish” tizimi amaldadir, bu tizim yollash bo’yicha ishga kirgan shaxsni aynan bir tashkilotda uzoq vaqt (nafaqaga ketgunga qadar) ishlashini ko’zda

tutadi. Shu asnoda xizmatchining lavozimi va maosh hajmi uzliksiz ish stajiga bog'liq qilib qo'yiladi. Yaponiyadagi “umrbod yollash” tizimi bilan bog'liq davlat xizmatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, lavozimdorni o'z tashkiloti ichida tez-tez ko'chirib turilishi asnosida, ular muassasalararo ko'chirilmaydi. Rotatsiya tizimi ish kuchining mobilligini ta'minlaydi, uning layoqati, malakasi va raqobatbardoshligini oshiradi. Qoida tariqasida, 2-3 gorizontal ko'chirishlardan so'ng vertikal rotatsiya bo'lib o'tadi, ya'ni lavozimga ko'tarilish, yana ko'proq haq to'lanadigan lavozimga o'tkazilish. Rotatsiya, shuningdek, davlat xizmatchisida o'z dunyoqarashini kengaytirishga, tashkilotiga yanada kengroq tomondan qarashni rivojlantirishga rag'bat uyg'otadi.

*Ishga yollash jarayoniga ta'sir etuvchi omillar.*

Mehnat qilish huquqini ta'minlaydigan mexanizmlardan biri ishga yollash paytida kamsitishlarni taqiqlashdir. Qator xorijiy mamlakatlarning qonun hujjatlarida ishga qabul qilish paytidagi kamsitishlarni taqiqlash asoslarining muayyan ro'yxati nazarda tutiladi.

O'zbekiston Respublikasining mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlarida ishga qabul qilishni g'ayriqonuniy ravishda rad etishga yo'l qo'yib bo'lmasligi to'g'risidagi umumiyligi norma (Mehnat kodeksining 78-moddasi) bilan bir qatorda, ish beruvchiga homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etishni taqiqlovchi, shuningdek yollanuvchini himoyalashning ayrim tartibotlari nazarda tutilgan 224-modda aks etgan. Ish beruvchi rad etish sabablarini yozma ravishda ma'lum qilishi shart. Ishga qabul qilishni rad etganlik ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksini gender nuqtai nazaridan tahlil qilish shuni tasdiqlaydiki, bizning qonun hujjatlarimizda mehnat huquqining umumiyligi doirasida ishga yollash va ishdan bo'shatish paytida jinsi bo'yicha kamsitishlarni taqiqlovchi moddalarda hech qanday kamchiliklar yo'q. O'zbekiston Respublikasining mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlarida ayollarning o'z reproduktiv funksiyalarini bajarishini ta'minlashning muayyan kafolatlari aks etgan.

Ota-onalikni, onalikni, otalikni himoya qilishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar belgilangan. Bular – homilador ayollarni ishsizlikdan himoya qilish va ish o'rnnini saqlash imkonini bo'lмагan vaziyatlar yuzaga kelganda ularni albatta ishga joylashtirish, homilador ayollar va emizikli yoshdag'i bolalari bor onalar mehnatini muhofaza qilish, emizikli bolasini ovqatlantirish uchun tanaffuslar berish, oila har qanday a'zosining kasal bolani parvarishlashi bo'yicha haq to'lanadigan ta'til olish huquqi kabilardir.

*Nomzodlarni saralash tartibi.*

Bugungi kunda, mamlakatimizda davlat boshqaruvini takomillashtirish yuzasidan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirib borilmoqda.

Qayd etish joizki, boshqaruv kadrlarini tanlab olish, saralash yo'nalishida belgilangan vazifalar ijrosi davlat boshqaruvini zamon talabi darajasiga chiqarishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Zero, mamlakat Prezidenti

Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Yangicha va mustaqil fikrlaydigan, mas’uliyatli, tashabbuskor, ilg’or boshqaruv usullarini puxta o’zlashtirgan, vatanparvar, halol kadrlarni tanlash va saralash bo'yicha samarali tizim yaratilmas ekan, davlat boshqaruvida sifat o'zgarishi yuz bermaydi”.

Ma'lumki, inson resurlari va kadrlar salohiyatini rivojlantirish tizimining eng muhim bo'g'inlaridan biri kadrlar seleksiyasi hisoblanadi. Kadrlar seleksiyasi bu - lavozimlarga eng munosib nomzodlarni izlash, saralash va tanlab olish jarayoni o'z ichiga oladi. Boshqacha qilib aytganda, nomzodlar bilan suxbatlashish va ularning alohida xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Xorij tajribasiga qaraydigan bo'lsak, bu tizimni joriy etish borasida Davlat organlari va xususiy sektor vakillari tomonidan alohida muhim jihat sifatida qaraladi hamda sarmoyalarning katta qismini aynan shu yo'nalishga kiritishadi. Bu borada mamlakatimizda yaqin 3 yilgacha xususiy sektor vakillarining davlat organlariga nisbatan qarashlari yuqori darajada bo'lgan, va ular bugungi kunda mazkur tizimdan samarali foydalangan holda, ish sifati va unumdorligini yaxshilashga eshirib kelishmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktyabrdagi 5843-son Farmoni bilan davlat organlari va tashkilotlarida yagona kadrlar siyosatini yuritish va bo'sh lavozimlarni to'ldirishda seleksiya tizimini amaliyotga joriy etishda Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi vakolatli organ etib belgilandi. Ko'pchilikda tanlash (Selection) bilan yollash (Recruitment) atamalarini bir biridan farqlashda qiyinchilik yuzaga keladi. Qayd etish joizki, bo'sh lavozimga eng munosib nomzodni tanlash jarayoni - tanlash deb ataladi.

Ishga yollash – bu saralangan nomzodni (shartnomaga asosan) lavozimga tayinlash va ishga qabul qilish tushuniladi. Tanlab olish ishga yollash jarayonlari bir-biri bilan bog'liq va har ikkisi tashkilot yoki korxonaning umumiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Tanlash tizimi muhim jarayon, chunki yaxshi resurslarni jalg qilish tashkilot faoliyatining rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tanlash tizimini to'g'ri tashkil qilmaslik tashkilotning kelgusidagi faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Tanlash tizimining asosiy maqsadi: zamonaviy talablarga javob beradigan eng munosib nomzodni belgilab, tanlash jarayonida ularning malaka, ko'nikma va tajribalarini tashkilotning yaqin kelajakdagagi vazifalariga to'g'ri kelishini aniqlashdan iborat.

Samarali tanlash tizimining foydali jihatlari quydagilardan iborat:

- arzon, ko'p vaqt va kuch sarflashni talab etmaydi;
- bilim, qobiliyat va kompetetsiyasi past bo'lgan nomzodlarni kamaytirishga yordam beradi;
- turli nomzodlarning imkoniyatlari, bilimlari, ko'nikmalari va tajribalarini taqqoslashda yordam beradi.

Jahon tajribasidan kelib chiqib, meritokratiya, ochiqlik va mustaqillik tamoyillariga amal qilgan holda 7 ta bosqichda tanlov o'tkazadigan davlatlarga misol sifatida Skandinaviya, Yevropa mamlakatlari, Qozog'iston


Respublikasini keltirish mumkin. Bundan tashqari, tanlovnin o’tkazishda nomzodlarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi va ijtimoiy mavqeい bo‘yicha kamsitishlarga yo‘l qo‘yilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi ham xalqaro tajribalardan kelib chiqqan holda, tajriba tariqasida davlat organi va tashkilotlarida mazkur tizimni amaliyatda qo’llab, vakant lavozimlarni malakali va eng munosib nomzodlar bilan to’ldirish maqsadida ochiq mustaqil tanlov e’lon qilib bormoqda.

Bugungi kunda O‘zbekistonda taxminan 90 ming nafarga yaqin davlat xizmatchisi bor. Ular orasidan kasbga oid sifatlari va alohida xizmatlarini odilona va obyektiv baholash asosida eng munosib va qobiliyatli shaxslarni davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilish hamda ularning xizmat pog’onalari bo‘yicha ko‘tarilishini nazarda tutuvchi meritokratiya (munosiblar hokimiyyati) tamoyilini qo’llash asosida tanlab olish maqsadida munosib kadrlarning davlat fuqarolik xizmatiga kirib kelishi uchun yangi innovatsion, oson hamda shaffof yo’llar taqdim etilmoqda. Jumladan, Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan mazkur vazifaning ijrosini ta’minalash maqsadida jahonning ko‘plab mamlakatlaridagi tajribalarni o’rganib, hozirda ochiq mustaqil tanlov orqali davlat fuqarolik xizmatidagi bo’sh lavozimlar munosib nomzodlar tomonidan egallanishi uchun “Davlat fuqarolik xizmatchilari vakant lavozimlarining yagona ochiq portali” (<https://vacancy.argos.uz/>) ishlab chiqilgan. Ushbu tizim orqali bgunga qadar qaryib o’n ming nafar talabgor davlat xizmatining turli lavozimlariga ishga kirish uchun tanlovlarda ishtirok etdilar. Ulardan besh mingga yaqin eng munosib kadrlar davlat xizmatiga ishga qabul qilindi. Mazkur tanlovda mavjud bo’sh lavozimlar uchun 3 ta bosqichdan muvaffaqiyatli o’tgan eng munosib mutaxassislar bilan to’ldiriladi. Ya’ni, [vacancy.argos.uz](https://vacancy.argos.uz) platformasidan onlayn ro’yxatdan o’tdish, test topshirish va suhbat jarayonidan o’tish. Ishga kirishdagi ushbu ochiqlik va shaffoflik tizimi hukumatga nisbatan ishonchni ham shakllantiradi. Tanloving yana bir muhim tomoni – eng saralarni tanlash imkonini mavjud ekanligida.

Yuqorida keltirilgan tanlash tizimini davlat fuqarolik xizmati sohasida joriy etilishi, tanlash jarayonlarida inson omilining kamaytirilishi, adolatli, ochiq va shaffoflikning ta’minalishi natijasida sohada yuzaga kelishi mumkin bo’lgan korruption holatlarning oldi olinishiga, yetuk, zamonaviy bilim va ko‘nikmaga ega bo’lgan kadrlarning davlat fuqarolik xizmati sohasiga jalg etilishi ta’minalishiga erishiladi.

Respublika hududlaridan tanlanma asosida o’rganilgan mahalliy davlat boshqaruв organlarida bo’sh lavozimlarga kadrlarni jalb etish va yollash tizimi yuqorida ta’kidlanganidek, davlat xizmatini rivojlantirish agentligi hamda hokimlikning tashkiliy nazorat guruhi (kadrlar bo’limi) hamkorligida amalga oshirilishi ma’lum bo’ldi. (1-rasm)



### **1-rasm. Mahalliy davlat boshqaruv organlarida bo'sh lavozimlarga kadrlarni jalb etish va yollash bosqichlari**

Bo'sh lavozimlar to'g'risidagi e'lom asosan hokimlikning tashkiliy nazorat guruhidan Bo'sh lavozimlar to'g'risida shakllantirilgan ma'lumot "Yagona milliy mehnat tizimi" idoralararo dasturiy-apparat kompleksi orqali saytga joylashtiriladi hamda davlat xizmatini rivojlantirish agentligining viloyat filialiga ro'yxit taqdim etiladi. Hokimlikning o'zi tomonidan ham munosib kadrlar to'g'risidagi ma'lumot davlat xizmatini rivojlantirish agentligi viloyat filialiga tavsiya sifatida taqdim etilishi ham mumkin. Shu ikki manba orqali hokimlikning bo'sh lavozimariga nomzodlar jalb etiladi. Agentlik tomonidan <https://vacancy.argos.uz/> platformasi orqali o'tkazilgan test va baholashdan muvafaqqiyatli o'tgan nomzodlar suhbat uchun tuman hokimligining tashkiliy nazorat guruhiga yuboriladi. Shundan so'ng tuman hokimligining tashkiliy nazorat guruhni va hokim o'rindbosarlari ishtirokida nomzodlardan suhbat o'tkaziladi va suhbat natijasi baholanadi. Suhbat jarayonidan muvafaqqiyatli o'gan potensial nomzodlar tuman hokimi qarori bilan ishga yollanadi.

2020-yilga qadar O'zbekistonda "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunga muvofiq, mahalliy ijroiya hokimiyati organlariga kadrlarni jalb etish va ularni lavozimlarga tayinlash amalga oshrilib kelinayotgan edi. Ushbu qonun 1993-yilda qabul qilingan bo'lib, 27 yildan beri ushbu qonun doirasida mahalliy boshqaruv organlarida kadrlar siyosati olib borilar edi. Mazkur qonunning 23-moddasida mahalliy ijroiya hokimiyati organining tarkibiy tuzilmasidagi rahbar kadrlar va mutaxassislar davlat boshqaruvining yuqori organlari bilan kelishilgan holda hokim tomonidan lavozimga tayinlanishi va

lavozimdan ozod etilishi hamda bu xususda qabul qilingan qaror xalq deputatlari Kengashining tasdig’iga kiritilishi belgilab qo’ylgan edi.

Hokimlikda bo’sh lavozim yuzaga kelganda tuman hokimligining kadrlar bo’limi tomonidan tuman bandlikka ko’makllashish markazlariga xabar berilar edi. Ishga jalg qilish va suhbat jarayonlari tuman hokimliginig kadrlar bo’limi va hokim o’rinbosarlaridan iborat ishchi guruh yordamida saralanib, yollash bo‘yicha qaror qabul qilish uchun hokimga nomzodlar ro’yxati kiritilar edi.

Ushbu qonuni hozirgi zamon talablariga moslashtirish uchun Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tashabbusi bilan 2021-yilning aprel oyida “Mahalliy davlat hokimiysi to’g’risida”gi qonun loyihasini ishlab chiqildi va huquqiy hujjatlar muhokamalari portaliga omma e’tibori uchun muhokamaga kiritildi. Hozirda ushbu qonun loyihasiga ayrim o’zgartirishlar kiritish va qabul qilish bo‘yicha muhokamalar ketmoqda.

Shunday bo’lsa-da, 2020-yildan buyon mahalliy davlat boshqaruva organlarida allaqachon kadrlarni jalg etish va ishga yollash jarayonlari yangi tuzilma ko’magida amalga oshirilmoqda. Ya’ni, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktyabrdagi “O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-4472-son qaroriga asosan Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi davlat organlari va tashkilotlarining kadrlar bo’linmalari respublikada kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmatining zamonaviy tamoyillarini joriy etishda eng muhim bo’g’in hisoblanishi belgilab berildi.

Hozirda davlat xizmatini rivojlantirish agentligi viloyat filiallari yordamida hamda uning tavsiyasi bilan tuman hokimliklaridagi bo’sh lavozimlar to’ldirilmoqda. Bunda asosiy e’tibor kadrlarning meritokratiya tamoyillari asosida tanlab olishga qaratilgan bo’lib, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda kadrlarni saralab olish va joy-joyiga qo’yishning maksimal darajada shaffof va adolatli tizimi joriy etishga qaratiladi.

Shu maqsadda Agentlik tomonidan Davlat fuqarolik xizmatchilari vakant lavozimlarining yagona ochiq portali — [vacancy.argos.uz](http://vacancy.argos.uz) elektron platformasi ishlab chiqilgan. [vacancy.argos.uz](http://vacancy.argos.uz) elektron platformasiga vakant lavozimlar to’g’risidagi ma’lumotlar avtomatik tarzda kelib tushadi.

Ushbu platformaga davlat organlaridagi vakant lavozimlar to’g’risidagi ma’lumotlar avtomatik tarzda “Yagona milliy mehnat tizimi” idoralararo dasturiy-apparat kompleksidan kelib tushadi hamda tanlov e’lon qilingan vakant o’rin uchun nomzodlar tomonidan hujjatlar elektron tarzda qabul qilinadi.

Vakant lavozim uchun ochiq mustaqil tanlov quyidagi tartibda ishlaydi:

- hujjatlarni elektron tarzda qabul qilish (10 kun davomida);
- nomzodning vakant lavozim malaka talablariga mosligini o’rganish;
- test sinovidan o’tkazish;

– suhbat jarayoni (assesment shaklida);

Tanloving har bir bosqichi natijasi onlayn tarzda asoslantirilgan javob bilan har bir nomzodning portaldagi shaxsiy kabinetiga yuboriladi. O’rganilgan xududlarda tuman hokimliklarida ham kadrlarni jalg etish va yollash jarayoni yuqoridagi tizim bo'yicha amalga oshirilmoqda. Hokimliklarning tashkiliy nazorat guruhi rahbarlarining aytishicha, ushbu yangi tizim ancha shaffof bo'lib, kadrlarni qidirish va jalg qilishda inson omilini kamaytiradi hamda turli korruption vaziyatlarni oldini oladi.

Ammo, bu tizimning joriy qilinishi rekrutment bilan bog'liq barcha muammolarni hal etadi degani emas. Sababi, tuman hokimliklarining tashkiliy nazorat guruhi rahbarlarining so'zlariga ko'ra, mahalliy davlat boshqaruv organlarida ish hajmi ko'pligi, ish haqi darajasining pastligi hamda ish vaqt davomiyligining barqaror emasligi kabi omillar malakali kadrlarni bo'sh lavozimlarga murojaat qilishlariga to'sqinlik qilmoqda.

### **Xulosa va takliflar**

Yuqorida keltirilgan nazariy va amaliy jihatlarni inobatga olgan holda mahalliy davlat boshqaruv organlarida kadrlarni jalg etish va yollash tizimini takomillashtirish bo'yicha quyidagi tavsiyalarni keltirib o'tamiz:

– tuman hokimliklari tashkiliy nazorat guruhiga yangi kadrlarni ishga yollash borasida davlat xizmatini rivojlantirish agentligiga tanlab berish uchun kamida uch nafar nomzodlarni hokimlikning o'zi tomonidan tavsiya qilish vakolatini berish;

– mahalliy davlat hokimiyati organlarida kadrlarni ishga yollashda joriy qilingan xodimlarning bilimi, kasbiy va psixologik ko'nikmalarini baholash metodikalari bir biridan farq qilib, yagona ilmiy asosga ega emas.

Shuning uchun, kadrlarni ishga qabul qilish, tanlash yoki kadrlarni rivojlantirish jarayonida bir qator professional baholash, ya'ni kasbiy va psixologik ko'nikmalarini baholashni amalga oshiruvchi Baholash markazlari (Assesment center) faoliyatini yo'lga qo'yish. Masalan, Amerika Qo'shma Shtatlarida davlat xizmatida inson resurslarini tahlil qilish, buyurtma asosida kadrlarni tanlash, kadrlar zaxirasini shakllantirish, amaldagi rahbar kadrlarni rivojlantirish va o'qitish dasturlarini yaratish, xodimlarning kuchli tomonlari va rivojlanish zonalarini hisobga olgan holda individual rivojlanish rejalarini ishlab chiqishda Baholash markazi (Assesment center) orqali amalga oshiriladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Israel Yiga, Augustine Wandiba. Recruitment and Selection Process and Local Government Performance in Kiboga District, Uganda. KIU Journal of Social Sciences Copyright©2016.

2. Taylor. Organizational Entry: Recruitment, Selection, Orientation, and Socialization of Newcomers, Prentice Hall 2nd Ed. (2012).

3. Черноскутов В. Е. О роли международного сотрудничества в профессиональной подготовке государственных и муниципальных служащих // Развитие территорий. 2019. №2 (16).
4. Sikander, Tasneem. “A Theoretical Framework of Local Government.” (2015).
5. Djabatey, Edward Nartey, (2012) the problem of recruitment Constraint. In Nigerians Development John Willey & sons inc (U.S.A).
6. Ilepe Johnson Akintunde (2017). Recruitment Policies and Politics in the Local Government Administration: Implication for the Achievement of Universal Basic Education as a Sustainable Development Goal in Nigeria. International Journal of Academic Research in Business and Social Sciences 2017, Vol. 7, No. 9 ISSN: 2222-6990.
7. Зеленцова С.Ю., Кауфман Н.Ю. Кадровые службы в системе управления персоналом органов государственной и муниципальной власти // РСЭУ. 2019. №2 (45).
8. Никитина, А. С. Управление человеческими ресурсами в государственном и муниципальном управлении: учебное пособие для вузов / А. С. Никитина, Н. Г. Чевтаева. – 2-е изд. – Москва : Издательство Юрайт, 2021. – 187 с.



# МЕХНАТ ИКТИСОДИЙТИ ВА ИНСОН КАПИТАЛИ

<https://laboreconomics.uz/>



## KRAUDFANDING PLATFORMASIDA AYOLLAR INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI

**Bozorova Saxobat Abdujapparovna**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
“Inson resurslarini boshqarish” kafedrasi  
Katta o'qituvchisi, PhD

DOI: [https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2\\_iss1/a7](https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a7)

**Annotatsiya:** Maqolada O'zbekistonda ayollarning inson kapitalini rivojlantirishda kraufdanding platformasini qo'llash imkoniyatlari o'rganilgan bo'lib, shuningdek, O'zbekistondagi ta'lim muassasalarida tahsil oluvchilar o'rtaida ayollar ulushi, O'zbekistonda ishsizlar o'rtaida gender tafovut, O'zbekistonda ayollar rahbarlik qilayotgan sohalar, sanoatning turli sohalarida ayollar rahbarlik qilayotgan tadbirkorlik turlari o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** kraufdanding, platforma, inson kapitali, ta'lim, gender tafovut, ishsizlik, «ayollar daftari», ayol rahbarlar.

## НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ЖЕНСКОГО ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА НА КРАУДФАНДИНГОВОЙ ПЛАТФОРМЕ

**Бозорова Сахобат Абдужапаровна**

Ташкентский государственный экономический университет  
Кафедра "Управление человеческими ресурсами"  
Старший преподаватель, PhD.

**Аннотация:** В статье рассматриваются возможности использования краудфандинговой платформы для развития женского человеческого капитала в Узбекистане, а также процент женщин среди учащихся образовательных учреждений Узбекистана, гендерный разрыв среди безработных в Узбекистане, а также изучены виды предпринимательства, возглавляемого женщинами в различных отраслях промышленности Узбекистана.

**Ключевые слова:** краудфандинг, платформа, человеческий капитал, образование, гендерный разрыв, безработица, «женский блокнот», женщины-лидеры.

## DIRECTIONS FOR THE DEVELOPMENT OF WOMEN'S HUMAN CAPITAL ON THE CROWDFUNDING PLATFORM

**Bozorova Sakhobat Abdujapparovna**

Tashkent State University of Economics

PhD, "Management of human resources" department

**Abstract:** The article discusses the possibilities of using a crowdfunding platform for the development of women's human capital in Uzbekistan, as well as the percentage of women among students of educational institutions in Uzbekistan, the gender gap among the unemployed in Uzbekistan, and also studied the types of entrepreneurship led by women in various industries in Uzbekistan.

**Keywords:** crowdfunding, platform, human capital, education, gender gap, unemployment, "women's notebook", female leaders.

### Kirish

Inson va uning qobiliyatları, bilim, malakasi har qanday jamiyat farovonligi va davlat iqtisodiy taraqqiyotining asosiy omiliga aylangan bugungi kunda O'zbekistonda ham inson kapitali, shubhasiz, ijtimoiy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishi sifatida namoyon bo'lmoqda. Chunki inson kapitalini rivojlantirish – innovatsion iqtisodiyot, bilimlar iqtisodiyoti, investitsiyalar, global axborot tizimlari, eng yangi texnologiyalar va biznesning yangi shakllarini rivojlantirishning zarur sharti sanaladi. Inson potensialini tashkil etuvchi turli xususiyatlar ichida, inson kapitali aynan daromadlarning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi xususiyatlarni ifodalaydi, shu jihatdan inson kapitali ishchining maxsus ta'lim, kasb-hunarga tayyorlash va ishlab chiqarish tajribasi asosida to'plangan bilimlari, ularni amalda qo'llashi va mahoratini o'z ichiga oladi.

Darhaqiqat, keyingi yillarda O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va xalqqa munosib turmush tarzini yaratib berishga kun tartibidagi asosiy masala sifatida qaralmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5544-sonli Farmonida "Mamlakatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligi darajasini va innovatsion jihatdan taraqqiy etganini belgilovchi asosiy omil sifatida inson kapitalini rivojlantirish – strategiyaning bosh maqsadidir"<sup>1</sup>, deb belgilab berildi.

**Abstract.** This article highlights the impact of human capital development on the socio-economic life of the country. Improvement of Human Capital addresses a country's most important resource: its own people. Improvement of human capital benefits individuals and their country and leads to improved sustainability for the future. For many years, economists only used Gross Domestic Product (GDP), now acknowledged to be inadequate without supplemental measures, to gauge a country's overall value. There is now a recognition that many variables contribute to a country's worth, which make accurate measurement difficult. Looking beyond GDP by focusing on human capital, researchers, policymakers, government officials, and students can understand what elements impact human capital and how they might improve it in order to increase economic growth and well-being.

**Keywords.** Human capital, human skills, investment, GDP, HCI.

## INSON KAPITINI RIVOJLANTIRISH JAMIYAT TARAQQIYOTINING ASOSIDIR

**Iskandarova Dilafroz Ikrom qizi**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

"Inson resurslarini boshqarish" kafedrasи assistenti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada inson kapitali rivojlanishining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta'siri yoritilgan. Inson kapitalini o'lchash mamlakatning eng muhim resursiga: o'z xalqiga murojaat qiladi. Inson kapitalining yaxshilanishi jismoniy shaxslar va ularning mamlakatiga foyda keltiradi va kelajak uchun barqarorlikni yaxshilashga olib keladi. Ko'p yillar davomida iqtisodchilar mamlakatga umumiy baho berish uchun faqatgina YaIMni o'lchash yetarli emasligini e'tirof etgan Hozirgi vaqtida ko'plab o'zgaruvchilar mamlakat qiyamatiga hissa qo'shishi tan olingan, bu esa aniq o'lchashni qiyinlashtiradi. Inson kapitaliga e'tibor qaratish orqali YaIMdan tashqari tadqiqotchilar, siyosatchilar, hukumat amaldorlari va talabalar inson kapitaliga qanday elementlar ta'sir qilishini va ular iqtisodiy

o'sish va farovonlikni oshirish uchun uni qanday yaxshilashi mumkinligini tushunishlari mumkin.

**Kalit so'zlar.** Inson kapitali, inson ko'nikmalar, investitsiyalar, YaIM, IKI.

## **РАЗВИТИЕ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА – ОСНОВА ПРОГРЕССА ОБЩЕСТВА**

**Искандарова Диляфруз Икрам кизи**

Ташкентский государственный экономический университет  
Ассистент кафедры «Управление человеческими ресурсами»

**Аннотация.** В данной статье освещается влияние развития человеческого капитала на социально-экономическую жизнь страны. Измерение человеческого капитала касается самого важного ресурса страны: ее людей. Улучшение человеческого капитала приносит пользу отдельным людям и их стране и ведет к повышению устойчивости в будущем. В течение многих лет экономисты признавали, что измерения одного только ВВП недостаточно для определения общей стоимости страны. В настоящее время признано, что на стоимость страны влияет множество переменных, что затрудняет точное измерение. Сосредоточив внимание на человеческом капитале, помимо ВВП, исследователи, политики, государственные чиновники и студенты могут понять, какие элементы влияют на человеческий капитал и как они могут его улучшить, чтобы ускорить экономический рост и процветание.

**Ключевые слова.** Человеческий капитал, человеческие навыки, инвестиции, ВВП, ИЧК.

### **Introduction**

A person and his skills, knowledge, experience and skills have become the main factor of the well-being of any society and the economic development of the state. Because the development of human capital is a necessary condition for the development of innovative economy, knowledge economy, investments, global information systems, the latest technologies and new forms of business.

Among the various characteristics that make up human potential, human capital represents the characteristics that affect the change of income, in this respect, human capital includes the knowledge, practical application and skills of the worker, accumulated on the basis of special education, vocational training and production experience.

Human capital refers to the intrinsic productive capabilities of human beings. These capabilities can be increased through investment in things such as education, on-the-job training, and health. Human capital is viewed as an asset that generates a flow of services, most often measured as earnings, although broader measures of output are also used [1].

Development of human capital is knowledge materialized in a person and his ability to work effectively, their effective use allows to use the opportunity to significantly improve the standard of living of the population and increase the rate of economic growth. Human capital is a separate economic category,

the main research problem of which is the unique nature of human capital due to the sum of physical and mental abilities of a person, which determines the ability to work.

Effective investments in human capital are central to development, delivering substantial economic benefits in the long term. However, the benefits of these investments often take time to materialize and are not always very visible to voters. This is one reason why policymakers may not sufficiently prioritize programs to support human capital formation. At the 2017 Annual Meetings, World Bank management called for a Human Capital Project (HCP) to address this incentive problem through a program of advocacy and analytical work intended to raise awareness of the importance of human capital and to increase demand for interventions to build human capital in client countries[2].

And in 2018, for the first time, the Human Capital Index was calculated and ranked for 157 countries, but Uzbekistan was not included in this ranking because some of the index components in our country did not meet international standards. And finally, in 2020, Uzbekistan also entered this rating and took 57th place with an index of 0.63.

### **Literature review**

First of all, Adam Smith in "The Wealth of Nations" (A. Smith, 1776) set the stage for the study of human capital. Although he does not use the phrase human capital, he identifies the acquired and useful abilities of individuals as a fundamental source of wealth and economic progress of a country. Writing more than a century later, Alfred Marshall notes in his "Principles of Economics" (Marshall, 1920) the long-term nature of investments in human capital and the family's role in undertaking them. However, Marshall is also credited with delaying the study of human capital due to his reluctance to put it on the same footing as physical capital.

The modern study of human capital coincides with two developments in economics. The first was a resurgent interest in understanding why economies grow. It was apparent to researchers that national output was growing at a much faster rate than the rates of growth of inputs – land, labor, and physical capital (Denison, 1962).

The second development dovetailed with the first – the availability of large datasets that allowed exploration of worker productivity and earnings and how they related to characteristics such as the years of education and age.

Three authors deserve particular note amid the flurry of theoretical and empirical work in the late 1950s and early 1960s. Jacob Mincer (1958) stimulated a vast literature measuring the returns to education. Using census data, he documented the now-classic result that the years of education has an inverted U-shape on the rate of earnings growth. Theodore Schultz focused on the role of education and general investments in human capital in explaining the increased productivity of labor. His monograph "The Economic Value of Education" focused attention on education as a subject worthy of concentrated study by economists, thus beginning the field of the economics of education.

Gary Becker (1964) organized the emerging threads of empirical and theoretical work into a coherent framework that provided a guidebook for future research [1].

Generally, well-educated persons have lower mortality rates; also, child mortality in an educated family is low (Kc and Lentzner, 2010). Women with better education have fewer children as they can easily access birth control facilities (Bongaarts, 2010). It is not hard to assume that education enhances motivation to lead a better life by improving the socioeconomic conditions. Human capital usually captures both the education and health of individuals. Many studies primarily focus on the education because it can be measured more consistently across countries.

Total years of schooling are globally considered as an important input to the human capital calculation. Many countries are focusing on this human capital to evaluate the sustainable development of nations. Especially for the densely populated developing countries, education improvement will increase the level of knowledge as well as the total wealth of these countries. The Inclusive Wealth Report 2018 (Managi and Kumar, 2018) has identified the significantly higher contribution of human capital to total wealth compared to other forms of capital.

Jorgenson and Fraumeni (1989, 1992) develop a very comprehensive method of human capital measurement using the income-based approach. They suggest a new system of human capital accounts by including both market and nonmarket economic activities. In the education-based approaches, educational achievements are considered as proxies for, but not direct measures of, human capital [3].

Also, opportunities for development of human capital and its importance in the development of the economy from foreign scientists E. Mollick, J. Hui, M. Greenberg, E. Gerber, T. Eilon, R. Shaker studied [5].

### **Research methodology**

The impact of the development of human capital on the country's economic growth, that is, on the size of the gross domestic product, is determined by the following formula:

$$Y = F(K, N, H, G, INF)$$

Here:

Y - income, K - physical capital, N - labor, H - human capital, G - gender difference, INF - infrastructure.

Assuming that the aggregate production function requires constant labor:

$$Y/N = F(K/N, 1, H/N, G/N, INF/N)$$

Based on the above, the following formula is obtained:

$$ycp = FK(I/Y) - bKn + bHhpc + bGgpc + bINFinfpc$$

Here:

ycp = y - n - GDP growth rate per worker, hpc - human capital growth rate per worker, gpc - gender gap growth rate per worker, infpc - infrastructure growth rate per worker, Fi - the marginal product in the

economy with respect to input  $i$ ,  $I$  - investments is defined as the change of the total capital stock over time,  $bj$  - the elasticity of the total volume with respect to the input  $j$ , and lowercase letters indicate the rate of change.

Statistical model of factors affecting average growth of GDP:

$$ypc = \beta_0 + \beta_1 I/Y + \beta_2 malelife + \beta_3 femlife + \beta_4 lifegap + \beta_5 PGDP + \beta_6 sanit + \beta_7 pop + \epsilon$$

Here:

$ypc$  - average growth of GDP

$I/Y$  = share of gross capital formation in GDP;

$malelife$  = Average annual growth rate of male life expectancy;

$femlife$  = Average annual rate of increase in female life expectancy;

$lifegap$  = average annual growth rate of male to female life expectancy ratio;

$PGDP$  = GDP per capita;

$sanit$  = Average annual growth rate of the proportion of the total population with improved sanitation services;

$pop$  = Average annual growth rate of the total population.

It is worth noting that, according to the results of research, countries that invest the most in human capital and occupy high places in the ranking of Human capital index have very high gross income and income of the population. According to World Bank statistics, the countries with the highest human capital index in the world are listed below (Table 1):

**Table 1**  
**Human capital index rating (2020)**


Nº	Country	Score
1.	Singapore	0.88
2.	Hong Kong	0.81
3.	Japan	0.80
4.	South Korea	0.80
5.	Canada	0.80

The Human Capital Index (HCI) is a composite index describing the level of human capital development in countries and regions of the world, issued by the World Bank Group and used as part of the Human Capital Project. The project was originally led by economists Noam Angrist, Simon Jankov, Pinelopi Koujianou Goldberg and Harry Patrinos. Proposed human capital measurement using Global Learning Data survey. The index should be used by countries to analyze problematic issues in their socio-economic policies and to assess their readiness to move to a sustainable development model. The index measures the level of human capital development of the next generation, that is, the calculation of the human capital index includes the following three components (Fig. 1):

1. Survival. This indicator is measured by the mortality rate of children under 5 years of age. This will help determine the quality of the country's health care system, maternal and child health care.

2. School. It is used in conjunction with information about the amount of education a child can receive before turning 18 and what they can learn at school. This is determined by the successful passing of tests based on international standards of schoolchildren in the country. Aggregation of this information allows us to calculate expected years of education adjusted for quality. By adjusting for the quality of education, it can be seen that children in some countries receive less education than children in other countries, even with the same number of years of education.

3. Health. This component uses two indicators to assess the general health status of the country's population: 1) absence of disability among children under 5 years of age; 2) Adult survival rate, defined as the percentage of 15-year-olds who survive to age 60. The first indicator reflects the state of health of a child of primary school age; the second indicator is used today as a measure of the health status of a child born today.



**Figure 1. Human capital index indicators**

The Human Capital Index's aggregation methodology is determined based on the following account books [4]:

The components of the Human Capital Index (HCI) are combined into a single index by first converting them into contributions to productivity relative to a benchmark of complete education and full health. Multiplying these contributions to productivity together gives the overall HCI:

$$HCI = \text{Survival} \times \text{School} \times \text{Health}$$

Survival is calculated based on: children who do not survive childhood never become productive adults. As a result, expected productivity as a future worker of a child born today is reduced by a factor equal to the survival rate, relative to the benchmark in which all children survive.

$$\text{Survival} = \frac{1 - \text{Under5MortalityRate}}{1}$$

The benchmark of complete high-quality education corresponds to 14 years of school and a harmonized test score of 625. The relative productivity interpretation for education is anchored in the large empirical literature measuring the returns to education at the individual level. A rough consensus from this literature is that an additional year of school raises earnings by about 8 percent. The parameter  $\phi = 0.08$  measures the returns to an additional year of school and is used to convert differences in learning-adjusted years of school across countries into differences in worker productivity.

$$School = e^{\phi(EcspectedYears of School \times \frac{HormonizedTestScore - 14}{625})}$$

The health indicator includes the following: stunting and adult survival. In the HCI, the estimated contributions of health to worker productivity based on these two alternative proxies are averaged together, if both are available, and are used individually if only one of the two is available.

$$Health = e^{\gamma_{ASR} \times (AdultSurvivalRate - 1) + \gamma_{Stunting} \times (NotStuntingRate - 1)} / 2$$


Based on the formulas mentioned above, we calculate the Human Capital Index on a regional scale (Table 1).

**Table 1**

**Human Capital Index 2020, averages by region**

Indicator	East Asia and Pacific	Europe and Central Asia	Latin America and Caribbean	Middle East and North Africa	North America	South Asia	Sub-Saharan Africa
<b>1. Survival</b>							
Probability of Survival to Age 5	0.98	0.99	0.98	0.98	0.99	0.96	0.93
<b>2. School</b>							
Expected Years of School	11.9	13.1	12.1	11.6	13.3	10.8	8.3
Harmonized Test Scores	432	479	405	407	523	374	374
<b>3. Health</b>							
Survival Rate from Age 15 to 60	0.86	0.90	0.86	0.91	0.91	0.84	0.74
Fraction of Children Under 5 Not Stunted	0.76	0.90	0.85	0.82	-	0.69	0.69
<b>HCI</b>	<b>0.59</b>	<b>0.69</b>	<b>0.56</b>	<b>0.57</b>	<b>0.75</b>	<b>0.48</b>	<b>0.40</b>

From the data in the table above, it is known that the highest rate of first indicator Survival is 0.99 in the Europe and Central Asia region, the lowest index is in Sub-Saharan Africa is equal to 0.93 in the region. North America has the highest score of 523 according to international test answers received from school students. The highest and lowest rates of adult survival are 0.91 and 0.74, respectively, in the Middle East and North Africa also North America and Sub-Saharan Africa.



**Figure 2. Human capital index by country 2020 [4]**

The figure plots country-level HCI on the y-axis and GDP per capita in PPP on the x-axis, in constant USA dollars, for most recently available data as of 2019. The dashed line illustrates the fitted regression line between GDP per capita and the HCI 2020. Scatter points above (below) the fitted regression line illustrate economies that perform better (worse) in the HCI than their level of GDP would predict. Economies above the 95th and below the 5th percentile in distance to the regression fitted line are labeled.

### Conclusion

Human capital, which is a set of social relations, corresponds to the society. The development of human capital directly depends on a person's consciousness, morals, spirituality, worldview, socio-economic, political relations, the essence and nature of the social system. Since a person has intelligence, he understands the events in the real world, and manages the world with his scientific thinking, work, and potential. The growth of human capital is influenced by the overall events in the surrounding social environment.

In order to create innovative human capital, every family of the country and the children born in it should be directed to acquire knowledge from an early age, instill in their hearts a desire for science, love for work, and educate them with the latest technologies, world-standard textbooks and manuals. Knowledge ensures the use of all opportunities in society, and skills ensure social development and economic growth. This phenomenon calls for continuous funding of education.

That is, poverty isn't just about not having money.

It should also be noted that, like all cross-country benchmarking exercises, the Human Capital Index (HCI) has limitations. Components of the HCI such as stunting and test scores are measured only infrequently in some economies and not at all in others. Data on test scores come from different international testing programs and need to be converted into common units, and the age of test-takers and the subjects covered vary across testing programs. Moreover, test scores may not accurately reflect the quality of the whole education system in an economy, to the extent that test-takers are not representative of the population of all students. Reliable measures of the quality of tertiary education that are comparable across most economies of the world do not yet exist, despite the importance of higher education for human capital in a rapidly changing world. The data on enrollment rates needed to estimate expected years of school often have many gaps and are reported with significant lags. Socioemotional skills are not explicitly captured. In terms of health, child and adult survival rates are imprecisely estimated in economies where vital registries are incomplete or nonexistent.

## **References**

1. E.R.Eide, M.H.Showalter, "Human Capital". International Encyclopedia of Education (Third Edition), 2010
2. A.Kraay. Methodology for a World Bank Human Capital Index. 2018
3. Moinul Islam, Shunsuke Managi, Measuring Human Capital, 2021
4. "Human capital index 2020 update". International Bank for Reconstruction and Development / The World Bank. 2021 [www.worldbank.org](http://www.worldbank.org)
5. Adam Hayes. "Adam Smith and "The Wealth of Nations"" 2022 <https://www.investopedia.com/updates/adam-smith-wealth-of-nations/>
6. Denison, E.F. The Sources of Economic Growth in the United States and the Alternatives before Us. Committee for Economic Development, New York. 1962
7. Mincer, J. Investment in Human Capital and Personal Income Distribution, Journal of Political Economy, 1958 <https://doi.org/10.1086/258055>
8. Becker, Gary S., Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education (1964). <https://ssrn.com/abstract=1496221>

9. Samir Kc and Lentzner, "The effect of education on adult mortality and disability: A global perspective". Vienna Yearbook of Population Research. 2010
10. John Bongaarts. "The causes of educational differences in fertility in sub-Saharan Africa", Population Council. 2010
11. Shunsuke Managi, Pushpam Kumar. "Measuring Progress Towards Sustainability", Inclusive Wealth Report 2018
12. Dale Jorgenson, Barbara M. Fraumeni. "The Accumulation of Human and Nonhuman Capital", The Measurement of Saving, Investment, and Wealth. 1989



# МЕННАТ ИКТИСОДИЙТИ ВА ИНСОН КАПИТАЛИ

<https://laboreconomics.uz/>



## YANGI O'ZBEKISTONDA AHOI TURMUSH DARAJASINING TAHLILI

**Jo'rayeva Shahlo Uchqun qizi**  
TDIU, "Inson resurslarini boshqarish"  
kafedrasi tayanch doktoranti

DOI: [https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2\\_iss1/a10](https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a10)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mamlakatimizda aholi turmush darajasini oshirish bo'yicha qilinayotgan islohotlar keltirilgan, shuningdek, aholi turmush darajasi ko'rsatkichlari tahlil qilingan va aholi turmush darajasini yanada yaxshilash bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** aholi turmush darajasi, aholining umumiylar daromadlari, turmush darajasi ko'rsatkichlari, aholi jon boshiga daromadlar, aholi umumiylar daromadlarining real o'sishi, iste'mol, iste'mol savatchasi.

## АНАЛИЗ УРОВНЯ ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

**Джураева Шахло Учкун кизи**  
ТГЭУ, кафедра "Управление человеческими ресурсами"  
базовый докторант

**Аннотация:** В данной статье анализируются проводимые в нашей стране реформы по повышению уровня жизни населения, а также показатели уровня жизни населения и даются предложения и рекомендации по дальнейшему повышению уровня жизни населения.

**Ключевые слова:** уровень жизни населения, совокупный доход населения, показатели уровня жизни, доход на душу населения, реальный рост совокупного дохода населения, потребление, потребительская корзина.

## ANALYSIS OF THE STANDARD OF LIVING OF THE POPULATION IN NEW UZBEKISTAN

**Jurayeva Shahlo Uchkun kizi**  
TSUE, "Human resources management" department,  
basic doctoral student

**Abstract:** This article analyzes the ongoing reforms in our country to improve the standard of living of the population, and shows indicators of it. The article also provides

suggestions and recommendations for further improving the standard of living of the population.

**Keywords:** standard of living of the population, total income of the population, indicators of the standard of living, income per capita, real growth of the total income of the population, consumption, consumption basket.

## **Kirish**

Bugungi kunda dunyodagi barcha mamlakatlar oldida turgan muhim maqsadlardan biri aholi turmush darajasi va sifatini oshirish, ta'lim, ijtimoiy ta'minot va sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish, barkamol avlodni tarbiya qilish hamda hududlarda ekologik vaziyatni yaxshilashdir. Shuningdek bizning mamlakatimizda ham inson qadri va turmush tarzini yaxshilash muhim vazifalardan biridir. Bejizga Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev 2023-yilga «Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili» deya nom bermadilar, shuningdek 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida "...aholining hayot darajasini yanada yuksaltirish, ta'lim sifatini ilg'or xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, barqaror iqtisodiy o'sishga erishish hamda kambag'allikni qisqartirish borasidagi islohotlarimizni yangi bosqichga olib chiqish kerak", - deya ta'kidlab o'tdilar[1]. Davlatimiz rahbari tomonidan berilgan topshiriqlarning barchasida xalq manfaati va mamlakatni har tomonlama rivojlantirish masalalari ustuvorlik kasb etadi, ayniqsa davlatimiz rahbarining yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, yosh avlodni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalg etish, ularda axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash masalalariga muntazam e'tiborlari kun sayin ortib bormoqda. Zero, yoshlar ertamiz vorislari, kelajagimiz egalari va turmush darajani oshirishdagi aholi qatlaming asosiy qismidir. Shu bois ham ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlasak arziydi. Aholi turmush darajasini tahlil qilishning turli usullari mavjud bo'lib, biz ushbu maqolada statistik ma'lumotlarga tayangan holda respublikamiz aholisi turmush darajasi va farovonligini ilmiy jihatdan tahlil qilamiz, xulosa va takliflar havola etamiz.

## **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

So'ngi yillarda mamlakatimizda aholi daromadlarini ko'paytirish, ta'limga e'tibor va sog'liqni saqlash xizmatlarining sifatini oshirish, uy-joy bilan ta'minlash tadbirlari keng ko'lamma amalga oshirilmoqda. Bu ishlarning mohiyati Prezidentimizning ma'ruzalari va murojaatnomalarida batafsil yoritib berilmoqda. Mazkur tadbirlarning natijasi bugungi kunda odamlarning turmush darajasi ijobiy tomonga o'zgarishi orqali namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da "Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish"ni maqsad qilib qo'yganlari aholi turmush darajasi oshishiga davlat siyosati darajasida ahamiyat berilayotganligidan

dalolatdir[2]. Mazkur tadbirlarning natijasi bugungi kunda odamlarning turmush darajasi ijobiy tomonga o'zgarishi orqali namoyon bo'lmoqda.

Biz avvalambor, aholi turmush darajasiga ta'rif beradigan bo'lsak, bu kishilarning moddiy va madaniy-maishiy ehtiyojlari qondirilishi hamda ijtimoiy turmush sharoiti yaxshilanib borishi singari tushunchalarni o'z ichiga oladi. Iqtisodchi olimlar tomonidan aholi turmush darajasiga turlicha ta'riflar va qarashlar mavjud. A.Smit, R.D.Erenberg [3], P.Samuelson [4] kabi iqtisodchi olimlar aholi turmush darajasini nazariy va uslubiy tadqiq qilishgan. Ye.P.Shpakovskaya “Aholi turmush darajasi bu inson faoliyatining, eng avvalo, real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar yig'indisini ifodalovchi murakkab va ko'p qirrali kategoriya bo'lib, ijtimoiy taraqqiyotning muhim tavsifi hisoblanadi”, – deb ko'rsatadi [5]. Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan ham aholi turmush darajasi o'rganilgan va turlicha ta'rif berilgan. Masalan, iqtisodchi olim, akademik Q.X.Abdurahmonovning ta'rifiga ko'ra, turmush darajasi – bu aholi farovonligining, ne'matlar va xizmatlarni iste'mol qilishning darajasi, inson asosiy hayotiy ehtiyojlarining qondirilishi miqdoridir[6]. A.V.Vahobov, X.S.Muxiddinov, B.B.G'oyibnazarov kabi iqtisodchi olimlar ham o'z ilmiy izlanishlarida aholi turmush darajasini tahlil qilganlar.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Ushbu tadqiqotni yoritishda bir qancha iqtisodchi olimlar olib borgan ilmiy izlanishlar, internet manbasi ma'lumotlar bazasidan olingan ilmiy va statistik ma'lumotlar asosida yig'ilgan ma'lumotlar iqtisodiy-matematik va statistik tahlil qilindi. Shuningdek, olib borilgan tadqiqotda monografik tahlil, analiz va sintez, tanlama usul, induksiya va deduksiya, ilmiy abstraksiyalash usullari qo'llanildi.

### **Tahlil va natijalar**

Aholi turmush darajasi tushunchasi ko'p qirrali bo'lib, uni tavsiflaydigan bir qancha ko'rsatkichlar hisoblab chiqiladi. Aholi turmush darajasi asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini: aholi pul daromadlari va xarajatlari, uning tarkibi va foydalanilishi; daromad bo'yicha aholini taqsimlash to'g'risidagi ma'lumotlar ifodalaydi. Odatda aholi turmush darajasi quyidagicha tasniflanadi:

– to'kin-sochinlik (inson barkamol rivojlanishini ta'minlovchi ne'matlardan to'liq foydalanish imkoniyati);


– me'yorli daraja (insonjismoniy va intellektual qobiliyatlarini takror hosil qilishini ta'minlovchi ilmiy asoslangan oqilona iste'mol darajasi); – kambag'allik (iste'mol jarayonida moddiy ne'matlardan ularning quyi chegarasi doirasida foydalanish imkoniyati);

– qashshoqlik (moddiy ne'matlardan biologik mezonlar asosida minimal darajada foydalanish). 1960-yilda BMTning ishchi guruhi global miqyosda turmush darajasini aniqlash va o'lchash tamoyillari haqida hisobot tayyorladi va turmush darajasi ko'rsatkichlarining oxirgi versiyasi 1978-yilda ishlab chiqilgan va 12 ta asosiy yo'nalishni qamrab olgan bo'lib, bular aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM, salomatlik, ovqatlanish, turar joy, uylardagi

mol-mulklar, pulli xizmatlar, aholining madaniy darajasi, mehnat sharoitlari, dam olish sharoitlari, ijtimoiy ta'minot, ijtimoiy-maishiy vaziyat, daromadlar va sarf-xarajatlardir. Bugungi kunda ham mazkur tashkilot tomonidan dunyo aholisi turmush darajasini oshirish va kambag'allikdan aziyat chekayotgan mamlakatlarga ko'maklashish maqsadida qator ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, BMTning Bosh assambleyasida 2000-yilda qabul qilingan “Ming yillik rivojlanish dasturi” hamda 2015-yilda tasdiqlangan “2030-yilgacha mo'ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlari dasturi” bevosita dunyo mamlakatlari aholisini iqtisodiy-ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ekologiya buzilishining oldini olgan holda, aholining salomatligini asrashga qaratilgan muhim tadbirlar sirasiga kiradi.


O'zbekiston BMTning qator tarkibiy tuzilmalari, xususan, Taraqqiyot dasturi bilan doimiy hamkorlikda ko'plab loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirdi va bu jarayon uzlusiz davom etyapti. Xususan kichik va o'rta biznes uchun qulay shart-sharoitlar yaratishda hukumatni qo'llab-quvvatlash bo'yicha faoliyat olib borayotgani xalqimiz manfaatiga xizmat qilyapti.

So'ngi yillarda hukumatimiz tomonidan aholi daromadlari va turmush darajasini yanada oshirish, fuqarolarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar, ish haqi va pensiyalar izchil ravishda o'sib borgani yaqqol namoyon bo'lmoqda.



**1-rasm.Aholi umumiy daromadlari tarkibi [7]**

Davlat statistika agentligi ma'lumoti asosida O'zbekistonning 2022-yilda hududlarda aholining umumiylar daromadlari ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Aholi umumiylar daromadlarini hisoblash – Milliy hisoblar tizimining xalqaro statistika standartlariga, Xalqaro mehnat tashkilotining tavsiyalariga, O'zbekiston qonun hujjatlariga asoslangan Davlat statistika qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan metodik qo'llanma asosida amalga oshiriladi. 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy holati raqamlarda ma'lum qilindi. Statistika agentligining ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda mehnat faoliyatidan olingan daromad 65,0%ni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda ushbu ko'rsatkich -3,4%ga pasaygan.



**2-rasm. 2021-2022-yillarda aholining umumiylar daromadlari tarkibini o'zgarishi, foizda [7]**

Shuningdek, o'z is'temoli uchun ishlab chiqarishdan olingan daromad ham -0,4%ni tashkil etgan. Transfertlardan olingan daromad (3,6%) va shaxsiy mol-mulkidan olingan daromad (0,2%) ko'rsatkichlari esa oshganligini ko'rish mumkin (2-rasm).

#### **1-jadval**

#### **Aholi umumiylar daromadlarning real o'sish sur'atlari [7]**

#### **Aholi umumiylar daromadlarning real o'sish sur'atlari (%)**


2020-yil	2021-yil	2022-yil
100,4	111,3	122,3

#### **Aholi jon boshiga umumiylar daromadlarning real o'sish sur'atlari (%)**

2020-yil	2021-yil	2022-yil
98,5	110,7	107,5

Aholi umumiylar daromadlarning real o'sish sur'atlari (11,0%) va aholi jon boshiga umumiylar daromadlarning real o'sish sur'atlarining (3,2%) 2022-yilda 2021-yilga nisbatan o'sganligini kuzatish mumkin (1-jadval).

Shu bilan birga, aholi jon boshiga umumiylar daromadlar hajmining eng past ko'rsatkichlari Qoraqalpog'iston Respublikasi (13253,4 ming so'm), Farg'ona (13607,9 ming so'm) va Namangan (13880,7 ming so'm) viloyatlari hisobiga to'g'ri keldi. Shuningdek, aholi jon boshiga umumiylar daromadlarning real o'sishi (nominal umumiylar daromadlarining infliyatsiya indeksiga nisbati) 107,5%ni tashkil etib, 2021-yilning yanvar-dekabr oylaridagi xuddi shu ko'rsatkichga (110,7%) nisbatan 3,2%ga pasayganligini ko'rish mumkin. Hududlar kesimida aholi jon boshiga umumiylar daromadlarning real o'sish holati o'rganilganda, aholi jon boshiga umumiylar daromadlarning eng yuqori real o'sish ko'rsatkichi Xorazm (11,8%) viloyatida kuzatildi. Shu bilan birga, Sirdaryo (6,0%), Buxoro (5,7%) viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi (5,2%), Jizzax (3,2%) va Toshkent (0,1%) viloyatlarida aholi jon boshiga umumiylar daromadlarning real o'sishi o'rtacha respublika darajasidan past ko'rsatkichni tashkil etdi. Qolaversa, Navoiy viloyatida (-0,9%) aholi jon boshiga umumiylar daromadlarning real o'sish sur'atlari pasayish tendensiyasi qayd etildi[7].



**3-rasm. Aholi jon boshiga umumiylar daromadlarning real o'sishi darajasi sur'atlari, foizda [7]**

Bundan tashqari, aholining umumiylar daromadlari tarkibi tahlil qilinganda, olingan umumiylar daromadlarning 61,6% (2021-y.-65%) mehnat faoliyatidan olingan daromadlar (yollanma va mustaqil band bo'lishdan olingan daromadlar), 29,8% (2021-y.-6,7%) shaxsiy iste'mol uchun o'zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlar va 2,3% (2021-y.-2,1%) mol-mulkdan olingan daromadlar hisobiga to'g'ri keladi. Mazkur ko'rsatkich hududlar qirqimida kuzatilganda, umumiylar daromadlari tarkibida mehnat

faoliyatidan olingan daromadlarning eng yuqori ulushi Navoiy (77,9%), Toshkent (73,7%) va Jizzax (73,5%) viloyatlarida, aksincha Samarqand, Xorazm, Surxondaryo, Farg'ona, Namangan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qashqadaryo va Andijon viloyatlarida o'rtacha respublika darajasidan past ko'rsatkich kuzatildi. O'z navbatida, aholining daromadlari tarkibi tarmoq va sohalar kesimida tahlil qilinganda, umumiy daromadlar tarkibida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlarning ulushi respublika bo'yicha 56,9%ni, bunda eng yuqori ulush Jizzax viloyatida (67,9%) kuzatildi, eng past ulush esa Qoraqalpog'iston Respublikasida (50,9%), Navoiy viloyati (49,8%), Toshkent shahrida (47,3%) qayd etildi. Qolgan hududlarda ushbu ko'rsatkich, Buxoro (62,9%), Namangan (60,5%), Xorazm (60,2%), Andijon (59%), Qashqadaryo (59,6%), Toshkent (59,5%), Samarqand (59,1%), Surxondaryo (58,9%), Farg'ona (57,3%) viloyatlarida tashkil etdi.

Aholi jon boshiga YaIM real ko'rinishda 3,5 foizga – 21,15 mln so'mdan 24,91 mln so'mga (2254,9 dollar) o'sdi. Taqqoslash uchun, 2021-yilda 5,3 foizga, 2020 yilda pandemiya yilida esa 0,1 foizga o'sish qayd etilgan. 2022-yilda O'zbekiston YaIM hajmi 80,4 mlrd dollarga ko'tarildi O'zbekiston yalpi ichki mahsuloti (YaIM) 2022-yilda 5,7 foizga o'sib, 888,34 trln so'mni (80,4 mlrd dollarga yaqin) tashkil etdi. Aholi jon boshiga YaIM hajmi esa 2255 dollargacha oshdi.

Aholi turmush darajasini tahlil qilar ekanmiz, unga ta'sir qiluvchi omillardan biri "iste'mol savatchasi" ni ham tahlil qilish joizdir. Shu o'rinda ushbu atamaga ta'rif beradigan bo'lsak, «Iste'mol savatchasi» bir kishi yoki oilaning me'yor darajasi bo'yicha iste'mol qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlari va nooziq-ovqat tovarlarining joriy narxlardagi qiymati tushuniladi. Muayyan vaqt davomida inson hayoti va uning salomatligini saqlash uchun zarur mahsulotlar, tovarlar va xizmatlar, ya'ni ovqatlanishi, kiyinishi, kommunal va boshqa xizmatlar hamda dori-darmonlarni xarid qilishi uchun yetadigan mablag', tirikchilik uchun zaruratning eng kam miqdorini aniq belgilash iste'mol savatchasini tashkil etadi. Iste'mol savatchasi aholining 3 ta asosiy ijtimoiy-demografik guruhi: mehnatga layoqatli aholi, pensionerlar va bolalar uchun ishlab chiqiladi. Mamlakatimizda «Iste'mol savatchasi»ga non va non mahsulotlari, go'sht va go'sht mahsulotlari, o'simlik yog'i, shakar, kartoshka kabi 13 turdag'i guruhlashtirilgan oziq-ovqat mahsulotlari, shuningdek, ro'zg'ordagi maishiy texnikalar – muzlatgich, televizor, changyutgich, kir yuvish mashina va hokazo, uy-joy, avtomobillar mavjudligi ham iste'mol savatchasining manbaasini tashkil etadi. «Iste'mol savatchasi»ni boshqa mamlakatlar orasida taqqoslashda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot hajmi qabul qilingan.

Yuqoridagi ma'lumotlar tahlilidan ko'rinib turibdiki aholi turmush darajasi ko'rsatkichlari o'sgan, ya'ni ijobjiy natijaga erishilgan. Pirovard natijada esa mamlakatimizda aholi turmush darajasi yanada yaxshilanib inson qadri yuksalmoqda. Albatta bunday ijobjiy natjalarga erishish zaminida

mamlakatimizda olib borilayotgan odilona siyosatning va chiqarilgan qarorlarning to'g'riliгини ko'rish mumkin.

### **Xulosa va takliflar**

Xulosa qilib aytish mumkinki aholi turmush darajasini oshirishda har bir sohani, xususan tadbirkorlikni rivojlantirishga e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bizning fikrimizcha aholi turmush darajasi va farovonligini yanada yaxshilash bo'yicha quyidagi taklif va tavsiyalarni ko'rib chiqish lozim:

- aholi real daromadlari yuqori bo'lgan viloyatlarni har tomonlama tahlil qilib, o'rganish va natijani aholi jon boshiga daromadi past hududlarda amaliyatga tadbiq etish;
- aholi turmush darajasi va iqtisodiyoti yuksalgan mamlakatlar tajribasini kuzatish va mamlakatimiz iqtisodiyotida qo'llash;
- o'zini o'zi band qilgan aholi uchun "biznes maktablar" tashkil qilish va soliq, kredit imtiyozlarini kengaytirish, past darajada daromad olayotgan aholi farovonligini oshirish uchun samarali chora-tadbirlar ishlab chiqish;
- aholi turmush darajasini baholashda jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni oshirish;
- xarajatlarning tarkibiy o'zgarishi, asosiy oziq-ovqat mahsulotlari iste'moli va uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar bilan ta'minlanganligi bilan bir qatorda yashash sharoiti va standartlarini hisobga olgan holda iste'mol savatchasini ishlab chiqish;
- iste'mol savatchasidan o'rın olgan mahsulotlarni ko'paytirib, tannarxini pasaytirishni ishlab chiqish va amalga oshirish.

### **Foydalanylган адабиётлар ро'yxати**

1. Sh.M.Mirziyoyev. Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 20.12.2022-y.
2. Sh.M.Mirziyoyev. “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”. 28.01.2022-yildagi PF-60-son.
3. R.D.Erenberg, R.S.Smit.“Современная экономика труда: Теория и государственная политика”. - М.: MGU, 1996.
4. P.Samuel'son. “Ekonomika”.-М.:1964,-64 b.
- 5.V.N.Salin, Ye.P.Shpakovskaya. “Социально-экономическая статистика”. -М., 2001. s. 399
6. Q.X.Abdurahmonov. “Inson taraqqiyoti”. Darslik.T.:Iqtisodiyot, 2016. 542 b.
7. O'zbekiston Davlat statistika agentligi. “O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati”. 2022-y.



# МЕХНАТ ИКТИСОДИЙТИ ВА ИНСОН КАПИТАЛИ

<https://laboreconomics.uz/>



## О`ЗБЕКИСТОНДА МЕХНАТ МИГРАЦИЯСИ ЖАРАЙОНЛАРИНИ РАГАМЛАШТИРИШНИНГ ЯНГИ ИМКОНИЯТЛАРИ

**Islamov Baxtiyor Anvarovich,**

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

G.V.Plexanov nomidagi RIU Toshkent filiali professori

e-mail: [bakhtiyor.is@gmail.com](mailto:bakhtiyor.is@gmail.com)

**Gaziyeva Sulxiya Saidmashrafovna**

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti

e-mail: [sulya@mail.ru](mailto:sulya@mail.ru)

DOI: <https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2 iss1/a11>

**Annotatsiya:** Zamonaviy texnologiyalar, xususan, mobil telefonlar orqali taqdim etiladigan raqamli aloqa mehnat migratsiyasining barcha jabhalariga ta'sir qiladi: u migratsiyaga tayyorgarlik ko'rish, migratsiyani amalga oshirish va boradigan mamlakatlarda ma'lumotlarga kirishni ta'minlash, pul o'tkazishni osonlashtirish hamda migrantlarning oilalari bilan aloqada bo'lishiga yordam beradi. Raqamli vositalar va platformalar barcha sohalarda, jumladan, mehnat migratsiyasi va xizmatlarni boshqarishda qo'llanilmoqda. Garchi bu texnologiyalarning ba'zilari mehnat migrantlari uchun maxfiylik va xavfsizlikka oid xavotirlarni keltirsa-da, ular migrantlarga ma'lumotlarga oson kirish, tez va xavfsiz xizmatlarni taklif qiladi. Rivojlanish Strategiyasini amalga oshirish sharoitida Yangi O'zbekistonda mehnat migrantlarini qo'llab-quvvatlash uchun raqamlashtirish imkoniyatlaridan foydalanishda qulay sharoitlar yaratilyapdi.

**Kalit so'zlar:** mehnat migratsiyasi, raqamlashtirish, mobil ilovalar, elektron platformalar, mehnat migrantlari, bandlik agentliklari, "labor-migration" dasturi, "my migration" mobil ilovasi.

## НОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ ЦИФРОВИЗАЦИИ ПРОЦЕССОВ ТРУДОВОЙ МИГРАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ

**Исламов Бахтиёр Анварович,**

д.э.н., профессор

Ташкентского филиала РЭУ им. Г.В. Плеханова

**Газиева Сулхия Сайдмашрафовна**

Базовый докторант Ташкентского государственного  
университета востоковедения

**Аннотация:** Цифровая связь, обеспечиваемая современными технологиями, особенно мобильными телефонами, затрагивает все стороны трудовой миграции: это

подготовка к миграции, осуществление миграции и обеспечение доступа к информации в странах назначения, а также содействие денежным переводам и семьям мигрантов. Цифровые инструменты и платформы используются во всех секторах, включая трудовую миграцию и управление услугами. Хотя некоторые из этих технологий вызывают озабоченность у трудящихся-мигрантов в отношении конфиденциальности и безопасности, они предлагают мигрантам легкий доступ к информации, быстрые и безопасные услуги. В условиях реализации Стратегии развития в Новом Узбекистане создаются благоприятные условия для использования широких возможностей цифровизации по поддержке трудовых мигрантов.

**Ключевые слова:** трудовая миграция, цифровизация, мобильные приложения, электронные платформы, трудовые мигранты, агентства по трудуоустройству, программное приложение «labor-migration», мобильное приложение «my migration».

## **NEW OPPORTUNITIES FOR DIGITALIZATION OF LABOR MIGRATION PROCESSES IN UZBEKISTAN**

**Islamov Bakhtiyor Anvarovich,**  
d.e.s., professor of the Tashkent branch of PRUE  
named after G.V. Plekhanov  
**Gazieva Sulkhiya Saidmashrafovna**

Doctoral student of Tashkent state university of oriental studies

**Abstract:** Digital communication provided by modern technologies, especially mobile phones, effects on all aspects of labor migration: i.e. preparation for migration, implementation of migration and provision of access to information in destination countries, facilitation of remittances to the families of migrants. Digital tools and platforms are being used in all sectors, including labor migration and service management. Although some of these technologies raise privacy and security concerns for migrant workers, they offer migrants easy access to information, fast and rather secure services. In the conditions of realization of the the Development Strategy in New Uzbekistan favorable conditions for using new digitization opportunities to support labor migrants are being created.

**Keywords:** labor migration, digitization, mobile applications, electronic platforms, labor migrants, employment agencies, "labor-migration" program, "my migration" mobile application.

### **Kirish**

Yangi O'zbekistonda mamlakatni raqamlashtirishga katta e'tibor qaratilib, bu borada keng ko'lamli ishlar boshlab yuborildi. Ma'lumki, COVID-19 paytida 2020-yil mamlakatimizda "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb e'lon qilingan edi. Pandemiya davrida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni imzolanib<sup>1</sup>, raqamli iqtisodiyotni joriy etish va elektron hukumatga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi o'tkazilib, unda Prezident Sh.M.Mirziyoyev "raqamli iqtisodiyotsiz mamlakat

<sup>1</sup> III. Mirziyev. Постановление Президента Республики Узбекистан «О мерах по широкому внедрению цифровой экономики и электронного правительства». От 28 апреля 2020 г. № ПП-469922 <https://lex.uz/docs/4800661>

iqtisodiyotining kelajagi yo‘q”ligini ta’kidladi<sup>2</sup>. Shu bilan birga “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi qabul qilindi<sup>3</sup>. 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasini amalga oshirish jarayonida axborot va kommunikatsiyalar sohasida yalpi qo‘shilgan qiymat 2 barobardan ziyod oshib, 11,8 trillion so‘mga (1 milliard AQSH dollaridan ortiq) yetdi. O‘zbekistonda IT-parklar tashkil etilganidan buyon soha eksporti hajmi 50 barobar oshib, 46 million dollarga yetdi. Park rezidentlari soni 147 tadan 500 taga ko‘paydi, 300 dan ortiq yangi korxonalar ochilib, 8500 tasi tashkil etildi. Davlat boshqaruvini isloh qilish va raqamlashtirish natijasida davlat xizmatlarining 56 %i interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ko‘rsatila boshlandi. O‘zbekistonda internetdan foydalanuvchilarning umumiy soni 27,2 million kishiga yetdi. Ayni paytda IT-parklarda 11 mingdan ortiq yoshlar mehnat qilmoqda<sup>4</sup>. 2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasida mamlakatimizni raqamlashtirishni kuchaytirishga qaratilgan yanada ulkan vazifalar belgilangan<sup>5</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyuldaggi PQ-3839-sonli «O‘zbekiston Respublikasining tashqi mehnat migratsiya tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-sentyabrdagi 725-sonli «O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini xorijda uyushgan holda ishga joylashtirish tizimini yanada takomillashtirish va tubdan qayta ko‘rib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori, 2019-yil 20-avgustdaggi PF-5785-sonli «Xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari va ularning oila a’zolarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish choralarini to‘g‘risida»gi farmoni, 2019-yil 23-avgustdaggi VM-713-sonli «Xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori, 2020-yil 15-sentabrdagi PQ-4829-sonli «Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori, 2021-yil 30-iyuldaggi PQ-5205-sonli «Xorijga tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasiga ketayotgan fuqarolarni rag‘batlantirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori, 2022-yil 1-martdaggi «Xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O‘zbekiston respublikasi fuqarolarini va ularning oila a’zolarini qo’llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori,

<sup>2</sup> Ш.Мирзиёев. «Без цифровой экономики нет будущего у экономики страны», UzA, 22 сентября 2020 г. состоялось видео-селекторное совещание по вопросам внедрения цифровой экономики и электронного правительства в отраслях и регионах <https://uz.a.uz/ru/posts/prezident-bez-tsifrovoy-ekonomiki-net-budushchego-uekonomik-22-09-2020>

<sup>3</sup> Ш.Мирзиёев. Указ Президента Республики Узбекистан, от 05.10.2020 г. № УП-6079 Об утверждение Стратегии «ЦИФРОВОЙ УЗБЕКИСТАН-2030» и мерах по её эффективной реализации. <https://lex.uz/ru/docs/5031048>

<sup>4</sup> К. Абдурахманов. Развитие ИКТ в гармонии с национальным менталитетом. «Бизнес DAILY Биржа», №82(2965), 25.10.2022

<sup>5</sup> Sh.Mirziyoyev. 2022-yil 28-yanvardagi PF 60-sonlini “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” <https://lex.uz/docs/5841063>

2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 86-maqсади "Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasini ta'minlash hamda samarali migratsiya siyosatini yuritish" va mazkur sohaga tegishli bo'lgan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Mehnat migratsiyasi jarayonlarini raqamlashtirish bilan bog'liq masalalar ko'plab xorijlik va MDH olimlari tomonidan o'rganilgan. Yuqori malakali ishchilarning xalqaro virtual migratsiyasini o'rganish va tahlil qilish xorijlik olimlar, A.Anish<sup>6</sup>, J.Makkarti<sup>7</sup>, B.Xiang hamda O.Kassi tomonidan katta e'tiborga sazovor bo'ldi. Xususan, amerikalik hind olimi Anish "virtual migratsiya" tushunchasini ilk bora muomalaga taklif qilib, mehnat migratsiyasi transchegaraviy amaliyot sifatida mahalliy va xorijiy tadqiqot va nazariyalarni konseptual jihatdan shubha ostiga qo'ydi. Xitoylik tadqiqotchi Xiang ta'kidlaganidek, "mehnat migrant" atamasini o'rganish mavzusi asosan, davlatlar, ayniqsa retsipient mamlakatlar nuqtai nazaridan tushunish uchun mo'ljallangan zamonaviy tadqiqotchilarning ixtirosidir<sup>8</sup>. Angliyalik tadqiqotchi Kassining fikricha, mehnat bozorida yuz berayotgan o'zgarishlar imkoniyatlar yaratish bilan bir qatorda jiddiy xavflarni ham vujudga keltirmoqda. Bunga javoban turli kasb yo'nalişlarida ko'nikmalarni rivojlantirish, ijtimoiy siyosatni yaxshilash zarur hisoblanadi<sup>9</sup>.

Raqamlashtirish mehnat munosabatlarini tubdan o'zgartirish bilan birga, bir vaqtning o'zida mobillikning yangi ko'rinishlarini shakllanishiga turki berdi. Virtual mehnat migratsiyasi tushunchasi, mehnat migratsiyasining ishchi kuchi chegaralar orqali jismoniy harakati sifatida qabul qilingan ta'rifi murakkablashtirib yubordi<sup>10</sup>. Raqamli mobillikning konseptual va huquqiy jihatdan yangi shakllarining paydo bo'lishi, mehnat migratsiyasi, tartibga solish va chegara bilan bog'liq tushunchalarning ta'rifi shubha ostiga qo'ydi. Belgiyalik olim De Stefano mehnatning 3 turini taklif qildi: kapital platformalari bilan ishslash, ilovalar bilan ishslash va jamoaviy mehnat yoki kraudvorking<sup>11</sup>.

Xalqaro mehnat tashkilotining 2018-yilda chop etilgan "Raqamli mehnat platformalari" nomli to'plamda ham virtual mehnat migratsiyasiga ta'rif berib

<sup>6</sup> Aneesh A. Virtual migration: The programming of globalization. Durham; London: Duke University Press, 2006. 208 p. DOI: 10.2307/j.ctv125jms5.

<sup>7</sup> McCarthy, J. (2011). Computer Scientist Known as the Father of AI. Independent. Retrieved March 1, 2020, from <http://www.independent.co.uk/news/obituaries/john-mccarthy-computer-scientist-known-as-the-father-of-ai-6255307.html>

<sup>8</sup> Xiang, B. (2014). The Would-Be Migrant: Post-Socialist Primitive Accumulation, Potential Transnational Mobility, and the Displacement of the Present in Northeast China. *Trans-Regional and National Studies of Southeast Asia*, 2(2), 183–199.

<sup>9</sup> Kässi O., Lehdonvirta V. Online Labour Index: Measuring the Online Gig Economy for Policy and Research. MPRA Paper No. 74943. Oxford Internet Institute. 03.11.2016. 19 p.

<sup>10</sup> Z. Kadirova and S.Gazieva. 2021. Theoretical bases of international labor migration processes, International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences 1(2) 77-84

<sup>11</sup> De Stefano V. The Rise of the 'Just-in-Time Workforce': On-Demand Work, Crowd Work and Labour Protection in the 'Gig-Economy'. Comparative Labor Law & Policy Journal. 2016. Vol. 37, No. 3. Pp.461–471

o'tilgan. Virtual mehnat migratsiyasini onlayn kapital, mehnat va axborot oqimlari orqali milliy chegaralarni kesib o'tuvchi ish sifatida aniqlash mumkinligi keltirilgan. Bu, aslida, mahalliy, milliy va global kontekstlarni birlashtirgan offshor ishchi kuchidir<sup>12</sup>.

A.Anish virtual migratsiyaga misol tariqasida AQSH iqtisodiyoti uchun kompyuter texnologiyalari bo'yicha o'z mamlakati sarhadidan chiqmasdan turib ishlaydigan hind mutaxassislarini keltiradi.

Rossiyalik tadqiqotchi T.B.Rusakova "virtual mehnat bozori global axborot makonida zamонавиу raqamli texnologiyalar asosida mavjud bo'lgan mehnatga oid axborot xizmatlarini sotish va sotib olish bo'yicha geografik taqsimlangan xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar tizimini tushunadi"<sup>13</sup>.

Xususan, mehnat migratsiyasi haqidagi ilmiy tushunchalar evolyutsiyasi, uning mehnat bozori va iqtisodiyot rivojlanishidagi ahamiyati, mehnatda sun'iy intellektdan foydalanishni tizimli o'zgartirish kontekstida inson kapitali muammolari, bandlik va migratsiya Q.Abduraxmonov, N.Zokirova, B.Islomov, S.Mansurov mehnat migratsiyasi ilmiy konsepsiyalari evolyutsiyasi, uning mehnat bozori va iqtisodiyotning rivojlanishidagi ahamiyati, O'zbekistonda migratsiya jarayonlarini L.Maksakova, O'zbekistondagi mehnat migratsiyasining o'ziga xos xususiyatlari, tashqi va ichki mehnat migratsiyasini D.Rasulova, O'zbekistonda mehnat migratsiyasi rivojlanishining zamонавиу tendensiyalari, uning me'yoriy-huquqiy asoslari va u bilan bog'liq muammolar hamda mehnat migrantlarining pensiya ta'minoti kabi masalalar B.Umurzakov va Sh.Isakulov, aholi migratsiyasi, uning etnik tarkibidagi o'zgarishlar, mehnat migratsiyasi jarayonlarining hududiy xususiyatlari R.Ubaydullaeva, O'zbekistonning xalqaro mehnat bozoriga integratsiyallashuvi masalalari Z.Qodirova va aholini ish bilan bandligini ta'minlashda migratsiyaning o'rni E.Muhittinovlar ilmiy ishlarida tadqiq etilgan<sup>14</sup>. Shu bilan birga, ta'kidlab o'tish

<sup>12</sup> Digital labour platforms and the future of work: Towards decent work in the online world. Geneva: International Labour Office, 2018. 165 p. ISBN: 978-92-2-031024-3.

<sup>13</sup> Русакова Т.Б. Сущность и направления развития виртуального рынка труда в Российской Федерации // Научно-технические ведомости СПбГПУ. Экономические науки. 2019. Т. 12, № 5. С. 44–57. DOI: 10.18721/JE.12504

<sup>14</sup> Б.Исламов "Социально-экономические аспекты миграционных процессов в независимых странах Центральной Азии", Acta Slavica Iaponica, Journal of Slavic Research Center, Hokkaido University, Tomus XVI, 1998, pp. 184-206, Mansurov Saidnumon, Abdurakhmanov, Kalandar Islamov Bakhtiyor, Zokirova Nodira. 2022. Abdurakhmanov, Kalandar, Islamov Bakhtiyor, Zokirova Nodira, Hiwatari, Masato. Systemic Transformation and Sustainable Development: Case of Uzbekistan, Monograph, Jakarta, Gunadarma University Press, 2016 г., pp. 230. Б. Исламов "Социально-экономические аспекты миграционных процессов в независимых странах Центральной Азии", Acta Slavica Iaponica, Journal of Slavic Research Center, Hokkaido University, Tomus XVI, 1998, pp. 184-206, Mansurov Saidnumon, Abdurakhmanov, Kalandar Islamov Bakhtiyor, Zokirova Nodira. 2022. The Application of Artificial Intelligence in Labour Economics: using migration from CIS countries to Russian Federation as an example. <https://doi.org/10.1145/3584202.3584242> (doi: 10.1145/3584202.3584242); Максакова Л.П. Узбекистан в системе международных миграций. Постсоветские трансформации: отражение в миграциях / Под ред. Зайончковской Ж.А. и Витковской Г.С. -М.: ИТ "АдамантЪ". 2009. Максакова Л.П. Экспорт рабочей силы из Узбекистана /Центр миграционных исследований 2004-2010 —<http://migrocentr.ru/publ/trudm/07.php>; Расулова Д.В. Ишчи кучи миграцияси ривожланишининг назарий асослари. Монография.Т.,2010.; Умурзаков Б.Организационно-правовые основы регулирования трудовой миграции в Узбекистане. халқаро муносабатлар.Т.,2008.№2.С.52-59.; Умурзаков Б., Ирназаров Ф. Доступ трудовых мигрантов из Узбекистана, работающих в России, к пенсионной накопительной системе/ Доступ трудовых мигрантов из Кыргызстана,

kerakki, raqamlashtirish sharoitida O’zbekistonda mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solish bo'yicha tizimlashtirilgan tadqiqotlar deyarli uchramaydi. Bu esa, o'z navbatida, tanlangan mavzuning dolzarb ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Maqolada empirik, tasviriy statistika, guruhlashtirish, qiyosiy va dinamik tahlil tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

### **Tahlil va tadqiqot natijalari**

Raqamlashtirish mehnat migratsiyasi jarayonlari uchun ham yangi imkoniyatlar ochadi. Migratsiyani boshqarish uchun xizmatlarni raqamlashtirish samaradorlik, shaffoflikni ta'minlashi, shuningdek, migratsiya bilan bog'liq ayrim muammolarni tejamkorlik bilan hal qilishi mumkin. Arzon narxlardagi smartfonlar, internetga kirish va internet tarmog'ining tarqalishi mobil tarmoqlar va telefon ilovalari hatto kam ta'minlangan oilalarga, jumladan, migrantlarga ham ushbu texnologiyadan foydalanishga imkon berdi<sup>15</sup>. Shveytsariya taraqqiyot va hamkorlik agentligi hisobotida raqamli texnologiyalarning migratsiyani qanday osonlashtirgani qayd etilgan:

- retsepient mamlakat haqidagi ma'lumotlarni, undagi afzallikkarni oldindan bilish imkoniyati;

- mobil pul platformalari orqali migrantlar yoki ularning oila a'zolarining tranzit vaqtida va manzilga yetib borishi uchun shaxsiy molivaviy resurslaridan foydalanish imkoniyati;

- migrantlar tarmog'iga kirish va retsepient mamlakatdagi mahalliy ma'lumotlarga kirish orqali kelgan mamlakatga ko'nikishni osonlashtirish;

- uyali telefonlarda mavjud bo'lgan xabarlar, ovozli qo'ng'iroqlar va ijtimoiy tarmoq ilovalari orqali o'z mamlakatidagi oilalar va tarmoqlar bilan doimiy aloqalar;

Bundan tashqari, mobil telefonlar migrantlarga keng ko'lamli muhim ma'lumotlar va xizmatlardan, jumladan, uy-joy, ishga joylashish yoki o'qitish imkoniyatlari, mahalliy sog'liqni saqlash va transport, maktablar va bolalar parvarishi, madaniy yoki diniy tadbirlardan foydalanish imkoniyatini taqdim etish orqali ularga yangi mamlakat va jamiyatga joylashishda yordam beradi. (ayniqsa, o'z diasporasida). Telefonlar, shuningdek, migrantlarning boshipana yoki yashash uchun arizalari ko'rib chiqilayotganda hokimiyat bilan muloqot qilish imkonini beradi va uy xizmatchilari kabi zaif guruhlar uchun shaxsiy

Таджикистана и Узбекистана, работающих в Российской Федерации, к пенсионной накопительной системе.Бишкек.2011.С.29-37.; Исакулов Ш. Социальная защита прав трудовых мигрантов Республики Узбекистан и Российской Федерации// Вестник ПАГС.М.,2009.С.192-196.; Исакулов Ш. Диверсификация направлений миграционных потоков//Халқаро муносабатлар.Т.,2013.№1. С.32-36.; Убайдуллаева Р.А. Анализ факторов толерантности узбекистанского общества. Социол. исслед. М., 2013. N3.. Кодирова, З. Глобаллашув шароитида Ўзбекистоннинг халқаро меҳнат бозорига интеграциялашуви. Тошкент 2016, Мухитдинов Э.М. Ахолини иш билан бандлигини оширишда ташқи меҳнат миграциясининг аҳамияти. Илмий электрон журнал. «Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар» №4, 2018.

<sup>15</sup> Sh.Mirziyoyev. 2019-yil 20-avgustdag'i PF 5785-soni "Xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston respublikasi fuqarolari va ularning oila a'zolarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish choralarini to'g'risida" <https://lex.uz/docs/-4482648>

xavfsizlik mexanizmi hisoblanadi<sup>16</sup>. Til o’rganish va tarjima dasturlari migrantlar tomonidan tobora ko’proq foydalanilmoqda. Ijtimoiy media platformalari migrantlarga boradigan mamlakat ichidagi va undan tashqaridagi migrantlar tarmoqlari bilan bog’lanish imkonini beradi. Ammo shuni ta’kidlash kerakki, mobil telefonlar migrantlarning barcha muammolariga javob emas, ular muayyan vaziyatda ularga kerakli yordamni ko’rsatadi<sup>17</sup>. Mobil telefonlar, shuningdek, migrantlarga oila bilan aloqada bo’lishga yordam berib, ularga donor mamlakatning siyosiy va madaniy hayotida qatnashish imkonini beradi. Geografik jihatdan migrant boshqa mamlakatda joylashgan bo`lsada raqamli texnologiyalar orqali doimo aloqada bo`lgani uchun retseptient mamlakatga ham tez integratsiyalashib ketadi. Mobil telefonlar, shuningdek, oilalarga moliyaviy yordam ko’rsatish uchun arzonroq va tezroq pul o’tkazish imkonini beradi. Shunday qilib, axborotni raqamlashtirish migratsiya boshqaruvi va yetakchiligining barcha jabhalarida, shuningdek, migratsiyaning barcha bosqichlarida muhim aloqa vositasi hisoblanadi.

Migratsiya boshqaruvi sohasida ASEAN (Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari hamjamiyati) hukumatlari migratsiya jarayoni va migrantlarga xizmatlar ko’rsatishning turli jihatlari uchun raqamli boshqaruv tizimlari va ma’lumotlar bazalarini ishlab chiqdilar. Ushbu tizimning afzalliklaridan ba’zilari quyidagilardir: tezkor joylashtirish, jarayonlarni tezlashtirish, vaqt va xarajatlarni kamaytirish; migratsiya siklining barcha bosqichlarida shaffoflik va javobgarlikni oshirishdan iborat<sup>18</sup>.

Raqamli boshqaruv platformalari o’z ichida mehnat shartnomalari, ish haqi varaqalari yoki tibbiy ma’lumotnomalar kabi muhim hujjalarni saqlaydi. Masalan, ish beruvchi yoki agentliklar o’rtasida shartnomalari, to’lovlar yoki boshqa masalalar yuzasidan kelishmovchiliklar yuzaga kelishi mumkin<sup>19</sup>. Bundan tashqari, onlayn ro’yxatga olish xizmatlari tizimi va real vaqtida onlayn ma’lumotlar bazasi xizmatlarini joriy etish bo’yicha jahon amaliyotiga tayanish xorijda ishga joylashish tartib-qoidalarini boshqarishda muhim ahamiyatga ega va ularni raqamlashtirish mumkin<sup>20</sup>. Raqamli platformalar ishga qabul qilish jarayonidagi xarajatlarni kamaytirishi va ishga qabul qilish amaliyotida javobgarlikni oshirishi mumkin. Shuningdek, ular ishga qabul qilish agentliklarini kuzatishda va ularni javobgarlikka tortishda yordam berishi mumkin. Platformalar qora ro’yxatga kiritilgan ish agentliklari uchun ogohlantirishlardan foydalanishi mumkin. Ish agentliklari mehnat migrantlari bilan bog’lanish, ular haqida so’rash, ularning muammolari yoki shikoyatlarini hal qilish uchun ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishi mumkin. Onlayn

<sup>16</sup> Islamov B., Kadirova Z., Gaziyeva S. Digitization measures in the regulation of labor migration processes in Uzbekistan // ACM, New York, NY, USA, ICFNDS ’22, December 15, 2022. 328-337 pp.

<sup>17</sup> Shveytsariya taraqqiyot va hamkorlik agentligi (SDC) 2018

<sup>18</sup> МОТ. Цифровизация и будущее миграции. Презентация на круглом столе по трудовой миграции в Азии. Будущее трудовой миграции в Азии. Вызовы и возможности в следующем десятилетии. 7 февраля 2020 г.

<sup>19</sup> МОТ. 2018. Как цифровизации поможет добиться справедливой миграции? 31 октября. [https://www.ilo.org/asia/media-centre/statements-and-speeches/WCMS\\_648541/lang--en/index.htm](https://www.ilo.org/asia/media-centre/statements-and-speeches/WCMS_648541/lang--en/index.htm)

<sup>20</sup> АБР. 2020. Перспективы развития Азии – 2020. Как продвигаются инновации в Азии?

platformalar, shuningdek, mehnat migrantlariga “baholash va ko’rib chiqish” rukni orqali ongli tanlov qilishda yordam berishi mumkin. Qabul qiluvchi mamlakatda ilova va platformalar mehnat migrantlarini o’z vaqtida, dolzarb va moslashtirilgan ma’lumotlar bilan ta’minlash, munosib va samarali mehnat sharoitlarini yaratish, pul o’tkazmalari va moliyaviy qamrab olish muammolarini hal qilish uchun mo’ljallangan bo’lishi mumkin. Mobil to’lov tizimlari pul o’tkazmalari xarajatlari va moliyaviy inklyuziya muammosini hal qiladi. Ilovalar pul o’tkazmalari, elektron banking va mobil to’lovlar uchun raqamli yechimlarni taqdim etadi. Yangi raqamli vositalar shaffoflikni oshiradi va pul o’tkazmalari operatorlari o’rtasidagi raqobatni kuchaytiradi va pul o’tkazmalari xarajatlarini kamaytiradi.

Kelgandan keyingi va qaytish bosqichida raqamli dasturlarga quyidagilar kiradi: Ishonch telefoni ilovalari, ma’lumotlar bazalari va migrantlar farovonligini boshqarish uchun ariza platformalari (shu jumladan shikoyatlar), ishchilarning adolatga kirishini osonlashtiradi. Raqamli vositalar migrantlarga tashkilot va ishchi kuchi bilan bog’lanishga yordam beradi hamda ishchilarga yollovchilar, ish beruvchilar va boshqa vositachilarni baholash va tekshirish imkonini beradi<sup>21</sup>.


Yangi O’zbekiston Respublikasi mehnat migrantlarini qo’llab-quvvatlash uchun raqamlashtirish imkoniyatlaridan foydalanishda qulay sharoitga ega. Xususan, so’nggi 3 yilda mobil aloqa abonentlari soni qariyb 3 millionga oshgan. Davlat statistika qo’mitasi ma’lumotlariga ko’ra, 2022-yilning 1-iyul holatiga ko’ra, abonentlar soni 25,8576 millionga yetdi. Taqqoslash uchun, Osiyo-Tinch okeani mintaqasida aholining 44 %i internetdan foydalansa, O’zbekistonda 78% aholi internet foydalanuvchisidir<sup>22</sup>.

2008-2021-yillar davomida O’zbekistondan xorijga ishslash uchun ketayotgan migrantlar sonining barqaror, xususan 2010-2014-yillar davomida 2 baravarga, 2015-2018-yilda esa 3 baravarga o’sishi kuzatilgan. O’z navbatida 2015-yilda Rossiya migratsiya siyosatida kuzatilgan cheklanishlar sababli 2015 va 2016-yillarda 4-6% ga hamda kutilmaganda yuzaga kelgan pandemiya tufayli 2019-yilda 18%ga va 2020-yilda 75% ga xorijga ketayotgan o’zbekistonlik migrantlari soni qisqargan.

Respublikamizdagi mehnat resurslari bilan mehnat migrantlari sonini taqqoslar ekanmiz, xorijga ishslashga ketgan mehnat migrantlarining jami mehnat resurslariga nisbatan ulushi 2010-yildan 2017-yilga qadar o’rtacha 6% ni tashkil qilgan bo’lsa, 2018-yilda esa, ularning soni eng yuqori darajaga ya’ni, 4,13 million kishiga etgan bo’lib, bu ko’rsatkich 22% ni tashkil qildi.


<sup>21</sup> Kadirova Z., Gaziyeva S. Regulation of labor migration processes in Uzbekistan // Journal of marketing, business and management. Vol. 1 ISSUE 10. January 2023. 41-48 pp.

<sup>22</sup> “Bugungi kunda O’zbekistonda internet xizmatidan foydalanuvchilar soni 27,2 milliondan oshgan” <https://kun.uz/uz/news/2022/01/10/ozbekistonda-internet-xizmatidan-foydalanuvchilar-soni-malum-qilindi>



**1-rasm. 2008-2021-yillarda respublika bo'yicha jami mehnat resurslari soni va mehnat migrantlari<sup>23</sup>**

O'zbekistonlik mehnat migrantlarining asosiy qismi MDH mamlakatlariga, xususan Rossiya Federatsiyasiga ishslashga ketadilar. Chunonchi, 2010-yilda MDH mamlakatlariga 645 ming kishi, boshqa xorijiy davlatlarga esa, 12,5 ming kishi ishslashga ketgan bo'lsa, 2021-yilda ular mos ravishda 1,4 mln va 115 ming nafar kishini tashkil etgan. Qayd etish joizki, biz yuqorida ta'kidlagan xorijga chiqib ketgan o'zbekistonlik migrantlar soni eng yuqori cho'qqiga etgan 2018-yilda MDH mamlakatlariga ketgan o'zbekistonlik migrantlar jami mamlakatdan chiqib ketgan migrantlarning 98%ini tashkil etgan.



**2-rasm. 2008-2021-yillarda MDH va boshqa xorij davlatlariga ishslashga ketgan o'zbekistonlik mehnat migrantlari soni<sup>24</sup>**


Xususan, TMMA tomonidan 2021-yil yakuniga ko'ra, 108 ming nafar fuqaro xorijiy davlatlarda ishga joylashtirilgan bo'lib, ularning 93% i Rossiyada ishlaydi. 2022-yilda esa, 18,6 ming nafar fuqaro uyushgan shaklda xorijga jo'natilgan bo'lib, ularning 85%i, ya'ni 15,2 ming nafari Rossiyaga yuborilgan.

Mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirish jarayonlari masalasi muhim vazifalari qatoridan o'rinn olar ekan, bu borada tashqi mehnat

<sup>23</sup> O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi. (2008-2021), xizmat maqsadida foydalanilishi uchun

<sup>24</sup> O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi. (2021) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi.

migratsiyasi jarayonlarini tartibga solish ham dolzarb yo’nalishlardan biriga aylandi<sup>25</sup>.



**3-rasm. 2021-yilda TMMA tomonidan xorijda ishga joylashtirilgan o’zbekistonlik mehnat migrantlarining mamlakatlar bo’yicha taqsimlanishi, (%) da**

**4-rasm. 2022-yilda TMMA tomonidan xorija uyushgan shaklda yuborilgan mehnat migrantlarining mamlakatlar bo’yicha taqsimlanishi, (%) da**

2019-yil 20-avgustda “Xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O’zbekiston Respublikasi fuqarolari va ularning oila a’zolarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish choralari to’g’risida”gi PF-5785-sod Farmonining 10-bandiga binoan “labor-migration” dasturiy ta’minoti yaratildi<sup>26</sup>.

Xususan, “labor-migration” dasturiy ta’minoti quyidagilarni o’z ichiga oladi:

- vaqtinchalik chet elda ishslash istagida bo’lgan fuqarolar uchun chet el davlatida bo’lish qoidalari, yashash va mehnat sharoitlari, ishslash davlatida ijtimoiy va uy ta’minoti, xorijiy ish beruvchilar bilan mehnat shartnomalari tuzishning huquqiy jihatlari, shuningdek qonunda belgilangan moliyaviy qo’llab-quvvatlash choralari to’g’risidagi ma’lumotlarni onlayn rejim orqali taqdim etish;

- Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi va xususiy bandlik agentliklari faoliyati to’g’risida, shu jumladan ular ko’rsatadigan xizmatlarning turlari va xarajatlari, xorijiy ish beruvchilar taklif etgan bo’sh ish o’rinlari, shuningdek ushbu ish joylariga ishga joylashish tartibi to’g’risida ma’lumotlarni taqdim etish;

- O’zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet elda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish bilan bog’liq jarayonlar, shu jumladan kasb-hunarga o’qitish va qayta tayyorlash va malakasini oshirish, olingan moliyaviy yordam choralari, ko’rsatilayotgan huquqiy va ijtimoiy yordam, xorijiy ish beruvchilar bilan tuzilgan mehnat shartnomalari to’g’risida ma’lumotlarning monitoringi;

<sup>25</sup> Abdurakhmanov K.K., Mukhiddinov E.M., Grishin, V.I., Abdurakhmanova, G.K., Kuchkarov, G.F. 2019. Labor migration of the population and evaluation of supply chain on the labor market, International Journal of Supply Chain Management 8, 896–907.

<sup>26</sup> www.labormigration.uz

- Chet elda qiyin vaziyatga tushib qolgan va yordamga muhtoj bo'lgan mehnat muhojirlari tomonidan arizalarni masofadan turib yuborish imkoniyati;

- Mehnat muhojirlari, ularning bandlik geografiyasi, faoliyat yo'naliishlari va turlari to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini shakllantirish.

*Yuqoridagi ma'lumotlarga binoan quyidagi vazifalar bajarildi:*

- Xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining arizalari qabul qilindi;

- Xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish istagini bildirgan fuqarolarning anketalari (rezyume) qabul qilinadi;

- Xorijiy davlat muassasalarining rasmiy veb-saytlaridagi mehnat masalalari bo'yicha ma'lumotlari joylashtirildi;

- Xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan hamda xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish istagida bo'lgan fuqarolar uchun huquqiy ma'lumotlar joylashtirildi;

- Fuqarolarning uyushgan tarzda chiqib ketishiga yordam beradigan media-fayllar joylashtirilgan;

- Taqdim etiladigan xizmatlar ro'yxati joylashtirildi;


- Imtiyozli xizmatlar ro'yxati batafsil tavsifda joylashtirildi;

- Bo'sh ish o'rnlari ro'yxati e'lon qilindi;

- Rossiya Federatsiyasi Mehnat va aholi bandligi federal xizmatining "Rabota v Rossii" butun Rossiya bo'sh ish o'rnlari ma'lumotlar bazasi (trudvsem.ru) bilan "labor-migration" dasturi integratsiyalashtirilgan.

Xususan, 2022-yil 16-avgust holatiga "labor-migration" dasturidan jami 1624213 nafar fuqaro ro'yxatdan o'tgan, ushbu dastur doirasida 426 ta ish beruvchilar bilan shartnomalar tuzilgan, taqdim etilgan bo'sh ish o'rnlari 10658ta hamda jami 2186488 ta xizmatlar ko'rsatilgan.

2022-yil 10-avgust holatiga jami 609034 ta xizmatlar ko'rsatilib, ulardan 49 % i chipta sotib olish, 31%i sug'urta, 18%i ish izlash bilan bog'liq hamda jami 1619ta kreditlar ajratilgan bo'lib, 1% ni tashkil qildi.



*Manba: www.labormigration.uz*

**5-rasm. Labor migration dasturi doirasida jami ko'rsatilgan xizmatlar**

Hozirda "labor-migration" dasturiy ta'minot to'plamining barcha funksiyalari ishga to'liq tushirilgan, jumladan:

- mehnat migrantlari to'g'risidagi ma'lumotlar bazasi shakllantirilgan;
- imtiyozli chiptalarni taqdim etish xizmatlari yo'lga qo'yilgan;
- imtiyozli sug'urta polisini taqdim etish xizmatlari yo'lga qo'yilgan;
- imtiyozli kredit berish xizmatlari yo'lga qo'yilgan;
- imtiyozli uy-joy olish uchun viloyat komissiyasiga taqdim etish uchun "Tasdiqnoma"ni taqdim etish xizmatlari yo'lga qo'yilgan;
- kasbiy ta'lim olish va chet tillarini o'qitishni istagan fuqarolarni yo'naltirish xizmatlari yo'lga qo'yilgan;
- "Ishchilarning ma'lumotlari yagona bazasi" shakllantirilgan;
- chet elda vaqtincha mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi fuqarolarga yordam berish xizmatlari yo'lga qo'yilgan;
- fuqarolarni "Yagona migratsiya markaziga" yuborish xizmatlari yo'lga qo'yilgan.

Labor-migration vebsaytida va mobil ilovasida Rossiya Federatsiyasi mehnat bozori hudud va sohalar kesimida tahlil qilingan. 2022-yil holatiga Rossiya Federatsiyasi hududlari ichida asosan Samara, Krasnoyarsk, Rostov, Murmansk hamda Chelyabinsk viloyatlarida bo'sh ish o'rnlari yuqori. Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi trasmiy ma'lumotiga ko'ra Respublikamizdan 2021-yil tashkillashtirilgan tarzda 16278 kishi migratsiyani amalga oshirgan bo'lsa, ularning 80% i Rossiyaga yo'nalган.

Shuningdek, saytda Birlashgan Arab Amirliklari, Turkiya, Janubiy Koreya, Qozog'iston mamlakatlari haqida ham ma'lumotlar berilgan. Xususan, BAA va Turkiya mehnat bozori bo'yicha saytlar ro'yxati keltirilgan.

Labor migration saytida Rossiya Federatsiyasi mehnat bozori sohalar kesimida chuqur tahlil qilingan. Ishlab chiqarish 17 % ni, ta'lim-fan 11 %ni, sog'liqni saqlash 10 %, qurilish 5%ni, axborot texnologiyalari 3% ni ya'ni 95 ta vakansiyani tashkil qildi.

2022-yil 10-avgustda mehnat migrantlari uchun "My migration" nomli mobil ilovaning yangilangan versiyasi ishlab chiqildi. Avvalgi mobil ilovada yuridik maslahat, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya, tarjimon kabi xizmatlardan foydalanishi mumkin edi. Endilikda mehnat migratsiyasidan qaytgan fuqarolar uchun ham yangi xizmat turlari ishga tushirildi.

"My migration" mobil ilovasi quyidagilardan iborat: geoaxborot xizmati; huquqiy axborot; to'lovlar xizmatlari; qo'shimcha imkoniyat. Shuningdek, xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan mehnat migrantlari uchun Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining vakolatxonalari, oziq-ovqat do'konlari va xostellar haqida ma'lumotlar olish imkoniyatlari yaratildi.

Shuni ta'kidlash lozimki, raqamli vositalar bir qator ahamiyatli vazifalarni hal qilishda, jumladan, axborot texnologiyalaridan keng foydalanish, migratsiya qoidalarini soddalashtirish va unifikatsiya qilish, migrantlarning davlat xizmatlaridan foydalanishini osonlashtirish hisobiga migrastiyani davlat tomonidan boshqarish samaradorligi va sohada davlat nazoratining amaliy

natijadorligini oshirish, xususan, chekka hududlardan chiqqan ko`plab migrantlarni qamrab olishda muhim rol o`ynashi mumkin.

### **Xulosa va takliflar**

2022-2026-yillarga mo`ljallangan Yangi O`zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 25-maqсадида рақамли иқтисодиётни асоси “drayver” соҳага айлантириш ва унинг хажмини камида 2,5 баравар оширish belgilangan bo`lib, унга ко`ра оптикалоқ толаликни линияларининг умумий узунлигини 170 ming km. ga yetkazish, respublika bo`ylab, ayniqsa узоқ аҳоли масканларидан, мобил алоқа сифатини яхшилаш мақсадида тайанд стансијаларини умумийсонини 42 mingtaga yetkazish ва шу билан бирга тараққиёт стратегијасининг 86-мақсадида xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasini ta'minlash hamda samarali migratsiya siyosatini yuritish muhim vazifa qilib belgilandi. Унга ко`ра xorijga ishlashга ketishdan oldin fuqarolarni kasb-hunarga va chet tillarga o`qitish, ularga kasbiy malakani tasdiqlovchi xalqaro sertifikatlar berish borasidagi chora-tadbirlarni hayotga tizimli ravishda va jadal tatbiq etish, mehnat migrantlarini moliyaviy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularning hayoti va sog'lig'ini sug'urtalash amaliyotini kengaytirish va mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxslarni reintegratsiya qilish, shu jumladan ularning bandligini ta'minlash, kasbiy malakasini oshirish va tadbirkorlik tashabbuslarini rag'batlantirish каби масалалар дастурilamal qilib belgilandi.

O`zbekistonda internet foydalanuvchilari hozir deyarli 27 mln kishini tashkil qilishini inobatga olgan holda, deyarli barcha mehnat migrantlarini mobil ilovalardan foydalanish imkoniyatini hisobga olsak, mobil ilovalarni ishlab chiqish va migratsiya xizmati sayti orqali ma'lumotlarni taqdim etish bu jarayonni iqtisodiy jihatdan samarali qiladi. Bundan tashqari, onlayn dasturlar va tarmoqlar migratsiya bo'yicha mas'ul xodimlarga tuman va mahallalar darajasidagi muhim ma'lumotlarni taqdim etishi mumkin. Agar tuman markazlarida yoki mahalla miqyosida markazlarda onlayn dasturlar yaratish imkonи bo'lmasa, chekka hududlarda samaradorlik va narx jihatidan mehnat migrantlariga ularning bandligini qo'llab-quvvatlash uchun hukumat xizmatlaridan foydalanishga yordam beradigan raqamli ilovalar ishlab chiqilishi kerak. Shuningdek, ularga jo'nab ketishdan oldin xizmatlar ko`rsatilishi va boradigan mamlakatlardagi qo'llab-quvvatlash xizmatlari hamda qaytishdan keyingi xizmatlar haqida qaror qabul qilishda yordam berish uchun ma'lumot olish imkoniyatini yaratish zarur. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, raqamli vositalardan foydalanish borasida mehnat migrantlarning jo'nab ketish vaqtlarini ham inobatga olish zarur: qisqa muddatli, mavsumiy yoki узоқ muddatli. Tayyorlov kurslari ham shunga qarab amalga oshiriladi.

Hozirgi kunda respublikamiz mehnat bozoriga yiliga 700-750 ming ishchi kuchi kirib kelyapti va ishchi kuchining асоси qismini yoshlar tashkil etishini hisobga олган holda, aytish mumkinki raqamlashtirish sharoitida “Raqamli O`zbekiston 2030”, “1 mln dasturchilar” каби о`з oldimizga qo`yilgan dasturlarni

hal etishda respublikamiz uchun mehnat migratsiyasini raqamlashtirish muhim hisoblanadi.

Shu bilan birga quyidagi takliflar mualliflar tomonidan berildi:

- Jo`nab ketishdan oldingi bosqichda mehnat migrantlari foydalana oladigan raqamli dasturlar migratsiya bo`yicha zarur ma`lumotlarni o`z ichiga olishi kerak (retsipient mamlakat qonunchiligi, ish haqi, ob-havo, mehnat sharoitlari, madaniyat). Retsipient mamlakatning muayyan tillari o`rganish uchun ilova sifatida yuklanib olinishi kerak;

- Retsipient mamlakat konsulligi, vakolatxonalar haqida ma`lumot hamda barcha vakillarining ism-shariflari va aloqa ma`lumotlari ko`rsatilishi kerak;

- Qaytishdan keyingi bosqichda Rossiya Federatsiyasiga qayta kirishga taqiqlar ro`yxatini tekshirish imkoniyati va qayta ko`chish uchun tuzatish mexanizmlari, qonuniy qoidalar, hujjatlar talablari va boshqalar haqida ma`lumotni kiritish imkoniyati. Murojaatlarda pul o`tkazmalaridan samarali foydalanish, tadbirkorlikni rivojlantirish bo`yicha o`quv kurslariga kirish yo`llari, grant dasturlari, kreditlar va boshqalar haqida ma`lumotlar ham bo`lishi mumkin;

- Mehnat migratsiyasini tartibga solish uchun mobil ilova yaratish. Mehnat migrantlarining pul o`tkazmalari traektoriyasi hamda hajmini shaffofligini ta`minlash maqsadida mobil ilova bo`limlariga alohida pul o`tkazmalari va jamg`arma bo`limlarini qo'shish.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Ш. Мирзиёев. Постановление Президента Республики Узбекистан «О мерах по широкому внедрению цифровой экономики и электронного правительства». От 28 апреля 2020 г. № ПП-469922 <https://lex.uz/docs/4800661>

2. Ш. Мирзиёев. «Без цифровой экономики нет будущего у экономики страны», UzA, 22 сентября 2020 г. состоялось видеоселекторное совещание по вопросам внедрения цифровой экономики и электронного правительства в отраслях и регионах <https://aza.uz/ru/posts/prezident-bez-tsifrovoy-ekonomiki-net-budushchego-u-ekonomik-22-09-2020>

3. Ш. Мирзиёев. Указ Президента Республики Узбекистан, от 05.10.2020 г. № УП-6079 Об утверждение Стратегии «ЦИФРОВОЙ УЗБЕКИСТАН-2030» и мерах по её эффективной реализации. <https://lex.uz/ru/docs/5031048>

4. К. Абдурахманов. Развитие ИКТ в гармонии с национальным менталитетом. «Бизнес DAILY Биржа», №82(2965), 25.10.2022file:///C:/Users/User/Downloads/Telegram%20Desktop/%D0%91%D0%98%D0%A0%D0%96%D0%90.pdf

5. Sh.Mirziyoyev. 2022-yil 28-yanvardagi PF 60-sonli “2022 — 2026 yillarga mo`ljallangan yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida” <https://lex.uz/docs/5841063>

6. Sh.Mirziyoyev. 2019-yil 20-avgustdagи PF 5785-sonli “Xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O’zbekiston respublikasi fuqarolari va ularning oila a’zolarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish choralar to’g’risida” <https://lex.uz/docs/-4482648>
7. Aneesh A. Virtual migration: The programming of globalization. Durham; London: Duke University Press, 2006. 208 p. DOI: 10.2307/j.ctv125jms5.
8. McCarthy, J. (2011). Computer Scientist Known as the Father of AI. Independent. Retrieved March 1, 2020, from <http://www.independent.co.uk/news/obituaries/john-mccarthy-computer-scientist-known-as-the-father-of-ai-6255307.html>
9. Xiang, B. (2014). The Would-Be Migrant: Post-Socialist Primitive Accumulation, Potential Transnational Mobility, and the Displacement of the Present in Northeast China. *Trans-Regional and National Studies of Southeast Asia*, 2(2), 183–199.
10. Kässi O., Lehdonvirta V. Online Labour Index: Measuring the Online Gig Economy for Policy and Research. MPRA Paper No. 74943. Oxford Internet Institute. 03.11.2016. 19 p.
11. De Stefano V. The Rise of the ‘Just-in-Time Workforce’: On-Demand Work, Crowd Work and Labour Protection in the ‘Gig-Economy’. *Comparative Labor Law & Policy Journal*. 2016. Vol. 37, No. 3. Pp.461–471
12. Русакова Т.Б. Сущность и направления развития виртуального рынка труда в Российской Федерации // Научно-технические ведомости СПбГПУ. Экономические науки. 2019. Т. 12, № 5. С. 44–57. DOI: 10.18721/JE.12504
13. Islamov B., Kadirova Z., Gaziyeva S. Digitization measures in the regulation of labor migration processes in Uzbekistan // ACM, New York, NY, USA, ICFNDS ’22, December 15, 2022. 328-337 pp.
14. Б. Исламов “Социально-экономические аспекты миграционных процессов в независимых странах Центральной Азии”, *Acta Slavica Iaponica*, Journal of Slavic Research Center, Hokkaido University, Tomus XVI, 1998, pp. 184-206.
15. Mansurov Saidnumon, Abdurakhmanov, Kalandar Islamov Bakhtiyor, Zokirova Nodira. 2022. Abdurakhmanov, Kalandar, Islamov Bakhtiyor, Zokirova Nodira, Hiwatari, Masato. Systemic Transformation and Sustainable Development: Case of Uzbekistan, Monograph, Jakarta, Gunadarma University Press, 2016 г., pp. 230.
16. Б.Исламов “Социально-экономические аспекты миграционных процессов в независимых странах Центральной Азии”, *Acta Slavica Iaponica*, Journal of Slavic Research Center, Hokkaido University, Tomus XVI, 1998, pp. 184-206.
17. Mansurov Saidnumon, Abdurakhmanov, Kalandar Islamov Bakhtiyor, Zokirova Nodira. 2022. The Application of Artificial Intelligence in Labour Economics: using migration from CIS countries to Russian Federation as an

example. <https://doi.org/10.1145/3584202.3584242> (doi: 10.1145/3584202.3584242);

18. Shveytsariya taraqqiyot va hamkorlik agentligi (SDC) 2018

19. МОТ. Цифровизация и будущее миграции. Презентация на круглом столе по трудовой миграции в Азии. Будущее трудовой миграции в Азии. Вызовы и возможности в следующем десятилетии. 7 февраля 2020 г.

20. МОТ. 2018. Как цифровизации поможет добиться справедливой миграции? 31 октября. [https://www.ilo.org/asia/media-centre/statements-and-speeches/WCMS\\_648541/lang--en/index.htm](https://www.ilo.org/asia/media-centre/statements-and-speeches/WCMS_648541/lang--en/index.htm)

21. АБР. 2020. Перспективы развития Азии – 2020. Как продвигаются инновации в Азии?

22. Kadirova Z., Gaziyeva S. Regulation of labor migration processes in Uzbekistan // Journal of marketing, business and management. Vol. 1 ISSUE 10. January 2023. 41-48 pp.

23. "Bugungi kunda O'zbekistonda internet xizmatidan foydalanuvchilar soni 27,2 milliondan oshgan"  
<https://kun.uz/uz/news/2022/01/10/ozbekistonda-internet-xizmatidan-foydalanuvchilar-soni-malum-qilindi>

24. Abdurakhmanov K.K., Mukhitdinov E.M., Grishin, V.I., Abdurakhmanova, G.K., Kuchkarov, G.F. 2019. Labor migration of the population and evaluation of supply chain on the labor market, International Journal of Supply Chain Management 8, 896–907.

25. [www.labormigration.uz](http://www.labormigration.uz)

26. Islamov B. and Chulliev T. 2020. International labor migration: theories and current trends. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Progressive Academic Publishing Vol.8 No.8. pp. 140-148.

27. Z. Kadirova and S.Gazieva. 2021. Theoretical bases of international labor migration processes, International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences 1(2) 77-84

28. Gazieva S. 2020. Digitalization of labor migration is a new agenda for migrants' contributions to societies of the world., International Scientific Journal Theoretical & Applied Science 4, 84, 208-215.



# МЕHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

<https://laboreconomics.uz/>



## TASHQI MEHNAT MIGRATSİYASIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLİLİ

**Gulmurodov Kamoliddin Abduqodir o'g'li**

TDIU huzuridagi “O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi tayanch doktoranti

DOI: [https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2\\_iss1/a12](https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a12)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tashqi megnat migratsiya jarayonlariga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili amalga oshirildi. Tashqi mehnat migratsiyasiga ajrimlar soni, aholining joy boshiga to'g'ri keladigan real umumiylar daromad, tug'ulish va ishsizlar sonining ta'siri ilmiy asoslangan tarzda tahlil qilinib, bog'liqliklar o'rgnildi va tegishli xulosa va takliflar keltirib o'tildi.

**Kalit so'zlar:** tashqi migratsiya, ishsizlik, daromad, tug'ulish, ajrim, model, o'zgaruvchilar, turmush darajasi, oila, omillar, baholash.

## ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА ВНЕШНЮЮ ТРУДОВУЮ МИГРАЦИЮ

**Гулмуродов Камолиддина Абдукодир угли**

Докторант научно-исследовательского центра “Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана” при ТГЭУ

**Аннотация.** В данной статье был проведен эконоометрический анализ факторов, влияющих на процессы внешней трудовой миграции. Было научно проанализировано влияние количества вычетов на внешнюю трудовую миграцию, реальный совокупный доход на душу населения, число рождений и безработных, изучены зависимости и сделаны соответствующие выводы и предложения.

**Ключевые слова:** внешняя миграция, безработица, доход, рождение, развод, модель, переменные, уровень жизни, семья, факторы, оценка.

## ECONOMETRIC ANALYSIS OF FACTORS AFFECTING EXTERNAL LABOR MIGRATION

**Gulmurodov Kamoliddin Abdukodir ugli**

Doctoral student of the scientific research center “Scientific foundations and problems of development of the economy of Uzbekistan” under TSUE

**Annotation.** In this article, an econometric analysis of the factors influencing the processes of external labor migration was carried out. The influence of the number of deductions on external labor migration, real total income per capita, the number of births and the unemployed was scientifically analyzed, dependencies were studied and appropriate conclusions and proposals were made.

**Keywords:** external migration, unemployment, income, birth, divorce, model, variables, standard of living, family, factors, assessment.

## **Kirish**

Migratsion jarayonlar faqatgina obyektiv omillar bilangina aniqlanmasdan, balki migratsiya bo'layotgan hududda kutilishi mumkin bir qator sub'ektiv omillarga ham bog'liq. Aynan shu sub'ektiv omillar tahlili asosida boshqa viloyat, shahar va boshqa tumanlarga migratsiya qilish qarori qabul qilinadi.

Migratsiya natijalari bo'yicha o'zida rejelashtirilgan va tashkillashtirilgan jarayonlarni aks ettiradi, migratsiya faqatgina boshqa hududlarda insonlar faoliyatlarini olib borishlari mumkin bo'lgan bo'sh ish joylari mavjud bo'lgandagina iqtisodiyotda o'z aksini topadi, jamoaviy tashkil etilgan safarbarlik holatlarini cheklanganligiga urg'u berib, individul va rejelashtirilmagan migratsiya holatlarini alohida ta'kidlab o'tishimiz lozim.

Klassik maktab vakillaridan E.Ravenshteyn migratsiyaning muhim omili iqtisodiy omil bo'lib, migratsiya oqimlari rivojlangan iqtisodiy hududlarga va texnologik taraqqiyot, aloqa, kommunikatsiya, transport, ijtimoiy infratuzilma darajasi yuqori bo'lgan hududlar tomon cho'zilashini ko'rsatib o'tgan[1].

Yana bir olim E.Lee iqtisodiy, demografik, ijtimoiy tavsifga ega bo'lgan chiqarish va qubul qilish omillarining harakatiga asoslanadigan jarayon – migratsiya jarayoni bo'lib, inson migratsiya qilish haqidagi qarorni turli rag'batlar, motivlar ta'sirida qabul qilishini asoslagan[2].

Ya'ni migratsiyadan asosiy maqsad bu iqtisodiy ko'proq pul topish va munosib mehnat sharoitlari ta'minlangan manzilda, ijtimoiy sharoitlarni hisobga olgan holda o'z mehnat faoliyatini olib borish bilan bog'liqligini ko'rsatib o'tgan.

Sotsiologlar V.A.Yadov va A.G.Zdravomislov larning fikricha, malakaga ega bo'lмаган yoki past malakali xodimlarning o'zlarining shahsiy va ishlab chiqarish jarayonida olib boruvchi faoliyatlaridan qoniqmaganliklari tufayli ish joylarini o'zgartirishga bo'lgan harakatlarini ijobjiy baholananishi zarur, deb e'tirof etadilar[3].

Chunki, bunday holat jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlari darajasining oshishidan, og'ir mehnat bilan shug'ullanish mavqeijining tushib borishi, aholining ijodiy va aqliy salohiyatni talab etuvchi mehnat faoliyatlariga bo'lgan qiziqishlaridan dalolat beradi.

Hududlararo mehnat resurslari migratsiyasi ob'ektiv izohlangan jarayon bo'lib, u o'zida mehnat resurslari harakatini boshqaruvchi bir qator qonunlar mujassamligini taqozo etadi. Bu holatda ishlab chiqarishning moddiy omillari hamda mehnat resursini takror ishlab chiqarish va migratsiyasi o'rtasidagi

ob'ektiv aloqa yuzaga chiqadi. Bu jarayon mehnat resursi va ish joylari o'rtaсидаги qayta taqsimotning o'zaro aloqasi bilan isbotlanadi[4].

Birinchidan, harakatlanish zaruratining vujudga kelishi qaysidir hudud yoki aholi yashash joyida bo'sh ish joyining vujudga kelishi va shu bilan birga istiqomat qilish uchun fondning vujudga kelganligi, u yerga xodimlarni joylashtirish mumkinligi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, mehnat resursiga ehtiyoj sezuvchi hududlarda mehnat resursiga taklif juda yuqori bo'lgan hududlarga qaraganda xodimlar o'zlarining malakasi va ijtimoiy holatini oshirishga bo'lgan imkoniyatlari yuqori bo'ladi. Mehnat resursi taklifi yuqori bo'lgan hududlarda qiziqarli va ko'p haq to'lanadigan ish topishning murakkabligi aholini u hududni tark etishga bo'lgan harakatini izohlovchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Ikkinchidan, u yoki bu hududda sodir bo'luvchi migratsiya oqimi hajmini tartibga soluvchi mexanizm mavjud. Migrantlar oqimi ishlab chiqarish jarayoni ehtiyojlari talablarini qondirish uchun zarur bo'lgan miqdordan ortib ketadi, ushbu hududga keluvchi mehnatga layoqatli aholi o'zi izlab kelgan qulay sharoitga ega bo'la olmaydi, bu esa mehnatga layoqatli aholining migratsiya oqimini pasaytiradi.

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Hozirgi paytga kelib, migratsiyani zamonaviy yondashuvlar orqali tahlil qilish jarayonlari boshlangan. Bu jarayonlarni o'rgangan olimlardan E.V.Vinogradova mehnat resurslarining harakatchanligiga oid quyidagi yondashuvlarni aniqladi[5]:

Birinchidan, mehnat resurslarining ish o'rnlari o'rtaсидаги joylashish jarayoni;

Ikkinchidan, ko'chishga tayyorgarlik va qobiliyatları;

Uchinchidan, iqtisodiyotda band aholining hududiy nisbatlarini boshqarishning iqtisodiy mexanizmiga asoslanganligini taklif etdi.

- tadbirkorlik bilan shug‘ullanish istagida bo‘lgan fuqarolarga biznes loyihalarni tayyorlashda maslahat, ko‘mak berish va uni amalga oshirish jarayonlarini doimiy monitoring qilib borish;
- oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida ajratilayotgan kreditlar samaradorligini oshirish bo‘yicha zarur choralar ko‘rish;
- tadbirkorlik bilan shug‘ullanish istagidagi fuqarolarni biznes asoslariga o‘qitish tizimini tashkil etish va ularni tadbirkorlikka yo‘naltirish;
- xizmat turlari bo‘yicha mas’ul etib biriktirilgan tijorat banklari bilan birgalikda mahallalarda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish va uning yangi turlarini ko‘paytirish bo‘yicha tegishli loyiha takliflarini tayyorlash;
- mahallalarda tadbirkorlar loyihalariga kreditlar ajratishda Tadbirkorlik faoliyatini qo’llab-quvvatlash davlat jamg‘armasining moliyaviy xizmatlaridan keng foydalanishga ko‘maklashish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5853-son Farmoniga asosan, mazkur strategiyaning asosiy maqsadi - investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish, aholi ish bilan bandligini oshirishga erishish, kadrlar salohiyatini oshirish<sup>3</sup>.

Hozirgi kunda jahonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi jadal sur’atlar bilan amalga oshmoqda. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi iste’molchilar talabini to’liq qondirish va iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish imkonini beradi.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan bugungi kunda ish bilan bandlikni ta’minlashning yangi yo‘nalishlari paydo bo‘lmoqda. Ish beruvchilar ixtiyoriy ravishda va xohishiga ko‘ra xodimlarni ishga yollash imkoniga ega bo‘lmoqdalar va geografik joylashuvi hamda vaqtdagi farq ahamiyatga ega emas. Xodimlar axborot texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib o‘z vazifalarini bajarishga qodir bo‘lib, uydan tashqariga chiqmasdan, har qanday vaqtida belgilangan vazifani bajarish imkoniga ega bo‘lishmoqda.

Raqamli texnologiyalar xodimni yuqori malaka va bilim bilan birga mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishni va mehnat faoliyatini mustaqil ravishda amalga oshirishni talab qilmoqda. Endilikda xodim o‘z mehnat faoliyatini o‘zi tartibga soladi, mehnat haqi Internet orqali amalga oshiriladi. Xodimni mehnat faoliyatining tashqi nazorati uning o‘zini jalb etmagan holda ma'lumotlar, hisobotlar orqali amalga oshiriladi.

Shuningdek, raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida ish bilan bandlik sohasida ham jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘layotganligi zamonaviy bilim va malaka ko‘nikmalariga ega bo‘lgan mutaxassislarga talab muntazam ravishda ortib borayotganligining isbotidir. Bunda xodimlarning ish joylari va mehnat sharoitlarida ham o‘zgarishlar yuzaga kelmoqda. Raqamli iqtisodiyotga o‘tish ish bilan bandlik tarkibining o‘zgarishi, xodimlar intellektual salohiyatidan samarali foydalanish hamda innovatsion jarayonlar samaradorligini oshiruvchi

<sup>3</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrda “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-son Farmoni. Qonun hujatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.10.2019y., 06/19/5853/3955-son.

omillar ta'sir darajasining kengayishini yuzaga keltiradi. Bunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi bilan bog'liq ish bilan bandlikning innovatsion shakllari: jumladan, masofadan turib ishlash, telebandlik, nostonart ish bilan bandlikning kengayishi, E-bandlikning rivojlanishi, virtual ish joylari, frilansing kabilalar tobora ommalashib bormoqda. Integratsiya jarayonlari va globallashuv, mehnat bozorining axborotlar bilan ta'minlanishi, xodimlarning safarbarligining oshishi va sifat jihatidan yangi ish o'rinalining paydo bo'lishi ishchi kuchlari va ish beruvchilar o'rtasida raqobatning kuchayishini yuzaga keltirmoqda.

Raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida O'zbekistonda mehnat bozori rivojlanishining hududiy xususiyatlarini hisobga olgan holda, ish bilan bandlikning davr talabiga mos an'anaviy va zamonaviy shakllari va turlarini keng joriy etish hamda ularning institutsional asoslarini takomillashtirish zarurati tug'ilmoqda.

Investitsiyalar samaradorligining tadbirkorlik sohasida aholi ish bilan bandligini oshirish imkoniyatlari tadqiq qilinishi natijasida quyidagi hududiy guruhlashni amalga oshirdik (2-jadval).

## **2- jadval**

### **Jizzax viloyati shahar va tumanlarining ixtisoslashuvi va drayver sohalari**

T/r	Hududlar nomi	Tuman (shaxar)larning drayver sohalari
1	Jizzax shahri	Elektrotexnika, qurilish materiallari, to'qimachilik, issiqxonalarini tashkil etish
2	Arnasoy tumani	Chorvachilik, bog'dorchilik, baliqchilikni rivojlantirish
3	Baxmal tumani	Meva-sabzavotlarni qayta ishlash, chorvachilik, bog'dorchilik
4	Do'stlik tumani	Paxta-g'allachilik, chorvachilik, bog'dorchilik, yengil sanoatni rivojlantirish
5	G'allaorol tumani	Meva-sabzavot, chorvachilik, bog'dorchilik, yengil sanoatni rivojlantirish
6	Zarbdor tumani	Paxta-g'allachilik, chorvachilik, engil sanoatni rivojlantirish
7	Zafarobod tumani	qurilish materiallari va donni qayta ishlashni rivojlantirish
8	Zomin tumani	Oziqovqat, vinosanoat, elektrotexnika, turizmni rivojlantirish
9	Paxtakor tumani	Qishloq xo'jaligi va poliz mahsulotlarini chuqur qayta ishlash
10	Mirzacho'l tumani	Oziq-ovqat va paxta-g'allachilikni rivojlantirish
11	Forish tumani	Uzumchilik va qurilish materiallarini ishlab chiqarish
12	Sharof Rashidov tumani	Oziq-ovqat va to'qimachilikni rivojlantirish
13	Yangiobod tumani	Qurilish materiallari va engil sanoatni rivojlantirish

Investitsiyalar samaradorligining tadbirkorlik sohasida aholi ish bilan bandligini oshirish imkoniyatlari Jizzax viloyatida tumanlar bo'yicha sohalar asosida rivojlantirish imkoniyatlari keltirilgan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mehnat faoliyatini deyarli barcha jabhalarida yangi ish o'rinalarini yaratish uchun yuqori imkoniyatga ega ekanligi har bir tuman va shaharlardagi mahalliy mineral xom ashyo, moddiy-texnik va mehnat resurslari, ichki bozor sig'imi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishslash imkoniyatlari bo'yicha aniq maqsadli mezonlarni ishlab chiqishni talab qiladi. Olib borilgan tadqiqotlarga asoslanib, Jizzax viloyatida tashkil qilingan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini tarmoqlar bo'yicha shakllanishiga qaraydigan bo'lsak, ularning aksariyat qismi savdo, xizmat ko'rsatish sohalariga taaluqli hisoblanadi. Bizningcha, moddiy xom ashyo resurslari va mehnat resurslari kabi omillarni hisobga olgan holda ularning maqbul sonini aniqlash muammosini yechish kerak.

Bizning fikrimizcha aholining ish bilan bandligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarning bajarilishiga alohida e'tibor qaratish lozim:

- KBXT sohasiga investitsiyalar, shu jumladan chet el investitsiyalarini jalg etishni yanada oshirish;
- Mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi bozor infratuzilmalarini kengaytirish va rivojlantirish;
- Aholining ayniqsa yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash;
- “Har bir oila - tadbirkor” dasturi doirasida aholiga tadbirkorlik ko'nikmalarini o'rgatish uchun “Mahalla-Oila-Hokimiyat” tuzilmalarining tizimli ishslashiga shart-sharoitlar yaratish.

### **Xulosa va takliflar**

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hisobiga ish bilan bandlikni oshirishning baholash mezonlari yangi ish o'rinalarini yaratish, ijtimoiyadolatlilik, ijodiy boshqaruvchanlik qobiliyatining rivojlanganlik, ishchi kuchi malakasi va kasbiy ko'nikmalarining darajasi, erkinlik, raqobat muhiti, mehnat samaradorligini oshirish darajasiga bog'liq.

Bugungi tadbirkorlik sohasida aholi ish bilan bandligini oshirish imkoniyatlarining hududiy yo'nalishlarini rivojlantirishda mehnat faoliyatini yo'lga qo'yishning quyidagi eng muhim yo'llariga e'tibor qaratish lozim:

- tadbirkorlik faoliyatining yo'lga qo'yish, belgilangan tartibda tashkil etish va tugatishning me'yoriy-huquqiy negizini yanada takomillashtirish;
- fuqarolarning tadbirkorlik faoliyati bilan erkin shug'ullanishlari, undan manfaatdorligining kafolatlari va shart-sharoitlarini tizimlashtirish;
- moliya-kredit tizimini takomillashtirish va korxonalarining xom-ashyo, axborot va innovatsion texnologiyalardan erkin va to'siqlarsiz foydalanish imkoniyatini kengaytirish;
- aholining ayniqsa yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash.

**Foydalaniqan adabiyotlar ro’yxati**

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi “O’zbekiston Respublikasi qishloq xo’jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo’ljallangan strategiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF-5853-soni Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.10.2019y., 06/19/5853/3955-soni.
2. 2017-2021-yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
3. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti nazariya va amaliyat. Darslik.-T.: O’zR FA “Fan”, 2019. – 475 b -569 b.
4. Jabborova Z.M. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda mehnat faoliyatini rag’batlantirish yo’nalishlari. “Moliya” ilmiy jurnali, 2020 yil, №4, 153-12 bet



# МЕHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

<https://laboreconomics.uz/>



## XALQARO MEHNAT BOZORIDA UNUMLI BANDLIK VA BANDLIK TARKIBIDAGI QIYOSIY XUSUSIYATLAR

**Qurbanov Samandar Pulatovich,**  
Mehnat bozori tadqiqotlar instituti doktoranti  
e-mail: s.kurbanov@gmail.com

DOI: [https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2\\_iss1/a14](https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a14)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Xalqaro Mehnat Tashkiloti tomonidan mamlakatda unumli va mahsuldor bandlikni oshirish bo'yicha tavsiyalarini amalda qo'llash, uni milliy mehnat bozori ko'rsatkichlari asosida hisoblash va tahlil etib borish ko'plab mamlakatlarda kambag'allikka qarshi kurashishdagi muhim vazifalardan biri ekanligini yoritib berildi. Juhon mehnat bozorida mavjud kambag'allik ta'sir doirasidagilar orasida ish bilan band aholi mavjudligi unumli bandlikni hisoblash lozimligiga urg'u beradi. Maqolada unumli bandlik ko'rsatkichlari, tahlili va uni hisoblash usuli batafsil yoritilgan. Shuningdek, maqola so'ngida unumli bandlikni oshirishga qaratilgan tavsiyalar joy olgan.

**Kalit so'zlar:** globalashuv, jahon mehnat bozori, unumli bandlik, kambag'al ishchilar, unumli bandlik taqchilligi.

## СРАВНИТЕЛЬНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОЙ ЗАНЯТОСТИ И СОСТАВА ЗАНЯТОСТИ НА МЕЖДУНАРОДНОМ РЫНКЕ ТРУДА

**Курбанов Самандар Пулатович,**  
Докторант Института исследований рынка труда

**Аннотация.** В данной статье показаны пути применения рекомендаций Международной организации труда по повышению плодотворной и производительной занятости в стране. Его расчет и анализ на основе показателей национального рынка труда является одной из важных задач в борьбе против бедности во многих странах. Существующая бедность на мировом рынке труда подчеркивает необходимость расчета производительной занятости, если среди пострадавших есть работающее население. В статье подробно описаны показатели продуктивной занятости, их анализ и методика его расчета. Также в конце статьи даны рекомендации, направленные на повышение производительной занятости.

**Ключевые слова:** глобализация, мировой рынок труда, продуктивная занятость, бедные работники, дефицит продуктивной занятости.

## COMPARATIVE CHARACTERISTICS OF PRODUCTIVE EMPLOYMENT AND EMPLOYMENT COMPOSITION IN THE INTERNATIONAL LABOR MARKET

**Kurbanov Samandar Pulatovich,**  
Doctoral student of the Institute of Labor Market Research

**Annotation.** This article shows ways to apply the recommendations of the International Labor Organization to increase fruitful and productive employment in the country. Its calculation and analysis based on indicators of the national labor market is one of the important tasks in the fight against poverty in many countries. The current poverty in the global labor market highlights the need to calculate productive employment if there is a working population among those affected. The article describes in detail the indicators of productive employment, their analysis and the method of its calculation. Also at the end of the article, recommendations are aimed at increasing productive employment.

**Keywords:** globalization, global labor market, productive employment, working poverty, deficit of productive employment.

### **Kirish**

Iqtisodiyotning globallashuvi mehnat bozorini yangi o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida ko'rib chiqish zarurligiga olib keldi, zamonaviy dunyo iqtisodiyotidagi mehnat dunyosini o'rganish yangi yondashuvlarni, konsepsiylar ishlab chiqishni, yangi uslubiy muammolarni hal qilishni talab qiladi.

Mehnat bozori qonunlariga muvofiq, mehnat bozoriga bir qator sabablarga ko'ra ham sub'ektiv, ham ob'ektiv ravishda kirib kelayotgan mehnatga layoqatli yoshdagi iqtisodiy faol fuqarolar har doim ham bandlik sohasida o'z o'rnnini topa olmaydilar.

Dunyoning ko'plab mamlakatlarida ishsizlikni o'lchashning ikki yo'li mavjud. Birinchisi, fuqarolarni ish bilan ta'minlash xizmatida ro'yxatdan o'tkazish natijalariga asoslangan, ikkinchisi – ishchi kuchining doimiy so'rovleri natijalariga asoslangan bo'lib, unda ishsizlar holati XMT mezonlari asosida belgilanadi.

Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, belgilangan va hisoblangan ishsiz aholi soni sezilarli darajada farq qiladi. Buning sababi shundaki, ish joyi bo'yicha vakolatli organlar tomonidan ishsiz deb rasman tan olingan fuqarolarning soni aslida ularning haqiqiy sonidan ancha past, chunki ularning aksariyati ish bilan ta'minlash organlarida ro'yxatdan o'tmagan.

Har bir davlat o'zining va xalqaro tajribaga asoslanib, mehnat bozorini tartibga solish usullarini takomillashtirish bilan birga, aholini ish bilan ta'minlash va aholini ijtimoiy himoya qilish muammolarini hal qilish strategiyasi va taktikasini belgilaydi.

O'zbekiston ham so'nggi yillarda fuqarolarni faol ravishda ish bilan ta'minlash siyosatini ishlab chiqib, aholining o'z-o'zini ish bilan band qilishni rag'batlantiruvchi pozitsiyalarini kuchaytirdi, bu esa ishsizlik nafaqalarini

ijtimoiy nafaqalar – kambag‘allik ta’siri doirasida bo’lganlarga moddiy yordam bilan almashtirishga imkon beradi.

Xalqaro Mehnat Tashkilotining (XMT) unumli bandlik konsepsiysi qat’iy asosga ega bo’lsa-da, u katta o’zgarishlarni boshdan kechirdi. Endi xodimlar huquqlari, xalqaro mehnat standartlari, ijtimoiy himoya va ijtimoiy muloqot kabi bandlikning tarkibiy qismlari bilan birgalikda muhim siyosiy maqsadga aylanib bormoqda.

Shuningdek, unumli bandlik har tomonlama ma’noga ega bo’lib, u har qanday mamlakatda amalga oshirilishi aniq va inkor etilib bo’lmaydigan bandlik turiga aylanib ulgurdi. Uni tadqiq etish esa har bir mehnat dunyosi olimi uchun muhim vazifalardan biridir.

Xalqaro mehnat tashkilotining (XMT) ta’rifiga ko’ra, unumli ish bilan bandlik bu – “ishchilarga va ularning qaramog’ida bo’lganlarga kambag‘allik chegarasidan yuqori iste’mol darajasiga imkon berish uchun mehnatga yetarli rentabellik” beradigan faoliyatdir [ILO, 2012].

Bundan tashqari, bu iqtisodiy o’sishni ta’minlashni kambag‘allikni kamaytirish bilan bog’laydigan va ijtimoiy himoya bilan birgalikda kambag‘allikni kamaytirishning asosiy vositasi bo’lgan hal qiluvchi element hisoblanadi.

### **Mavzuga oid adabiyotlar sharhi**

Kambag‘allik ishchilarga ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam pulini to’lash yoki ularning miqdorini oshirish orqali ushbu muammoni hal etish mumkin, biroq bu – bir tomonlama yondashuv bo’lib, muammoni to’la yechimiga imkon bermaydi.

Barqaror iqtisodiy rivojlanish bandlikni zamonaviy tarmoqlarga yo’naltirishni va har bir iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshiradigan harakatlar bilan qo’llab-quvvatlashni talab qiladi, masalan, texnologiyalarni yangilashga investitsiyalar kiritish, malaka oshirish va hech bo’limganda institutsional imkoniyatlardan unumli foydalanishni o’z ichiga oladi.

Iqtisodiy rivojlanish va mehnat unumdarligi mamlakatlarning bilim kapitali va innovatsiyalari bilan juda bog’liqdir, chunki ta’lim, ayniqlsa, oliy o’quv yurti rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlarda ham mahsuldorlik va iqtisodiy rivojlanishning harakatlantiruvchisi sifatida qaraladi.

Xalqaro Mehnat tashkilotining “World Employment and Social Outlook: Trends 2023” hisoboti ma’lumotlariga ko’ra, 2022 yilda dunyodagi ish bilan band bo’lganlar safidagi 214,3 million kishi kambag‘allik ta’sirida bo’ldi [World Employment and Social Outlook: Trends 2023], ya’ni kambag‘al ishchilar hisoblandi. Bu shuni anglatadiki, dunyodagi ish bilan bandlarning ahamiyatsiz qismi uchun ish joyi ularni va oila a’zolarini kambag‘allik ta’siriga tushib qolmasligi uchun yetarli emasligi ish joylarida unumsiz bandlik, xususan, daromadning yetishmasligi masalalariga ishora qilinadi.

Iqtisodiy o’sish sharoitida unumli va mahsuldor bandlik, iqtisodiy faol aholi va ishsizlik tarkibidagi mehnat potensiali hamda ish bilan band kambag‘allikning o’ziga xos xususiyatlari bo'yicha A.Karnani, E.Herman,

M.Jorjesku, R.Islam, A.Szirmai, A.Lavopa, M.Dekker, S.Byugelsdiyk, R.Gammarano kabi olimlar tizimli tadqiqotlar olib borishgan.

Aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot (YaIM) ning barqaror o’sishi, ish bilan bandlikning o’sishi, qashshoqlik va daromadlar tengsizligining doimiy ravishda pasayishi, inson rivojlanishi ko’rsatkichlarining barqaror yaxshilanishi va barchani asosiy ijtimoiy himoya qilish inklyuziv o’sish va rivojlanishning muhim elementlari hisoblanadi [Herman, E., 2016]. Ishlab chiqarish samaradorligi iqtisodiy o’sish va kambag’allikni kamaytirish o’rtasidagi bog’liqlik sifatida qaraladi [UN, 2019].

Jahon bankining hisobotida [WB, 2013] ish o’rinlari iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning asosi sifatida ta’kidlangan. Rivojlanish siyosatida samarali bandlik va inklyuziv o’sish haqiqatan ham keng tarqalgan bo’lsa-da, unumli va mahsuldor bandlik “global Janubning ko’p qismlarida haqiqatdan ko’ra ko’proq intilish sifatida keng tarqalgan” [Rammelt, C.F.; Leung, M.; Gebru, K.M., 2017].

Aholining ish bilan bandligiga ko’maklashish asosida kambag’allikni qisqartirish – islohotlardagi eng oqilona tanlovlardan biridir.

Bandlik orqali kambag’allikni qisqartirish bo'yicha ko'pgina olimlar tadqiqot olib borishgan. Masalan, Michigan universiteti professori A.Karnanining tadqiqotida “bandlik orqali kambag’allikni qisqartirish uchta asosiy omilni talab qiladi: ish bilan ta'minlash, mehnat qobiliyatini oshirish va mehnat bozori faoliyati samaradorligini yanada oshirish”. Uning qarashlarida omillar quyidagicha tavsiflanadi [A.Karnani, 2011]:

Birinchi omil kambag’allarning malakalariga mos ish joylarini yaratish orqali mehnat bozorining talabiga qarab “ishlaydi”;

Ikkinci omil esa, mehnat bozori taklifiga taalluqli bo’lib, ta’lim va kasbhunar ta’limi dasturlari orqali kambag’allarning ish bilan ta’milanishini oshiradi;

Uchinchi omil esa mehnat bozori, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda, yetarli tahlil uchun ma'lumotlarning yetishmasligi va ishchi kuchining harakatchanligi sababli juda ko’p muammolarga duch kelinmoqda. Shuning uchun mehnat portallarida ishlarni muvofiqlashtirish va joylashtirish bo'yicha xizmatlar kabi dasturlar mehnat bozorini yanada samarali qilishiga yordam beradi va shu bilan bandlikni oshiradi. Ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini, ish qobiliyatini va mehnat bozori samaradorligini oshirish, albatta, tezkor yechim topiladigan oson vazifa emas.

Ijtimoiy himoya tizimlari yaxshi rivojlangan mamlakatlarda unumli bandlik, kambag’allikka mansub ishlaydiganlarni emas, balki faqatgina ishsizlardan tarkib topadi. Ishsizlar safiga qo’shilganlar ham, kambag’allik ta’siriga tushgan band aholi ham unumsiz bandlik ifodalaydi. Bu esa o’z navbatida iqtisodiy sharoit va institutsional omillar ta’sirida barham topadi.

Aholi ish bilan bandligi va turmush darajasiga oid tadqiqotlarida E.Herman, R.Anker, I.Cherneshev, R.Eggar, F.Mehran, J.Ritterlar kabi olimlar unumli va mahsuldor bandlik keng qamrovli va barqaror rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi sifatida keltirgan [Herman E., 2016].

“United Nations” Universiteti olimlari A.Zirmay, M.Gibreeysus, F.Guadagno va B.Verspagen unumli bandlik ish o’rnidagi uchta o’lchovni; ish haqi, bandlikning barqarorligi va mehnat sharoitlarini o’z ichiga olgan faoliyat ekanligini tavsiyalashgan [Szirmai A., Gebreeyesus M., Guadagno F., Verspagen B., 2013].

Unumli bandlik - bu qonunchilikda taqiqlanmagan, o’zining ishlab chiqarish va ijodiy mehnatga doir qobiliyatlaridan foydalangan holda o’zi va qaramog’idagilar uchun milliy kambag’allik chegarasidan yuqori darajadagi iste’mol uchun kafolatli mehnat daromadi keltiradigan faoliyatdir [S.Qurbanov, 2023].

Unumli bandlik darajasini o’lchash kambag’allik holati bilan mutlaq daromadning o’sishi qanchalik muhimligini tushunishga yordam beradi. Fikrimizcha, ushbu ko’rsatkich ma’lum bir pul qiymatiga emas, balki daromadning boshlang’ich holatiga nisbatan o’zgarishi haqida ham xabar beradi.

Tadqiqotchi olimlardan Ye.Herman, R.Islam va A.Fosu o’z ilmiy tadqiqotlarida milliy iqtisodiyotlar uchun haqiqiy muammo ularning iqtisodiy o’sish jarayonida bandlik o’sishini ta’minalash qobiliyatining cheklanganligidir, deb ta’kidlashgan [Herman, E., 2014; Islam, R., 2013; Fosu, A., 2017].

Professor R.Islam bandlik o’sishini ta’minalash qibiliyatining cheklanganligi bu inklyuziv iqtisodiy o’sish va rivojlanishning yetarlicha emasligini ta’kidlaydi [R.Islam, 2013].

Niderlandiyalik professorlar A.Lavopa va A.Szirmai tarkibiy modernizatsiyalash traektoriyalari va mamlakatlarning kambag’allikdan qutulish imkoniyati o’rtasidagi aloqani tahlil qilib, zamonaviy sektor hajmini kengaytirish barqaror o’sishni ta’minalash uchun yetarli emasligini ta’kidladi, chunki texnologik bo’shlinqi kamaytirish uchun texnologiyani singdirish jarayoni zarur [Lavopa A., Szirmai A., 2018]. Iqtisodiy rivojlanish va mehnat unumdorligi mamlakatlarning bilim kapitali va innovatsiyalari bilan juda bog’liqdir [Beugelsdijk S., Klasing, M.J., Milionis P., 2018], chunki ta’lim, ayniqsa, oliy o’quv yurti rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlarda ham mahsuldorlik va iqtisodiy rivojlanishning harakatlantiruvchisi sifatida qaraladi.

Olim E.Herman tadqiqotida unumli va mahsuldor bandlik keng qamrovli va barqaror rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi sifatida keltirilgan [Herman E., 2016].

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Ilmiy maqolani tayyorlash jarayonida ma’lumotlarni guruhash, analiz va tizimli tahlil, taqqoslash hamda ekspert baholash usullaridan unumli foydalanildi. Bundan tashqari, monografik kuzatuv va uning natijalari tahlili o’rganilgan.

Kambag’al ishchilar hisobini yuritish asoslandi va kambag’al ishchilar daromadi bo'yicha jahon mehnat bozori ko'rsatkichlari asosida tahlil amalga oshirildi. Unumli bandlikni taqchilligi kambag’al ishchilar soniga bog’liqligi aniqlandi va asoslandi.

## Tahlil va natijalar


Ish bilan band bo’lgan holda kambag’allik ta’sir doirasiga tushib qolish holatlarining paydo bo’lishiga asosan, ish haqi miqdori va doimiy mehnat daromadlari hamda mehnat sharoitlari yetarli emasligini sabab qilib ko’rsatish mumkin. Aksincha, ishsizlar yoki iqtisodiy nofaol aholi tarkibiga kirmaganlarning kambag’allik ta’siriga tushishi asosan, mos ravishda ishga joylashish imkoniyatlarining yetishmasligi va ijtimoiy himoyaning yetarli emasligi bilan bog’liq bo’lishi mumkin.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti prognoz ma’lumotlariga [BMT, 2020] qaraganda, 2050-yilga kelib dunyo aholisi ko’proq shaharlarni yashash joyi sifatida tanlashi va 5 yoshgacha bo’lgan bolalar soni 65 yoshdan oshgan odamlar sonidan orqada qolishi prognoz qilinmoqda.

2050-yilgacha dunyo aholisi o’sishining yarmini faqat to’qqizta mamlakat kutishi kutilmoqda: Hindiston, Nigeriya, Pokiston, Kongo Demokratik Respublikasi, Efiopiya, Tanzaniya, Indoneziya, Misr va Amerika Qo’shma Shtatlari (kamayish tartibida). Afrikaning Saxara janubidagi aholisi ikki baravar ko’payishi, Yevropada esa kamayishi mumkin.

Shu bilan birga, Xalqaro valyuta jamg’armasi ma’lumotlarida [Herman E., 2016] aholi sonining o’sish sur’atlari pasayib bormoqda: 1960 yillarning oxirlarida yillik ko’rsatkich ikki foizdan yuqori darajaga yetdi, endi u taxminan bir foizni tashkil etadi va 2050-yilga kelib ikki baravar kamayadi.

Jahonda ish bilan band aholi va bandlik bo'yicha jins tarkibi to'g'risidagi statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadi, 2022-yilda bandlikning kuchli o'sishi jahon bandligining aholi soniga nisbatini 2020-yildagi 54,5 foizdan 56,4 foizga ko'tardi, lekin ushbu ko'rsatkich baribir 2019-yil darajasidan deyarli yarim foiz punktga past hisoblanmoqda (1-rasm).



**1-rasm. Jahon ish bilan band aholisi jins tarkibi (2023-2024-yillarda prognoz ko'rsatkichlari), foizda<sup>1</sup>**

<sup>1</sup> XMT Statistik (ILOSTAT) ma’umotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Dunyo aholisi hali ham o’sib borayotgan bo’lsa-da, ba’zi mamlakatlarda umumiy aholi sonining pasayishi kuzatilmogda. Deyarli barcha mamlakatlarda aholi keksaymoqda.

Zamonaviy iqtisodiyotning tarkibiy va innovatsion o’zgarishlari sharoitida iqtisodiy va ijtimoiy muammolarini hal qilishning zaruriy talabi band bo’lganlarning mehnat unumdarligini va samaradorligini doimiy oshirilishini ta’minalash, xodimlarning munosib mehnatda band bo’lish bilan birga unumli bandligini ham oshirishni talab etmoqda.

Bunday tarkibiy o’zgarishlar bosqichida aholi daromadlarining o’sishini ta’minalaydigan munosib, unumli va mahsuldor bandlikni rag’batlantirish bo’yicha choralarni amalga oshirishni ta’minalash siyosatini olib borishga qaratilayotganligi alohida ahamiyatga ega. Raqamli transformatsiyani amalga oshirishda bandlik tarkibi va ish o’rinlarini optimallashtirish muammolarini hal qilishda alohida rol o’ynaydi. Bunday sharoitda aholining mehnat bilan unumli bandligini ta’minalashni zamonaviy iqtisodiy mexanizmini shakllantirishning muhim bo’g’inlaridan biri hisoblangan unumli mehnatga turtki berishni har tomonlama takomillashtirishdir.

Aholining unumli bandligi darajasini hisoblashda quyidagi formula asosida hisoblashni afzal bilamiz:

$$PE = E - W_{POOR},$$

bu yerda:

*E — ish bilan bandlar soni;*

*W<sub>POOR</sub> — kambag’al ishchilar soni.*

#### **1-jadval**

#### **Jahon mehnat bozoridagi unumli band aholi soni, mln.kishi**

Ko’rsatkichlar	Belgi	2010 yil	2012 yil	2014 yil	2016 yil	2018 yil	2020 yil	2022 yil
Jami ish bilan bandlar soni, mln.kishi	<i>E</i>	2984,9	3053,8	3120,4	3185,5	3263,4	3176,3	3359,4
Jami kambag’al ishchilar soni, mln.kishi	<i>W<sub>POOR</sub></i>	416,7	230	231	251,3	220,2	228,3	231,3
Unumli band aholi soni, mln.kishi	<i>PE</i>	2568,2	2823,8	2889,4	2934,2	3043,2	2948,0	3128,1

Manba: XMT Statistik ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

XMT statistik ma’lumotlaridan ko’rinib turganidek, 2010-2018-yillarda jahondagi band aholi soni ortib borgan, shunga mos ravishda unumli bandlik darajasi ham o’sib borish tendensiyasiga ega. 2020-yilda ish bilan band aholi soni 2018-yildagi ko’rsatkichga nisbatan kamaydi. Buni jahon mamlakatlarida tarqalgan va mehnat bozori ko’rsatkichlari o’zgarishiga sabab bo’lgan COVID-19 pandemiyasi ta’siri bilan izohlash mumkin.

Unumli bandlik taqchilligini quyidagicha hisoblash maqsadga muvofiq deb

hisoblaymiz:

$$PE_D = LF - PE,$$

bu yerda:

**LF** — *ishchi kuchi soni;*

**PE** — *unumli band aholi soni.*

### 2-jadval

#### Jahon mehnat bozoridagi unumli bandlik taqchilligi, mln.kishi

Ko'rsatkichlar	Belgi	2010 yil	2012 yil	2014 yil	2016 yil	2018 yil	2020 yil	2022 yil
<b>Jami ishchi kuchi soni, mln.kishi</b>	<b>LF</b>	3157,3	3240,9	3306,6	3376,8	3449,2	3411,5	3564,7
<b>Jami unumli band aholi soni, mln.kishi</b>	<b>PE</b>	2568,2	2823,8	2889,4	2934,2	3043,2	2948,0	3128,1
<b>Unumli bandlik taqchilligi, mln.kishi</b>	<b>PE<sub>D</sub></b>	589,1	417,1	417,2	442,6	406,0	463,5	436,6

Manba: XMT Statistik ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

2010-2022-yillarda jami ish bilan band kambag'allik ta'siri doirasidagi aholi soni 2568,2 mln.kishidan 3128,1 mln.kishiga, yoki ish bilan band umumiyl aholi sonidagi ulushi 81,3% dan 87,8% ga o'zgargan (1- va 2-jadvallar).

Unumli bandlik taqchilligi 2010-yilda jahon mehnat bozorida 589,1 mln. kishini tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda ular soni 436,6 mln. kishini tashkil etgan. Unumli bandlikka nisbatan uning taqchilligi ko'rsatkichi 2010-yilda 22,9% ni, 2022-yilda esa 14,0% ni tashkil etgan. Ishchi kuchi soniga nisbatan olganda ham unumli bandlik taqchilligi 2010-yilda 0,7%ni yoki 589,1 mln.kishini, 2020-yilda esa 0,4%ni yoki 436,6 mln.kishini tashkil etgan. Umuman olganda unumli bandlik taqchilligi pasayish tendensiyasiga ega. Bu esa o'z navbatida yangicha xulosalarni beradi: ishsizlik ortib bormoqda, biroq kambag'al ishchilar sonida esa kamayish belgilarini ko'rish mumkin.

### 3-jadval

#### Jahon ish bilan band aholisining bandlik tarkibi bo'yicha ulushi, foizda (%)

Bandlik tarkibi	2010 yil	2012 yil	2014 yil	2016 yil	2018 yil	2020 yil	2022 yil
<b>Oylik ish haqi asosida bandlar</b>	48,8	50,2	51,2	52,1	52,7	52,8	53,2
<b>Ish beruvchi sifatida bandlar</b>	2,5	2,5	2,5	2,5	2,6	2,6	2,7
<b>Yakka tartibda band va o'z-o'zini band qilganlar</b>	34,6	33,9	33,7	33,6	33,5	33,8	34,1
<b>Oilaviy tadbirkorlikda bandlar</b>	14,1	13,3	12,6	11,8	11,1	10,8	10,0
<b>Jami:</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>

Manba: XMT Statistik ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Xalqaro tashkilotlar<sup>2</sup> unumli va mahsuldor bandlik taqchilligi va umumiylar bo’lganlarning zaif qatlami tarkibiga asosan o’z-o’zini erkin band qiluvchilar: yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug’ullanuvchilar va oilaviy tadbirkorlikda band bo’lganlarni kiritishgan (3-jadval).

Jahondagi band aholi tarkibi bo'yicha 2010-yilda oylik ish haqi asosida bandlar bo'lganlar ulushi 48,8% ni, ish beruvchi sifatida bandlar bo'lganlar ulushi 2,5% ni, yakka tartibda band bo'lganlar, o'z-o'zini band qiluvchilar ulushi 34,6% ni, oilaviy tadbirkorlikda band bo'lganlarning umumiylar tarkibidagi ulushi esa 14,1% ni tashkil etgan. 2010-2022-yillarda bandlik tarkibida sezilarli o'zgarishlar kuzatilagan. Xususan, yakka tartibda band bo'lganlar, o'z-o'zini band qiluvchilar va oilaviy tadbirkorlikda band bo'lganlarning umumiylar tarkibidagi ulushi kamayish tendensiyasiga ega bo'lgan. 2022-yilda 2020-yilga nisbatan yakka tartibda band bo'lganlar, o'z-o'zini band qiluvchilar 0,3% punktga, oilaviy tadbirkorlikda band bo'lganlarning umumiylar tarkibidagi ulushi 0,8% punktga kamaygan.

Tahlillar 2010-2022-yillarda oylik ish haqi asosida bandlar bo'lganlar va ish beruvchi sifatida bandlar bo'lganlar ulushi ortib borganligini ko'rsatmoqda.

Ish bilan band jahon aholisining mamlakatlar daromad taqsimotida bandlik tarkibi bo'yicha ulushi bir-biridan keskin farq qiladi (4-jadval).

#### **4-jadval**

#### **Ish bilan band jahon aholisining mamlakatlar daromad taqsimotida bandlik tarkibi bo'yicha ulushi<sup>3</sup>, foizda (%)**

Bandlik tarkibi	2010 yil	2012 yil	2014 yil	2016 yil	2018 yil	2020 yil	2022 yil
<i>Past daromadli mamlakatlar</i>							
Oylik ish haqi asosida bandlar	16,2	16,9	17,3	17,5	17,8	18,1	18,0
Ish beruvchi sifatida bandlar	1,5	1,7	1,7	1,7	1,8	1,8	1,9
Yakka tartibda band va o'z-o'zini band qilganlar	51,7	51,2	50,6	50,9	51,1	51,3	51,2
Oilaviy tadbirkorlikda bandlar	30,5	30,2	30,4	29,8	29,3	28,8	28,9
Jami:	100	100	100	100	100	100	100
<i>O'rta darajadan past daromadli mamlakatlar</i>							
Oylik ish haqi asosida bandlar	29,3	31,7	33,0	34,6	35,7	36,3	36,1
Ish beruvchi sifatida bandlar	2,3	2,5	2,5	2,6	2,8	2,8	2,7
Yakka tartibda band va o'z-o'zini band qilganlar	51,3	49,8	49,4	48,8	48,7	48,8	48,9
Oilaviy tadbirkorlikda bandlar	17,1	16,0	15,2	14,0	12,9	12,2	12,3
Jami:	100	100	100	100	100	100	100

<sup>2</sup> Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) URL: <https://www.ilo.org/global/lang--en/index.htm>

<sup>3</sup> XMT Statistik ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

4-jadval ma'lumotlaridan ko'riniib turibdiki, past, o'rtalari darajada va yuqori daromadga ega mamlakatlarda bandlik tarkibida oylik ish haqi asosida band bo'lganlar ulushi mos ravishda ortib boradi. Yuqori daromadli mamlakatlarda band aholining asosiy qismi oylik ish haqi asosida band bo'lganlarni tashkil etgan bo'lsa, daromad past mamlakatlarda buning aksi kuzatiladi.

Xususan, 2010-yilda past daromadli mamlakatlarda oylik ish haqi asosida band bo'lganlar 16,2%ni tashkil etgan bo'lsa, yuqori daromadli mamlakatlarda bu ulush 86,3%ni, o'rtalari darajadan past daromadli mamlakatlarda esa 29,3%ni, o'rtalari darajadan yuqori daromadli mamlakatlarda bu ulush 54,4%ni tashkil etgan. Bundan, mamlakat daromadi qanchalik yuqori bo'lsa, aholining oylik ish haqi asosida bandlik darajasi shunchalik ortib borishini ko'rish mumkin.

Shuningdek, ish beruvchi sifatida bandlarning umumiyligi bandlar sonidagi ulushi 2010-yilda past daromadli mamlakatlarda 1,5%, daromadi o'rtalari darajadan pasroq mamlakatlarda bu ulush 2,3%, daromadi o'rtalari darajadan yuqori mamlakatlarda bu ulush 2,2%, daromadi yuqori bo'lgan mamlakatlarda emas bu ulush 3,9%ni tashkil etgan. 2022-yil ma'lumotlarida ish beruvchi sifatida bandlarning umumiyligi band aholi sonidagi ulushi barcha mamlakatlarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan.

#### **4-jadval (davomi)**

#### **Ish bilan band jahon aholisining mamlakatlar daromad taqsimotida bandlik tarkibi bo'yicha ulushi<sup>4</sup>, foizda (%)**

Bandlik tarkibi	2010 yil	2012 yil	2014 yil	2016 yil	2018 yil	2020 yil	2022 yil
<i>O'rta darajadan yuqori daromadli mamlakatlar</i>							
Oylik ish haqi asosida bandlar	54,4	55,8	57,2	58,2	59,2	59,6	59,4
Ish beruvchi sifatida bandlar	2,2	2,2	2,2	2,2	2,3	2,3	2,4
Yakka tartibda band va o'z-o'zini band qilganlar	29,2	28,8	28,5	28,4	28,3	28,3	28,2
Oilaviy tadbirdorlikda bandlar	14,1	13,2	12,0	11,1	10,2	9,8	10,0
Jami:	100	100	100	100	100	100	100
<i>Yuqori daromadli mamlakatlar</i>							
Oylik ish haqi asosida bandlar	86,3	86,7	87	87,4	87,6	87,8	87,6
Ish beruvchi sifatida bandlar	3,9	3,7	3,6	3,5	3,4	3,4	3,3
Yakka tartibda band va o'z-o'zini band qilganlar	8,5	8,4	8,3	8,1	8,0	8,0	8,1
Oilaviy tadbirdorlikda bandlar	1,3	1,2	1,1	1,0	0,9	0,8	1,0
Jami:	100	100	100	100	100	100	100

<sup>4</sup> XMT Statistik ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Ish bilan bandlar tarkibida kambag‘allik darajasi jahon mamlakatlarida pasayib borayotgan bo’lsa-da, bu bo‘yicha ko‘pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda juda cheklangan taraqqiyotga erishilgan. Ushbu mamlakatlarda ish bilan bandlikning yuqori darajada o’sishi, asosan, sifatsiz ish o‘rinlari yaratilishi bilan bog‘liq bo‘lib, ishlayotgan kambag‘allar sonining 2020-2021-yillar davomida ko‘payishi kutilayotganligi prognoz qilinmoqda. Natijada 2030-yilgacha hamma joyda o‘ta qashshoqlikni yo‘q qilish maqsadi - Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM)ning birinchi maqsadi - yanada qiyinroq bo‘ladi. Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan iqtisodiy o‘sishning yetarli emasligi, bu ko‘rsatkich bo‘yicha o‘rtalikdaromadli mamlakatlardan orqada qolayotgan kam daromadli mamlakatlarda ishchilarning ko‘pchilagini moddiy jihatdan yaxshilashning hali imkon bo‘lmagani sabablaridan biridir<sup>5</sup>.

Kambag‘allikni qisqartirishda nafaqat aholi bandligini ta’minalash, balki aholining unumli bandligini ta’minalash maqsadga muvofikdir.

Daromadi yuqori mamlakatlarda aholi sonidagi o‘sish ko‘rsatkichlari jahon mamlakatlari o‘rtacha ko‘rsatkichidan past darajada ekanligi, bu esa o‘z navbatida kelgusida ham band aholi sonining o‘sish tendensiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsata olmasligi ma’lum. Shuning uchun ham, ushbu mamlakatlarda kambag‘allik chegarasidan yuqori darajada umr kechirishni ta’minalay oladigan, barqaror ish haqi, mehnat sharoitlari yuqori darajada ta’minalangan ish o‘rinlari hamda yaxshi malaka egasi bo‘lish uchun yaratilgan boshqa sharoitlar band aholi tarkibida kambag‘allik ta’sir doirasiga tushishdan “himoya qiladi”.

Ushbu tahlil natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, daromadi yuqori darajada bo‘lgan davlatlardan boshqa barcha o‘rtalikdaromadli mamlakatlarda kambag‘allik ta’siri doirasida ish bilan band aholi mavjudligini ko‘rsatmoqda.

Shuning uchun ham, o‘rtalikdaromadli mamlakatlardagi kambag‘allikni qisqartirishdagi islohotlarida ish bilan band bo‘lgan aholi tarkibidagi kambag‘allik ta’sir doirasiga tushib qolgan aholi ulushini ham tadqiq etib, statistik hisobini yuritishi – vaziyatga aniq baho berishiga yordam beradi.

### **Xulosa va takliflar**

Unumli bandlik taqchilligi darajasini qisqartirish xalqaro va milliy darajada belgilangan inson taraqqiyoti strategiyasining muhim tarkibiy qismlaridan biridir.

Aholi farovonligini moddiy qo’llab-quvvatlashga qaratilgan eng samarali ijtimoiy siyosatni amalga oshirish maksimal darajada maqsadli tamoyilga rioya qilishni talab qiladi. Shunga ko‘ra, aholida unumli va mahsuldar bandligiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va ularning namoyon bo‘lish mohiyatini o‘rganish nihoyatda dolzarbdir. Shu bilan birga, ushbu salbiy ijtimoiy-iqtisodiy hodisaning paydo bo‘lishining “ildizlari”ni nafaqat aniqlashga, balki ularni tavsiflashga imkon beradigan maxsus empirik tadqiqotlar lozim.

<sup>5</sup> World Employment and Social Outlook - Trends 2020. 11-бет.

Shunga ko’ra, ushbu tadqiqot maqsadlaridan biri – unumli bandlik taqchilligining ma’lum bir mintaqada tarqalishi geografiyasи, xususiyatlari, hududiy-ijtimoiy rivojlanishga bog’liqligi kabi omillarini o’rganish va tahlil qilishdir.

Har bir jarayon ma’lum bir kuchga, uni amalga oshirish uchun zarur bo’lgan kuchlarning kombinatsiyasiga to’g’ri keladi, bu kuchlar omillar deb ataladi. Amallar, sabab-oqibat munosabatlar zanjiri, jarayonning miqdoriy va sifat xususiyatlarini tartibga soluvchi shart-sharoitlar birgalikda jarayon mexanizmini tashkil etadi.

Ish bilan band kambag’allik mavjudligining asosiy sabablari va mexanizmlari, bu birinchi navbatda unumli bandlik taqchilligining bir shakli sifatida namoyon bo’ladigan kam ish haqi, vaqtinchalik va yarim kunlik mehnat qilish, yollanma xodimning shaxsiy xususiyatlari va kasbiy holati, uning uy xo’jaligi tarkibi, mehnat bozori va ijtimoiy ta’midot tizimidagi turli ko’rinishdagi salbiy omillarni o’z ichiga oladi.

Aholining bandlik ortidan keladigan daromadlari quyi chegarasini aniqlash bo’yicha mavjud muammo va to’siqlarni tezkorlik bilan aniqlash, chuqur o’rganish, ilmiy asoslangan xulosalar olish va muammolarni o’z vaqtida bartaraf etishga yo’naltirilgan zamонави, ilmiy yondoshuvlarni amaliyatga joriy etishni talab etadi.

Ish bilan bandlar orasida kambag’allikning mavjudligi odamlarni ish bilan ta’minalash har doim ham kambag’allik xavfidan qochish uchun yetarli emasligini isbotlaydi [Georgescu M., Herman E., 2020]. Shuning uchun unumsiz va zaif bandlik tizimidan unumli va mahsuldar bandlik tizimiga o’tish jarayonlarini jadallashtirish muhim ahamiyatga ega.

Ish bilan band shaxslar tarkibida kambag’allik ta’siridagi shaxslar mavjud bo’lishi va barqarorligi har qanday amaldagi mehnat bozori o’z imkoniyatlaridan to’liq foydalanmayotganligi to’g’risida ogohlantirish vazifasini o’taydi. Bu esa o’z navbatida jahon mamlakatlari kurashib kelayotgan kambag’allikka qarshi chora-tadbirlar uchun yashirin to’siq hisoblanadi.

Aholi bandligini oshirishda faqatgina son jihatdan emas, balki sifat ko’rsatkichlariga ham alohida e’tibor qaratish, bandlik tarkibidagi yashirin zaif bandlikdan shaffof umumli bandlikka asoslanishi maqsadga muvofiqidir.

### **Foydalaniлgan adabiyotlar ro’yxati**

1. Aneel Karnani (2011) Reducing poverty through employment. Innovations / Volume 6, Number 2, 2011. p75.
2. Beugelsdijk S., Klasing M.J., Milionis P. (2018) Regional economic development in Europe: the role of total factor productivity. Reg. stud. 2018, 52, 461–476.
3. Fosu A.K. Growth, inequality, and poverty reduction in developing countries: Recent global evidence. Res. Econ. 2017, 71, 306–336.

4. Herman E. (2016) Productive employment in Romania: A major challenge to the integration into the European Union. Amfiteatru Econ. 2016, 18, 335–350.
5. International Labour Office - ILO (2012) Understanding Deficits of Productive Employment and Setting Targets: A Methodological Guide; International Labour Office, Employment Sector: Geneva, Switzerland, 2012; ISBN 978-92-2-125990-9. P3.
6. Islam R. (2013) Integrating Productive Employment into the Post 2015 Development Agenda; Southern Voice on Post-MDG International Development Goals: Dhaka, Bangladesh, 2013; Available online: <http://southernvoice-postmdg.org/wp-content/uploads/2013/06/SV-OP-3.pdf>
7. Lavopa A., Szirmai A. (2018) Structural modernisation and development traps. An empirical approach. World Dev. 2018, 112, 59–73.
8. Kalandar Abdurakhmanov (2020) Labour Economics. Theory and practice. Tashkent. 650p.
9. Rammelt C.F., Leung M., Gebru K.M. (2017) The exclusive nature of inclusive productive employment in the rural areas of northern Ethiopia. Work. Employ. Soc. 2017. p2.
10. Szirmai A., Gebreeyesus M., Guadagno F., Verspagen B. (2013) Promoting Productive and Sustainable Employment: Elaborating a Knowledge and Research Agenda; UNU-MERIT: Maastricht, The Netherlands, 2013; p 49-53.
11. United Nations, Department of Economic and Social Affairs, Population Division (2019). World Population Prospects 2019. 46P. p5.
12. WB-World Bank (2013). World Development Report 2013: Jobs; World Bank: Washington, DC, USA, 2012.
13. World Employment and Social Outlook: Trends 2023. Geneva: International Labour Office, 2023. / [https://www.ilo.org/global/research/global-reports/weso/WCMS\\_865332/lang--en/index.htm](https://www.ilo.org/global/research/global-reports/weso/WCMS_865332/lang--en/index.htm)
14. Qurbonov S. Unumli bandlik taqchilligi darajasini baholashning kambag'allikni qisqartirishdagi zarurati // "IQTISODIYOT VA TURIZM" xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali №2(10) 2023, 125-135 бетлар.



# МЕХНАТ ИКТИСОДИЙТИ ВА ИНСОН КАПИТАЛИ

<https://laboreconomics.uz/>



## IQTISODIY O'SISH BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA AHOLINI ISH BILAN BANDLIK DARAJASINI OSHIRISH

**Fotimabonu Alisher qizi Doniyorova**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

"Inson resurslarini boshqarish" kafedrasи kata o'qituvchisi, PhD

e-mail: [Fatima\\_2010@mail.ru](mailto:Fatima_2010@mail.ru)

DOI: [https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2\\_iss1/a15](https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a15)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada iqtisodiy o'sishning aholi turmush tarziga ta'siri bayon etilgan. Yoshlar bandligiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillar tizimi tahlil qilingan. Yoshlar mehnat bozorini unga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillarga qarab rivojlantirish ssenariylari taklif etilgan. Ekonometrik modellar asosida aholi turmush darajasini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha o'rta muddatli prognoz qiymatlari ishlab chiqilgan. Shuningdek, iqtisodiy o'sish barqarorligini ta'minlashda aholini ish bilan bandlik darajasini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** mehnat bozori, yoshlarni ish bilan ta'minlash, iqtisodiy o'sish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, aholi turmush darajasi, yalpi ichki mahsulot, yalpi hududiy mahsulot, daromad.

## ПОВЫШЕНИЕ УРОВНЯ ЗАНЯТОСТИ НАСЕЛЕНИЯ В ОБЕСПЕЧЕНИИ СТАБИЛЬНОСТИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА

**Фотимабону Алишер Қизи Дониёрова**

ТГЭУ, Кафедра "Управление человеческими ресурсами"

Старший преподаватель, PhD

**Аннотация.** В этой статье описывается влияние экономического роста на образ жизни населения. Проанализирована система социально-экономических факторов, влияющих на занятость молодежи. Предложены сценарии развития молодежного рынка труда в зависимости от влияющих на него социально-экономических факторов. На основе эконометрических моделей разрабатываются среднесрочные прогнозные значения по основным показателям, отражающим уровень жизни населения. Также были разработаны научно обоснованные предложения по повышению уровня занятости населения при обеспечении стабильности экономического роста.

**Ключевые слова:** рынок труда, занятость молодежи, экономический рост, социально-экономическое развитие, уровень жизни населения, валовой внутренний продукт, валовой региональный продукт, доходы.

## INCREASE THE EMPLOYMENT LEVEL OF THE POPULATION IN ENSURING THE STABILITY OF ECONOMIC GROWTH

Fatimabonu Alisher kizi Daniyorova

TSUE, “Human resources management” department  
Senior teacher, PhD

**Annotation.** This article describes the impact of economic growth on the lifestyle of the population. A system of socio-economic factors affecting youth employment has been analyzed. Scenarios for the development of the youth labor market according to socio-economic factors affecting it have been proposed. On the basis of econometric models, medium-term forecast values are developed on the main indicators that represent the standard of living of the population. Also, scientifically based proposals have been developed to increase the employment level of the population in ensuring the stability of economic growth.

**Key words:** labor market, employment of young people, economic growth, socio-economic development, standard of living of the population, gross domestic product, gross regional product, income.

### Kirish

Jahonda mehnatga layoqatlari aholini, ayniqsa yoshlarni ish bilan bandligiga ko'maklashishni samarali tashkil qilish, ishsizlik darajasini qisqartirishga hayot sifati darajasini belgilovchi muhim mezon sifatida qaralmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra "jahonda 15 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan yoshlar 1,3 milliardga yaqin bo'lib, ularning ish bilan band bo'lishi nafaqat ular manfaatlari, balki milliy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga uzoq muddatli va kafolatli hissa qo'shishlari uchun ham ahamiyatlidir"<sup>1</sup>. Bugungi kunda yoshlar ishsizlik darajasining xalqaro miqyosda ortib borishi sharoitida ular bandligini ta'minlash va munosib ish o'rinalarini yaratish dolzarb muammolarda biri bo'lib qolmoqda.

Jahonda zamonaviy talablar va nostandart ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni e'tiborga olgan holda aholini, ayniqsa yoshlarni ish bilan ta'minlashning nazariy-uslubiy asoslarini, bandlikni tashkil qilish mexanizmlarini takomillashtirish borasidagi ilmiy-tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada global va milliy mehnat bozorlarida yoshlar bandligini tashkil qilish me'yorlarini uyg'unlashtirish, milliy mehnat standartlarini ilg'or xorijiy tajribaga ko'ra muvofiqlashtirish, ish bilan ta'minlashning ilg'or usullarini joriy etishning uslubiy asoslari va yondashuvlarni takomillashtirish kabi yo'nalishdagi tadqiqotlar ustuvor darajada amalga oshirilmoqda.

Shu boisdan ham global, mintaqaviy va milliy miqyosda aholi soni tendensiyalarini baholash, demografik ma'lumotlar to'plash va qayta ishslash hamda tahlil qilish asosida asosiy demografik istiqbollarni belgilash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

<sup>1</sup> Birlashgan Millatlar tashkiloti ma'lumotlari asosida// URL: <https://www.un.org/ru/global-issues/youth>

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Ma'lumki, mamlakatda doimiy aholi sonini turli rasmiy idoralarning funksional vazifalarini bajarishlari davomida shakllangan ma'lumotlar asosida aniqlab bo'lmaydi. Real aholi sonini aniqlashning yagona usuli bu – aholini yoppasiga hatlovdan o'tkazishdir. Ba'zi davlatlarda bu ommaviy so'rovlar o'tkazish tarzida ham amalga oshiriladi.

1960-yilning oxirlarida so'ng mikro darajadagi so'rov ma'lumotlari va ularni tahlil qilish uchun statistik vositalar mavjud bo'lganda, yanada tubdan o'zgarishlar yuz berdi. Axborotning asosiy manbai sifatida hayotiy statistik ma'lumotlarning asta-sekin so'rov ma'lumotlari bilan almashtirilishi demografiyadagi tadqiqot ko'lamiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi [2].

Ushbu tadqiqot turli demografik ma'lumotlarni to'plashda kelajakdagagi tadqiqotlar uchun asos yaratadi. Inklyuziv demografik ma'lumotlarni to'plash nafaqat inklyuziv omillar, balki ushbu omillarni qanday boshqarish masalasi ham muhimdir[3].

Bunday integratsiya muayyan ijtimoiy-iqtisodiy omillar va turmush tarziga taalluqli chora-tadbirlarni ilgari surishga hissa qo'shishi mumkin va metabolizmni o'zgartirishga hamd ushbu muhim tadqiqot usulidan barqarorlikni rivojlantirish vositasi sifatida foydalanishga yordam berishi mumkin [4].

K.A.Hafner va D.Mayer-Foulkes fikricha, yuqori darajada daromad va inson taraqqiyoti – past tug'ilish o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjud. Bu mutanosiblikning ijobiy tomonlari 1980-2007-yillarda kuzatilgan [5].

Huo Jie va boshqalarning fikricha esa barqaror rivojlanish tamoyillari iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlarni qamrab oladi. Ya'ni, iqtisodiy tizimlar va ijtimoiy tuzilmalar rivojlanishi ijobiy demografik o'zgarishlarga olib keladi[6].

Bundan kelib chiqib aytish mumkin-ki, mamlakatning iqtisodiy o'sishi bevosita aholining demografik o'zgarishlari (aholi sonining o'sishi, turmush tarzi, insonlar taraqqiyoti va boshqalar)ga bog'liq. Bir so'z bilan aytganda iqtisodiy o'sish – inson taraqqiyoti o'zaro teskari ijobiy aloqaga ega.

Iqtisodiy o'sish - to'liq bandlik bilan mujassamlashgan ishlab chiqarish real hajmining uzoq muddat mobaynida o'sishidir. Iqtisodiy o'sish YaIM, davlat iqtisodiy qudrati va insonlar farovonligining o'sishida o'z ifodasini topadi. Shuningdek, iqtisodiy o'sish bevosita yalpi milliy mahsulot miqdorining mutloq va aholi jon boshiga hamda iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga ko'payishi hamda sifatning yaxshilanishida va tarkibining takomillashuvida ham ifodalanadi [7].


Demak, iqtisodiy o'sishga erishish va uning barqarorligini ta'minlash uchun aholi turmush darajasini yaxshilash muhim omil hisoblanadi. O'z navbatida yaxshi turmush darajasiga ega bo'lgan aholida taraqqiyotga intilish yuqori bo'ladi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Ushbu tadqiqotda jadval, qiyosiy tahlil, grafik tasvirlash, ekspert baholash, mantiqiy fiklash, analitik taqqoslash, dinamik qatorlar, iqtisodiy-matematik usullar, ekonometrik modellar, usullar keng qo'llanilgan. Shuningdek, mazkur mavzuga oid xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqotlari tahlil qilingan. Tahlillarda xalqaro va mahalliy rasmiy statistik ma'lumotlardan foydalanilgan.


### **Tahlil va natijalar**

Tahlillarga ko'ra, 2022-yilda yalpi ichki mahsulot (YaIM) 5,7 foiz, sanoat mahsulotlari 5,2 foiz, qurilish ishlari 6,6 foiz, qishloq xo'jaligi mahsulotlari 3,6 foizga, xizmatlar 15,9 foiz, eksport 15,9 foiz, chakana savdo aylanmasi 12,3 foiz o'sish sur'atlari kuzatildi (1-rasm).



**1-rasm. 2022-yilda O'zbekiston Respublikasining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari<sup>2</sup> (foizda)**

Ta'kidlash joizki, yalpi ichki mahsulot o'sishining 55,1 foizi xizmatlar, 23,3 foizi sanoat, 15,5 foizi qishloq xo'jaligi va 7,2 foizi qurilish sohalari hissasiga to'g'ri keladi.



**2-rasm. 2022-yilda O'zbekiston Respublikasi YaIM o'sish sur'atida tarmoqlar hissasi<sup>1</sup> (foizda)**

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari. <https://stat.uz>

Yalpi hududiy mahsulotning yuqori o'sish sur'atlari Andijon (8,6 foiz), Namangan (6,6 foiz), Samarqand (5,8 foiz), Xorazm (5,7 foiz) viloyatlari hamda Toshkent shahrida (7,9 foiz) kuzatildi.

Aholi jon boshiga YaIM hajmi 24919,7 ming so'mni tashkil etdi (o'sish 3,5 foiz). Jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasida aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot (YaHM) hajmi 15249,4 ming so'mni, Andijon (16564,0), Buxoro (22975,6), Jizzax (18596,0), Qashqadaryo (14372,6), Navoiy (63832,1), Namangan (13864,4), Samarqand (15323,2), Surxondaryo (12561,6), Sirdaryo (20433,5), Toshkent (31499,2), Farg'ona (14219,1), Xorazm (16465,7), Toshkent shahrida (50675,3) ming so'm tashkil etgan. Bundan ko'rinish turibdiki, eng yuqori aholi jon boshiga YaHM hajmi Novoiy viloyati va Toshkent shahri hissalariga to'g'ri kelgan.

Agar jahon amaliyotida aholi turmush darajasini baholashning asosiy ko'rsatkichlaridan biri bu – aholi jon boshiga YaIM (YaHM) hajmi bo'ladigan bo'lsa, mamlakatimiz bo'yicha yuqoridagi ko'rsatkichni tarkibiy tahlil qilish lozim bo'ladi. Chunki, aholi jon boshiga YaIM (YaHM) hajmi to'g'ridan-to'g'ri YaIM (YaHM) hajmiga aholi sonining nisbati olish orqali to'liq baholab bo'lmaydi.

Bunda boshqa omillar bo'yicha taqqosmala tahlillar asosida qo'shimcha baholash lozim. Xususan, hududlar bo'yicha YaHM hajmi va aholi zichligi o'rtasidagi tafavutlarni ham hisobga olish maqsadga muvofiq.

### 1-jadval

#### 2022-yilda O'zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari<sup>3</sup>

Hududlar	Yalpi ichki (hududiy) mahsulot hajmi, mlrd. so'm			1 kv.km ga to'g'ri keladigan aholi soni (yil boshiga)		
	2002	2012	2022	2002	2012	2022
<b>O'zbekiston Res.</b>	7 450,2	127 590,2	888 341,7	56	66	79
<b>Qoraqalpog'iston Res.</b>	214,3	3 561,6	29 925,4	9	10	12
<b>Andijon</b>	546,3	7 623,8	54 464,0	535	631	756
<b>Buxoro</b>	442,8	7 133,2	45 797,3	36	42	49
<b>Jizzax</b>	209,4	3 773,5	27 140,8	47	56	68
<b>Qashqadaryo</b>	559,8	10 872,1	49 520,8	79	97	119
<b>Navoiy</b>	380,9	6 528,8	66 685,4	7	8	9
<b>Namangan</b>	364,9	5 924,1	41 098,2	268	325	394
<b>Samarqand</b>	580,6	9 954,5	62 440,3	164	198	240
<b>Surxondaryo</b>	395,1	6 436,4	34 858,5	90	110	137
<b>Sirdaryo</b>	175,5	2 936,1	18 136,8	153	173	206
<b>Toshkent</b>	776,1	12 782,3	93 433,1	156	175	194
<b>Farg'ona</b>	727,2	9 113,0	55 972,1	407	485	577
<b>Xorazm</b>	283,5	4 793,4	31 963,1	225	269	318
<b>Toshkent sh.</b>	871,0	16 681,2	147 414,6	6 455	6 914	6 379

Tahlillarga ko'ra, 2022-yil ma'lumotlari bo'yicha mamlakatimizda yuqori YaHM hajmiga ega bo'lgan hududlarga Toshkent shahri 147414,6 mlrd. so'm, Toshkent 93 433,1 mlrd. so'm, Navoiy 66 685,4 mlrd. so'm, Samarqand 62440,3

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari. <https://stat.uz>

mlrd. so'm, Farg'ona 55972,1 mlrd. so'm, Andijon 54464,0 mlrd. so'm va Qashqadaryo 49520,8 mlrd. so'm bilan kirgan bo'lsa, 2022-yil boshiga eng ko'p aholining zinch joylashuvi ya'ni, 1 kv.km ga to'g'ri keladigan aholi soni bo'yicha Buxoro 756 nafar, Xorazm (577), Samarqand (394), Toshkent shahri (318), Surxondaryo (240), Toshkent (206) va Farg'ona (194) viloyatlari yetakchilik qilmoqda (1-jadval).

Bundan tashqari, doimiy aholi soni (yil boshiga) ko'pligi bo'yicha Samarqand viloyati 4031,3 ming kishi bilan yetakchilik qilsa, Farg'onada 3896,40 ming kishi, Qashqadaryoda 3408,3 ming kishi, Andijon 3253,5 ming kishi, Toshkentda 2939,7 ming kishi, Toshkent shahrida 2862,4 ming kishi, Namanganda 2931,1 ming kishi va Surxondaryo 2743,2 ming kishi istiqomat qiladi.

## 2-jadval

### **O'zbekiston Respublikasining qiyosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari<sup>2</sup>, foizda**

Hududlar	YaIM hajmida YaHM hajmining ulushi			Doimiy aholi sonida hudud aholisining ulushi		
	2002	2012	2022	2002	2012	2022
<b>O'zbekiston Res.</b>	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
<b>Qoraqalpog'iston Res.</b>	2,9	2,8	3,4	6,1	5,7	5,5
<b>Andijon</b>	7,3	6,0	6,1	8,9	9,2	9,2
<b>Buxoro</b>	5,9	5,6	5,2	5,8	5,8	5,6
<b>Jizzax</b>	2,8	3,0	3,1	4,0	4,0	4,1
<b>Qashqadaryo</b>	7,5	8,5	5,6	9,0	9,4	9,7
<b>Navoiy</b>	5,1	5,1	7,5	3,2	3,0	2,9
<b>Namangan</b>	4,9	4,6	4,6	7,9	8,2	8,3
<b>Samarqand</b>	7,8	7,8	7,0	10,9	11,3	11,4
<b>Surxondaryo</b>	5,3	5,0	3,9	7,2	7,5	7,8
<b>Sirdaryo</b>	2,4	2,3	2,0	2,6	2,5	2,5
<b>Toshkent</b>	10,4	10,0	10,5	9,5	9,0	8,3
<b>Farg'ona</b>	9,8	7,1	6,3	10,9	11,1	11,0
<b>Xorazm</b>	3,8	3,8	3,6	5,5	5,5	5,5
<b>Toshkent sh.</b>	11,7	13,1	16,6	8,5	7,8	8,1

2-jadval ma'lumotlaridan ham ko'rinish turibdiki, respublika hududlarida YaHM hajmi va hududdagi doimiy yashovchi aholi soni bir-biriga nomutanosib. Buni baholash uchun 2002, 2012 va 2022-yillar davomidagi YaIM hajmida YaHM hajmining ulushi bilan doimiy aholi sonida hudud aholisining ulushining farqlarini quyidagi formula orqali aniqlash lozim.

$$D_i = \frac{GDP_i}{GRP_i} \cdot 100 - \frac{PR_i}{RA_i} \cdot 100$$

bu yerda:  $D_i$  – YaIM hajmida YaHM hajmining ulushi bilan doimiy aholi sonida hudud aholisining ulushining farq;

$GDP_i$  – YaIM hajmi;

$GRP_i$  – YaHM hajmi;

$PR_i$  – doimiy aholi soni;

$RA_i$  – hudud aholisi soni.

Tahlillarga ko'ra, YaIM hajmida YaHM hajmining ulushi bilan doimiy aholi sonida hudud aholisining ulushining farq variatsion kengligi -3,7:5,6 oralig'iga tengligini ko'rsatdi. Xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasida (-2,8), Andijon (-2,6), Buxoro (-0,2), Jizzax (-1,1), Qashqadaryo (-2,1), Navoiy (2,9), Namangan (-3,4), Samarqand (-3,7), Surxondaryo (-2,7), Sirdaryo (0,3), Toshkent (1,4), Farg'ona (-3,3), Xorazm (-1,8), Toshkent shahrida (5,6) tashkil etdi.

Ma'lumki, har qanday iqtisodiy jarayonni yanada rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish va uning samarasini oshirish uchun uni o'rghanish, tahlil qilish va baholash talab etiladi. Chunki, eng optimal strategiyani tanlash va qabul qilish aniq natijadir [8]. Bunda, iqtisodiy jarayonlarni ekonometrik tahlil qilishda ko'rsatkichlar bo'yicha keyingi davr uchun prognoz qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu kelajakdagi erishish mumkin bo'lgan natijalarni oldindan bilish imkonini beradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarning vaqt omili bo'yicha o'zgarishini prognozlashda odatda eksponensial trend modelidan foydalaniladi.

$$y = a_0 e^{a_1 t} + \varepsilon$$

bu yerda:  $y$  - kutilayotgan prognoz ko'rsatkich;

$t$  – vaqt omili;  $e$  (2,718) – natural logarifm asosi.

Tahlillarga ko'ra, 2022-yilda respublikada aholi jon boshiga yalpi ichki (hududiy) mahsulot hajmi 24919,7 ming so'm, o'sish sur'ati 103,5 foizni, aholi jon boshiga real umumiylar daromadlar 15979,3 ming so'm, o'sish sur'ati 107,5 foizni tashkil etgan (3-jadval).

### 3-jadval

#### Aholi turmush darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar<sup>4</sup>, ming so'm

Ko'rsatkich	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Aholi jon boshiga yalpi ichki (hududiy) mahsulot hajmi	4 285,2	5 069,3	6 074,2	7 072,2	8 020,1	9 802,1	12 945,7	15 863,8	17 688,5	21 149,2	24 919,7
Aholi jon boshiga yalpi ichki (hududiy) mahsulotning o'sish sur'ati, %	105,5	105,6	105,1	105,4	104,1	102,7	103,7	104,0	100,1	105,3	103,5
Aholi jon boshiga real umumiylar daromadlar	3267,8	3902,7	4472,0	5127,5	5887,9	6681,4	7767,0	9509,6	10734,3	13416,8	15979,3
Aholi jon boshiga umumiylar daromadlarining o'tgan yilga nisbatan real o'sish sur'ati, %	111,6	111,4	107,1	107,7	108,8	107,5	106,2	104,2	98,6	110,7	107,5

Eviews kompyuter dasturiy mahsulotidan foydalangan holda statistik ma'lumotlar asosida yoshlar bandligiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillarni aniqlash va uni yanada rivojlantirishni prognoz qilish maqsadida iqtisodiy faol aholi tarkibida band bo'lgan yoshlar ulushining quyidagi ijtimoiy-

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari. <https://stat.uz>

iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlariga bog'liqligining ekonometrik modeli tuzilgan: aholi jon boshiga YaIM o'sishi ( $x_1$ ), %; aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalarni o'zlashtirish darajasi ( $x_2$ ), %; yangi tashkil korxonalar soni ( $x_3$ ), birlik; 15-29 yoshdagi aholi soni ( $x_4$ ), nafar; o'rta maxsus ma'lumotli yoshlarning ulushi ( $x_5$ ), %; oliv ma'lumotli yoshlarning ulushi ( $x_6$ ), %; chet elga ketgan yoshlarning ulushi, ( $x_7$ ), %.

#### 4-jadval

#### Regressiya modelining asosiy xususiyatlari<sup>5</sup>

Erksiz o'zgaruvchi	Iqtisodiy faol aholi tarkibida ish bilan band yoshlarning ulushi	Hisoblangan ko'rsatkichlar	Jadval ko'rsatkichlari	Ahamiyatini aniqlash
<b>Erkli o'zgaruvchi</b>	Regressiya koeffitsienti	<b>t-Statistic</b>		
<b>Konstanta</b>	-126,58	-2,553018	2,132	Ahamiyatli
<b>x<sub>1</sub></b>	1,317594	2,498020		Ahamiyatli
<b>x<sub>2</sub></b>	0,034237	1,025930		Ahamiyatli emas
<b>x<sub>6</sub></b>	2,823898	3,220859		Ahamiyatli
<b>x<sub>7</sub></b>	-0,210041	-1,520337		Ahamiyatli emas
<b>R<sup>2</sup></b>	0,826233			
<b>F(R<sup>2</sup>)</b>		7,132245	4,53	Ahamiyatli
<b>DW</b>		2,527859	d <sub>L</sub> = 0,69; d <sub>U</sub> = 1,97	Ahamiyatli
<b>Tanlov hajmi</b>		n=11; 2010:2020		

Korrelyatsiya koeffitsientlari shuni ko'rsatdiki, oliv ma'lumotli yoshlarning ulushi (74%) va iqtisodiy o'sish indikatorlari (47%) yoshlar bandligi ko'rsatkichlariga ijobjiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, tahlillar shuni ko'rsatdiki, x<sub>3</sub> (yangi tashkil etilgan korxonalar soni), x<sub>4</sub> (yoshlar soni) va x<sub>5</sub> (o'rta maxsus ma'lumotli yoshlarning ulushi) omillari natijaga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi va ular o'rtasida multikollinearlik kuzatiladi. Shu munosabat bilan model faqat to'rtta omillardan foydalangan holda tuzilgan: x<sub>1</sub>, x<sub>2</sub>, x<sub>6</sub>, x<sub>7</sub>.

Bitta ildiz borligini tekshirish uchun kengaytirilgan Dikki-Fuller testi *u* dinamik qatorning statsionarligini ko'rsatdi, uning lagi 2 ga teng, bu sonli shaklda ko'p regressiyani tuzish uchun asos yaratdi:

$$y = -126,58 + 1,31 \cdot x_1 + 0,03 \cdot x_2 + 2,82 \cdot x_6 - 0,21 \cdot x_7$$

Ushbu model yoshlarning bandlik darajasidagi o'zgarishlarning 83 foizini tushuntiradi.

Styudent va Fisher mezonlariga ko'ra, regressiya koeffitsientlarining aksariyati va tenglamaning o'zi statistik ahamiyatga ega. Darbin-Uotson statistikasiga ko'ra qoldiqlarni avtokorrelyasiya mavjudligi uchun tekshirish bizga avtokorrelyasiya yo'q degan xulosaga kelishimizga imkon beradi, bu modelning sifati yuqori ekanligini tasdiqlashdan biri hisoblanadi. Butun model uchun  $H_0$  nol gipotezani qabul qilish ehtimoli 1,8% ni tashkil qiladi. O'rtacha taxminiy xato 2,4% qiymatga ega. Shunday qilib, muqobil gipotezani va

<sup>5</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

umuman modelning adekvatligini qabul qilish kerak degan xulosaga kelish mumkin.

Tenglama har bir omilning boshqalari o’zgarmagan holda natijador ko’rsatkichga miqdoriy ta’sirini aks ettiradi, ya’ni ish bilan band bo’lgan yoshlarning iqtisodiy faol aholi sonidagi ulushi: aholi jon boshiga YaIM darajasi 1% ga oshganda 1,31% ga oshadi; aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalarni o’zlashtirish sur’atlari 1%ga oshganda - 0.03%ga oshadi; oliy oliy ma’lumotli yoshlarning ulushi 1%ga oshganda - 2.82%ga oshadi; chet elga ketgan yoshlarning ulushi 1%ga oshganda, - 0.21%ga kamayadi.

Olingan model asosida prognoz qilish uchun model qoldiqlarining avtokorrelyasiyasi va geteroskedastikligi borligi (yo’qligi) uchun test o’tkazildi. Breush-Godfri testi 82,8% ehtimollik bilan avtokorrelyatsiya yo’qligini tasdiqlaydi. Breush-Pagan-Godfri testi shuni ko’rsatdiki, 45% ehtimollik bilan geteroskedastiklik yo’qligi haqidagi nol gipotezani qabul qilish mumkin. Va nihoyat, 67% ehtimollik bilan Gleyzer testi modelning gomoskedastikligi haqidagi nol gipotezani qabul qilish kerak degan xulosaga kelishimizga imkon beradi.

## **5-jadval**


### **Yoshlar mehnat bozorining prognoz ko’rsatkichlari O’zbekiston 2022-2026-yillarda, %<sup>6</sup>**

Yillar	Iqtisodiy faol aholi tarkibida band bo’lgan yoshlarning ulushi (u)	Aholi jon boshiga YaIMning o’sish sur’ati (x1)	Aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalarni o’zlashtirish darajasi (x2)	Oliy ma’lumotli yoshlarning foizi (x6)	Jami chet elga ketganlarning orasida chet elga ketgan yoshlarning ulushi,
2022	31,055	101,929	121,404	8,373	21,285
2023	31,094	101,581	122,925	8,414	19,712
2024	31,133	101,233	124,447	8,455	18,138
2025	31,173	100,885	125,969	8,495	16,565
2026	31,212	100,536	127,491	8,536	14,991

Prognoz ko’rsatkichlari shuni ko’rsatdiki, O’zbekistonda ish bilan band bo’lgan yoshlarning ulushi yildan-yilga oshib boradi, bu Respublika yoshlar mehnat bozori istiqbollarining ijobjiy dinamikasini tavsiflaydi (5-jadval).

Respublika mehnat bozorini rivojlantirishning innovatsion ssenariysi iqtisodiy o’sish sur’atlarini 100,5% ga va asosiy vositalarga investitsiyalarni 2026-yilga borib 127,5% ga oshirishni nazarda tutadi, bu holda ish bilan band bo’lgan yoshlarning iqtisodiy faol aholi tarkibidagi ulushi maksimal ko’rsatkichga ega bo’ladi, bu esa mehnat bozorini innovatsion iqtisodiyot sharoitida rivojlantirish uchun turtki bo’lib xizmat qiladi.

<sup>6</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



### **3-rasm. Yoshlar mehnat bozorini unga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillarga qarab rivojlantirish ssenariylari<sup>7</sup>**

Oliy ma'lumotli yoshlar sonining 20% ga ko'payishi va chet elga ketgan yoshlarning ulushi 2020-yilda 30,7 %dan 2026-yilda 15 %gacha pasayishi optimistik ssenariyda aks ettirilgan bo'lib, mamlakat hukumati tomonidan yangi ish o'rinalarini yaratish bo'yicha tub o'zgarishlarni qabul qilish zaruriyatini keltiradi, chunki bu yoshlar mehnat bozorida ishsizlikning yangi to'lqini va unga hamroh bo'lgan barcha salbiy jarayonlarning kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Ma'lumotlar panelining prognozli modelidan foydalangan holda olingan natijalarga ko'ra, 83% ehtimollik bilan 2026-yilga kelib iqtisodiy faol aholi tarkibida band bo'lgan yoshlar ulushi 31,2%ga yetmasligi, joriy ko'rsatkichlardan atigi 0,2% ga oshgani va bu rivojlangan mamlakatlardan respublika aholisining ijtimoiy-iqtisodiy kechikishini kuchaytirishi mumkinligi aniqlandi. Bu, o'z navbatida, mehnat bozoriga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillarni yumshatish bo'yicha strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab qiladi. Davlat hududida samarali yoshlar mehnat bozorini shakllantirish maqsadlariga davlat siyosati xizmat qiladi, uning muhim yo'nalishlaridan biri yoshlar bandligini samarali boshqarish bo'lishi kerak.

Shunday qilib, O'zbekistonning barqaror iqtisodiy o'sishi va innovatsion rivojlanishga o'tishini ta'minlaydigan samarali yoshlar mehnat bozorini shakllantirish mexanizmini takomillashtirishning asosiy masalasi bo'lib qolmoqda. Buning uchun, bizning fikrimizcha, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning o'zları yosh kadrlarni ishga qabul qilishdan, passiv strategiyadan rivojlanish strategiyasiga o'tishdan manfaatdor bo'lishi muhimdir. Korxonalarga imtiyozlar va yengiliklar berishning mavjud mexanizmiga o'zgartirishlar kiritish, yosh mutaxassislarni jalb qilishning ustuvorligini belgilash zarur, bu esa davlat moliyaviy yordami bilan qo'llab-quvvatlanadi. Bundan tashqari,

<sup>7</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

mehnat bozoriga ta'sir etuvchi omillar va tashqi va ichki mehnat migratsiyasi jarayonlarini muntazam ravishda tahliliy o'rganish muhim ahamiyatga ega. Yoshlar bandligi sohasida samarali davlat siyosatini shakllantirish pirovardida butun milliy iqtisodiyot samaradorligini oshiradi.

### **Xulosa va takliflar**

Fikrimizcha, mamlakatimizda iqtisodiy o'sish barqarorligini ta'minlashda aholini ish bilan bandlik darajasini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda quyidagilarni hisobga olish maqsadga muvofiq:

- yuqori daromadli qo'shimcha ish o'rinalarini tashkil etgan tadbirkorlik subyektlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish;
- real sektordagi korxonalarga (ijtimoiy obyekt) yo'naltirilayotgan ichki va tashqi investitsiyalarni maqsadli ishlatalishida jamoat nazoratchilagini kuchaytirish orqali ulardan foydalanish samaradorligini oshirish;
- aholining o'z-o'zini band qilish bo'yicha ajratilayotgan mikrokredit mablag'larini ta'minotchi tashkilotlarga emas, balki, aholining o'ziga naqd yoki bank plastik kartalariga o'tkazish amaliyotini joriy etish orqali uning samarasini oshirish;
- monopoliyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarini oshirish va sog'lom raqobatni ta'minlashga shart-sharoitlar yaratish;
- aholi turmush tarzini har tomonlama yaxshilash maqsadida olis hududlarda joylashgan ijtimoiy obyektlar shart-sharoitlarini yanada yaxshilash, jumladan ta'lim muassasalaridagi sharoitlarni yaxshilash lozim.

Yoshlarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradigan mexanizmlarni shakllantirish, bu birinchi navbatda, yoshlarning intellektual salohiyatini mustahkamlashni, ularning oliy, shuningdek, o'rta maxsus ma'lumot va kasb-hunar egallashi uchun sharoit yaratishni talab qiladi.

Investitsiyalarni qo'shimcha jalb qilish, mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiyotni moliyalashtirish uchun ajratiladigan byudjet mablag'laridan samarali foydalanish, respublikaning raqobatbardosh ustunliklaridan maksimal darajada foydalanish hisobiga ijtimoiy ishlab chiqarish hajmini va yangi tashkil etilayotgan korxonalar sonini yanada oshirish mumkin.

Intellektual va jismoniy mehnat bilan shug'ullanadigan yuqori malakali yoshlarning ish haqini oshirish, bu esa yosh avlodning boshqa mamlakatlarga migratsiyasini kamaytiradi.

O'rta va uzoq muddatlari prognozlarni amalga oshirish va ular asosida samarali davlat bandlik siyosatini shakllantirish maqsadida iqtisodiy va matematik modellashtirish usullaridan foydalangan holda yoshlar mehnat bozori ko'rsatkichlari dinamikasini har tomonlama tahlil qilish.

Mehnatga bo'lgan talabni oshirish mexanizmlarini takomillashtirish, bu yoshlar ishchi kuchiga kirganda, ayniqsa dastlabki ish paytida korrupsiyaga qarshi samarali choralarini talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda so'ngi yillarda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar natijasida oxirgi o'n yillikda aholi jon boshiga yalpi ichki (hududiy) mahsulot hajmi qariyb 20,6 mln. so'mga oshgan bo'lsa, shu davrda o'sish sur'ati o'rtacha 104,1 foizni tashkil etgan. Shuningdek, aholi jon boshiga real umumiy daromadlar 12,7 mln. so'mga oshgan bo'lsa, o'rtacha o'sish sur'ati 107,4 foizni tashkil etgan. Ta'kidlash joizki, bularning barchasi aholi turmush darajasining yaxshilanib borayotganligini ifodalaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. United Nations. World Population Prospects 2022: Summary of Results. United Nations New York, 2022, p.3. <https://www.un.org>
2. Ting Li., Yu Xie. The evolution of demographic methods // Social Science Research. Volume 107, September 2022, 102768. <https://doi.org/10.1016/j.ssresearch.2022.102768>
3. K.Rupinski, S.Berger, B.Klooster, A.Moreno-Koehler, N.Ibrahim, G.Dickie. PCR119 Who We Are Matters: Inclusive Demographic Data Collection in Patient-Centered Outcomes Research // Value in Health. Volume 25, Issue 12, Supplement, December 2022, Page S413 <https://doi.org/10.1016/j.jval.2022.09.2054>
4. Meidad Kissinger, Yuval Damari. Household metabolism: Integrating socio-economic characteristics and lifestyles on individual and national scales as a mean for advancing environmental management // Journal of Environmental Management. Volume 279, 1 February 2021, 111526 <https://doi.org/10.1016/j.jenvman.2020.111526>
5. Hafner K.A., Mayer-Foulkes D. Fertility, economic growth, and human development causal determinants of the developed lifestyle // Journal of Macroeconomics. Volume 38, Part A, December 2013, Pages 107-120 <https://doi.org/10.1016/j.jmacro.2013.04.001>
6. Huo Jie and et. Sustainable energy policy, socio-economic development, and ecological footprint: The economic significance of natural resources, population growth, and industrial development // Utilities Policy. Volume 81, April 2023, 101490 <https://doi.org/10.1016/j.jup.2023.101490>
7. Махмудов Н.М., Хомидов С.О., Джалилов А.А. Иқтисодий ўсиш моделлари. Ўқув қулланма. Т.: ТДИУ, 2015. 248 б.
8. Дониёрова Ф.А. Институциональная среда регулирования занятости молодёжи Узбекистана // Иқтисодиёт ва таълим. 2022. №6. С. 40-46. (08.00.00. №11).
9. Doniyorova F.A. Foreign experience in increasing employment and reducing youth unemployment // Economics and Innovative Technologies / 2021.Vol. Number 5. Article 5. (08.00.00; №10).
10. Дониёрова Ф.А. Стратегии поведения молодежи на современном рынке труда Узбекистана» // Biznes-Эксперт. 2020. 11-12(155-156)74-78 (08.00.00; №3).

11. Doniyorova F.A. Theoretical and methodological aspects of evaluation of brand loyalty of meat and meat product // Актуальные научные исследования в современном мире. Журнал Science. 2021. Выпуск 5 (73) №4. 8-14
12. Doniyorova F.A. Problems of employment and labor market in China // International journal of research management and business studies. 2019. Vol.6. Issue-2. Pp. 25-31.
13. Doniyorova F.A. Opportunities of use of personnel mobile services on the work of the labor market // Asian journal of technology and management research. 2019. Vol. 9 – Issue: 1 Pp 34-42
14. <https://stat.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy sayti.
15. <https://mehnat.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining rasmiy sayti.
16. <https://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.



# МЕХНАТ ИКТИСОДИЙТИ ВА ИНСОН КАПИТАЛИ

<https://laboreconomics.uz/>



## AHOLINI ISH BILAN BANDLIK VA ISHSIZLIK HOLATI TAHLILI

**Saidov Nurali Raximovich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
"Inson resurslarini boshqarish" kafedrasi katta o'qituvchisi

**DOI:** [https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2\\_iss1/a18](https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a18)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Respublika miqyosida aholining ish bilan bandlik va ishsizlik holati tahlili yoritilgan. Tahlillar natijasidan kelib chiqqan holda ishsizlikni kamaytirish va ish bilan bandlik darajasini oshirishga oid takliflar berilgan.

**Tayanch iboralar:** mehnat bozori, mehnat resurslari, ish bilan bandlik, ishsizlik

## АНАЛИЗ СОСТОЯНИЯ ЗАНЯТОСТИ И БЕЗРАБОТНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ

**Сайдов Нурали Рахимович**

ТГЭУ, Кафедра "Управление человеческими ресурсами"  
Старший преподаватель

**Аннотация:** В данной статье проводится анализ занятости и безработицы населения в масштабах республики. По результатам анализа внесены предложения по снижению безработицы и повышению уровня занятости населения.

**Ключевые слова:** рынок труда, трудовые ресурсы, занятость, безработица.

## ANALYSIS OF THE STATE OF EMPLOYMENT AND UNEMPLOYMENT OF THE POPULATION

**Saidov Nurali Rakhimovich**

TSUE, "Human resources management" department  
Senior teacher

**Abstract:** This article covers the analysis of employment and unemployment of the population on the scale of the Republic. Based on the results of the analysis, proposals were made to reduce unemployment and increase the level of employment

**Key words:** labor market, labor resources, employment, unemployment.

## **Kirish**

Aholini ish bilan ta'minlash va buning uchun ish o'rirlari sonini oshirish respublikamizda ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Iqtisodiy taraqqiyot, yalpi ichki mahsulotning o'sishi, aholining turmush tarzi va daromadlarini oshirishda aholining ish bilan bandligi muhim omil hisoblanadi.

Ish bilan bandlik darajasini oshishi ijtimoiy barqarorlik va faravonlikning oshishiga olib keladi. Ishsizlikning oshishi esa aholida daromadning uzilib qolishi, uy-joy, oziq-ovqat va sog'liqni saqlash kabi asosiy ehtiyojlarni qondirishni qiyinlashtiradi. Bu kambag'allikning oshishi va umumiy iqtisodiy faravonlikning pasayishiga olib kelishi mumkin.

Shu sababli ham ish bilan bandlik va ishsizlik holatlarini doimiy tahlil qilib borish zarur. Ushbu tahlillar mehnat bozori muammolarini hal qilish uchun tegishli strategiyalarni shakllantirishga yordam beradi.

Shuningdek, ish bilan bandlik va ishsizlikni tahlil qilish mehnat bozorida talab qilinadigan malakalarni aniqlashga yordam beradi. Ya'ni bunday tahlil ta'lif muassasalari uchun o'z dasturlarini mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirish, malaka va ish bilan ta'minlash imkoniyatlari o'rtasidagi yaxshi muvofiqlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Dunyo mamlakatlarida kompaniyalar inson resurslarini rejalashtirish, kengaytirish va investitsiyalar bo'yicha asosli qarorlar qabul qilish uchun ish bilan bandlik va ishsizlik ma'lumotlariga tayanadi.

Mehnat bozori sharoitlarini tushunish korxonalarga o'z mahsulotlari yoki xizmatlariga bo'lgan talabni baholashga va o'z faoliyatini mos ravishda moslashtirishga yordam beradi. Shu sababli doimiy ravishda ish bilan bandlik ishsizlikni tahlil qilib borish lozim.

## **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Ish bilan bandlik va ishsizlik bo'yicha bir nechta iqtisodchi olimlar o'z fikr va mulohazalarini bildirishgan.

Akademik Q.X.Abdurahmonovning tarifiga ko'ra ishsizlik – ijtimoiy-iqtisodiy voqeа hisoblanib, iqtisodiy faol, mehnat qilishga layoqatli va mehnat qilishni xohlaydigan aholi muayyan qismining tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishda ish bilan band bo'lmasligidir [1]

Ish bilan bandlik - bu fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish qonunga zid bo'lмаган faoliyati va mehnat daromadi hisoblanadi. [2]

S.Qurbanovning olib borgan tadqiqotlariga ko'ra: "Unumli bandlik – qaramog'ida bir va undan ortiq shaxslar bo'lgan, o'zi hamda qaramog'idagilarning har biri uchun belgilangan kambag'allik chegarasidan yuqori darajadagi iste'moli uchun yetarli daromad keltiradigan mehnat faoliyatidir." [3]

Tadqiqotchi olimlardan Y.Hyerman, R.Islam va A.Fosu o'z ilmiy tadqiqotlarida milliy iqtisodiyot uchun haqiqiy muammo ularning iqtisodiy o'sish jarayonida bandlik o'sishini ta'minlash qobiliyatining cheklanganligidir, deb ta'kidlashgan [4]

## **Tadqiqot metodologiyasi**

Ushbu maqsadga erishish uchun statistik ma'lumotlarni to'plash va taqqoslash usullaridan, olingan natijalarni umumlashtirish va asoslashda tahlil usullaridan foydalanildi. Ushbu metodlar maqolaning tahlil va natijalar qismida qo'llanilib, quyida xulosa qilishimizga yordam bergan.

### **Tahlil va natijalar**

Ish bilan bandlikni iqtisodiyotning quyidagi:

- qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi;
- sanoat;
- qurilish;
- ulgurji va chakana savdo;
- tashish va saqlash;
- yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar;
- axborot va aloqa;
- moliyaviy va sug'urta faoliyati;
- ko'chmas mulk bilan operatsiyalar;
- professional, ilmiy va texnik faoliyat
- ta'lif;
- sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish;
- san'at, ko'ngil ochish va dam olish kabi tarmoqlariga bo'lib o'rganish va tahlil qilish aniq va manzilli natijalarni aniqlashga xizmat qiladi. Shuningdek, tahlil uchun so'ngi kamida 5 yillik ma'lumotlar ham muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, anqlik darajasini oshirishda hududlar kesimida, demografik jihatdan yoshi, gender jihatdan ayollar va erkaklarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi. (1-jadval)

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rindaniki, Respublikada jami ish bilan bandlar soni 2017-yilda 13520,3 ming kishini tashkil etgan bo'lsa 2022-yilga kelib bu holat 13737,3 ming nafarni tashkil etgan. 2022-yilda iqtisodiyot tarmog'inining qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida jami bandlar 3429,6 ming nafar va 25% ulushni, sanoatda ish bilan bandlar 1823,0 ming nafar va 13,2% ulushni, qurilishda ish bilan bandlar 1325,9 ming nafar va 9,6% ulushni, ulgurji va chakana savdo esa 1543,5 ming nafar va 11,2%ni, tashish va saqlashda 635,4 ming nafarni va 4,6%ni, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 351,3 nafarni va 2,5%ni, axborot va aloqa 79,0 ming nafar va 0,5%dan kam ulushni, ta'limda esa 1244,6 ming nafar va 9%ni, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 663,6 ming nafarni va 4,8%ni va boshqa tarmoqlar 2299,1 ming nafarni va 16,7%ni tashkil etgan. Bundan tashqari iqtisodiyotning moliyaviy va sug'urta faoliyati, ko'chmas mulk bilan operatsiyalar, professional, ilmiy va texnik faoliyat, san'at, ko'ngil ochish va dam olish kabi tarmoqlarida ish bilan bandlarning ulushi jami ish bilan bandlar tarkibida 1,0%dan kam bo'lgan. Ushbu tarmoqda ish bilan bandlar ulushi 2017-yildan 2022-yilga qadar 1,0%dan oshmagan.

**1-jadval**


**Mehnat bilan band bo‘lgan aholi soni to‘g‘risida ma’lumot<sup>1</sup>**  
*(ming kishi)*

Iqtisodiyot tarmoqlari	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2022-yilda 2017-yilga nisbatan +/-
<b>Jami bandlar</b>	13520,3	13273,1	13541,1	13236,4	13538,9	13737,3	217,0
<i>Iqtisodiyot tarmoqlarida bandlik:</i>							
<b>qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi</b>	3 671,3	3 537,2	3 544,6	3 499,2	3414,7	3429,6	-241,7
<b>sanoat</b>	1 826,8	1 802,9	1 821,5	1 809,5	1863,2	1823,0	-3,8
<b>qurilish</b>	1 290,0	1 205,5	1 324,6	1 305,6	1350,8	1325,9	35,9
<b>ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va motosikllarni ta’mirlash</b>	1 480,2	1 401,8	1 436,4	1 405,4	1535,6	1543,5	63,3
<b>tashish va saqlash</b>	654,9	645,2	646,1	610,5	654,2	635,4	-19,5
<b>yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar</b>	313,3	301,9	315,3	302,8	341,1	351,3	38,0
<b>axborot va aloqa</b>	64,3	62,7	62,2	58,7	70,5	79,0	14,7
<b>moliyaviy va sug‘urta faoliyati</b>	72,0	73,5	75,8	72,5	70,4	70,9	-1,1
<b>ko‘chmas mulk bilan operatsiyalar</b>	69,3	66,7	62,4	53,4	63,2	62,8	-6,5
<b>professional, ilmiy va texnik faoliyat</b>	140,9	141,5	140,9	131,6	138,0	137,6	-3,3
<b>ta’lim</b>	1 106,6	1 111,7	1 134,4	1 158,2	1220,5	1244,6	138,0
<b>sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish</b>	602,6	604,0	616,7	669,5	650,8	663,6	61,0
<b>san‘at, ko‘ngil ochish va dam</b>	65,3	65,6	66,0	67,0	70,2	71,0	5,7

<sup>1</sup> O‘zR Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma’lumotlari

olish							
<b>boshqalar</b>	2 162,8	2 252,9	2 294,2	2 092,5	2095,7	2299,1	136,3

Yuqoridagi 1-jadvalni dinamik ko‘rinishda 2022-yildagi bandlar ulushini barcha tarmoqlar ulushida ko‘rib chiqamiz (1-rasm).



**1-rasm. 2022-yilda ish bilan bandlarning faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi<sup>2</sup>**

1-rasm ma’lumotlaridan ham ko‘rish mumkin-ki, qishloq, o’rmon va baliq xo’jaligida ish bilan bandlarning ulushi yuqori hisoblanadi.

Ish bilan banlik darajasining oshishi barcha ko‘rsatkichlar o’sishiga olib keladi. Iqtisodiyotning o’sishi, aholi turmush tarzi va daromadlariga salbiy ta’sir qiluvchi omil mavjud bo‘lib, ulardan biri ishsizlikdir.

Ihsizlar iqtisodiy faol, mehnat qilishga layoqatlari va mehnat qilishni xohlaydigan aholi muayyan qismining tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatishda ish bilan band bo‘lmasligi asosida yuzaga keladi. Bu holat aholining daromadsiz qolishi, turmush tarzining pasayishi va oqibatda qambag‘allikka olib keladi. Shu sababli ihsizlar sonini aniqlash, ishga joylashtirishga muhtoj aholi sonini viloyat va shaharlar kesimida chuqur tahlil qilish lozim (2-jadval).


<sup>2</sup> O’zR Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma’lumotlari

**2-jadval**  
**Ishga joylashtirishga muhtoj mehnat bilan band bo’lmagan aholi soni  
 to’g’risida ma’lumot**

*(ming kishi)*

Hududlar	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2022 yilda 2017 yilga nisbatan +/-
O’zbekiston Respublikasi	837,0	1 368,6	1 335,3	1 561,0	1 441,8	1 334,0	497,0
Qoraqalpog’iston Respublikasi	41,6	74,3	70,9	82,6	78,9	72,5	30,9
<i>viloyatlar:</i>							
Andijon	84,9	134,8	129,4	150,6	138,8	130,8	45,9
Buxoro	48,1	77,6	78,3	93,9	84,9	76,2	28,1
Jizzax	24,4	52,8	54,1	65,8	61,9	56,5	32,1
Qashqadaryo	78,6	131,3	125,3	146,9	137,0	124,0	45,4
Navoiy	23,3	38,6	38,2	41,5	39,8	36,2	12,9
Namangan	64,1	111,1	110,1	128,5	119,3	108,0	43,9
Samarqand	106,7	157,3	148,4	174,6	158,4	153,4	46,7
Surxandaryo	71,0	105,3	104,6	122,8	113,9	102,3	31,3
Sirdaryo	18,8	36,5	35,8	41,2	38,0	34,8	16,0
Toshkent	71,3	122,1	120,6	138,6	126,5	116,9	45,6
Farg’ona	104,8	155,6	152,2	177,1	165,5	153,6	48,8
Xorazm	44,0	74,2	73,5	88,1	80,0	73,8	29,8
Toshkent sh.	55,4	97,1	93,9	108,8	98,9	95,0	39,6

2-jadval ma’lumotlaridan ko’rinadiki, 2017-yilda ishga joylashishga muhtoj aholi soni 837,0 ming nafarni tashkil etgan. 2022-yilga kelib 2017-yilga nisbatan ishga muhtojlar soni 497,0 nafarga yoki 59%ga oshgan. Lekin ba’zi yillarda mehnat bilan band bo’lmaganlar soni o’tgan yillarga nisbatan kam bo’lgan. (2-rasm)



**2-rasm. Ishga joylashtirishga muhtoj aholi soni dinamikasi<sup>3</sup>  
(ming kishi)**

Yuqoridagi chizma ma'lumotlaridan ham ko'rish mumkin-ki, 2019, 2021 va 2022-yillarda ishga muhtojlar soni kamaygan. Qolgan yillarda esa aholi soni o'sishi va ish o'rinalariga bo'lgan talabdan kelib chiqqan holda ishga muhtojlar soni oshib borgan.

**Xulosa va takliflar**

Xulosa qilib aytish mumkin-ki, 2018 va 2020-yillarda ishsizlar soni oshgan bo'lsa-da, 2019 va 2021, 2022-yillarda ishsizlar soni kamaygan. Ish bilan bandlikning eng yuqori ulushi Qishloq xo'jaligi va ulgurji savdoga to'g'ri kelgan. Respublikada jami ish bilan bandlar soni 2017-yilda 13520,3 ming kishini tashkil etgan bo'lsa 2022-yilga kelib bu holat 13737,3 ming nafarni tashkil etgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- qishloq xo'jaligida ish bilan bandlar soni yuqori ekanligini inobatga olib har bir tuman kesimida konsalting va agrokonsalting xizmatlarini joriy etish lozim. Konsalting xizmatlari korxona va tashkilotlarning doimiy daromad topib barqaror faoliyat yuritishi uchun professional maslahat bera oladi va natijada ish o'rinalari soni oshadi;
- hududlarda aholi uchun barqaror faoliyat yuritadigan davlat xususiy sherikchiligi asosidagi korxona va tashkilotlar sonini oshirish lozim;
- investitsiyalarni jalb qilgan holda har bir tuman kesimida barqaror faoliyat yuritadigan va doimiy faol korxona va tashkilotlarni barpo etish lozim;
- korxona va tashkilotlar nofaolligini oldini olish maqsadida ishbilarmonlik muhitini rivojlantirish lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Q.Abdurahmonov. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot/Darslik. - Т.: “FAN”, 2019. -В. 365.
2. Экономика и социология труда. Теория и практика: учебник для бакалавров / под ред. В. М. Масловой. – М. : Издательство «Юрайт», 2015. – 539 с
3. С.Курбонов. Унумли бандлик тақчиллиги даражасини баҳолашнинг камбағалликни қисқартиришдаги зарурати // "IQTISODIYOT VA TURIZM" xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali №2(10) 2023, 125-135 бетлар
4. Herman, E. (2014) Working poverty in the European Union and its main determinants: An empirical analysis. Inz. Ekonomika. 2014, 25, 427–436.
5. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) – O'zR Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari

<sup>3</sup> O'zR Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari

**TASHKENT STATE  
UNIVERSITY OF ECONOMICS**



# **Tashkent state university of economics**



+998 99 881 86 98



ilmiy maktab@gmail.com



Tashkent, Uzbekistan



[www.laboreconomics.uz](http://www.laboreconomics.uz)